

C.M. Nogbin



Tidig
källan

YURIY MARKOVICH
NAGIBIN



**Tiniq
ko'llar**

Qissa va hikoyalar

TOSHKENT
«O'ZBEKISTON»
2021

Rus tilidan Humoyun AKBAROV tarjimasi

Nagibin, Yurly Markovich

N 13 Tiniq ko'llar [Matn]: qissa va hikoyalar / Y.M. Nagibin. Rus tilidan H.Akbarov tarjimalari. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2021. – 176 b.

ISBN 978-9943-7605-9-2

Atoqli rus yozuvchisi, bir qator hikoya va qissalar, kinossenariyalar va memuarlar muallifi Yurly Markovich Nagibin asarlari hayotiyligi bilan bugungi kunda ham kitobxonlar qalbiga kirib bormoqda. Ay-tish joizki, muallif barcha yoshdagi o'quvchilar uchun samimiy ruhda ko'plab asarlar yaratgan.

Sizga taqdim etilayotgan ushbu kitobga kiritilgan qissa va hikoyalarda yozuvchi bolalik xotiralarini tasvirlash orqali o'sha davr manzaralarini chizadi. Uning qahramonlari – sodda, samimiy, vatanparvar, fidoyi bolalar va kattalar bo'lib, aksariyati insoniy fazilatlarga boyligi uchun ham bir-birlariga suyanadi va birlashgan – o'zar, degan aqidaga sodiq qolgan holda, mashaqqatli turmush dovonlarini oshib o'tadi.

Yozuvchi asarlari ramzlarga boy, ayniqsa, tabiat manzaralari va hodisalari sizda unutilmas taassurotlar qoldiradi, degan umiddamiz.

UO'K 821.161.1-32
KBK 84(2Ros-Rus)

ISBN 978-9943-7605-9-2

© Y.M. Nagibin, 2021
© H. Akbarov (tarj.), 2021
© «O'ZBEKİSTON» NMIU, 2021



KOMAROV

Bulut suzib quyosh yuzini to'sganda ko'rfazning tiniq, moviy suvi xira ko'kimitir va qo'rg'oshinrang aralash tus oldi. Sohildan besh qadamcha beridagi to'lqinlar silliqlagan katta tosh ham qoraydi va undan suv tomonga mayin qora soya cho'zildi. To'lqin yuzasida limillagan soya goh qisqaradi, goh cho'ziladi, xuddi tosh ustida qora tyulenchcha raqs tushayotganga o'xshaydi.

— Komarov, bas qil! Eshityapsanmi, senga aytyapman, Komarov!

Ortimdan ayol kishining chiyillagan ovozi bir necha marta takrorlandi. U har safar qandaydir Komarovni tartibga chaqiraverdi. «Tinib-tinchimas erkak, — o'yladim Komarov haqida. — Bu yerda qanday to'polon qilyapti?» Ammo o'girilib qarashga erindim, shu lahma katta tosh tomonda yana qora tyulenchaning raqsi diqqatimni tortdi. Manzara g'ayritabiiy tus oldi: unga qanchalik tikilganim sari bu oddiy soya parchasi ekanini tasavvur qiyinlashib borardi.

— Komarov, oxirgi marta aytyapman, Rijikni o'z holiga qo'y! — yana yelkam ortidan chiyillagan ovoz eshitildi. — Tur o'mnidan, Komarov!

— Men hech narsa qilganim yo'q-ku! — bo'g'iq, norozi ohangdag'i ovoz eshitildi.

Ortimga o'girildim va qumda iz qoldirgan tangaday nuqtaga ko'zim tushdi. Mening yonimda to'rt yashar bolakay tik turar, agar qulog'iga tushib turgan baland oq soyabonni hisobga olmasa, qipyalang'och. Shlyapa ostidan shisha rangli ikkita ko'z biroz hayratga tushib boqardi. Komarov ko'rinishidan burni puchuq, sepkil bosgan yuzidan juda dog'uli ekani seziladi. Komarovning boshida yashil ipak ko'ylakli, bo'ydor, semiz ayol egilib turibdi. Biroz qimirlasa ham, qattiq ipak charsillab, elektr zarralari sochiladi. Tarbiyachining orqasida kuraklarining o'tkir burchagini chiqarib yelkalarini quyoshga toblagancha, yigirma-yigirma besh nafarcha Komarovning tengdoshlari qatorlashib yotibdi.

– Nima uchun Rijikning ustidan bosib o'tding! – jahl bilan xitob qildi tarbiyachi va uning chiyillagan ovoziga mos ravishda ipakning charsillagan zarralari sochildi.

– Nega o'zi o'likday yotibdi? – javob berdi Komarov.

– Nega o'rtoqlaring ko'ziga qum sepdiňg?

– Kim sealdi? Men to'pladim, xolos... Bu shamol.

Komarov bergen javobning aqlli, asosli ekani tarbiyachini boshi berk ko'chaga kiritib qo'ydi.

– Tarbiyasi og'ir bola! – xo'rsindi u.

– Men og'irmasman, – e'tiroz bildirdi Komarov va qorniga shapatiladi. – Men tushlik qilgandan keyin og'ir bo'laman.

Oq xalat kiygan, yengiga hamshiralik bog'ichi boylangan yoshgina juvon kelib, so'zlamay, qo'lsoatiga ishora qildi.

– Turdik! Turdik! – qichqirdi tarbiyachi kurk tovuqdek qanotini qoqib, kalta, bo'liq qo'llarini silkitib, atrofida chinakam ohanrabo bo'ronini ko'tardi. – Kiyinib, saflaning!

Havoda chit matolarning shitirlashi eshitildi – kaltagina bolalar tursilari, shippaklardan qum to'kildi va birinchi juftliklar saflashib turdi, faqat yalang'och va xomush Komarovgina kiyimiga qo'l tekizmadi.

– Kim cho'miladi? – qovog'i osilib g'o'ldiradi u o'ziga gapira-yotgandek.

– Nima bo'Igandayam, sen cho'milmaysan! – gapni davom ettirdi tarbiyachi, lekin, aftidan, Komarov shunchaki osongina gapga kirmasligini bilgandek, qo'shib qo'yishni lozim topdi: – Hamshira cho'milishni ma'n etdi: suv juda sovuq ekan.

– Bolalar shamollab qolishi mumkinmi? – jiddiy so'radi Komarov.

– Gapirishni bas qil, kiyin!

Komarov achchiqlanib tursisini oldi, biroq negadir birdan kiymadi, avval safdan joy egalladi va shundan so'nggina tursidan doira yasab, unga oyog'ini suqdi.

– Ketdik!

Tarbiyachi kaftlarini bir-biriga urdi, saf to'lqinlandi, qimirlandi va o'sha yerning o'zida aralash-quralash bo'lib ketdi. Chiyillash, qiy-chuv, hayajon. Nima bo'ldi? Komarov qoqinib ketdi, o'zidan oldingi safdag'i bolani turtib yiqitdi, u ham, o'z navbatida, oldidagi o'rtog'ini

itarib yubordi. Tarbiyachi qayta tartib o'rnatdi. Yangi guruuh va yangi ur-yiqit.

- Sizga nima bo'ldi, bolalar?
- Komarov yiqilyapti...
- Komarov safdan chiq!

Komarov buyruqni sidqidildan bajarishga urindi, g'alati, qisqa qadam tashlab qumga yiqildi.

- Senga nima bo'ldi, Komarov?
- Ahvolim yaxshimas, – dedi Komarov, o'rnidan turdi, qadam bosdi va yana yiqildi.
- Unga nima bo'ldi? – tarbiyachining ovozi xavotirli chiyilladi. – Nahotki, oftob urgan bo'lsa?

Komarovning o'rtoqlari quvonchdan qiqirlab kulib yuborishdi, keyin ulardan biri shunday dedi:

- Nina Pavlovna, u ikkita oyog'iniyam tursisining bitta teshigiga solibdi.


Ehtimol, tarbiyachining bolalari yo'qdir. U esankirab Komarovga qaradi, avvaliga qanday yordam berishni bilmadi, keyin egildi va no'noqlarcha Komarovning oyog'ini tursidan chiqardi.

- Nega bunday qilding? – dedi u qaddini rostlab.
- Shunday qiziqroq, – xotirjam va ko'ngli ochiq tushuntirdi Komarov hamda yangi fikr tug'ilganidan quvonib so'radi: – Nina Pavlovna, odam nima degani?
- Bilmayman, – asabiylashib qo'llini siltadi tarbiyachi va shunda o'yladimki, u to'g'ri aytди.

Guruuh yo'lida davom etdi va tez-orada sohildagi qarag'ayzor ora-siga singib ketdi.

Oradan bir necha kun o'tgach, yana Komarovga duch keldim. Men dengizdan tik qumloq yo'l bo'ylab qaytayotgandim. Yo'lning o'ng tarafiga uzun panjara tortilgan, undan so'ng qarag'ayzor qoplagan tik nishablik boshlanadi; chap tomonda esa urushdan keyin qarovsiz qolgan hudud, hozirgacha obod qilinmagandi: qirqoyoqlar va odatdagiga o'xshamagan qandaydir qirqbo'g'inlar qoplagan, achiqimti hid anqiysi.

Men yog'och panjara qashisiga kelganimda, bitta taxtacha yonga surilib, katta tirqishdan kichkina, o't-alaflardan tirmalgan shippak kiygan oq oyoq ko'rindi, keyin oshpaz qalpog'iga o'xshash shlyapa,



ostob urgan kir qo'l va nihoyat, cho'milish havzasi sohilidagi eski tanishning butun jussasi paydo bo'ldi. U panjaradan chiqdi-yu, chor-atrofga ko'z tashladi – uning sergak boqqanini his etdim va o'zimni unga e'tibor bermagandek tutdim. Shunda u taxtachani yana tartib bilan joyiga surib qo'ydi-da, uzoq, tantanavor xandon otdi. Menda hech qanday shubha qolmadi: Komarov qochib chiqibdi.

O'sha paydayoq Komarovning qo'lidan tutib tarbiyachining qoshiga olib bormaganimga afsus chekaman. Katta ko'chaga o'tish ta-qiqlangan turli belgilari qo'yilgan, ammo-lekin Komarovni hech narsa qiziqtirmaydi, qolaversa, yonida men borman. To'g'ri, tarbiyachi birmuncha vaqt xavotir olar, biroq... qilmishiga yarasha-da.

Men har kuni bolalar bog'chasi yonidan bir necha marta o'taman, ishonchim komilki, bu tarbiyachi tabiat olamiga qiziqmaydi. U tikanli qarag'ay nihollari, bog'cha burchagini qoplagan butazor, yovvoyi xo'jag'at va parmanchaklarni xushlamaydi. Kattagina hududda bolalar uchun bog'chaning o'rtaсидаги kichkinagini tekis maydonchani asosiy va ishonchli joy deb sanaydi. Bolalardan birontasi qo'ng'iz quvib yoki shunchaki qiziqib, o'sha hududdan chiqib ketsa, qo'rqinchli ovoz qochoqning ortidan quvib yetadi. Albatta, unga bolalarni shunday saqlash qulayroq, lekin bu menga tarbiyachi o'z vazifasini jo'nlashtirib qo'yganday tuyuladi. «Komarov ozodlikda yura qolsin, – o'yladim men va unga ozodlik berdim. – Qani, u nima qilar ekan?»

Pastlikda, dengiz bo'yidagi katta yo'l tuyulishida yengil va yuk mashinalari, odam to'la avtobuslar signal chalib, motosikllar tarillab o'tardi, ammo shaharlik Komarov odatdagisi shovqinlarga e'tibor bermadidi. U tog'dan uchib tushayotgan velopoygachilarning egarni ushlab, yo'lning o'ydim-chuqurlaridan ogohlantirib qo'ng'iroq chalib kelayotganiga ham qaramadi...

Komarovga tabiatdagi ajoyibotlar qiziqarli, tepalikka chiqib oldi. Uni har qadamda g'aroyib hodisalar kutardi. Mana, u qandaydir taxtachani bosgandi, uning tagidan yashil qarag'ay g'uddasi uchib chiqdi. Bir yarim metrlar chamasi uchib borgach, yo'l chetiga, tobulg'i ustiga tushdi va sal qimirlab, joylashib oldi. Bu butun, kattagina, qattiq g'udda ediki, bunaqasini Komarov hech qachon ko'rmagan, chunki g'uddalar shoxlarda turadi, yaproqlar orasidan ajratib bo'lmaydi.

Qolaversa, u sakradi! Komarov yengil odimlab, pisib g'uddaga yaqinlashdi va kafti bilan birdan bosdi. Qo'lga tushdi-ku! U g'uddaning g'adir-budur qattiq po'stini siladi, lekin bu kichkina yashil yumaloq narsa sirini ochmadi.

— Sen hali sakrashniyam bilasanmi? — so'radi Komarov.

Javob bo'Imagach, u g'uddani sinab ko'rmoqchi bo'ldi: uni yerga qo'ydi-da, teskari o'girilib turdi. Yo'q, g'udda joyida qimirlamay turibdi, qochishga zarracha harakat qilgani yo'q. Shunda Komarov g'uddani kaftlari orasiga olib siqdi va shu damda tobulg'i tagidagi yana ikkita shunday g'uddani ko'rib qoldi. Ularni ham olmoqchi bo'lib cho'zilgandiki, ayanchli qichqirib qo'lini tortib oldi: qo'li qichitqio'tga tegib ketdi, g'uddalar tig'day tikanlar orasiga yashirib olibdi. Komarov qo'lini artdi, achishgan joyini tili bilan yaladi va tikan qayerda ekanini bilish uchun sinchiklab qarab, yana g'uddaga qo'l cho'zdi. Mana, u gulga qo'l tekkizdi, burushgan bargni sekin surdi, shu yerda ko'zdan panada qolgan posbon yana uning qo'liga nish sanchdi... Bu safar Komarov faqat peshonasini tirishtirdi, xolos. U butoqning tagiga egildi, ehtiyoj bo'lib qichitqio'tning ildizi-ga yaqin tikansiz bandidan tutib, qattiq tortib, ildizi bilan sug'irib oldi. Banddan tortganda tikanlar bir tomon surilib qo'lga sanchilmadi. Bu haqiqiy kashfiyat edi, Komarov osongina g'uddalarni terib oldi. Uchtasi kaftiga sig'madi va bittasini qariqizning tagiga yashirib qo'ydi. So'ngra qichitqio'tni silkitib ko'chadan yuqoriga qarab yurib ketdi.

Qum ustidan yurib borarkan, yo'lakdan bo'rtib chiqib turgan katta toshlar yo'lini to'sib chiqardi. Komarov har bir toshni aylanib o'tdi. Bir safar silliq toshning ustidan yurgandi sirg'anib ketdi. Komarov hech kimda haqi qolib ketishini istamasdi: u to'xtadi va toshni qichitqio't bilan yaxshilab savaladi. Hali jazolashni tugatmay turib, yuqoridan qaydandir sakrayotgan buzoqchaga ko'zi tushdi. Komarov qotib qoldi, keyin butun kuchini yig'ib qo'llarini ishga solib yuqoriga intildi.

Nishablikning taxminan yarmiga borganda kenggina o'yiq joy bo'lib, o'ng tomondagi qarag'ayzor kichikroq yalanglikka tutashgan ekan. Buzoqcha o'sha yerda tog'terakning to'ngagiga bog'lab qo'yilibdi. Mana shu yalanglikda ikkita bolakay uchrashdi: odamzod o'g'li va sarg'ish novvoscha.

Novvoscha necha oylik bo'lsa, Komarov ham shuncha yosha kirgani uchun ularni tengdosh deb hisoblasa bo'ladi. Novvoscha Komarovning kimligini yaxshi biladi, biroq Komarov novvoschani deyarli bilmaydi. Novvoscha bolaga yuvosh va e'tiborsiz nazar tashladi; Komarov novvoschaga hayratlanib, qiziqib, do'stlashmoqchi bo'lib tikildi.

– Sen kimsan? – so'radi Komarov.

Novvoscha jim, yumshoq lablarini qimirlatib, saqich chaynagandy kavsh qaytardi. Shunda Komarov o'ziga o'zi javob berdi:

– Sen katta itsan.

U «katta it»ni silash uchun qo'lini cho'zdi, ammo-lekin novvoscha o'zini silatishlarini xohlamadi, balki u Komarovning qo'lidagi qichitqio'tning poyasidan cho'chigandir, uni hovliga haydab solgan bekaning qo'lidagi xipchinga o'xshatgandir. U ortiga tisarildi, arqonini tarang tortdi, keyin bir tarafga sakrab qochdi.

– Senga nima bo'ldi? – ta'na qildi Komarov va buzoqcha tomonga qadam bosdi. Biroq ortga tisarilish buzoqchaning joniga tegdi, u ikkita shox chiqadigan o'rni bo'rtib turgan, kechki shabnamdan nam tortgan yungdor, do'ngpeshona boshini egib, bo'ynini cho'zdi-da, tahdidli alpozda Komarov tomonga intildi.

Bolaning yuzlari azob chekkanday qiyshayib ketdi. u, umuman, janjal chiqishini istamasdi. Lekin bu odam bolasining fe'lida tap tortmaslarga xos nimadir bor ediki, u ham silliq peshonasi yuqorisidagi ikkita bo'rtib turgan joyini to'g'rilib boshini egdi, ko'zlarini qisib shaylandi, men hay-haylashimga qaramay, novvoscha peshonasiga peshona tiramoqchi bo'lib tashlandi. Novvoscha jang qilishni xohlamadi. Ortiga chekinib, liqillab turgan to'g'ri oyoqlarini burib, ortiga qayrildi-da, qochdi. Komarov g'alaba qichqirig'i bilan uning ortidan quvishga tushdi.

Arqon buzoqcha aylanib qochishi mumkin bo'lgan darajada uzun edi, u Komarovdan tezroq chopardi, shuning uchun ikkinchi aylanishda birdan oldida izidan quvayotganning yelkasini ko'rdi. Komarov shu lahzada himoyasiz edi, ammo novvoscha imkoniyatdan foydalanib qolishning o'rniga ruhan cho'kdi va oldidan ham, ortidan ham ta'qib qiladigan raqibga qarshi chiqolmasligini his qildi. U boshini egib to'xtadi, katta buqalar singari chuqur va qayg'uli xo'rsindida, labida uzun tayoqchani paypaslab, so'nggi hukmni kuta boshladi.

Komarov raqib bo'ysunganiga ishonch hosil qilguncha yana bir davra aylandi. Shundan so'ng u novvoschaga dadil yaqinlashdi, uning terlagan yonboshiga shapatiladi, toshday qattiq peshonasini, seskanib turgan ko'zlar ostidagi yunglar, yumshoq, cho'ziluvchan burnini siladi.

Buzoqcha g'olibning barcha mehribonchiliklariga chidab, chuqur nafas oldi.

— Nima, qo'rqtyapsanmi? — so'radi Komarov, shu bilan uning o'ch olishi tugadi, hatto buzoqchaga tasalli berib, nasihat qilib qo'shib qo'ydi: — Men ham qo'rqedim, ammo endi qo'rqiymayman. — U hiylakor ko'zini qisdi. — Sen katta itmassan. Yo'-o'q! Sen kichkina mol ekansan.

— Mo'-o'? — g'amgin ovoz berdi buzoqcha, endi hech qachon qaysarlik qilmasligini bildirib, Komarovni ishontirdi.

— Xayr, — dedi Komarov.

U yana yo'lga chiqdi va birdan turgan joyida qotib qoldi, seskanib biroz ortga chekindi, go'yo ko'zga ko'rinxmas to'siqqa urilganday bo'ldi. Men Komarovni nima hayratga solganini darrov payqadim; u bexosdan nishablikning etagidan chiqib qolgandi, tubsiz chuqurlikda shovqinsiz, lekin shiddatli to'lqin qirg'oqqa urilardi.

Ko'chaning yashil yo'lagi keskin ravishda dengizga ulanib ketardi. Yurakni shuvillatib yuboradigan balandlik, kenglik va parvoz bolani joyida qotirib qo'ydi. U qo'lini siltadi, sakradi, keyin qandaydir, bolalar sanoq o'yinidagiday tushunarsiz so'zlarni ayta boshladi va nihoyat, so'zsiz va musiqasiz kuyladi...

Birdan qo'shiq tinib qoldi: Komarov taassurotlarning butun kuchini o'ziga sig'dirolmay ortiga qayrildi va tez-tez odimlab ketdi...

Yo'lini kesib o'tgan qurbaqa Komarovni samoviy xayollar dan yerdagi odatiy hayotga qaytardi. U qurbaqanining ortidan quvib, qirg'oqqa borganda yetib oldi. Bolaning soyasi qurbaqanining ustiga tushganda, u yelkasini qisib qotib qoldi. Komarov qurbaqani tutib oldi va ag'darib, oqish qornini tomosha qildi. U uzoq tomosha qildi, yumshoq qoringa barmoqlarini bosib ko'rdi. Ehtimol, u o'yinchoq qurbaqalarni sakratadigan yumaloq mum va po'lat pishangchani qidirgandir. Biroq bu qorin silliq ekanini ko'rgan Komarov o'ylanib qoldi. Shlyapasi burniga surilib tushdi, ammo-lekin hayotning yangi topishmog'ini yechishga urinib, buni payqamadi. U kaftini ozgina si-

qib qo'yib yubordi va nimagadir qulq soldi. Qurbaqa qimirlamadi, uning uzun, quruq oyoqlari bolaning kaftidan ikkita xivichday osilib turardi, biroq, to'g'ri, hamon uning qo'lida jajji tananing jonli ekani sezilardi.

– Tirik! – jilmaydi u va hiylagar-hayratli iborasini aytib davom ettirdi: – Kel, do'stlashamiz, a? Keyin seni qo'yib yuboraman...

Qurbaqa e'tiroz bildirmadi va Komarovning kaftida qoldi.

Endi Komarov tajribali izquvarlar singari atrof-olamni kuzatdi. Balanddag'i qumloq, o'pirilgan yerda qarag'ayning ildizlari ochilib qolibdi; ildizning ingichka tolalari shamolda hilpiraydi, qum oqizib halqalanadi va albatta, Komarov ular tirikmi yoki faqat qimirlab, jondiday, erkinligini ko'rsatyaptimi – shunga aniqlik kiritmoqchi bo'ldi. Mana, u qumloq o'yiq tomonga qadam bosdi, lekin bu so'nggi tadqi-qotini amalga oshirish nasib etmadi.

Har tomondan, qochoqning yo'lini temir doira yasab, qurshab olishdi. Tarbiyachi yetakchiligidagi uning kichik yordamchilari, enagalar, oq peshbandli idish-tovoq yuvuvchilar, yengida qizil xoch surati bor hamshira va piyma kiygan keksa qorovul – hammasi yetib keldi.

– Ana u! – qichqiriq yangradi va mana shu qichqiriq bilan Komarovning ozodligi tugadi.

Komarov odamlar nima uchun bunchalik shovqin solib, arzdod qilganiga tushunolmadi. U o'zini kuchli va bahodirlarday his qildi, barchaga yaxshilik tiladi. Tarbiyachi yoniga yaqin kelganda, u bag'rikenglik, saxiylik ko'rsatib, topgan bor o'ljasini uzatdi: qichitqio't shoxi, ikkita yashil g'udda va jonli qurbaqa.



AKS SADO

Sinegoriya, sohil, tushdan so'ng huvillab qolgan, qizcha, hozirgina dengizdan chiqib keldi... Bu voqea bo'lib o'tganiga ham o'ttiz yildan oshibdi!

Men ochiq cho'milish havzasi bo'ylab qimmatbaho tosh izlab yurgandim. Yaqinda po'rtana ko'tarilib, sohildagi cho'milish havzasi bosib o'tgan to'lqinlar dengizga yaqin sanatoriya devoriga borib urildi. Hozir dengiz tinchlandi – poyonsiz, jigarrang-moviy tovlanib, qum qatlamida mayda toshlardan iz qoldirib o'zaniga qaytdi. Qum shunchalik nam va qattiqki, qadam bossang, iz qolmaydi, qum ustiga oppoq shakarday, silliq, moviy-ko'k, so'rilgan obakidandon singari mayda, yumaloq shisha toshlar, o'lik qisqichbaqalar, achqimtir anqigan chirik suv o'tlari sochilib yotibdi. Men shiddatli to'lqinlar kaftida qimmatbaho toshlar qirg'oqqa oqib chiqishini bilardim va sabr-toqat bilan, qadamma-qadam qumloq, sayoz yerlarni va yuvilgan shag'al toshlarni ko'zdan kechirib o'trgandim.

– Hoy, nega mening tursimning ustiga o'tirib olding? – qaydandir nozik ovoz keldi.

Men nigohimni yuqoriga qadadim. Boshimda qip-yalang'och, ozg'in, qovurg'alari sanalib qolgan, oyoq qo'li ingichka qizcha turardi. Uzun xo'l sochi yuziga yopishib, oftobda qoraygan badaniga deyarli tegmaganday ko'ringan tomchilar tovlanar, sovuqdan badaniga torvoq toshganday dildirab turardi.

* * *

Qizcha egilib, ostimdag'i sariq-ko'k tursisini sug'urib oldi, qoqib-siltab, toshning ustiga otdi, o'zi esa menga yon tomonlama yurib oltin qumni surib, yoniga tortib, uyalay boshladi.

– Kiyinib olsang bo'larmidi... – ming'irladim men.

– Nega? Oftobda shu holda toblangan yaxshi, – javob berdi qizcha.

- Uyalmaysanmi?
- Oyimning aytishicha, kichkintoylar uyalmasayam bo'ladi. U meni tursini yechmay cho'milishga qo'ymaydi, yo'qsa, shamollab qolishim mumkin. O'zi esa birga kelishga vaqt yo'q...

Qoramtil g'adir-budur toshlar orasida birdan nimadir yalt etdi: kichkina, toza, ko'z yosh tomchisiday toshcha ko'rindi. Men qo'ynimdan popiris qutisini olib, tomchini avaylab olib, boshqa topganlarim orasiga qo'shib qo'ydim.

- Qani, ko'rsat-chi!..

Qizcha qulog'idan ho'l sochini ortiga surib, nozik, tomchilar yopishgan yuzini, mushukniki singari moviy ko'zlarini, tik burni va katta, deyarli qulog'iga yetgudek og'zini ochib, toshlarni birma-bir ko'ra boshladi.

Yupqa mato ustida: kichkina, tuxumsimon shaffof-pushti qimmat-baho tosh; yana boshqa bir bebahosi – kattaroq, ammo dengiz uning yuzini silliqlamagan, shuning uchun aniq shakli yo'q, yarqiramaydi; bir nechta chinnisimon naqshin toshlar; yana ikkita ajabtovur qorishma sochilib yotardi: bittasi dengiz yulduzchasiga, ikkinchisi qisqich-baqaga o'xshaydi; kichikroq tosh uzuksimon; niroyat, mening faxrim – tuman parchasi, to'q shisha aralash kulrang topazni ko'rdi.

- Barini bugun terdingmi?
- Qo'ysang-chi, nima deyapsan?.. Bori shu, barchasi!..
- Kam ekan.
- O'zing terib ko'r-chi!..
- Zaril keptimi! – U ozg'in, po'st tashlagan yelkasini qisdi. – Kun bo'yi jaziramada bo'lmag'ur tosh teramanmi?!
- Tentak ekansan! – dedim men. – Qip-qizil tentak!
- O'zing tentakvoy!.. Hali markayam yig'aman, dersan?
- Ha, yig'aman! – javob berdim jahlim chiqib.
- Popiris qutisiniyammi?
- Yiqqanman, kichkinaligimda. Keyin kapalak kolleksiyasiyam bor...

Bu gapim ma'qul kelar deb o'ylagandim, negadir unga yoqishni xohlab qoldim.

- Tfu, jirkanch! – U labini burgandi ikkita so'yloq tishi ko'rindi. – Ularning boshini majaqlab, ilmatugma bilan qadab qo'ygandirsan?
- Yo'q, men ularni efir moyi berib uxlatdim.

- Baribir, jirkanch... O'ldirishsa, toqat qilolmayman.
- Bilasanmi, yana nima yig'aman? – dedim, o'ylab olgach. – Turli velosipedlarni!
- Shunaqami?
- Rost so'zim! Men ko'chalarni aylanib hamma velosipedchilardan so'rab chiqdim: «Amaki, sizniki qanaqa firma?» U aytadi: «Duks» yoki «Latvella», yoki «Oppel». Shunday qilib, barcha turlarni o'z ko'zim bilan ko'rib yig'ib chiqdim, faqat «Endfilda modeli Royyal» yo'q edi... – Men qizcha masxara qilib so'zimni bo'ladimi deb cho'chib tez-tez so'zladim, lekin u qiziqib qoldi, hatto qo'lida qum sepishni ham to'xtatdi. – Men har kuni Lubyanka maydoniga boraverdim, bir gal tramvay bosib ketishiga sal qoldi, baribir «Endfild Royyal»ni qidirib topdim! Bilasanmi, uning tamg'asi nilufar rangida katta lotincha «R» harfi bilan...

– Zo'r ekansan... – dedi qizcha va katta og'zini ochib kulib yubordi. – Senga aytaman, oramizda sir bo'lib qolsin, men ham yig'aman...

– Nima?

– Aks sado... Ancha yig'ib qo'yganman. Jarangli aks sadolar bor, xuddi shishaga o'xhash, mis karnayday chalinadigani bor, uch ovozli aks sadolar bor, yana no'xatday sochiladiganiyam, yana...

– Aldashni bas qil! – jahlim chiqib uning gapini bo'ldim.

Moviy mushukko'z menga sirli qarab turib, bunday dedi:

– Xohlaysanmi, ko'rsataman?

– Qani, ko'rsat-chi...

– Faqat senga, boshqa hech kimga. Uyingdagilar ruxsat beradi-mi? Katta egarga chiqish kerak.

– Ruxsat beradi!

– Bo'lmasa, ertaga ertalab yo'lga chiqamiz. Qayerda yashaysan?

– Dengiz bo'yida, bulg'or tomonda.

– Biz esa Tarakanixida.

– Demak, men oyinngi ko'rghanman. Bo'ylari baland, sochi qoram-i?

– Ha-da. Faqat o'zim oyimni umuman ko'rmayman.

– Nega?

– Oyim raqs tushishni yaxshi ko'radi... – Qizcha qurigan, kulrang sochini silkitdi. – Kel, oxirgi marta cho'milib chiqamiz.

U atrofiga qum sochib, o'rnidan sakrab turdi va pushti, uzun oyoq panjalarini yaltiratib dengiz tomonga chopib ketdi...

Ertalab quyosh chiqdi, tinch, shamolsiz, biroq havo ilimadi. Po'rtanadan keyin dengiz hamonsov uq nafas chiqarar, quyosh havoni isitib yuborishiga to'sqinlik qilar edi. Quyoshning yuzini popiris tutuniga o'xshash bulut to'sib, shag'al yo'lak, oq devor va sopolchanoq tomlar ustidan ko'zni qamashtiruvchi janub jilvasi g'oyib bo'lganda, ya'ni havo aynishi arafasida borliq xo'mrayib, dengizdan kelayotgan sovuq oqim birdaniga kuchaydi.

Katta egarga boradigan so'qmoq, avvaliga, past-u baland tepaliklar yonidan o'tadi, keyin to'g'ri va tikkasiga qalin, o'tkir hidli yong'oqzor oralab yuqoriga ko'tariladi. Uni sayoz, toshdan qurilgan nov – shiddatli anhorlardan biri kesib o'tadi, anhor yomg'ir yoqqandan so'ng guvillab, butun atrofga shovqin solib tog'dan oshib tu-shadi, biroq yong'oq bargidagi yomg'ir tomchilaridan ham oldin, bir zumda qurib qoladi.

Biz yo'lning katta qismini bosib o'tganda hamrohimning ismini bilishga qaror qildim.

– Hoy! – qichqirdim sariq-moviy tursi kiygan, yong'oqzorda kapalakday uchib yurgan qizchaga. – Isming nima?

Qizcha to'xtadi, unga yetib oldim. Shu yerda yong'oqzor siyraklashib, ikki tarafga yoyilib, ko'rfaz va bizning qishloq – sanoqli nochor uylar ko'zga tashlandi. Ulkan, haybatli dengiz ufqqa qadalgan, undan narisi – xira moviy taram-taram yo'llar, biri ustidan biri tushib, osmonga ko'tarilgan. Ko'rfazda esa dengiz asta qiyalab, qirg'oq chetidan oq ip tortilganday pasayadi-da, yana osmonga tutashib ketadi...

– Bilmayman, senga nima desam ekan, – o'ylandi qizcha. – Menning ismmim jinnicha – Viktorina, hamma Vitka deb chaqiradi.

– Vika desayam bo'ladi.

– Tfu, jirkanch! – U odatdagidek so'yloq tishini ko'rsatdi.

– Nega? Vika – yovvoyi no'xat.

– Sichqonniyam shunday deyishadi. Sichqonni ko'rgani ko'zim yo'q!

– Mayli Vitka bo'lsa, Vitka-da, meniki – Seryoja. Hali ko'p yuramizmi?

– Charchadingmi? Mana, o'rmonchadan o'tsak, o'sha yerdan Katta egar ko'rindan...

Lekin biz nordon-xushbo'y-dim yong'oqzor oralab uzoq yurdik. Nihoyat, so'qmoq toshloq – oppoq mayda shakar singari qum qoplagan yo'lga ulandi, bu nishabli yo'l to'g'ri kamarga olib bordi. U yerda o'rikzor ichida chig'anoqtoshdan qurilgan o'rmon qorovulkxonasi bor ekan.

Shinam uychaga yetib boray deganda, jimlikni quturgan ko'ppaklarning hurishi buzdi. Uzun simga ilingan zanjirini uzgudek bo'lib sapchigan ikkita katta, paxmoq, oqish ko'ppaklar bizga qarab chopdi, ko'kka sakradi, ammo bo'ynidagi bog'ich bo'g'ib qo'ygach, qizil tilini chiqarib, xirillab yerga qapishib qolishdi.

– Qo'rqlama, ular yetib kelolmaydi! – xotirjam dedi Vitka.

Ko'ppaklar bizdan yarim qadam narida tishini g'ijirlatardi, ularning bo'ynida sholg'om po'stiday aylanib turgan tasmani ko'rdim, ko'zlarini yung qoplagan. Qiziq, ko'ppaklarni tinchlantirish uchun qorovullardan hech kim chiqmadi. Lekin ko'ppaklar qanchalik tashlanmasin, zanjirini tortmasin, biz turgan yerga yetolmasdi. Nihoyat, simlar mustahkamligiga ishonch hosil qilgach, ko'nglimda xavotir aralash quvonch tug'ildi. Yo'l bizni sirli sadolar qaytaruvchi qoyalari va g'orlar sari boshladи, faqat botir bola g'aroyib sirmi ochishi ga to'g'anoq bo'ladigan shafqatsiz posbon-u ajdarho yetishmay turgandi. Mana o'sha ajdarholar – o'sha paxmoq, ko'zi yo'q, yirtqich ko'ppaklar!

Yana torayib borayotgan so'qmoqdan yong'oqzorni aylanib o'ta boshladik. Bu yerda yong'oqzor pastdagichalik qalin emas: ko'p shoxlari qurib qolibdi, yaproqlarini qo'ng'izlar o'rgimchak uyasiga o'xshatib kemirib tashlabdi.

Men charchab, Vitkaga jahl qildim, u ingichka, to'g'ri tayoqday oyoqlarini dadil bosib, o'tlar oralab ilgarilab ketdi. Shunda birdan yorug'lik paydo bo'lди, qoramtil maysalar qoplagan nishablikka ko'zim tushdi, uzoqda kulrang qoya osmonga qadalib turardi.

– Shayton tishi! – dedi Vitka yo'l-yo'lakay.

Yaqinlashib borganimiz sari g'o'ddayib turgan kulrang qoya to-bora yuksalardi – biz yurishimizga uning o'sishi mutanosib emasdi. Uning qorong'i, salqin soyasiga o'tganimizda, bahaybat tus oldi. Bu endi Shayton tishi emas, Shayton minorasiga o'xshardi: zulmatdagi, sirli, zabt etib bo'lmas. Mening o'ylarimni o'qib turganday, Vitka shunday dedi:

– Bilasanmi, qancha odam buning ustiga chiqishni xohlagan, hech kim cho'qqiga yetolmagan. Biri yiqilib o'lgan, boshqasining qo'l-oyog'i singan. Har holda, bir farang chiqqan ekan.

– Qanday chiqibdi?

– Chiqibdi-da... Biroq qaytib tusholmabdi, o'sha yerda aql-dan ozib, keyin ochlikdan o'libdi... Baribir, qoyil qolish kerag-a! – qo'shimcha qildi u o'ychan.

Biz Shayton tishining yoniga keldik va Vitka ovozini pasaytirib, dedi:

– Hov, anavi yerda... – U bir necha qadam ortga chekinib, astagini qichqirdi: – Seryoja!..

– Seryoja... – Shayton tishining qa'ridan chiqayotganday istehzoli-mayin ovoz qulog'imga shivirlaganday bo'ldi.

Titrab ketdim va beixtiyor qoyadan ortga chekindim; so'ng qarshimdan, dengiz tomondan, qattiq shovullagan sado keldi:

– Seryoja!..

Joyimda qotib qoldim, shunda samodan ham iztirobli-achchiq, uyg'un sado taraldi:

– Seryoja...

– Jin ursin!.. – bo'g'iq ovozda dedim men.

– Jin ursin!.. – shivirlash eshitildi qulog'im ostida.

– Jin ursin!.. – xo'rsindi dengiz.

– Jin ursin!.. – sado keldi falakdan.

Bu ko'zga ko'rinnmas ermak qiluvchilarning dahshatini his etdim: shivirllovchi yovuz-tilyog'lamachi pismiqqa; dengiz ovozi sovuqqon hazilkashg'a; yuqoridagi esa hech taskin topmaydigan, riyokor yig'loqiga o'xshardi.

– Nega jimsan?.. Nimadir deb qichqir!.. – dedi Vitka.

Uning so'zini bo'lib qulog'imga shivirlash eshitildi: «Nega jimsan?..» – jarangdor, istehzoli ovoz keldi: «Qichqir» – va ko'z yosh aralash kimdir: «Nimadir», dedi.

Men zo'riqib o'zimni bosib olgach, qichqirdim:

– Sinegoriya!..

Va uch xil ovozdagi aks sadoni eshitdim...

Men yana ko'pgina so'zlarni qichqirib, shivirlab aytdim. Aks sadoning qulog'i ding edi. Ayrim so'zlarni shunchalik past ovozda aytdimki, o'zim ham arang eshitdim, biroq ular to'lig'icha aks sado berdi. Endi qo'rqa boshladim, ko'rmas kishi qulog'imga shivirla ganda umurtqa suyaklarim muzlab qolar, yig'lamsiragan ovozdan esa yuragim qattiq sanchardi.

– Xayr! – dedi Vitka va Shayton tishidan uzoqlashdik.

Uning ortidan ergashdim, lekin aks sado ortimdan yetib oldi-da, zaharli-muloyim ohangda shivirladi, olis dengiz qahqaha urdi va osmondan ingroq keldi:

– Xayr!..

Biz dengiz tarafga yurib, tez orada jarlik ustiga turtib chiqqan tosh tumshuqqa yetib bordik. Chap va o'ng tarafda tog' tizmalari, quyida esa nigohlar ham cho'kib ketadigan jarlik. Agar Shayton tishi yer ostiga cho'kib ketsa, o'rnida shunday katta, qo'rqinchli tuynuk paydo bo'lsa kerak. Jarlik qa'ridagi shilimshiq bosgan qirrador qo yalar bahaybat mavjudotning so'yloq tishlariga o'xshar, jar tubida qoraygan dengiz toshlarga bosh urar edi. Qandaydir qush xuddi jonsizday qanotlari yoyiq, ammo harakatsiz, bir maromda aylanib uchib jarlikka sho'ng'ib ketdi.

Hali bu atrofda nimadir nihoyasiga yetmagandek tuyldi, yer qa'ridan otolib chiqqan ulkan tish metindek tog'ni kavlab quduqqqa aylantirgan, uning qa'ri qoyalar tikaniga qoplanib, tikanlar orasiga dengizning nozik tilini kiritgandiki, bu dahshatli kuchlar hali bir mu vozanatga kelmagani ko'rsatib turardi. Atrof va quyida ustma-ust qalashib ketgan tog'-u toshlar omonat, qalqib turganday, ichki bosim ostida qayta o'z o'mini topishga urinayotganday tuyulardi... O'shanda Katta egar jarida yuragimni qanday azob-xavotirli tuyg'ular qamrab olganini so'zlab berolmayman...

Vitka jarning labiga qorinmachafiga yotgach, yoniga imlab chaqirdi. Men ham qattiq, iliq tekis tosh ustiga cho'zildim, shunda qo'rqinchli jarlikning o'ziga tortuvchi kuchi yo'qoldi, pastga qarash juda oson ko'rindi. Vitka jarga qaradi-da, qichqirdi:

– O'ho'-ho'!..

Bir lahza sukunat qopladi, keyin do'rillagan tovush, xuddi kar nayday sado berdi:

— O'-ho'-ho'-u!..

Bu sado qanchalik kuchli, yo'g'on bo'lsa ham, qo'rqinchli tuyulmadi. Aftidan, jar qa'rida bizga yomonlikni ravo ko'rmaydigan olivjanob pahlavon bo'lsa kerak.

Vitka so'radi:

— Kim birinchi momo?

Shunda pahlavon biroz o'yga tolib, kulib aks sado berdi:

— Momo!..

— Bilasanmi, — dedi Vitka pastga qarab, — Katta egardan hech kim dengizgacha tusholmagan. Bir amaki o'rtasigacha borgan va o'sha yerda qolib ketgan...

— Ochlikdan o'lgan bo'lsa kerak?

— Yo'q, arqon tashlab, tortib olishgan... Menimcha, tushish mumkin.

— Tushib ko'ramizmi?

— Tushamiz! — jo'shib javob berdi Vitka va u jiddiy gapirayotgani fahmladim.

— Boshqa safar, — xijolat bo'lib ming'irladim.

— Bo'lmasa ketdik... Salomat bo'l! — qichqirdi Vitka jarlikka qarab va o'rnidan sakrab turdi.

— Salomat!.. — haholadi pahlavon.

Men jar bilan hali suhbatlashmoqchi edim, ammo Vitka qo-limdan tortib sudrab ketdi.

Yangi aks sado — Vitkaning gapiga qaraganda, «shishaday jarang-dor» ovoz sohibi — xuddi pichoqda kesilganday ko'rindigan tor darada yasharkan. Aks sado ingichka, o'tkir, hatto yo'g'on ovozga ham chinqirib javob berarkan. Yana nimasi yoqmaydi: chiyillab javob bergandan keyin ham aks sado jimb qolmay, turli tirqishlari sichqonday uzoq chiyillab turarkan.

Biz darada ko'p qolmay, yo'lga tushdik. Endi quruq o't-o'lan va tikan qoplagan, ayrim yerlari yalang, hech vaqo bitmagan, silliq nishablikdan yuqoriga tirmashib chiqishga urindik. Nihoyat, katta-katta harsang toshlar uyilgan kamarga chiqib oldik. Har bir harsang bo'lagi nimagadir o'xshardi: kema, tank, buqa, Ruslan mag'lub etgan — tish-timog'igacha qurollangan jangchining boshi, qirg'oqdagi parchalangan zambarak, tuya, na'ra tortgan yo'lbars og'zi, qiymalangan maxluq tanasining bo'laklari: turtib chiqqan burni, qulog'inining chuquri, tugilgan mushti, tovoni, jingalak soch tushib turgan manglayi...

Bu toshga aylangan mavjudotlar, narsalar, jonivorlarning tana a'zolari shunday sochilib ketganki, xuddi koptokka o'xshaydi, ularning orasida yangragan so'z, oniy lahzada qisqa tovush farqi bilan keskin aks sado beradi. Shu yerning o'zida sadolar no'xatday to'kiladi...

Ammo eng ajoyib aks sado haqida Vitka menga hech narsa demadi. Biz u tomonga bormadik, bo'rtib chiqqan toshlarga, zambrug'larga va quruq butalarga yopishib, aylanib o'tib ketdik. Qo'limiz va oyoqlarimiz ostidan toshlar to'kildi va ular o'zi bilan katta-katta toshlarni surib ketdi, ortimizdan uzoq shovqinlar ko'tarildi. Men ortga o'grilib qarab, qanchalik balandga chiqib ketganimizni ko'rib hayratga tushdim, jar yoqasida boshim aylandi. Bu yerdan dengiz tekis ko'rinas ekan: chek-chegarasiz, qamrab bo'lmas, osmonga tutashib, birlashib ketgan – butun atrofni qoplagan ulkan gumbazga aylandi. Shayton tishi, biz turgan balandlikdan qaraganda kichrayib, do'nglik shaklini oldi.

Vitka tog'ning tubiga qadalgan yarimdoira qora jarlik labida to'xtadi. Men jarga qaradim va ko'zim qorong'ilikka ko'nikkach, tosh sumalaklar osilib turgan gumbazsimon g'orni ko'rdim. G'or devorlari yashil, qizil, moviy ranglarda tovlandi, uning qa'rida zax bosgan maqbarani ko'rib, beixtiyor ortga chekindim.

– Salom! – qichqirdi Vitka, boshini tuynukka tiqib.

Xuddi ichi bo'sh bo'chkalar to'qnashganday, gumbaz ostidan bo'siq ovoz keldi: «bom!», burchak-burchaklarda zirillagan tovush va past voy-voylash va nihoyat, tog'ning ruhi tashqariga otlib chiqqanday tuyuldi.

Men hayratlarga ko'milib, Vitkaga havas bilan boqdim. Ozg'in, yuzlari olachipor, kulrang sochini ortiga tashlayveradigan, ko'zlar ko'm-ko'k – hozir meni sehrli olamga olib kirgan ertakdag'i qizday ko'rindi.

– Qani, qichqir!

Men egildim va tog'ning kichkina qora og'ziga qichqirdim. Yana o'sha tomonda oh-voylar eshitildi, tovush aylanib chiqib, boshqacha sassiq hid bilan yuzimga urildi. Bu toshli, tik jarlik, chuqurlar orasida, turli g'ayritabiiy ovozlar olamida meni birdan dahshatli yolg'izlik hissi qamrab, qanchalar ojiz ekanimni his qildim.

– Ketdik, – dedim Vitkaga, sarosimalik o'tib ketgach, o'zimni bosib. – Bu yerdan ketamiz!..

Yo'lning davomi pastga qarab so'ngsiz quyilashday tuyuldi. Yo'l yo'lakay, yana tosh qabriston ham, Shayton tishi ham, katta, qarovsiz yong'oqzor ham, o'rmonchilarining zarjirband xirilloq, bo'ynidan bo'g'ilgan ko'ppaklari ham va niroyat – katta yong'oqzorni bosib o'tdik. Bizning pastga enishimiz qishloqni o'rmon tomondan to'sib turgan quruq g'ovgacha davom etdi.

– Qalay, qiziqmi? – so'radi Vitka, ko'chamizga burilganda.

Yana o'zimni xotirjam his qildim, endi Vitka tog'dagi ruhlarining g'aroyib bekasiday tuyulmay qoldi. Shunchaki so'yloq tishli, qoqsuyak, xunuk qizcha. Mana shu qizcha oldida qo'rqaqlik qilib o'tiribman-a!

– Qiziq... – dedim erinib. – Buning nimasi kolleksiya?

– Nima senga o'xshab quticha to'ldirishim kerakmi?..

– Nega endi? Aks sado har qanday kishiga javob qaytaradi-ku.

Vitka g'alati bo'lib, menga uzoq qarab turib qoldi.

– Nimayam derdim, menga bo'laveradi! – dedi u sochini to'g'rilab va uyiga qarab ketdi.

* * *

Vitka bilan do'st bo'lib qoldik. Birgalikda Temruk-kay va To'y tog'iga chiqdik, To'y tog'idagi g'orda qurillaydigan aks sado topdik. Ammo Temruk-kay qoyalari, tik nishabliklari va ko'kka tik ko'tarilgan cho'qqilari bo'lsa ham, u yerdan hech gap chiqmadi.

Biz deyarli ajralmasdik. Vitkaning yalang'och cho'milishiga ko'nikib qoldim, bu qiyofada qiz bolani ko'rmasdim, yoqimtoy do'st, desa bo'ladi. Uning uyalmasligi sababini sal-pal tushunganday bo'ldim: Vitka o'zini o'taketgan xunuk deb biladi. O'z xunukligini ochiqdan-ochiq tan olgan qizchani hech qachon ko'rmaaganman. Bir gal maktabdagi dugonasi haqida hikoya qilib berarkan, Vitka shunchaki ta'kidlab o'tdi: «U ham xuddi menga o'xshagan badbashara...»

Bir kuni baliqchilarining qayiqlari qantarilgan bandargohcha yaqinida cho'milayotgandik, qirg'oq bo'ylab yuqorida bir gala bolalar gurillab keldi. Ularni uzoqdan tanirdim, ammo yaqinroq do'stlashish borasidagi urinishlarim natija bernadi. Bu bolalar Sinegoriyada bir necha yildan buyon dam oladi, o'zlarini shu yerlikday

tutadi va saflariga begonalarni kiritmaydi. Ularning yo'lboshchisi baland bo'yli, kuchli Igor degan bola.

Men cho'milib chiqib, qirg'oqda sochiqqa artinardim, Vitka esa dengizda suzayotgandi. To'lqinni qarshilab qorinmacha singa o'rakachlar ustiga suzib chiqardi.

Bolalar mening salomimga istar-istamas alik olgach, yonimdan beparvo o'tib ketishayotgandi, birdan oradan kimdir Vitkani ko'rib qoldi:

– Bolalar, qaranglar, yalang'och qiz!..

Bolalarga ermak topildi: qichqiriqlar, hushtak chalishlar, uvilashlar boshlandi. Vitkaga e'tibor berishmasa, yaxshi bo'lardi, u ham bolalarning qilig'iga parvo qilmadi, bu esa olovga moy sepgandek bo'ldi. Qizil tursili bola «qizchaga tanbeh» berib qo'ymoqchiligin aytdi. Bu taklifni boshqalar olqishladi va o'sha bola lapanglab suvga tushdi. Lekin Vitka o'ta chaqqonlik bilan sho'ng'idi va suv ostidan nimadir olib chiqli, o'zini o'nglab olganda uning qo'lida og'irgina tosh ko'zga tashlandi...

– Yaqinlashib ko'r-chi! – dedi u, o'tkir so'yloq tishlarini ko'rsatib. – Yuzingni bejab qo'yaman!

Qizil tursili bola to'xtab, oyog'inining uchini suvga solib ko'rdi.

– Sovuq... – dedi u va quloqlari tursisidan ham qizarib ketdi. – Tushishning foydasi yo'q...

Igor shoshib keldi-da, qirg'oq chetiga, qumga yastanib o'tirib oldi. Qizil tursili bola yo'lboshchi fikrini tushunib, uning yoniga cho'kdi, qolgan bolalar ham ulardan o'rnak olishdi. Ular Vitkani kiyimi va sochig'i turgan joy o'rtasida zanjirday to'sib turishardi.

Vitka ularni uzoq kuttirdi. Goh dengiz ichkarisiga suzib ketadi, goh ortiga qaytib keladi, sho'ng'iydi, suzadi, keyin suv ostidagi tosh ustiga o'tirib, to'lqinlar bilan o'ynashdi. Ammo oxiri sovuq o'tdi, shekilli.

– Seryoja! – qichqirdi Vitka. – Tursigimni menga otvor!

Qachondan beri xuddi shunday bo'lishini o'ylamaslikka harakat qilib, sochiqqa artinib turibman. Ishqalangan tanam qizib, xuddi kuygandek, men faqat artinar, faqat artinardim, terimni shilib olgudek bo'lib artinardim. Achinarli va tahqirlovchi sarosimalikda, birgina istagim bor edi: Vitkaning sharmanda bo'lishiga sababchi bo'lmassam edi.

– Seryoja, xonimingga tursisini uzatib yubor! – qizil tursili bola hazil ohangida gap tashladi.

Tirsagiga suyanib o'tirgan Igor menga tahdid qildi:

– Qo'lingni tekkiza ko'rma!..

O'rinsiz ogohlantirish: men shundoq ham o'tnimdan qilt etmasdim. Vitka mendan yordam kutib bo'lmasligini fahmladi. Achinarli ravishda bukchayib, ozg'in qornini ichiga tortib va uni qo'li bilan to'sib, sovuqdan badani ko'karib, yuzi qizarib suvdan chiqdi va yonlamasiga tursisi tomonga bolalar kulgisi va hushtaklari ostida chopib o'tdi. Ko'ngli tozaligidan o'zi e'tibor bermagan narsa o'zgalar oldida sharmandali, tahqirllovchi va uyatli ekanini his etdi.

Bir oyoqlab sakrab, ikkinchisini tursi teshigidan o'tkazolmay, shosha-pisha kiyindi, yerdan sochig'ini oldi va nari ketdi. Birdan u ortiga o'grildi va menga qarab qichqirdi:

– Qo'rroq!.. Qo'rroq!.. Bechora, qo'rroq!..

Vitka barcha so'zlar orasidan eng yomon, ko'ngilga og'ir tegadigan va nohaqini tanladi. Men Igorning mushtidan qo'rmasligimni tushunishi kerak edi. Aftidan, u bolalar ichida meni yerga urishni istadimi, bilmadim.

Bilmadim, to'da ixtiyoriga bo'ysunmagan yo'lboshchi injiqligi-mi yoki Vitkaning nimasidir qiziqtirib qoldimi, Igor birdan mendan do'stona, xayrixohlarcha so'radi:

– Eshit, u nima – tentakmi?

– Albatta, tentak! – xushmuomalaga peshvoz chiqdim.

– Nega u bilan birga yuribsan?

Vitkani oqlash niyatida emas, o'zimni himoya qilish uchun, dedim:

– Ajoyib qiz, u aks sadolar yig'adi.

– Nima? – ajablandi Igor.

Men mammuniyat bilan shu yerning o'zida Vitkaning sirlarini aytilib berdim.

– Qoyil! – hayratda qoldi Igor. – Uch yildan buyon yozni shu yerdan o'tkazib, bunaqasini eshitmagandim!

– Oshirvormadingmi? – so'radi mendan qizil tursili bola.

– Xohlaysizmi, ko'rsataman?

– Bo'ldi! – qat'iy dedi Igor yana yo'lboshchiga aylanib. – Ertaga bizni o'sha tomonga olib borasan!..

Ertalabdan sovuq kuchaydi, shamoldasovundek ko'pirgan butlalar, badqovoq tog'lar ko'kimtir-oqish tus oldi, tog'ning dengiz o'tlarining tusi jilg'a va anhorlar o'zanidagi mayda toshlar rangiga qorishib ketdi.

Biroq Igoring to'dasi ortga chekinmadi. Mana, oyog'im ostidan tanish so'qmoq o'ta boshladni, uning o'rtasida shag'alni surib jilg'a loyqalanib oqyapti. Endi yong'oqzor bir hovuch asal hidli emas, balki to'kilgan barglar, chirik xazon, suv urib ketgan tuproqning achqimtir isi bilan tomoqni timdalaydi. Yurish qiyin, oyoqlar nam tuproqqa botadi, toshlar esa oyoqqa botadi...

O'rmonchilarining uyi yonida odatdagidek vajohatli ko'ppaklar quturib qarshi oldi, ammo-lekin namchil havoda ularning ovozi yumshoq, past eshitildi, ularning yungi ivib qolgani avvalgidek dahshatli ko'rinnmadi. Ularning zaytun donasiga o'xhash ko'zlari ochilib qolibdi.

Mana, yaproqlarini qo'ng'iz kemirgan yong'oq – shamol va yomg'ir uning nozik, kasallangan yaproqlarini uzib tashlabdi, becho-ra yalang'och, qayg'uga ko'milgan, quruq shoxlari orasidan badqovoq dengiz ko'zga tashlanadi.

Shayton tishi bulutlar qurshovida ekan, uzoq vaqt ko'rinnmay turdi, keyin chiqib bo'lmas cho'qqisi qoraydi, bir lahza butun bo'yib ilmas ko'rindi-da, yana bulutlar orasida ko'zdan yo'qoldi. G'alati, shamol dengizga qarab esyapti, og'izning hovuriga o'xhash yengil bulutlar esa dengiz tomondan qoya tarafga uchyapti. Ular yergacha yopishib keldi, namchil tutuni bizni qoplab, birdan g'oyib bo'ldi, qo'yalarga qirov yopishdi.

Nihoyat, bulut orasidan yana Shayton tishi paydo bo'lib, yo'limizni to'sib chiqdi.

– Qani, mo'jizangni ko'rsat, – jiddiy turib dedi Igor.

– Eshitinglar! – dedim men tantanovor, yelkamning avvalgidek sovuq qotayotganini his qilib, kaftimni karnay qildim-da, qichqirdim:

– O'ho'-ho'!..

Javob – sukut, na qahrli-yumshoq shivir, na dengiz tomondan qahqaha, na osmondan mungli aks sado keldi.

– O'ho'-ho'! – qichqirdim yana bir marta Shayton tishiga yaqinroq borib, barcha bolalar mendek qichqirishdi.

Shayton tishi jim edi. Biz qayta-qayta qichqirdik – oz bo'lsa-da, aks sado qaytmadi! Shunda men jarlik tarafga intildim – bolalar ortimdan – bor kuchim bilan jarga qichqirdim. Biroq pahlavon ham lom-mim demadi.

Sarosimaga tushib, g'ordan Shayton tishiga, Shayton tishidan daraga, yana g'orga, yana daraga, yana Shayton tishiga chopdim. Lekin tog'lar sukut saqlardi...

Men bolalarga yolvorib, yuqoridagi g'orga chiqishga ko'n-dirmoqchi bo'ldim, balki o'sha yerda aks sado chiqar... Bolalar qarshimda xuddi tog'lar kabi jim va g'azabnok turardi; keyin Igor labini cho'chaytirib, bir so'z aytishga chog'landi:

– Yolg'onchi!

So'ngra yuzini keskin teskari burdi-da, to'dasini ortidan ergash-trib ketdi.

Men orqada sudralib, nimalar bo'layotganini tushunishni istardim. Hozir bolalarning nafratidan xafa emasman, faqat bu mushkul ahvolga tushganimning sababini anglashga urinardim. Nahotki, tog'lar faqat Vitkaning o'zigagina aks sado qaytarsa? Ammo birga kelganimizda tog'lar menga ham aks sado bergandi-ku! Balki uning aks sadoni g'orga qulflab qo'yadigan kaliti bordir?..

Alamli kunlar keldi. Vitkadan ayrildim, hatto oyim ham tergab berdi. Unga aks sado haqidagi sirli voqeani aytgandim, oyim menga uzoq, begonasirab, sinovchan nazar tashlab, g'amgin dedi:

– Hammasi oddiy: tog'lar faqat toza va halol kishilarga aks sado qaytaradi...

Uning gaplari menga ko'p narsalarni anglatdi, lekin tog'dagi aks sadosi sirini ochib berolmadi.

Yomg'irlar tinmadi, dengiz xuddi ikki qismga bo'linganday tuyldi; ko'rfaz tomoni daryo va jilg'alar oqizib kelgan qum kabi loyqa – sariq, o'zi esa moviy tovlandi. Tinimsiz shamollar esdi. Shamollar kunduzi yomg'irlarning kulrang matosini xilpiratadi, tunda – hamisha tiniq, mayda oq yulduzlarda – quruq va qora, chunki o'zi qora matoga o'rilib, shoxlar, butoqlar, novdalar, soyalardan o'tib, yorug' manzillarga chopadi.

Men bir necha marta Vitkani uzoqdan ko'rdim. U har qanday havoda dengiz bo'yiga chiqib, har zamonda ko'rinaradigan iliq quyoshda yaxshigina qizarib toblanardi. Yolg'izlik va zerikkanimdan oyimni

har kuni bozorgacha kuzatib boradigan bo'ldim, bu yerda mahal-liy mahsulotlar sotiladi: meva-sabzavotlar, o'rik, echki suti, qatiq... Bir gal bozorda Vitkani ko'rib qoldim. U bir o'zi, qo'lida savatcha. Uning sarg'ish-moviy tursida do'konlar va sut to'la idishlar orasi-dan o'tib, sinchiklab ko'rib pamildori olganini, bir bo'lak go'shtni o'z qo'li bilan tarozi pallasiga tashlaganini kuzatdim – shunda ajoyib do'stimdan ayrilganimni yana bir marta tushundim.

Ertalab, birinchi quyoshli kunda bog' oralab daydidim, pishib yerga to'kilib ezilgan o'riklarni terdim, shunda kimdir meni cha-qirganday bo'ldi. Eshikning yonida yoqasi moviy, dengizchilar ko'ylagiga o'xhash, oq kofta, moviy yubka kiygan qizcha turardi. Vitka ekan, birdan tanimadim. Uning kulrang sochi tekis taralgan va orqasiga tasmalab bog'langan, oftobda kuygan bo'ynida marjon shodasi, oyog'ida charm tuqli. Men u tomonga oshiqdim.

– Biz uyg'a ketyapmiz, – dedi Vitka.

– Nega?..

– Bu yer oyimning joniga tegdi... Bilasanmi, senga o'zimning kolleksiyamni tashlab ketmoqchiman. Endi menga kerakmas, ularni bolalarga ko'rsatib, yarashib olasan.

– Hech kimga ko'rsatmayman! – qizishib xitob qildim.

– Mayli, o'zing bilasan, senga qoldiraman. Nima uchun sizga tog'lar indamaganini topdingmi?

– Sen qayerdan bilasan, shunday bo'lganini?

– Eshitdim... Topdingmi?

– Yo'q...

– Bilasanmi, eng asosiysi, qayerda turib qichqirishga bog'liq. – Vitka maxfiy ravishda ovozini pastlatdi. – Shayton tishiga borgan-da dengiz tarafda turib qichqirish kerak. Sizlar esa, ehtimol, boshqa tomonda turgansiz, shuning uchun hech qanaqa aks sado chiqmag'an. Jarlikda pastga qarab, to'g'ri devorga qichqiriladi. Esingdami, o'shanda boshingni egib turgandim?.. Daraga borsang, eng tubiga qarab baqir, ovozing uzoqroqqa ketishi kerak. G'orda esa har doim aks sado chiqadi, biroq sizlar g'orga bormadingiz. Toshlardayam shunday...

– Vitka!.. – tavba qilganday gap boshladim. U ozg'in yuzini tes-kari burdi.

– Men tezroq boray, avtobus ketib qoladi...

- Moskvada ko'tishamizmi?
- Vitka boshini sarak-sarak qildi.
- Biz Xarkovdanmiz-ku...
- Bu yerga yana kelasizmi?
- Bilmadim... Ha, mayli!.. – Vitka xijolat bo'lib boshini egdi va birdan chopib ketdi.

Oyim ostonada bizni kuzatib turgan ekan, Vitkaning ortidan uzoq, diqqat bilan qaradi.

- Kim bu? – oyim qandaydir quvonib so'radi.
- Vitka-da, Tarakanixida yashardi.
- Qanday chiroyli qizcha-ya! – xo'rsinib qo'ydi oyim.
- Undaymas, bu Vitka!..
- Qulog'im tom bitmagan-ku... – Oyim yana Vitka chopib ketgan tomonga qaradi. – Eh, qaday ajoyib qizcha! Bu qanqaygan burun, kulrang sochlar, g'aroyib ko'zlar, nozik qomati, uzun oyoqlari, qo'llari...

– Oyi, qo'ysangiz-chi! – qichqirdim men, uning mahliyo bo'lib qolganiga ajablanib. – Siz uning og'zini ko'rganiningizda bormi!..

– Chiroyli, katta og'iz!.. Sen hech narsani tushunmaysan!

Oyim uyga kirib ketdi, men bir necha soniya uning ortidan qarab qoldim, so'ng avtobus bekatiga qarab chopdim.

Avtobus hali ketmagan ekan, jomadon va tugunlarini ko'targan oxirgi yo'lovchilar eshik oldida uymalanishardi.

Men Vitkani darrov topdim, oynasi ochilmagan tarafda ekan. Uning yonida qizil ko'ylakli, to'ladan kelgan qorasoch ayol – oyisi o'tirgandi.

Vitka ham meni ko'rdi va oynani ochish uchun tutqichni surdi. Oyisi unga bir nima deb, joyiga o'tqazib qo'ymoqchi bo'lди. Vitka keskin harakat qilib oyisining qo'lini siltab tashladi.

Avtobus gurillab o't oldi va asta, majolsizday, ortidan oltinrang dum singari tutun purkab yo'lga tushdi. Men yonida yurib borardim. Vitka labini tishlab, tutqichni siltab pastga tortdi, oyna sharaqlab ochildi. Vitkani orqavarotdan chiroyli tasavvur qilish osonroq edi – o'tkir so'yloq tishi va yuziga sochilgan qora sepkillar oyim chizgan, men hozirgina tasavvur qilgan qiyofani buzib yubordi.

– Eshit, Vitka, – tez-tez gapirdim men, – oyim aytdiki, sen chiroyli qiz ekansan. Sochlaring, ko'zlarling, lablaring, burning... – Av-

tobus tezligini oshirdi, men ham chopcha boshladim. – Qo'llaring, oyoqlaring! To'g'rimi, Vitka?!

Vitka faqat katta og'zini ochib, quvonib, gapimga ishonib, sidqidildan kului, bu kulgida uning butun qalbi ochildi, shunda o'z ko'zlarim bilan ko'rdimki, Vitka, haqiqatan, dunyodagi eng chiroyli qizcha ekan.

Avtobus og'ir tebranib, cho'kib anhorning yog'och ko'prigidan o'tib, Sinegoriya hududini tark etdi. Men to'xtadim. Ko'priq g'ijirladi, qarsilladi. Avtobus oynasida yana shamolda kulrang sochlar to'lqinlanib, Vitkaning boshi ko'rindi. Vitka menga ishora berdi va anhorning ustidan kumush tanga otdi. Havoda yaltiragan nur oyoqlarim ostiga kelib tushib o'chdi. Shunday irim bor: agar tanga tashlab ketsang, qachondir, albatta, o'sha joyga qaytib kelasan...

Men ham bu yerdan ketadigan kunimiz tezroq kelishini istardim. O'shanda men ham tanga tashlab ketaman va biz Vitka bilan ko'rishamiz.

Ammo bu taqdirga bitilmagan ekan. Oradan bir oy o'tgach, biz ham Sinegoriyani tashlab ketdik, men esa tanga otishni unutibman.



QISHKI EMAN

Uvarovkadan maktabga olib boradigan tor yo'lakchani tunda yoqqan qor qoplabdi, faqat ko'zni qamashtiradigan oq choyshab ostidan bo'rtib turgan uzuq-yuluq izga qarab yo'nalishni aniqlash mumkin. Muallima chetiga jun qoplangan kichkina etikchasini ehtiyyotlab bosarkan, agar qor aldasa, darrov qaytarib olishga shay edi.

Maktabgacha bor-yo'g'i yarim chaqirim keladi, shuning uchun muallima yelkasiga kalta po'stin tashlab, boshiga yengil jun ro'molini o'radi. Ammo ayoz zabitiga olgan, ustiga ustak, shamol esar, muz us-tidagi qor uchqunlarini uchirib, boshdan oyoqqacha separdi. Lekin yigirma to'rt yoshga kirgan muallimaga bularning barchasi juda yoqadi. Sovuqning burni va yuzidan chimdilishi ham, po'stin ostidan urib butun tanasinisovutgani ham yaxshi. Shamoldan yuz o'girib, ortiga qarab, uchli etikchasiдан qolgan qandaydir hayvoncha iziga o'xshash qator chuqurchalarga ko'zi tushdi, bu ham chiroyli ko'rinish ketdi.

* * *

Beg'ubor, nurga yo'g'rilgan yanvar tongi hayot haqida, o'zing hagingda quvonchli o'ylar uyg'otadi. Bu yerga talabalik o'rindig'idan kelganiga ikki yilgina bo'ldi, lekin mohir, tajribali rus tili o'qituvchisi degan sharaflı nom qozondi. Uvarovkada ham, Kuzminkada ham, Chyorniy Yarada ham, torf shaharchasida ham, ot zavodida ham – hamma yerda uni tanishadi, qadrlashadi va hurmat bilan chaqirishadi: Anna Vasilyevna.

Olisdag'i qarag'ayzorning tishsimon devori ortidan qor ustiga uzun soya solib quyosh ko'tarildi. Soya olisda turgan narsalarini bir-biriga yaqinlashtiradi: qadimgi cherkov qo'ng'iroqxonasingum-bazi Uvarovka qishloq kengashining pillapoyasigacha cho'zilib kel-di, o'rmonning o'ng qirg'oqdagi qarag'aylar soyasi chap qirg'oqdagi nishablikka yonboshladi, maktab metrologiya stansiyasining shamol

yo'lini ko'rsatuvchi parragi maydon o'rtasida, Anna Vasilyevnaning qadam ostida aylana boshladi.

Maydonning narigi chetidan, qarama-qarshi tomondan bir kishi ko'rindi. «Agar u yo'l berishni istamasa-chi?» – quvonchli cho'chib o'yladi Anna Vasilyevna. So'qmoqqa sig'maymiz, bir qadam chetga chiqsang – shu lahma qorga ko'milasan. Biroq u hurmatini biladi, bu yaqin atrofda uvarovkalik muallimga yo'l bermaydigan kishi yo'q.

Yuzma-yuz kelishdi. U ot zavodidan, ot minishni o'rgatuvchi Frolov ekan.

– Assalomu alaykum, Anna Vasilyevna! – Frolov pishiq, sochi kalta olingen boshidagi qalpog'ini olib ta'zim qildi.

– Vaalaykum assalom! Tez kiyib oling, shamollab qolasiz!..

Frolovning o'zi ham qalpog'ini darrov bostirib kiymoqchi edi, ammo-lekin endi atayin tutib turdi, sovuqni pisand qilmasligini ko'rsatib qo'ygisi keldi. Uning yuzi pushtirang, silliq, hozir hammomdan chiqib kelayotganga o'xshaydi; kalta po'stini tekis, yengil qaddiga yopishib turar, qo'lida ingichka, ilonchaga o'xhash tayoq-cha bo'lib, piyemasining qo'njiga urib, yopishgan qorni qoqib borar edi.

– Mening Lyosham qalay, sho'xlik qilmayaptimi? – hurmat bilan so'radi Frolov.

– Bo'lmasam-chi, sho'xlik qiladi-da. O'g'il bola sho'x bo'ladi. Faqat chegaradan chiqib ketmasa bo'ldi, – pedagogik tajribasi asosida javob berdi Anna Vasilyevna.

Frolov tirjaydi:

– Lyoshkam tartibli, otasining o'zi!

U o'zini chetga oldi va tizzasigacha qorga botib, bo'yi beshinchisinf bolasiday pasayib ketdi. Anna Vasilyevna unga yuqoridan pastga qarab bosh egib qo'ygach, yo'lida davom etdi.

Maktabning ikki qavatli binosi ayoz bezagan derazalari tovlanib katta yo'l yoqasida, pastak to'siq ortida turardi. Katta yo'lgacha yoqqan qor maktabning qizil rangi urib alvon tusda ko'rindi. Maktab Uvarovka tarafga, katta yo'l chetiga qurilgan, chunki bu yerda yaqin atrofdagi barcha bolalar o'qishadi: atrofdagi qishloqlar, ot zavodi shaharchasi, neftchilar sanatoriysi va uzoqdagi torf shaharchasidan ham kelishadi. Hozir maktab darvozasi tomonga ro'mol va

qalpoqchalar, qulochinli telpaklar va boshqa issiq bosh kiyimlariga burkangan bolalar anxorday oqardi.

– Assalomu alaykum, Anna Vasilyevna! – har lahzada yangroq va aniq, ko'zigacha bo'yinbog' va ro'mol o'ragan bolalarning arang eshitiladigan noaniq ovozları eshitiladi.

Anna Vasilyevnaning birinchi darsi beshinchi «A» sinfdan boshlanadi. Muallima darsga chorlovchi qulochinli qomatga keltiradigan qo'ng'iroq chalinmay turib, xonaga kirib bordi. Bolalar ahil o'rnidan turdi, salomlashdi va yana joylariga o'tirdi. Birdaniga jimplik cho'kmadi. Partalar qopqog'i taqilladi, o'tirg'ichlar g'ijirladi, kimdir chuqur xo'rsinib, go'yo tonggi osuda kayfiyat bilan xayrashdi.

– Bugun biz gap bo'laklarini o'rganishda davom etamiz...

Sinf suv quyganday tinchib qoldi. Katta yo'ldan o'tayotgan ma-shinalarning shuvillab o'tishi eshitildi.

Anna Vasilyevna o'tgan yili darsga kirishdan oldin qanday hajyonlanganini esladi, xuddi imtihon topshirgani kirgan o'quvchiga o'xshar, aytadigan so'zini dilida takrorlab olardi: «Ot deb gapning shunday bo'lagiga... ot deb gapning shunday bo'lagiga...» Yana uni kulgili bir qo'rquv azoblardi: birdan bolalarga tushuntirib berolmasam-chi?..

Anna Vasilyevna yodiga tushgan voqeadan kulib qo'ydi-da, og'ir ruchkasi bilan to'g'nog'ichini to'g'rilib qo'ygach, ravon, ishonchli ohangda, xotirjamligi va butun tanasidagi haroratni his qilgan holda, boshladi:

– Ot deb shunday gap bo'lagi aytildiki, u narsa va hodisalarini anglatadi. Grammatikada narsa va hodisalarining kim va nima ekanini bildiradi va quyidagi savollarga javob bo'ladi. Masalan, «Bu kim?» – «O'quvchi». Yoki: «Bu nima?» – «Kitob».

– Mumkinmi?

Qiya ochiq eshik yonida kichikroq jussa turar, poyma-poy kiyilgan piyma chetida erigan muz parchalari yaltirar edi. Uning ayoz chimdilagan yumaloq yuzi lovullar, xuddi lavlagi bilan artilganday, qoshi esa qirovdan oqarib ko'rinar edi.

– Yana kechikdingmi, Savushkin? – Ko'pchilik yosh muallimlar singari Anna Vasilyevna ham qattiqqo'l bo'lishni istar, biroq hozir ovozi shikoyatomuz chiqdi.

Muallima sinfga kirishga ruxsat bergach, Savushkin lip etib o'z o'miga borib o'tirdi. Anna Vasilyevna bola katak so'mkasini parta ustiga qo'ygach, yonidagi o'rtog'idan boshini burmay nimadir so'radi – ehtimol: «U nimani tushuntiryapti?» degandir.

Savushkinning kech qolganidan Anna Vasilyevnaning jahli chiqdi, bolakay yaxshi kayfiyatda boshlangan kunga betartibligi bilan raxna soldi. Savushkinning intizomsizligidan geografiya o'qituvchisi ham shikoyat qilgan – miqtidan kelgan, ozg'in kampirsho, xuddi tun-gi parvona kapalakka o'xshaydi. U umuman bolalar ustidan tez-tez arz qilib turadi – dam sinfda shovqin bo'lishi, dam o'quvchilarining quloqsizligidan noliyi. «Birinchi darslar shunchalik og'irki!» – xo'rsinadi kampirsho. «To'g'ri, kim o'quvchilar diqqatini o'ziga qaratolmasa, darsini qiziqarli o'tolmaydi» – o'shanda o'ziga ishonch bilan o'ylagan Anna Vasilyevna kampirshoga dars vaqtini almashtirishni taklif qilgandi. Endi anchagina ziyrak tortgan Anna Vasilyevna bergen taklifga gina qilganday qaragan kampirshoning oldida o'zini aybdor his qildi..

– Hammasi tushunarlimi? – Anna Vasilyevna sinfga murojaat qildi.

– Tushunarli!.. Tushunarli!.. – bir ovozdan javob berdi bolalar.

– Yaxshi. Unda misollar keltiring.

Bir necha daqiqa jimlik cho'kdi, keyin kimdir bo'shashib:

– Mushuk... – dedi.

– To'g'ri, – dedi Anna Vasilyevna, o'tgan yili ham bolalar misollarni «mushuk» so'zidan boshlaganini esladi.

Shunda kimdir xayolini bo'ldi:

– Deraza!.. Stol!.. Uy!.. Yo'l!..

– To'g'ri, – dedi Anna Vasilyevna, bolalar aytgan misollarni takrorlab.

Sinf quvonchdan shovqin ko'tardi. Anna Vasilyevnani bolalar o'ziga ma'lum narsalar nomini aytgani va ularning yangi, odatdagidan tashqari qirrasini bilib zavqlanishgani hayratda qoldirdi. Misollar doirasi kengayib borardi, ammo bolalar birinchi navbatda nisbatan yaqin, qo'lida ushlab ko'rsa bo'ladigan narsalarni aytib o'tishdi: g'ildirak, traktor, quduq, chug'urchiq uyasi...

Oxirgi, baqaloq Vasyata o'tirgan partadan ingichka va qat'iy ta'kidlangan ovoz keldi:

– Mix... mix... mix...

Ammo kimdir baland ovozda:

– Shahar... – dedi.

– Shahar – yaxshi! – tasdiqladi Anna Vasilyevna.

Shu lahzada birdan yangradi:

– Ko'cha... Metro... Tramvay... Kinokartina...

– Yetarli, – dedi Anna Vasilyevna. – Ko'rib turibman, tushundingiz.

Ovozlar istar-istamas tindi, faqat baqaloq Vasyata hali ham o'zining tasdiqlanmagan «mix»ini takrorlardi. Shunda birdan, uyqudan uyg'onganday, Savushkin o'rnidan turdi-da, qichqirdi:

– Qishki eman!

Bolalar gur etib kulib yubordi.

– Jim! – Anna Vasilyevna kafti bilan stolni urdi.

– Qishki eman! – takrorladi Savushkin, o'rtoqlarining kulganiga ham, o'qituvchining qichqirig'iga ham parvo qilmay.

U boshqa o'quvchilardan boshqacharoq ohangda aytди. So'z qalbining qa'ridan otilib chiqdi, xuddi e'tirofday, muqaddas sirday, bu so'z to'lib-toshib aytilgani sezildi. Uning g'ayritabiiy hayajonini tu-shunmagan Anna Vasilyevna jahlini arang bosib:

– Nega qishki? Shunchaki eman, – dedi.

– Shunchaki eman – nima bo'pti! Qishki eman – buni ot desa bo'ladi!

– O'tir, Savushkin. Mana, darsga kechikish oqibati. «Eman» – ot, «qishki» nimaligini keyin o'tamiz. Katta tanaffusda, marhamat qilib, o'qituvchilar xonasiga kir.

– Mana senga «qishki eman»! – kimdir orqa partadan xixilab kului.

Savushkin o'z fikridan qandaydir mammun holda, jilmayib joyiga o'tirdi, muallimaning qahrli so'ziga zarracha e'tibor bermadi.

«Tarbiyasi og'ir bola», – o'yladi Anna Vasilyevna.

Dars davom etdi...

– O'tir, – dedi Anna Vasilyevna, Savushkin o'qituvchilar xonasiga kirganda.

Bola mammuniyat bilan yumshoq oromkursiga o'tirdi va yumshoq o'rindiqda bir necha marta siltanib qo'ydi.

– Omon bo'lgur, tushuntirib ber-chi, nega har doim darsga kech kelasan?

– Shunchaki bilmayman, Anna Vasilyevna. – U kattalardek qo'lini ikki tomonga yoydi: – Men har doim bir soat oldin yo'lga chiqaman.

Arzimas ishlar sababini topish qanchalar qiyin! Ko'pchilik bolalar Savushkinga qaraganda uzoqroqdan keladi, ular ham yo'lga bir soatdan ko'p vaqt sarflamaydi.

– Sen Kuzminkada turasanmi?

– Yo'q, sanatoriya tarafda.

– Bir soat oldin chiqaman, deyish uyatmasmi? Sanatoriyadan katta yo'lгacha o'n besh daqiqa yurasan, katta yo'lдан bu yog'iga yarim soatdan ko'p vaqt ketmaydi.

– Men katta yo'lдан kelmayman. Qisqa so'qmoqdan kelaman, to'g'ri o'rmonni kesaman. – dedi Savushkin, bu ahvoldan o'zi ham ajablanib.

– Kesaman emas, kesib o'taman, – odatiga ko'ra gapni to'g'rilib qo'ydi Anna Vasilyevna.

Har doim bolalar yolg'on gapisra, ko'ngli g'ash, ta'bi xira bo'ladi. U sukut saqlab, Savushkinning bitta so'zni aytishini kutdi: «Ke-chiring, Anna Vasilyevna, men bolalar bilan qorbo'ron o'ynaganim uchun kechikdim», deyishini yoki shunga o'xshash oddiy, ochiq tan olishini kutgandi. Lekin Savushkinning katta kulrang ko'zлari tik bo-qar va bu qarashda shunday ma'no bor edi: «Xullas, hammasini gaplashib oldik, mendan yana senga nima kerak?».

– Yomon, Savushkin, juda yomon! Ota-onang bilan gaplashib qo'yishga to'g'ri keladi.

– Anna Vasilyevna, mening oyim bor, xolos. – jilmaydi Savushkin.

Anna Vasilyevna sal qizardi. U Savushkinning oyisini esladi, «hammom enagasi», o'g'li onasini shunday ataydi. U sanatoriyaning shifobaxsh suvda davolash bo'limida ishlaydi. Ozg'in, horg'in yuradigan, issiq suvdan oqargan qo'llari yumshoq lattaga o'xshab qolgan ayol. Yolg'iz, eri urushdan qaytmagan, Kolyadan tashqari yana uch bolani yedirib-ichirib, ulg'aytirayapti.

To'g'ri, Savushkinaning o'z tashvishlari yetib-ortadi. Baribir unga uchrashish kerak. Mayli, hozir yoqimsiz tuyulishi mumkin, bi-roq keyinchalik o'z bolalariga bir xilda mehr bermayotganini tushu-nadi.

- Oyingni yoniga borishga to'g'ri keladi.
- Boring, Anna Vasilyevna. Oyim juda xursand bo'ladi!
- Ammo uni xursand qilolmayman. Oying ertalab ishga ketadimi?
- Yo'q, u ikkinchi navbatda, soat uchdan...
- Juda ajoyib! Men darsimni ikkida yakunlayman. Ishdan so'ng, o'zing birga olib borasan.

Savushkin Anna Vasilyevnani boshlab ketgan so'qmoq shundoq maktabning orqasidan boshlanadi. Ular o'rmon oralab arang bori-shar va qoraqarag'aylar qorli panjasи bilan yelkasiga qoqib qo'yар, qirov qoplagan sokin, maftunkor olam hayratga solar edi. Hakka va qarg'alar shoxdan shoxga uchib, novdalardagi qorni qoqar, yong'oq uzishar, ba'zan qanotini yozib, quruq novdalarni sindirib pastga tashlar edi. Bu yerda hech qanday ovoz taralmasdi.

* * *

Atrof oppoq, eng mitti daraxtlargacha, mayda shoxgacha – bar-chasini qor qoplagan. Faqat oq qayinlarning shamol tebratgan uchlari-dagi qor to'kilib, moviy osmon bag'rida mo'yqalamdaday ingichka novdalar qorayib ko'rindi.

So'qmoq jilg'a yoqasida cho'zilib yotibdi, goh unga tenglashib, o'zanga mos buralsa, goh anhordan balandga ko'tarilib, tik nishabliklar ustidan boradi.

Ba'zida daraxtlar ikki tomonga yoyilib, quyoshli, yorug' yalanglikka chiqib qolar, shunda quyonlarning soat zanjiriga o'xhash izlari ko'zga tashlanar edi. Uchta barmoqli katta-katta izlar ham duch kelardi, bular qandaydir katta hayvonning panjasiga o'xshaydi. Izlar bo'ronda sinib tushgan shoxlar va changalzorlar orasiga kirib g'oyib bo'lardi.

– Ayrishoh o'tibdi! – Anna Vasilyevnaning izlarga qiziqib qaraganini sezgan Savushkin xuddi qadrdon tanishi haqidagi gapirganday. – Sira qo'rwmang, – qo'shimcha qildi u muallimaning o'rmon qa'riga tikilgan ko'zlariga qarab, – bu bug'u, yuvosh bo'ladi.

– Sen uni ko'rganmisan? – jo'shib so'radi Anna Vasilyevna.
– O'zinimi?.. Tiriginimi?.. – Savushkin xo'rsindi. – Yo'q, qarshidan chiqmagan. Uni manavi yong'oqlar ko'rgan.

– Nima?

– To'ngaklar, – uyalganday tushuntirdi Savushkin.

Egilgan shoxlar ravog'idan o'tgandan so'ng so'qmoq yana jilg'a qirg'og'iga qadalib oldi. Jilg'aning ayrim joylari qalin qor choyshabiga yopingan, ayrim joylarini tiniq muz zirhi qoplagan, ostidan oqayotgan zilol suv jilolandı.

– Nega jilg'a to'liq muzlamagan? – so'radi Anna Vasilyevna.

– Tubida issiq buloqlar bor. Ana, jildirashini ko'ryapsizmi?

Kenglikka chiqib egilgan Anna Vasilyevna suv tubidan ingichka ipday miltiragan suv jilvasini ko'rди: ipday suv yuzaga chiqmay, mavjlanib tarqalib ketardi. Bu mavjlangan ingichka ustuncha marvaridgulga o'xshardi.

– Bu yerda buloqchalar qaynab chiqadi, – lof urdi Savushkin. – Jilg'a qor tagidayam oqaveradi...

U qorni surgandi, qatronday qora, ammo tiniq suv ko'rindi.

Anna Vasilyevna suvga tushgan qor erimay, aksincha – darrov quyuqlashib, ilviragan suv o'tiga o'xshab qolayotganini ko'rди. U mahliyo bo'lib qoldi va etikchasining uchida qorni qoqib suvga tu-shirdi, katta-katta qor bo'laklaridan qandaydir shakllar paydo bo'ldi. Bu manzaraga qiziqib, Savushkinning ilgarilab ketgani va jilg'a ustiga egilgan baland shoxga o'tirib, kutayoganini sezmay qoldi. Anna Vasilyevna Savushkinga yetib oldi. Shu yerga kelganda qaynoq bu-loqlar tugab, jilg'aning ustini yupqa, yelimday muz qopladi. Uning marmar yuzasida tez va yengil soyalar uchardi.

– Qara, muzning yupqaligini, tagidagi suvning oqishiyam ko'rindi!

– Sizni qarang-u, Anna Vasilyevna! Men novdani silkitdim, mana, soya chopyapti...

Anna Vasilyevna tilini tishladi. Aftidan, bu o'rmonda jim yurgani yaxshiroq, shekilli.

Savushkin yana muallimasining oldiga tushib, sal sakrab-sakrab, atrofiga sinchiklab boqib, yo'l ko'rsatdi.

O'rmon esa hamon o'zining mashaqqatlari va chalg'ituvchi yo'l-laridan boshladi. Bu daraxtlar va nishabliklar, bu sukunat va quyoshning olachalpoq nurlari sochilgan yerlarning oxiri yo'qdek tuyuldi.

Kutilmaganda uzoqda kulrang-moviy tirqish ko'rindi. Changal-zorlar tugab, yalanglik va yorug'lik mulki boshlandi. Mana endi tir-

qish emas, balki keng, quyosh nuridan charog'on kenglik namoyon bo'ldi. O'sha tarafda sanoqsiz muz yulduzchalar porlar, tovlanar edi.

So'qmoq do'lana daraxti ostidan o'tgach, o'rmon keskin ikki to-monga ayrlidi: yalanglik o'rtasida oppoq, libosi tovlanib, ulkan va ulug'vor, xuddi cherkovday ulkan eman turardi. Daraxtlar har tomon-ga yoyilib, katta og'asi erkin o'sishi uchun yalanglik yaratgandek tuyuldi. Uning pastki novdalari yerga chodir kabi yoyilib tushibdi. Kuzda qurigan yaproqlari deyarli to'kilmagan, uch-uchigacha qorga burkanibdi.

– Mana, o'sha qishki eman!

Unda minglab mitti ko'zguchalar tovlanardi, Anna Vasilyevna-ga shu lahzalarda bitta shoxdag'i manzara emanning butun bor-lig'ida, barcha shoxlarida ming martalab takror ko'rindi. Emanning yaqinida nafas olish juda yengil, chuqur qish uyqusida bo'lsa-da, ko'rkmalikning sehrli iforini taratib turganga o'xshardi.

Anna Vasilyevna eman tarafga dadil yurib bordi, o'rmonning quadratli, olivjanob posboni muallimani qarshilab shoxlarini silkitdi. Uning qalbida nimalar kechayotganini sezmag'an Savushkin eman-ning poyiga kelib, eski qadroniday quchib oldi.

– Anna Vasilyevna, bum qarang!..

U kuchanib yerga yopishib turgan, quruq o't-o'lanlar yopish-gan katta qor bo'lagini nari surdi. Bu chuqurchada o'rgimchakk'a o'xhash nozik yaproqlarga o'ralgan koptokcha yotardi. Yaproqlar orasidan o'tkir ninalar chiqib turardi. Anna Vasilyevna tipratikanni ko'rib hayratda qoldi.

– Buni qarang, chirmanib olganini qarang! – Savushkin g'am-xo'rlik qilib, tipratikanni oddiy choyshabiga o'rav qo'ydi.

Keyin u boshqa ildiz ustidagi qorni kavladi. Gumbaziga sumalaklar osilgan kichkinagini g'or ochildi. U yerda o'tirgan jigarrang qurbaqa xuddi qattiq qog'ozdan yasalgan o'yinchoqqa o'xshaydi; uning suyagiga yopishgan terisi loklanganday yaltiraydi. Savushkin qurbaqaga qo'l tekkizdi, ammo u qimirlamadi.

– Aldayapti, – kuld'i Savushkin, – xuddi jonsizdek. Quyoshga chiqsa bormi, shunaqangi sakraydiki!

U o'z olami bo'y lab sayohatini davom ettirdi. Eman ostida juda ko'p ijarada yashovchilar bor ekan: qo'ng'iz, kaltakesak, turli qurt-qumusqalar. Ba'zilari ildiz orasiga, boshqalari po'stloq ostiga yashi-

ringan: ozib ketishgan, xuddi ichlari bo'shga o'xshaydi, qishlaganda dong qotib uqlasharkan. Qudratli, hayotga tashna daraxt atrofida shunchalik iliq makon yaratibdiki, bechora jonzotlar yashashga bundan ortiq qulay boshpana topisholmasdi.

Anna Vasilyevna qiziqib va quvonib o'rmonning noma'lum, sirli hayotini kuzatarkan, Savushkinning tashvishli ovozi eshitildi:

– Voy, oyimni ko'rishga ulgurmay qolamiz-ku!

Anna Vasilyevna cho'chib tushdi va shoshib, qo'l soatiga ko'z tashladи – uchdan chorakta o'tibdi. U o'zini xuddi tuzoqqa tushib qolganday his qildi. Xayolida arzimas hiylasi uchun emandan uzr so'raganday, shunday dedi:

– Nimayam derdim, Savushkin, demak, yaqin yo'l to'g'ri kelmaydi. Katta yo'ldan yurishingga to'g'ri keladi.

Savushkin javoban hech so'z demadi, faqat boshini quyi soldi.

«Xudoym! – buning ortidan o'yaldi Anna Vasilyevna. – O'z ojizligingni bundan aniqroq tan olish mumkinmi?» Bugungi va boshqa kunlarda o'tgan darslarini esladi: so'z haqida, til haqida qanchalar quruq so'zlaydi, so'zsiz odam dunyo oldida soqov, hissiz; hayotni saxiy va go'zal qiladigan, mo'jizali va boy, jonli, hamisha yangilanib turadigan til haqida quruq tushuntirish bilan cheklanadi-ya.

Yana o'zini mohir muallima deb sanaydi! Balki butun insoniyat hayotining maqsad sari boradigan yo'lidan bir qadam ham olg'a bosmagan bo'lsa kerak. Ha, o'sha yo'l qayerda? Uni topish shunchaki oson emas, Kashchey do'konining kalitimas bu. Lekin bolalar «traktor», «quduq», «chug'urchuq uyasi» deb qichqirishganda o'ziga noma'lum quvonchga to'lganida emas – u birinchi ishoraga ma'yus termildi.

– Qani, Savushkin, sayr-u sayohat uchun senga rahmat! Albatta, sen bu yo'ldan ham yurishing mumkin.

– Rahmat, Anna Vasilyevna!

Savushkinning yuzi qizardi. U muallimaga qayta hech qachon darsga kech qolmasligini aytmoqchilagini, lekin yolg'onchi bo'lib qolishdan cho'chiganini aytmoqchi edi. U paltosinig yoqasini ko'tardi va quloqchinli telpagini bostirib kiydi:

– Sizni kuzatib qo'yaman...

– Keragi yo'q, Savushkin, o'zim yetib olaman.

U muallimaga gumonsirab qaradi, keyin yerdan tayoqchanini oldi-da, qiyshiq uchini sindirib tashlab, Anna Vasilyevnaga uzatdi:

— Agar ayrishoh duch kelsa, yelkasiga sekin turtib qo'yasiz, yo'l beradi. Yaxshisi, tayoqni shunchaki silkiting — yetarli! Yo'qsa, u xafa bo'lib, o'rmondan butunlay ketib qolishi mumkin.

— Yaxshi, Savushkin, uni urmayman.

Uzoqqa ketmay turib, Anna Vasilyevna so'nggi bor shafaq nurlarida oqish-pushti tovlangan emanga boqdi va uning ostidagi qora gavdani ko'rди: Savushkin ketmabdi, uzoqdan muallimasini qo'riqlab turibdi. Anna Vasilyevna butun qalb harorati ila tushundi-ki, bu o'rmondagи eng hayratlanarli narsa qishki eman emas, balki poyma-poy piymali, eskiroq kiyimdagи, Vatan uchun qurbon bo'lган askar va «hammom enagasi»ning o'g'ли, keljakning ajoyib va sirli fuqarosi — kichkina odam ekanini tushundi.

Muallima unga qo'lida ishora qilib, ilonizi so'qmoqdan asta yurib ketdi.



BIRINCHI DO'STIM, BEBAHO DO'STIM

Biz xonadonlarimizga bitta yo'lakdan kirib chiqardik, ammo bir-birimizni tanimasdik. Katta uyimizdag'i barcha xonadonlarning bolalari hovlidagi jamoaga qo'shilavermasdi. Ayrim ota-onalar o'z farzandini hovlining zararli ta'siridan saqlab, Lazarev instituti qarshisidagi batartib bog'ga yoki keksa zaranglarning panjasimon yaroqlari boyon Matveyevlar qabriga soya solgan cherkov chorborg'iga yuborishardi.

U yerda munkillagan xudojo'y enagalarining nazoratidan bezor bolalar bog'dagi shov-shuvlarga ko'milgan sirlarni o'g'irincha bilishga oshiqardi. Statskiy maslahatchi, kavaler Lazarevga o'rnatilgan yodgorlik supasidagi va boyon qabri devoridagi toshga o'yilgan bitiklarni qo'rqa-pisa sinchiklab o'qishardi. Mening bo'lajak do'stim, o'zi sababchi bo'limgan holda, shu achinarli xonaki bolalar safiga qo'shilib qolgandi.

Armanlar torko'chasi va shu atrofdagi har xil ko'chalarda yashaydigan bolalar Pokrovkaning boshqa tarafida yonma-yon tushgan ikkita mакtabda o'qishadi. Biri Starosadskda, olmonlar kirkasi - cherkovi yonida, ikkinchisi Spasoglinishchevsk torko'chasida joylashgan. Omadim yurishmadi. Men birinchi sinfga borgan yilim bolalar oqimi shunchalik ko'p bo'ldiki, bu maktablarda o'qishni istaganlarni barchasini ham qamrayolmadim. Bir guruh bolalar qatori men ham uzoqdagi, Tiniq ko'ldan narida joylashgan 40-maktabga qabul qilindim.

Peshonamiz sho'rligini darrov tushundik. Bu yerda tiniqko'lliklar hukmini o'tkazar, biz esa begona, chaqirilmagan kelgindi sanalar-dik. Vaqt kelib, barcha bolalar maktab bayrog'i ostida teng-u yagona bo'ldi. Biroq boshida o'z-o'zini saqlash sezgisi barchani ahil guruh bo'lishga undadi. Biz tanaffuslarda bir davraga yig'ilishib turar, to'dalashib maktabga borar va shunday holda uyga qaytar edik. Eng xavfli joy xiyobondan o'tib olish, bu yerga kelganda harbiylar singari

saf tortardik. Telegraf tuyulishiga yetganda, biroz xotirjam tortib, Potapovskdan narida o'zimizni butunlay erkin sezib, to's-to' polonni boshlab yuborardik, baqirib qo'shiq aytardik, olishardik, qish kelishi bilan qorbo'ron jangi avjiga chiqardi.

Bu bo'ychan, ozg'in, sepkili oqish, yuzining yarmini egallagan kulrang-moviy ko'zli bolani Telegraf ko'chasida birinchi ko'rishim. Bir chetda, boshini yelkasiga tortib turgancha bizning ermaklarimizni havas-u hayrat bilan tomosha qilardi. O'rtoqlarcha ayamay, ammolik begonaning qo'llari ko'ngilchanlik qilmay, boshqaning og'zi yoki ko'zlariga qor ishqaganini ko'rib, seskanib tushar, sho'xligi tutib jur'atsiz kular, tortinchoqligi bois zavqlanib yuzini ozgina qizillik qoplar edi. Bir payt boshqalarga qaraganda o'yinga aloqasi bo'limgan holda, qattiq qichqirayotganimni, ortiqcha, o'rinsiz, soxta, dadil harakat qilayotganimni fahmlab qoldim. Begona bola oldida o'zimni ko'rsatishga uringanimni sezdim va u ko'zimga yomon ko'rindi. U yonimizda nima qilyapti o'zi? Unga nima kerak? Dushmanlarimiz yubormaganmikin?.. O'zimizning bolalarga bu fikrimni aytgandim, ustidan rosa kulishdi:

– Jinni bo'lganmisan? Bizning uyda turadi-ku!..

Ma'lum bo'lishicha, bolakay men bilan deyarli qo'shni, bir qavat pastda yasharkan, bitta maktabda, yonma-yon sinfda o'qirkhan. Qiziq, hech qachon uchrashmaganmizni qarang! Men chag'irko'z bolaga muomalaman tez o'zgartirdim. Uning sezilmas o'jarligi nozik nazokatga aylandi: u bizning to'daga qo'shilib yurishga haqli, biroq xirapashsha bo'lishni istamaydi, chaqirishimizni sabr qilib kutadi. Bu vazifani o'z zimmamga oldim.

Navbatdagi qor jangida men unga qor ota boshladim. Uning yelkasiga tekkan birinchi qordan avvaliga ensasi qotdi, biroz jahli chiqdi, keyingisi – yuzida jur'atsiz kulgi paydo qildi va uchinchi qor tekkandan so'ng o'zini bizning safimizda kirganiga ishondi va bir bo'lak qorni yumaloqlab meni nishonga oldi.

Jangimiz yakunlangach, undan so'radim:

- Sen bizning pastimizda yashaysanmi?
- Ha, – dedi bola. – Bizning deraza Telegraf tomonga qaragan.
- Demak, Katya xolaning pastida turasanmi? Uylaring bir xonalimi?
- Ikki. Ikkinchisi qorong'i.

– Biznikiyam shunday. Lekin yorug‘i axlato‘ra tomonga qaragan.– Ushbu kiborlarga xos suhbatdan keyin o‘zimni tanishtirishga qaror qildim: – Ismim Yura, seniki-chi?

Bolakay:

– Pavlik, – dedi.

O‘shanga ham qirq uch yil bo‘libdi... Keyinchalik qancha tanishbilishlar orttirdim, qulog‘imda qancha ismlar jarangladi, qor qoplagan Moskvadagi torko‘chada bir bo‘ychan bola shivirlab o‘zini tanishtirgan o‘sha lahzaga hech qaysinisini tenglashtirib bo‘lmaydi: Pavlik.

Bu bola shaxsiyatida qanchalar ko‘p o‘ziga xos fazilatlar mu-jassam edi, keyinchalik o‘smir – katta kishi bo‘lish taqdirida yo‘q ekan – boshqa kishilarning qalbida ishonch uyg‘otishning uddasidan chiqdi va bolaligida butun muhabbatimizni qozondi. So‘z yo‘q, men o‘tmish ruhini chorlashni yaxshi biladiganlardan biriman, ammo kechmishning g‘ira-shira olamida emas, bugunning shafqatsiz dunyosida yashayman va Pavlik mening xotiramda emas, hayotdagি yo‘ldoshim bo‘lib qoldi. Ba’zi-ba’zida u mening borlig‘imda yashayotganini shunchalar kuchli his etamanki, birdan ishonch tug‘iladi: agar ruhing tiriklar jismiga ko‘chsa, demak, sen o‘lmasansan. Balki bu barhayotlik emasdир, ammo-lekin o‘lim ustidan g‘alaba demak. Pavlik haqida zo‘r asar yozolmasligimni yaxshi bilaman. Bilmadim, qachondir yozarmakinman... Men juda ko‘p narsani tushunmayman, hayotdagи ramzlar orasida yigirma yoshli yigitchaning o‘limini nima ifodalaydi. Nima bo‘lganda ham, u mana shu kitobda bo‘lishi kerak, uningsiz, Andrey Platonovning¹ so‘zlari bilan aytganda, bolalagim-dagi kishilik dunyosi kemtik bo‘lib qoladi.

Bizning tanishuv avvaliga mendan ko‘ra Pavlikka katta ahamiyat kasb etdi. Men do‘splashuv sinovlaridan o‘tib bo‘lgandim. Oddiy va qadrli do‘srlarimdan boshqa yana bir eski do‘stim, qalin sochi qora, qizlarga o‘xshatib tuzalgan Mitya Grebennikov bor edi. Bizning do‘sligimiz beg‘ubor uch yarim yoshimizdan boshlangan va hozir-gacha besh yillik tarixga ega.

Mitya ham bizning uyimizda turardi, biroq bir yil avval uning ota-onasi xonadonini almashtirdi. Mitya Sverchkov va Potapovsk

¹ Andrey Platonovich Platonov (1889–1951) – atoqli rus adibi.

ko'chalari kesishgan burchakdagi olti qavatli katta uyga ko'chib o'tdi-yu, o'zidan ketdi. Uy haqiqatan yaxshi, ko'rinishi muhtasham, eshiklari katta, keng ravon lifti bor. Mitya uyini maqtab charchamasdi: «Moskvaga oltinchi qavatdan boqqaningda...», «Tushunmayman, odamlar liftsiz qanday yasharkin...» va hokazo. Men juda yaxshi eslaymanki, u yaqinginada bizning uyda liftsiz ham yashagandi. Mitya menga namchil, qora, olxo'riqoqiga o'xshagan ko'zlarini qadab, o'sha davrni hozir qo'rquinchli tushday eslashini aytdi. Bu qilig'i uchun basharasini bejab qo'yish kerak edi. Ammo Mitya nafaqat tashqi tomondan qizlarga o'xshardi – uning ko'ngli nozik, ta'sirchan, darrov ko'z yoshi qiladi, g'azablansa, shunday jazava ga tushadiki, xullas, unga qo'l ko'tarib bo'lmaydi. Baribir po'stagini qoqmasam bo'ljadi. U jazavaga tushib, meva archadigan pichoqni olib menga tashlandi. Lekin qizlarga o'xshab gina saqlamaydi, ertasi kuni yarashgani keladi. «Bizning do'stligimiz o'zimizdan ko'ra qadrliroq, uni yo'qotishga haqqimiz yo'q» – qarang, qanday iboralar o'ylab topadi yana. Uning otasi advokat, Mityaga so'zamollik otasidan yuqqan.

Bebaho do'stligimiz maktabda o'qish boshlangan birinchi kuniyoq barham topishiga bir baxyal qoldi. Bitta maktabga boradigan bo'ldik, onalarimiz bitta partaga o'tqazishga muvaffaq bo'lishdi. O'z-o'zini boshqarish bo'yicha sinf yig'ilishida Mitya mening nom-zodimni sanitarlikka ilgari surdi. Men esa, boshqa jamoat ishlari aytiganda, uning nomini biron o'ringa tavsiya etolmadim.

Nega shunday bo'lganini, hayajonlandimmi yoki u mening nomimni taklif etgani uchun uni qo'llab yuborish noqulay tuyuldimi, o'zim ham bilmayman. Mitya o'shanda xafa bo'lganini zarracha sez-dirmadi, biroq men ko'pchilik ovoz bilan sanitarlikka saylanganimda ruhi tushib ketdi. Mening vazifamga yengga qizil xoch taqish, dars boshlanishidan oldin o'quvchilarning qo'li va bo'yinlarini ko'zdan kechirish, kir-chirlarni daftarga qayd etib qo'yish kiradi. Uchta xoch olgan cho'milib kelishi lozim yoki ota-onasini maktabga chaqirtiramiz. Bu lavozimning aytarli o'ziga xos tomoni yo'q, ammo-lekin Mitya hasad qilib aqldan ozay dedi. Mash'um saylov o'tgandan so'ng, oqshomda uyimga qo'ng'iroq qilib, zaharli kinoya, iztirob ohangida «o'rtoq sanitarmi?» – «Ha!» – «A, yaramas Qovg'ayev!» – deya

qichqirdi-yu, go'shakni qo'ydi. Faqat kuchli nafratlangan kishigina qandaydir «Qovg'ayev qiyofasi»ni o'ylab topishga qodir. Baribir tushunmadim: bu ism-sharifmi yoki qandaydir sirli, jirkanch illatmi?

Nega endi men boshqa bola bilan o'ttamizdag'i munosabatni batatsil hikoya qilyapman? Mityaning mijg'ovligi, ruhan tushkunligi, ta'sirchan gaplar aytishi va janjal boshlashga doimo shayligi singari nuqsonlari yarashuvning shirin hissi borligi uchun ham menga do'stlilikning zarur alomatlariday tuyula boshladi. Pavlikka yaqinlashuvim bilan, boshqa, chin do'st topganimni uzoqqacha tushunolmay yurdim. Men shunchaki, tortinchoq bolaga rahnamolik qila-yotganga o'xshardim. Avvaliga shunday, ma'lum ma'noda shunday. Pavliklar bizning uyg'a yaqinda ko'chib keldi va hali hech kim bilan do'stlashmagan, u ham Lazerev va cherkov bog'larida sayr qiladigan baxtsiz bolalar orasida edi. Ota-onasining g'amxo'rligi tamomila shu nazoratga asoslandi. Keyingi yillarda Pavlikka nimanidir taqiqlashgannini va majbur qilishganini sira ko'rmadim. U o'z erkidan to'liq foy-dalanadi. Ota-onasining g'amxo'rligini ukasiga hadya qildi, u o'zini o'zi tarbiyaladi. Men hazillashayotganim yo'q, aslida ham, shunday bo'ldi. Pavlikni uyidagilar yaxshi ko'rishadi, u ham ota-onasini hurmat qiladi, biroq o'zining ustidan boshqalar hukm yuritishiga, kun tartibini belgilashiga, qiziqishiga mone bo'lishiga, tanishuvlariga, atrof-muhitga aralashuviga, moslashuviga qarshi chiqishlariga yo'l qo'ymaydi. Bu masalada u uydagi taqiqlar ostida qolgan mendan ko'ra erkinroq. Qolaversa, bizning o'zaro munosabatlarda tiklanishiда birinchi tashabbus mendan chiqqan. Albatta, bu yerda oldindan yashab kelganim uchun emas. Ustunligim shundaki, men do'stlashib qolishimizni bilmagandim. Avvalgidek, eng yaqin do'stim Mitya Grebennikov deb hisoblardim. Hatto ajablanarli, u meni qanday ustamonlik qilib «Muqaddas do'stlik» spektaklida rol ijro etishga ko'ndirardi. Unga men bilan maktab yo'lagida quchoqlashib yurish va Tiniq ko'lida suratga tushish yoqadi. Men Mityaning buni arzimas narsa deb qaramasligiga ozgina shubha qilardim: maktabda – nima desang ham – «sanitarining do'sti» ekanini ko'rsatib qo'ygisi keladi, Tiniq ko'lning «zambarakchilari» ko'z o'ngida esa mening yonog'im kengligi va burnim kattaligi oldida o'zining nozik qizlarday chiroyli ekanidan lazzatlanadi. Fotosuratchi qora lattasini to'g'rilaguncha, tiniqko'llik g'iybatchilar biri-biridan o'zib, Mityaning olxo'riqoqi

rangli ko'zları, jirkanch «bubikopf»cha soch turmagı va ko'ksidagi qora tasmasini maqtashadi. «Qizcha, shunchaki qiz bolaning o'zi!» – to'lib-toshadi ular, bu esa tentakka xush yoqadi!

Ustiga ustak, u g'iybatchi. Bir gal sinf rahbarimiz meni darsdan keyin qolishimni so'radi va pul tikib qimor o'ynash masalasida juda qattiq tanbeh berdi. Men faqat bolalar bog'chasiga qatnaganimda urib tushirish o'ynaganman, yonimdagи yetti tiyinni yutqazib, keyin bir so'm qarz bo'lganman. Chin ko'ngildan aybimni tan olganim uchun bobom qarzimni to'lashga ko'maklashgan, shu bilan qimor o'yinini o'rganishim nihoyasiga yetgan.

Burchakka qisganimdan keyin Mitya chaqib qo'yanini tan oldi. U mening foydamni ko'zlab aytganmish, yomon odatlar qayta uyg'onishi va oshib borayotgan martabamga ta'sir ko'rsatishi mumkin ekan – u sanitar postini nazarda tutdi. Keyin Mitya ko'ziga yosh olib, «o'zimizdan ko'ra qadriroq» do'stligimizni, avvalgidek do'stlikka muqaddas ishonchni qaytarishni so'rab, riyokorlarcha o'pib qo'yishga urindi. Bularning barchasi menga soxta, yolg'on, bema'ni ko'rindi, qolaversa, ikki yil avval, agar ko'p bo'limasa, chinakam do'stlik butunlay boshqacha bo'lishini tushunib, nomunosib bolalar orasida yurganimni tushunib yetgandim. Mitya menga juda bog'lanib qolgan va o'rtadagi munosabat buzilishini og'ir oladi...

Mana, hayotimga Pavlik kirib keldi. Hovlidagi, maktabdagи bolalar xotirasida ham bizning juftlikda men boshlovchi, Pavlik esa ergashuvchi qiyofasida muhrlandi. Ichiqoralar Pavlikni menga bog'lanib qolgan deb sanaydi. Bu gap «Pavlikni kiborlar davrasiga olib kirganimdan» qolgan, avval hovlida, keyin maktabda – u bizning sinfga o'tkazilganda yana begona bola vaziyatiga tushib qoldi. Bu holda masalani ko'ndalang qo'ydim: agar tug'ilgan kunlar, Yangi yil va boshqa bayramlarga Pavlikni taklif qilmasangiz, meni ham chaqirmanglar, dedim. Pavlikni zaxiradagi o'yinchi sifatida olishga rozi bo'lishmagani uchun eng ko'p to'p uruvchi hujumchi sifatida hovlidagi futbol guruhini ham tark etdim va Pavlik bilan birga qaytdim. Shu tariqa oramizda tengsizlik paydo bo'ldi va bu keyinchalik ham barham topmadim. Hamma narsa ochiq-oydin bo'lsa ham, ko'pchilikning fikrini o'zgartirish qiyin.

Aslida, ikkimiz ham bir birimizdan kam emasmiz, ammo Pavlik ma'nан mendan ustun. Uning axloqiy qoidalari qat'iy

va vijdoni menikiga qaraganda tozaroq. Mitya bilan uzoq yillik do'stlashuvimiz izsiz ketmadı, men ma'lum ma'noda axloqiy murosalarga o'rganib bo'lgandim. Sotqinlikni kechirish sotqinlikdan katta farq qilmaydi. Pavlik vijdon sotish nimaligi haqida tasavvurga ega emas, bu borada shafqatsiz. O'n to'rt yoshlarga kirganimizda, mo'min-qobil Pavlikning qanchalik murosasiz ekanini tanamda sinab ko'rghanman.

Olmon tili darsida o'zimni shahzodadek his qilardim. Oyim mening bolalik davrimga soya solgan freyleyn Shuls mashg'ulotlariga pul to'lash uchun bekorga yozuv mashinkasi ustida ter to'kmagan. Menga maktabimizda tez-tez o'zgarib turadigan olmon tili o'qituvchilari yoqavermasdi. Boshqalarga qaraganda uzoqroq turib qolgan Yelena Fransevna ham mustasno emas, ayni vaqtida men ham uning orzusidagi o'quvchi qiyofasiga sira munosib bo'lmaganman.

U sinfda nafaqat jimlik, diqqat-e'tibor saqlashni, balki xuddi cherkovdagiday sukunat bo'lishini talab qilardi. Ozg'in, sarg'ish-kulrang qiyofasi soxta, mushtumchasi zo'r, ko'z atrofi qorayganidan xorg'in arvohni eslatuvchi Yelena Fransevna qandaydir dahshatli kasallikdan o'layotgan ayolga o'xshardi. Ammo u mutlaqo sog'lom, hatto barcha o'qituvchilarning oyog'idan chalgan tumov tarqaganda ham, hech qachon darsini qoldirmadi. U parishon bo'lib qolgan o'quvchiga baqirishi yoki kutilmaganda tasodifiy tabassum izhor etishi mumkin. Baqirishidan ham yomoni, pand-nasihat qilishi, u har bir so'zni aytganda chaqib oladi. Albatta, ko'zi tufayli Kalamush laqabiga munosib ko'rilgan – har bir maktabning o'z Kalamushi bor, aslida, ozg'in, tili o'tkir, yovuz Yelena Fransevna atayin shu laqab uchun yaralgандay edi. Chindanam, u shunchalik qahrlimi? Bolalarda bu masalada ikki xil qarash bo'lmagan. Menga u baxtsiz ayolday tuyuladi. Ammo-lekin men shahzoda edim-ku! U meni o'qishimni so'rар, shunda men «chinakam berlincha talaffuz qilganimda», uning xunuk yuzlari yosharib ketganday qizarar edi.

Biroq menga ham navbat yetdi. Yelena Fransevna hech qachon darsda mendan uyga vazifani so'ramasdi. Biz shunchaki u bilan olmoncha suhbatlashardik, yana nima kerak? Bir gal kutilmaganda xuddi oddiy o'quvchilar qatori meni doskaga chiqishimni so'radi. O'sha paytda ikki-uchta darsga kelmagandim – yoki kasal bo'lgandim, yoki

shunchaki kelmagandim – uy vazifasidan esa xabarim yo'q. Ehtimol, mening tilimni qisib olish uchun doskaga chiqarganda, qay bir darrjada zahrini sochgisi kelganmidi. Boshida hammasi yaxshi ketdi. Men qandaydir fe'lni tusladim, jo'nalish kelishigi qo'shimchasini talab qiladigan ko'makchilarni bidirlab aytib tashladim, darslikdan ko'ngilga urgan pand-nasihatdan iborat hikoyani o'qib, mazmunini qisqacha so'zlab berdim.

– Juda yaxshi, – Yelena Fransevna ingichka, oqish labini qimtdi. – Endi she'r.

– Qanaqa she'r?

– O'sha, uy vazifasi! – burro-burro gapirdi sovuqqon ohangda u.

– Vazifa bergenmidingiz?

– Darsda yulduz sanab o'tirasan! – Qiziq, u darrov qizishib ketdi. – Davangirday yigit, intizomsiz!..

– Men mакtabga kelmagandim! Kasal edim.

U menga halqa singari ko'zlarini tikib qaradi-da, sinf jurnalini varaqlay boshladi, barmoqlari titray boshladi.

– Mutlaqo to'g'ri, kelmagansan. O'rtoqlaringdan qanday vazifa berilganini so'rab olishga aqling yetmadimi?

Shartta aytishim mumkin edi – yetmadni, deb. Qo'lidan nima kelardi? «Ikki» qo'yadimi? Aslo. Shunda men boshqa yo'l topdim. Uyga vazifalarni Pavlikdan so'ragandim, u she'r haqida hech narsa demadi. Ehtimol, unutgandir. Men andak kinoya bilan, uni ham bu masalaga hazilomuz qarashga undab, Yelena Fransevnaga Pavlikdan so'raganimni aytdim.

– O'rningdan tur! – Pavlikka buyurdi olmon. – To'g'rimi?

U indamay boshini quyi solib turaverdi. Shunda men yolg'on gapirganimni fahmlab qoldim. Aynan olmon tilidan uy vazifasini so'ramagandim. Matematika, rus tili, tarix, biologiya – so'radim, olmon tili darsiga tayyorlanib kelishni o'zimga ep ko'rmasdim – har holda shahzodaman!

Yelena Fransevna butun zahrini Pavlikka sochdi. U odatiga ko'ra jim turib eshitdi, o'zini oqlamadi ham, inkor ham qilmadi, xuddi bu gaplarni o'ziga aloqasi yo'qday tutdi. Ikki daqqa o'tgach, olmon ayol tinchlandi va istagan she'rni o'qib berishimni buyurdi. Men Shillerning «Qo'lqop» nomli she'rini sharillatib aytib berdim va semiz «besh» baho oldim.

Shunday qilib, hammasi joyiga tushdi. Yo'q, joyiga tushmadi, joyidan ko'chdi! Ko'nglim to'lib, quvonib kelib joyimga o'tirsam, yonimda Pavlik yo'q. Uning darsliklari, daftarlari, «rondo» perosi g'oyib bo'libdi. Atrofimga alangladim, u orqamda, yo'lakning narigi tomonidagi bo'sh partada o'tirardi.

– Segal nima bo'ldi?..

U javob bermadi. Uning ko'zlarini qandaydir boshqacha boqardi: qip-qizil va namli. Men hech qachon Pavlikning yig'laganini ko'rmagandim. Hatto shafqatsiz, tengsiz va omadimiz yurishmagan olishuvlardan keyin ham, kuchli bolalar yig'laganda ham – og'riqdan emas, alam qilgandan yig'laydi. U hozir ham ko'z yoshini tiyib turar, ammo yuragi yig'lardi.

– Qo'ysang-chi! – dedim men. – Kalamush shunga arziydimi?

U sukul saqlab, oynaday yaltiragan ko'zlarini yon tarafimga tikdi. U Kalamushga e'tibor bergani yo'q, uni o'ylagani ham yo'q. Uning do'sti sotdi. Xotirjam, ayamasdan va hammaning ko'z o'ngida, kupa-kunduz kuni, arzimagan bahona uchun, u o'zini fido qilgan do'sti sotdi.

Hech kim o'zining pastkashligini tan olgisi kelmaydi. Men to'g'ri ish qildim, deya o'zimga taskin berishga urinardim. Nima desang ham, u menga pand berdi, balki beixtiyordir, o'zimni o'zim himoya qilishim kerak-ku. Ha, unga olmon ayol do'q urdi, albatta, ko'rgilik, lekin u hammaga ham shunday qichqiradi-ku! Mana shu singari arzimagan narsalarga e'tibor berish shartmikin?.. Agar Pavlik mening o'mimda bo'lganda, ismimni aytarmidi? Yo'q! Bundan ko'ra tilini chaynab, yutib yuboradi. Birdan bu gaplar puch emasligini tushundim. Yaqinda men Jordano Bruno¹ haqidagi «Janobning ko'ppaklari» nomli kitobni o'qidim. O'zim bilgan kishilar orasida faqat Pavlikkina Jordano Bruno singari bo'lishi mumkin... O'z haqiqati uchun... Axir, u shunday vaziyatga tushdi: Jordano kabi, Pavlik o'z hayotini olovda yoqdi. U omon qolishi mumkin edi, faqat qo'lini ko'tarsa bas...

Pavlik deyarli bir yil yoniga yo'latmadidi. Mening yarashuv niyatidagi urinishlarim «shunchaki» natija bermadi. Ammo imkoniyat bor edi: biz bir sinfdan o'qirdik, bir yo'lakdan kirib-chiqardik, yo'limiz har doim kesishib turardi. Bolalarning ziyrakligiga qoyil: ular bizning

¹ Italiyalik mashhur faylasuf, falakiyotshunos (1548–1600).

munosabatimiz teskariligini sir saqlar, ayrim nozik hollardan qutqarlar, turli noqulay vaziyatlardan chiqarib yuborishar edi. O'qituvchilar va boshqa kattalar, bizning arazligimizni bilmaganlar beixtiyor yanglishardi, Pavlik ikkimizni ajralmas do'st hisoblardi. Kimyo darsida tajriba o'tkaziladimi, jismoniy tarbiya to'garagi mashg'ulotimi, shanbalikmi, navbatchilikmi, jamoat ishlarimi – barchasida ikkimizni bir guruhga qo'yishardi. Bolalar o'sha zahoti bizni ikki tomonga ajralib ketishimizga ko'mak berishardi.

Ko'nglimda ulardan sira minnatdor emasman. Ular Pavlik bilan kutilmaganda yarashib ketishimga imkon berishmadi. Har ikki tarafning ixtiyoriga ko'ra shunchaki muomala, keyinchalik orani ochiq qilib, «qadr-qimmat» talashmay, iltifotli Mitya Grebennikov singari avvalgi do'stlikni tiklaydigan vaziyatlar tug'ildi. Ammo hech qanday natija chiqmadi: Pavlik xohlamadi. Shunchaki emas, u har qanday aylanib o'tadigan yo'llardan, mayda hiyla-nayrangdan, barcha qaltilslik, mujmallik, ikkiyuzlamachilikdan – ojiz qalblar panohidan nafratlanadi, chunki men olmon tili darsida namoyon etgan o'zligim – o'sha bola unga kerak emas.

Oradan bir yil o'tgach, uchrashib, kelishib olishimiz lozimligi haqida unga xat yozdim, u takalluf kutib o'tirmay, avvalgiday tezda xonamga ko'tarildi. Ayrim taajjublar ila sezdimki, avvalgi aybim uchun uzr so'rashim shart emas, o'tgan ishga salavot, bu haqida biron ta so'z aytish nojoiz. Pavlik aybimni eslatishni istamadi. U men o'zgarganimni tushunib yetdi, shuning uchun ham qaytib keldi.

Pol Valeri¹ aytgandi: «Yozuvchi o'zini taqdирning qandaydir shafqatsizligi ila qo'lidan kelgancha taqdirlaydi». Hozir men o'zimni Pavlikka nisbatan taqdir nohaqligi bilan taqdirladim.

Eski hovlida yig'ilganimizda u haqida yaxshi va samimiyo so'zlar eshitishni intiqib kudim. Ivanni yodga oldik, Arsenov, Tolya Simakov, Borka Solomatinni esladik, hech kim Pavlik haqida biron so'z demadi. Faqt uning qarindoshlariga xat yozishibди, bu ham oliyjanob ish, ammo rasmiyatichilikdan o'zga narsa emas...

Uni bolalar yaxshi bilishmasdi. Kamdan-kam uchraydigan ma'naviy poklik Pavlikni o'z ichki dunyosida, xilvatda yashashini taqazo etardi. Begona kishilarga u odamovi, hech narsaga qiziqmay-

¹ Farang shoiri va faylasufi (1871–1945).

digan, atrofida kechayotgan hayotning qadriga yetmaydigan boladay tuyulardi. Men yaxshi bilamanki, u kuchli, ehtirosli, maqsad sari og'ishmay intiluvchan, tiynatli bo'lib, hayotni sevib yashashga chog'langandi. Taqdir unga odamlar ko'nglidan joy olishga yo'l bermadi. Uning fe'lida rivojlanayotgan yetuklik shakllanish davrigacha yetib bormadi...

Sevgiga qaraganda do'stlikning yo'rig'i boshqa. Arzimagan narsa uchun sevib qolish mumkin, biron nimaningdir evaziga sevish esa juda qiyin. O'zining g'ayritabiyy tomonlari bo'lsa-da, do'stlik bemulohaza tuyg'u emas. Pavlikni menga tortgan sabab nimaligini va munosabatimiz boshida u menga qanday tuyulganini bilaman. Keyin yillar bizni bir-birimizga mehrimizni oshirib bordiki, mulohazaga o'rinnolmadidi.

Pavlik aqli bola. Faqat o'zining oilasidagilardan ko'ngli to'imasdi. Otasi soatsoz bo'lib, chap ko'zi zarrabin taqqanidan kattayib, yoshlanib turadi. Uni dunyoda soatdan boshqa hech narsa qiziqtirmaydi. Soatsozlar ertaklardagina oliyjanob fazilatlar va xayoliy sarguzashtlarga munosib ko'rildi. Zamonning sirli hodisalari kishini kundalik hayotdan ajratib qo'yadi. Pavlikning otasi daqiqalarni, soniyalarni, soatlarni ta'mirlardi, lekin o'zi zamondan tashqarida yashar, o'z qiziqishlari, tuyg'ulari va kurashlaridan boshqasini parvoyiga keltirmasdi. To'g'ri, ayrim ajoyib damlar ham bo'lardi, mammuniyat bilan bir gal «Kovarskiy va sevgi» nomli ajoyib spektakl ko'rgani haqidagi xotiralarini so'zlab berardi. Otasi shu haqida gap boshlasa, Pavlikning rangi oqarib ketardi.

Uning onasi kitob nashri ixtiro qilinganini bilmaydigan ayolday taassurot qoldiradi. Qolaversa, shunisi g'alatiki, uning aka-ukalari yirik olimlar bo'lib yetishgan: kimyogar va biolog. Ular bilan qarindoshlik rishtalari uzilganmadi, balki aksinchadir. Chunki kimyogar tog'asi bir gal chet el safaridan qaytgach, Pavlikka bir uyum kiyim-kechak sovg'a qilgan. Pavlikning onasi dunyoga kelgan bo'lsa ham, ko'zları to'liq ochilmaganday taassurot qoldirardi: ovozi past, qarashlari ma'nosiz, harakatlari sust. U o'ziga juda kam e'tibor berardi. Pavlik bu tor doirada qolib ketmaslik payida urinar, onasining boryo'q mehrini ukasiga baxshida qilgandi. Unga ham bir gal taajjublanib qaragan: onasi pianinoning yoniga aylanadigan o'rindiqni surib o'tirib, quruqshagan qo'llarini tugmachalar ustiga asta bosib, yupqa

qovoqlari uchib, ko'zlarini yumdi. Otasining madaniy bosqini payti-dagi singari yana Pavlikning rangi oqardi.

Bizning oiladagilarning barchasi o'ychan. Balki keragidan ham ortiqcha o'ylashardi. Oilamizda kitobga sig'inish kuchli: bobom il-miy kitoblar, otam – texnikaga oid, men oyim bilan – badiiy kitoblar va memuarlar yig'amiz. Har doim adabiyot haqida gaplashamiz, da-lil-isbot, ma'lum tasdiqlar bilan, biroq Xudo haqqi, ijod haqida gap ochilmaydi. Albatta, shunday muhitda ulg'ayib, men kitobxon bolaga aylandim. Yaxshiki, hovlidagi bolalarning salbiy ta'siri, qolaversa, dala-hovli sarguzashtlari bois kitob jinnisiga aylanib qolmadim. Pavlikka bizning oiladagi muhit va madaniyat suv bilan havodek zarus edi.

Menga uning suhbatlari ko'proq dalda berardi. Bizning mush-ketyorlar o'yinimizda u Atos¹ bo'lishdan tashqari, haqiqatan Atos tiynatiga ega edi: bekami-ko'st zamonaviy emas va barchaga olivjanob munosabatda bo'ladi.

Yildan yilga bir-birimizga yaqinroq va qadrliroq bo'lib borardik. Yoshlik arafasida bizni umumiyl muammo qiyndi – hayotdagi maqsadning noaniqligi. Savol: kim bo'lsam ekan? – bu fikr hayotiy zarurat paydo bo'lishidan oldinroq tug'ildi. Ikkimiz ham hayot sahnasida so'zsiz hisob-kitob qilishni emas, ochiq o'ynashni xohlardik. Ayrim iqtidorli bolalar o'z yo'lini belgilab bo'lgan. Slava Zubkovni matematikaning o'zi topdi, musiqa – Tolya Simakovni, tasviriy san'at – Seryoja Lepkovskiyini, sport – Arsenovni o'ziga jalb etdi. Erta ochilgan qobiliyatiga bo'ysunmas boshqa bolalar ham bo'lajak sohasini taxminan biladi: muhandislik, tibbiyot, pedagogika, qurilish. Ko'pchilik tengdoshlarimiz, bekor qiynalib o'tirmay, kundan kunga beparvo o'tishardi: maktab, futbol, kino, keyinchalik o'zi ma'lum bo'ladi.

Biz bunday sudralib o'tadigan hayotni qabul qilolmadik. Mav-humlik bizni qiyndardi. Barcha fanlarni yaxshi va teng o'zlashtirib borgandik, bizda birinchilikka intilish ehtirosi bo'lmagan, o'qish – faol ehtiros emas, shunchaki kitobxon bo'lmaydi, xuddi teatr tomoshabini yoki muzeyga qatnovchi bo'lmagandek. Bizda biron yorqin

¹ Atoqli farang adibi Aleksandr Dyuma (1802–1870) qalamiga mansub «Uch mushketyor», «Yigirma yildan so'ng» va «Vikont de Brajelon yoxud o'n yildan so'ng» asarlari qahramoni.

qobiliyat namoyon bo'limagan, biz barcha sohaga qiziqardik. Hozir o'ylasam, biz o'shanda jiddiy ma'budlar qatoriga emas, Apollon¹ izdoshlari safiga kiribmiz, ammo-lekin spektakl yoki konsertlarga qaraganda akademiklar – Lazerev va Vavilov ma'ruzalariga ko'proq qatnagandik. Biz o'zligimizni izlardik. Izlanishlar tashabbuskori – Pavlik. Unga etik moyi qaynatish g'oyasi turki berdi. Taniqli kim-yogar tog'asi ilmiy tadqiqotlarini etik moyi qaynatishdan boshlagan ekan. Bir gal shunday ajoyib etik moyi qaynatibdiki, shu bilan taniqli olimlar qatoriga qo'shilibdi. Biz butun uyni o'tkir hidga to'ldirgan bo'lsak-da, tog'a singari etik moyi qaynatish bizga nasib qilmadi. Qo'shnilar tergamasligi uchun hammaning tuflisini, Foma Zubsovning etigini moylab qo'yardik. Otam kulib, Rokfeller² emas, Lavu-aze³ shunday ish boshlagan, degandi. Bizdan hatto Rokfellerlar ham chiqmadi. Biz tayyorlagan etikmoy yaltiramasdi, ammo yaxshigina yopishib, o'sha joy dog' bo'lib qolardi, Foma Zubsov har safar xrom etigini bizdan keyin Krivokolen torko'chasi tuyulishidagi ossuriylarga qayta moylatib kelardi.

Keyin qizil bo'yoq tayyorlamoqchi bo'ldik. Suyuqlik qo'llar, kiyimlar, devorlarda va mening oqish-iflos kuchugim Jekda ham o'chmas iz qoldirdi, biroq qog'ozga yozganda negadir siyohning suvi singmay turib qolardi. Satrlar oqarinqirab, namlanar, biz kutilmagan-da «ajoyib siyoh» tayyorladik, deb ishonganimizda, bu zaharli rangni umuman o'chirib bo'limasdi.

Kimyogar tog'aning qoyilmaqom ibrati bizni noma'lum fan so-hasida zo'r berib shug'ullanishga undadi. Biz ayamasdan probirkalarni sindirib, kimyoviy tajribalar o'tkazdik; spirt lampaning ustidagi kolba yorilib, bombaday portladi, qo'shnilar sarosimaga tushib qolganda va nihoyat, Pavlik jur'at topib, shunday dedi: «Probirkadan shisha sinig'i olishni bas qilaylik!» Kimyoga taqiq belgisi qo'yildi.

Navbat kelajak fani – fizikaga keldi. Biz charchaguncha taniqli olimlar ma'ruzalarini tingladik, yosh Albert Eynshteynning suvratini devorga ilib qo'yib, nisbiylik nazariyasini o'rganishga tirishdik, hech narsani tushunmay, Noulton, Eddington, Bregg kitoblari ustida

¹ Qadim yunon mifologiyasida: nur ma'budi, san'at homiysi.

² Jon Devison Rokfeller (1839–1937) – amerikalik tadbirkor.

³ Antuan Loran Lavuaze (1743–1794) – farang tabiatshunosи, zamonaviy kimyo asoschisi.

bosh qotirdik, lekin fizikadan maktab dasturini arang o'zlashtirardik, chunki ikkimiz ham matematikaga uquvsizroqmis. Bizni... Pasternak qutqardi. «Muhofaza varaqasi»da mutlaqo eshitish qobiliyati bo'lmay bastakorlikni orzu qilgan bo'lajak shoir chekkan azoblar haqida o'qib qoldim. U ixlos qo'ygan daho Skryabin eshitish qobiliyati shakllanmagani haqida uyalib so'zlagani haqida xabar topgach, musiqani inkor qilgan ekan. Men gapni qayoqqa olib ketayotganimni Pavlik darrov tushuna qolmadı. «Zamonaviy fizik uchun matematika, bastakorga eshitish qolibiyati qanchalik muhim bo'lsa, shunchalik muhim». – «To'g'ri! – dedi u va Uitston ko'prikhiasi ustidagi simni uzib tashladi. – Jin chalsin!.. – Keyin parishonxotir qo'shimcha qildi: – Baribir, mutlaqo eshitish qobiliyatiz ham Skryabin – Skryabin bo'ldi».

Ammo Skryabin musiqasiz yasholmasdi, Pasternak esa yashadi va ortga chekindi. Biz ham fizikasiz yashay bilardik...

Ancha vaqtimiz va kuchimizni olib, lekin ko'nglimizni ololmay kunlar o'tdi: xaritalar, atlaslar, globuslar, Livingston, Stenli, Mikluxo-Maklay va Prjevalskiy haqidagi kitoblar orasida geografiya; gerbaryilar, yupqa, quritilgan gullar, o'tlar, yaproqlarning hidi, o'rtada pul yig'ib olingen zarrabin ustida botanika; qisqa tutashuvlardagi uchqun chiqishlari va nihoyat, bitta jiddiy yong'in bilan elektrotexnika – qizil mashinalar vahimali qo'ng'iroq chalib keldi, avval yassi ko'ringan, keyin katta ilonday shishgan uzun ichakni tortib oltin kas-kali chaqqon o't o'chiruvchilar...

Bizni ishdan charchab dam olishimiz ham maqsadli va holdan toydirar darajada bo'lardi. «Tanaffus!» – xitob qiladi Pavlik burniga stol bilyardi kiyini tirab, yoki stulni, pol yuvgichni yoki gulni – agar-da yoz bo'lsa. Men tezda uning harakatiga taqlid qilaman.

Biz myuzik-xollda avstriyalik ko'zboylog'ich, sehrgar gastrol-chining chiqishlarini tomosha qilib, muvozanat saqlashni o'rgandik. U bo'sh tortilgan arqonda tik turgancha burnining uchida bir yarim metrli po'lat tayoqchada qaynab turgan o'ziqaynar va choynak-piyola qo'yilgan laganni tutib turardi. «Buni o'rgansa bo'ladi», – dedi o'ychan Pavlik meni qiziqtirib.

Men endi Pavlikning gapi va ishi bir joydan chiqmasligini yaxshi tushunardim. Yonboshim va miyamning yengil chayqalishi bilan yaxshigina bilardim. Birinchi parashyutchi qizlar taqdirlanganda,

Pavlik erkaklik sha'nini saqlash uchun, biz ham ikkita soyabonni olib, oshxonadan pastga sakrashimiz kerak, degan qarorga keldi. Yaxshiyamki, erkaklik sha'ni bir qavat yuqori biznikimas, ularning oshxonasidan sakrash orqali himoya qilindi.

Biz soyabonlarni ochdik va kim birinchi sakrashini aniqlash uchun qur'a tashladik. Menga chiqdi. Juda hayajonlanib ketganim yo'q: kiyim javonidan bir necha marta sinov tariqasida tashlab, soyabonlar ham parashyutdan kam emasligiga ishonch hosil qilgandik. Men deraza tokchasiga chiqdim. Pastda asfalt chiziqlari yarqirar, hovliga to'shalgan chaqir toshlar ham ko'z o'ngimda. Yana yuk shuvchilarining yumaloq kiyimlarini, qorovul Validning taqir boshini, o'yinqaroq qizchalarini, otlarning yolini ko'rdim va ular tomonga, pastga qadam bosdim. Bir lahza havoning zinch oqimi meni bir tomonga tortib ketganday bo'ldi-yu, tovonim bilan yerga urildim. Bosimda nimadir chayqaldi, xushdan ketdim.

Pavlik yuqoriga chopib chiqqanda mening atrofimni odamlar qurshab olgandi. Hammani o'zining dahshatlari bag'ritoshligi bilan hayratda qoldirgan Pavlik do'stiga ham qaramay, soyabonni olgan-u, atrofdagilar jarohat olmaganiga ishonch hosil qilgach, o'qday yuqoriga uchgan. Bir soniyadan so'ng u ham yonimda cho'zilib yotardi. Har holda, uning yerga qo'nishi omadli kechgan, old tishining yarmidan ajraldi, xolos...

Pavlik bilan birga o'tkazilgan tengma-teng muvozanat saqlashni ham bezarar ermak deb bo'lmaydi. Biz uzoq, mashaqqatli mashqlardan so'ng avstriyalik artistga tenglashganimizda hammasi mana shunday tus olgandi.

Buyruq bo'yicha biz baravariga burun, peshona yoki iyakka qandaydir narsani ko'tarib qo'yamiz. Ikkinci lahzada – muvozanat nuqtasini topamiz va narsa qilt etmay turib qoladi. Oradan o'n, o'n besh, yigirma daqiqa, yarim soat o'tadi, orqaga tashlangan bosh uvishadi, tugatish kerak, ammo hech kim yengilishni istamaydi.

Ul-bul xarid qilgan oyim kirib keladi. Biz holatni o'zgartirmay, salom beramiz. U qorong'i xonaga kirib ketadi, asta xirgoyi qilib, tikuv mashinasida nimalardir tikadi. Keyin mashinani javonga joylab, qaytib chiqadi va bizni avvalgidek ko'radi.

– Qanday dahshat! – xasta ovozda deydi u va oshxonaga o'tadi.

Birpasdan so'ng qo'lida qahva qaynatadigan idishni olib chiqadi, qarasaki, hech narsa o'zgarmagan.

– Xudoyim! Ahvolingizni chetdan o'zingiz ko'rsangiz bo'lardi – tentaklar!.. Miyaga qon quyiladik-ku!..

Oyimning gapi haqiqatga yaqin, ensamiz qotib qolgan: hamma qon shu joyga yig'ilgan. Pavlikka tishimni g'ijirlatib gapirishga urinanman: dars tayyorlanmagan, menga bir oqshomga Jirodning «Troya jangi bo'lmaydi» pyesasi berilgan – na javob, na xitob bor. Oradan yana yigirma daqiqalar o'tdi. O'lim xavfi paydo bo'ldi, men hayotga tirmashib turgandekman.

– Kel, shunday qilamiz, – taklif qilaman men, – uchgacha sanaymiz va tamom!

– Istanaganing, – beparvo javob beradi Pavlik.

– Bir, ikki, uch!

Biz birdan ozodlikka chiqdik. Pavlik hech qachon oshiqmaydi, u bunday arzimagan g'alabaga zor emas, lekin mening sabr-toqatli bo'lishimni xohlaydi...

O'zligimizni anglash yo'lidagi izlanishlarimiz davom etdi... Bu orada men hikoyalar yozishni boshladim, Pavlik esa – havaskorlik sahnasida kuchini sinab ko'rdi, biroq negadir bu urinishlarda birlashishga intilmadik. Men Pavlikka hammualliflikni taklif qilmadim, u esa meni o'ziga sherik bo'lishga chaqirmadi. Ehtimol, har kim o'z taqdirini topib, xizmat qiladigan sohasi, kelajak yo'liga tushgan bo'lsa kerak. Ammo-lekin biz o'zimiz ham tanlagan yo'limizni tan olgimiz kelmasdi. Bir-birimizni shunchalik samimiy aldadikki, mактабни tamomlab, ikkимиз ham tibbiyat oliygohiga hujjat topshirdik – matematikani eplolmaydiganlar va gumanitar sohada o'ziga ishonmaganlar uchun odatdag'i boshpana. Faqat o'ylab ish tutmaganimizni, faqat to'tiqushday yod olib o'qib bo'lmasligini anglab yetgach, yil o'rtasida ochilgan kinoinstitutga oshiqdik. Men ssenariy bo'limiga ilashib qoldim, Pavlik rejissura bo'limiga kirolmadi. Biroq yarim yildan so'ng birdaniga uchta institutga muvaffaqiyatl iimtihon topshirdi: GITISga¹ kirib o'qiy boshladi, bundan tashqari, boshqa larga VGIKka² ham kirishi mumkinligini isbotlab qo'ydi, yana ota-

¹ GITIS – Rossiya teatr san'ati instituti.

² VGIK – S.A. Gerasimov nomidagi Butunrossiya davlat kinematografiya instituti.

onasini xotirjamligi uchun tarix-arxiv fakultetiga kirish sinovlarini ham muvaffaqiyatlari topshirdi. «Nimayam derdik, – mushohada qildi otasi. – Pavlik shifokor bo’lmadi, ammo uni «Kovarskiy va sevgi» namoyish qilinsa, sahnada ko’rsam kerak».

U o’sha kunlarga yetmadi. Urushning dastlabki kuni Armanlar torko’chasi dagi yigitlar harbiy komissariatda paydo bo’ldi. Tolya Simakov va meni chiqitga chiqarishdi: urushning boshida farqlashardi. Sentyabrning ilk kunlarida frontdagagi Pavlikdan aji-buji, eplab yozilgan xat oldim: *«Bu yaramaslar to’xtamay bomba yog ‘diryapti, lekin hechqisi yo’q – omon qolamiz»*.

Uning hayotidan sanoqli kunlar qolgandi. Suxiniche ostona-sida halok bo’ldi. Bombadan emas, snaryad parchasidan emas, mo’ljallangan yoki daydi o’qdan emas, o’zining fe’li sabab o’ldi. Olmonlar birdan qishloq kengashi binosini qurshab olib, ichkarida qolgan askarlarimizga qurollarini o’qlardan tiralgan taxtapolga qo’yib, qo’lini ko’tarib, taslim bo’lib chiqsa, tirik qolishlarini aytadi. Biroq Pavlik qo’mondonlik qilayotgan bo’limning sanoqli askarlari aynan shunday qilishni istamaydi. Olmonlar ko’plab askarlaridan ayrilgach, qishloq kengashi binosiga o’t qo’yadi, olov va tutun ichida o’q ovozlarini tinmaydi. Lekin biron ta askar tashqariga chiqmaydi. Biznikilar qaytib kelganda o’sha yerlik kishilar bo’lgan voqeа tafsilotini so’zlab beradi. O’shanda butun qishloqdan faqat cho’g’-u kui qolgan ekan.

Pavlikning qabri yo’q, Tolya Simakovning qabri yo’q. U Bjezin-kada lagerdan qochayotganda otib o’ldirilgan. Urushning uchinchini yilida kulrang osmon yana bir tutun girdobini bag’riga singdirdi.

1942-yil yanvarda frontga yo’l olganimda do’stlarimning qismati ne kechganini bilmasdim.

Urush tugaganiga chorak asr bo’ldi, hayotimning asosiy, eng yaxshi davri o’tdi, ammo har yili tez-tez yoki gohida Pavlikni tushimda ko’raman. Tush – baxtli musavvir, u voqealar matosining butun, haqiqiy, ishonchli, asosli bo’lishi uchun tashvish chekmaydi, balki betartibligi, hatto bema’niligiga ham ishonishga majbur qiladigan sirli. Har doim bir xil tush ko’raman, uyg’ongach, xotiradan ko’tarilib ketadigan ahamiyatsiz ikkinchi darajali tafsilotlar esa almashinib turadi – Pavlik tirik va uya qaytgan bo’ladi. Tushunmayman, shu yillar ichida qayerda yurdi, nega tirikligi haqida xabar bermadidi. Har qanday holatda ham, bu yerda uni uyatga qo’yadigan hech

narsa bo'lgani yo'q, qolaversa, o'lim uni asirlikdan ozod etgan. Xotiraning uzoq vaqtida o'chib borishi nazarda tutiladi, shaxs uzoq uxlanganda, o'zini unutadi – tush aniq tushuncha berolmaydi. Pavlikning tirikligi va qaytib kelganining o'zi yetarli. Meni mo'jizalari ravishda tirlgan taqdirdning mavhumligi tashvishga soladi va qiyinaydi, ammo hammasi bu ulkan baxt qarshisida g'oyib bo'ladi – Pavlik tirik, tirik!.. Keyin qandaydir iztirob va so'ngsiz qayg'uli voqealar boshlanadi. Pavlik yonimga kelmaydi. Unga men kerak emasman. Uning yonda mendan, yagona do'stidan ko'ra kerakliroq, tushda ham, o'ngida ham bir xil shaffof, o'g'li qaytib kelgani uchun doimo indamay yuradigan onasi oh chekib yig'layapti. Ularda qandaydir umumiy fidolik bor, bu menga nasib etmagan. Lekin biz gaplashib olishimiz kerak, shuncha yillarda bo'lib o'tgan voqealarni dardlashib olishimiz kerak, nahotki, Pavlik buni tushunmaydi, nahotki, u meni unutib yuborgan bo'lsa? Yo'q, u hammasini tushunadi va hech narsani unutgani yo'q. U o'zi bilgan holda yonimga kelmaydi, yangi hayotidan meni chiqarib yuborgan. Nima uchun? Uning oldida hech bir aybim yo'q-ku, hech qanday nojo'ya ish qilganim yo'q-ku, menga gina qilolmaydi. Tushimda bu gaplarni kimgadir aytaman: yo uning onasiga – bechora mavjudotga: madad berarmikin, degan behuda umid bilan boqaman, yo Pavlikning o'ziga, biroq yuzma-yuz emas, odam eshitmaydigan baliq tilida. U mening gaplarimni eshitadi va javob qaytaradi. Birdan yonimda paydo bo'ladi va boshini sovuqqon siltab qo'yib, yonimdan jim o'tib ketadi.

Men yuzlarim ho'l bo'lib uyg'onaman va ko'rgan tushimni uzoq o'ylab qolaman, o'ngimda qalbim o'rtanadi. Men o'z hayotimni, hatti-harakatlarimni, kishilarga munosabatimni, bo'lib o'tgan voqealarni mushohada qilaman va bunday jazoga loyiq hech bir ayb ish qilmaganman-ku, deya o'ylayman. Ammo-lekin balki Pavlik kelgan tomonda, o'sha yoqda o'lechovlar boshqachadir, balki bir zamonlar o'zimiz boshqacha baho bergandirmiz?..

Qachondan buyon ular qarshisida gunohkor ekanim – gunoh tuyg'usi yo'q holda – ma'lum bo'ldi. Agar Pavlikning so'nggi jasorati nuqtai nazaridan mening hayotimga baho berilsa, o'zimni hech bir aybsiz deb sanay olamanmi? Yo'q. Aybdorman. Har taraflama aybim bor: men do'stim uchun qurban bo'lmadim, millionlab halok bo'lganlarni himoya qilolmadim, turmalar va lagerlarda o'lganlar

uchun, prezidentlar va din targ'ibotchilar o'ldirilishida aybim bor, yomon kitoblar yozilishida – nafaqat o'zim; to'g'ri, dumimni qisib yuraman, yolg'on-u tuhmat – boshdan oshib-toshib yotibdi; dunyoda otishmalar to'xtamayapti, yong'inlar avj olyapti, bolalar o'lyapti va qashshoqlar ko'payyapti...

Har bir qurban o'zgalar hayotini saqlaydi. Pavlik men yashashim uchun o'zini yoddi. Men esa uning g'amxo'rligidan yaxshi foydalanmadim. O'z aybimni inkor qilishga haqqim yo'q, har birimiz o'zgalar oldida aybdormiz. marhumlar oldida esa yuz bora ko'proq. Hamisha aybimizni his etib turishimiz kerak – balki shunda insonga taqdir bo'lgan muqaddas orzular ro'yobga chiqar: o'tganlarni hayotga qaytarish...

O'tgan yozda qo'ziqorin terish ishtiyogi Kaluga viloyatiga boshladi. O'sha tarafagi yarmi huvillab qolgan qishloqdan tashlandiq uy sotib olgan do'stim chinakam qo'ziqorin sayliga olib borishga va'da berdi. Yangi ko'chib kelgani bois, yo'lni yaxshi bilmas ekan, biz yangi tekis yo'l va qishloq ko'chalarida uzoq adashib yurdik. Bir dan yo'l ko'rsatkichdag'i «Suxinicheckacha...» degan yozuviga ko'zim tushdi-yu, yuragim tirmaldi – qancha chaqirim borligini ko'rolmadim. Nihoyat, biz yangi – oq qayinlar, tog'teraklar, pastak archalar aralash o'rmoncha orasidan chiqdik, do'stim ishonqiramay, xuddi maslahat so'raganday, dedi: «Adashmasam, shu yerda».

Balki boshqa joyga borib qolgandirmiz, ammo-lekin Moskvamiz atrofidagi ezilgan, ba'zida toptab tashlangan o'tlar orasidan kelganimiz uchunmi, bu yerlar ko'zimizga jannatday ko'rindi. Turli-tuman qo'ziqorinlar bodrab yotibdi, biroq noyob emas: maxoviklar, lisichka qo'ziqorinlari, hatto oqqayin tagidan chiqadiganlari, oq qo'ziqorin ham bor. Bu o'rmoncha juda yoqimli: pokiza, qadam izlari yo'q, daraxtlar shoxi sinmagan, quyosh nuri tovlanib, o'rgimchak to'riyu xira pashhalardan holi ekan. O'rmon oralab tik so'qmoq o'tgan: na changalzor, na botqoqlik, na suvlik joylar uchramaydi, tizzanggacha botib ketadigan torflar yo'q, mitti buloqcha jildirab oqib yotibdi. Balki shuning uchundir, o'tlar orasida qandaydir o'tkir narsa oyog'imga ilashib qolgani uchun og'riqdan ko'ra, xafa bo'lib ketdim. Beixtiyor oldinga intildim va muvozanat saqladim, oyog'im tikanli simga o'ralashib qolgandi – qopqonimni topib, bir ko'tarib tushirdim. Do'stim menga yordam berishga shoshildi. Ikkovlashib usti matodan



tikilgan tuflimni va shimmimning pochasini tikandan ajratib oldik, keyin esa og‘ir tikanli sim kalavasini ko‘tarib oldik, uning boshlanishi qayerdaligini tasavvur qilib bo‘lmaydi.

U oyog‘imiz ostida yotar, bir tarafı quruq va qizg‘ish – zanglagan, bir tarafı ho‘l, qora, mog‘or bog‘lagan, yaroqsiz holga kelibdi. Kim biladi, u bizga xizmat qilganmi, dushmangami, balki har ikki tomongadir, mayli, gap bunda emas...

Men urush xotiralariga g‘arq bo‘lish kayfiyatida emasdim. Bu yangi o‘rmonga qachonlardir yerto‘lalar, handaqlar, pulemyotchilar uyasi, harakatlar maydoni, tikanli simlar, mina maydoni va yonib kul bo‘lgan qishloqlar o‘rnida paydo bo‘lgan ekan.

Shunda birdan xayolimdan yo‘l belgisining ko‘rsatkichi jonlandi: «Suxinicheckacha...» Mana shu tuproqda, shu yaqin orada, balki shu yerning o‘zida Pavlik hayotining so‘nggi damlarini yashaganadir. Negadir ilk bor tasavvur qildim, dushman qurshab olgan qishloq kengashi binosida Pavlikning o‘limidan oldin so‘nggi lahzalarini shu yerda kechirgan. Olovga aylanishdan oldin u fikrlagan, his etgan, eslagan va so‘zlagan, istak-xohishini bildirgan: suv ichgisi, tamaki chekkisi, peshona terini artgisi kelgan. U hamma qatori yashagan, o‘tmishi bo‘lgan, yoqtirishga ulgurgan odamlarning chehralariga va o‘zi nafratlanib ulgurmagan kishilar yuzlariga qaragan, ularning ortidan xiyobon, torko‘chalar, teatr zallari, auditoriyalar, kazarmalar ko‘rinib turgan. U o‘zida nelarnidir tutib qolgan, o‘zida qoldirgan, nimalargadir ortiqcha, halal beradi, deb qo‘l siltagan...

Bizning bir-birimiz oldimizdagи mas’ulligimiz o‘zimiz o‘ylagandan ko‘ra kuchliroq edi. Istagan lahzada bizni muqarrar o‘lim ham, ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi o‘lim ham o‘ziga chorlashi mumkin: charchagan kishini ham, jasorat arafasidagi qahramonni ham, kichkintoy bolani ham – bu madadga, ammo ayni paytda hukmga chorlashdir.



YENGILMAS ARSENOV

Uning sharifi yoki bulg'orcha, yoki avlod-ajdodi gruzinlarga borib taqladidi. Arsen – Gruziyaning xalq qahramoni. Ammo Petya Arsenov Yaroslavldan kelib chiqqan, yaroslavllik bu yigit o‘z sharifining o‘zgacha jaranglashidan g‘ururlanadi, shunday bo‘lsa-da, uning asli noma'lumligicha qoldi.

Petya Arsenov tashqi ko‘rinishidan odatdagi yaroslavlliklarga mutlaqo o‘xshamaydi – ko‘rkam, qoracha yuzli, jingalaksoch, jussasi miqtidan kelgan, pishiq va juda epchil yigitcha. Shaharlik bolakay nozikkina edi, o‘smir bo‘lgach, mushaklari tortilib, yelkalari yozildi va soddalarcha g‘ururlanib, uchragandan qo‘lini tirsakdan egib, mushaklarini silab ko‘rsatgisi kelardi. Bu natijaga katta mehnat, temir intizom, mashq, metallchilar klubidagi boks to‘garagiga muntazam qatnash evaziga erishdi. Lekin yuzining rangi qizarmadi va yaroslavlliklar safiga qo‘shilomadi.

Biz Petya Arsenov bilan nihoyatda faxrlanardik: bo‘lmasam-chi, har bir uyning o‘z bokschisi bor! Hovlimiz pahlavonlari orasida u, albatta, birinchi o‘rinda turadi. To‘g‘rirog‘i, tanlovdan tashqari, uni boshqalar bilan bir qatorga qo‘yib bo‘lmaydi. Bizga o‘xshash havaskorlar orasida u chinakam sportchi ekani uchun ham ajralib turardi, uni hatto Vovka Kovboyday bolalarga taqqoslash hech kimning xayoliga kelmagandi.

Hovlimizdagi bolalar hayotini eslasam, unda murakkab pog‘onalarni ko‘raman, u shahar emas, saroy hovlisiga o‘xshaydi. Qancha yillar o‘tib ketgan bo‘lsa-da, azamatlarimiz darajasini hali unutganimcha yo‘q. Vovka Kovboydan keyin Senka Zaxarov, undan keyin Slava Zubkov, keyin Seryoja Lepkovskiy – xalq artistining nevarasi, nihoyat, Borka Solomatin... Undan keyin kim edi? Saxaroza bo‘lishi kerak, biroq butun hovli bolalari ko‘z o‘ngida men uni yakkama-yakka olishuvda burnini yerga ishqab qo‘ydim, bu o‘rin meniki bo‘ldi. Gap shundaki, Borka Solomatinga kelib birinchi qator tugaydi va Sa-

xaroza ustidan qozongan g' alabamdan so'ng ikkinchi qator mendan boshlanadi. Yurkaning Solomatindan keyin turishini aytish hech kimning xayoliga kelmagan mish. U yerda boshqa guruh, bu yerda boshqa, Mardondan boshlanib janjalkash-yig'loqi Mulya bilan tugadigan uchinchi guruh ham bor, qolgani – mayda-chuyda bolalar. Guruhlash bolalar yoshiga asoslangan. Na kuch, na bo'y, na jismoniy va aqliy rivojlanish hech qay biri muhim emas. Guruh ichida bir o'rindan ikkinchisiga o'tish mumkin, ammo-lekin katta qiyinchiliklar nati-jasida – hovli tartiblarida eskicha qarashlar hukmron, oliv darajaga o'tib olishni esa tasavvur qilib bo'lmaydi. Eng bo'limg'ur gersog ham, baribir, eng omadli grafdan unvon jihatdan baland turadi, undan oshib hech qayerga borolmaysan. Men Saxaroza ustidan tantana qilganim ta'sirida yuqoridagilarga bosqichma-bosqich bo'ysunish tartibi mustahkamligini hisobga olmabman, Borka Solomatinni «turtkilab» qo'ydim. Hammaning oldida, ketma-ket ikki marta, chunki yutqazganiga ishonmay, burni qonasa ham, yana suqilib kelaverdi. Uning yoshi mendan ancha katta edi, biroq afsonaviy Zurabdan farq qilib, oqsoqol bahodirga rahm qilmadim. Oxiri shu bilan tugadiki, u g'azab otiga mindi, og'riqdan emas, albatta, tahqirlanganidan. Lekin men g'alaba chambari kiyishni bekor kutibman. Katta bolalar menga xo'mrayib, dushmanday qaray boshladni. Men axloq qoidalari, muqaddas tartibni buzib, tinchlikka rahna solib, boshboshoqlikni keltilrib chiqorgan mishman. Qo'pol qilmishim kattalar huquqi va yoshi ulug'larning imtiyozlariga, hayotiy tajribalariga zid bo'lib chiqibdi.

Ammo tengdoshlarim bu g'alabani jiddiy, hech qanday zavq-shavqsiz qabul qilishdi. An'analarni buzish ularga ham yoqinqiramadi. Oradan bir-ikki kun o'tgach, katta bolalarning qarashlaridan hukmdan ko'ra tahdid, xavfni sezib qoldim. Shak-shubha yo'q: meni shafqatsiz qasos kutardi. Men shiddatli qo'limni ko'tarib, shunchaki zaif naynov Solomatinga emas, balki undan yuksakroqqa, butun hovli aslzodalariga dahl qilibman, endi intiqomdan qochib qutulib bo'lmaydi. O'ynayotganimizda hammaning joniga tegaveradigan po'k Tovuq, u jadvalda Borka Solomatindan bir pog'ona yuqori turadi, hech bir sababsiz menga tashlandi va ustimdan bosib tushdi, kuchsiz jussasini surib tashlaganimda, undan ruhan va jismonan zo'rekanimni his etdim. Lekin ko'nglim qandaydir ma'yus tortdi, Tovuq Borka Solomatindan chayirroq va baquvvatiroq bo'lsa ham, baribir

kuchsiz, biroq itoatkorlik tuyg'usi qalbimda sado berdi: bo'ysun! Tovuq mening suyaklarim ustida g'alaba raqsini tushdi va jazolash marosimini so'zsiz kuzatib turgan tengdoshlariga qarab olgach, men dan so'radi: «Ta'ziringni yedingmi? Yetarlimi?» Uning cho'chiganini sezdim. «Bas qil», – dedim men va atrofdagilarning yuzlari qizarib ketganini ko'rdim. Tartib tiklandi, tartibga shon-sharaflar!..

Bizda hamburgcha hisob-kitoblar yo'q. U ancha keyin, o'smirlik ostonasiga yetganimizda paydo bo'ldi. Ana o'shanda ko'pchilikning obro'si bir pul bo'ldi. Men quyosh ostidagi o'z o'mimni kutilmagan shuhratparastlar – Baqqol laqabli (uning otasi baqqollik do'konini boshqaradi) semiz Jenka Melnikov yoki menga tashlanishdan oldin yig'lashni boshlab yuborgan bechora Muli singari mishiqlardan himoya qilishimga to'g'ri keldi. Men ham, o'z navbatida, Tovuqqa avvalgi qilmishini eslatib qo'ydim, birato'la akasi va pushtipanohi Lelikning ham pachag'ini chiqardim. Pahlavon Zaxarovni tiz cho'ktirgan Slava Zubkovning dimog'i haddan tashqari ko'tarilib ketdi va salkam Kovboyga tenglashib qoldi; kelishgan va ritsarmonand Seryoja Lepkovskiyning popugi pasaydi; Borka Solomatin batamom sindi. Ammo-lekin hamon Petya Arsenovning yulduzi yuksaklarda yorqin porlardi, u – bokschi, buyuk va yengilmas.

Shu bilan birga, Petyaning yengilmasligi ko'nglimizda qandaydir shubha uyg'otardi. U metallchilar klubidagi mashg'ulotidan ayanchli ahvolda, yuzlari bejalib qaytardi-da. Jigarrang o'ychan ko'zları ostidagi ko'kimtir dog'lar hech qachon ketmaydi, faqat tusi o'zgaradi, xolos: qizildan ko'kimtir-qoraga va xantal rangiga o'tib turadi. U og'ir qadamlar bilan, madordan ketganday bir qo'lida bokschi ashqol-dashqollari solingan jomadonni, ikkinchi qo'lida yumaloq qo'lqoplarni ipidan tutib shalvirab qaytar di. U norozi ohangda, qo'lqoplolar jomadonga sig'mayapti, deydi. Biroq menimcha, Petya atayin kichkina jomadon tutadi, chunki qo'lqoplarni alohida ko'tarib yurishni xush ko'radi. Hamma bokschi kelayotganini ko'rib qo'ysin-da, axir! Ochiq aytaman, u faqat mashg'ulotga ketayotganda yengilmas jangchiga o'xshaydi, aslo qaytganda emas. Gavdasi nozik, xolos, Arsenov ruhan bukilmas bokschi. Unga odatdagidek: «Qalaysan, yaxshigina savalashdi mi?» – deb hazillashishganda, bejalgan chehrasi ochilib, quvonib javob beradi: «Bo'lmasam-chi? Bolalar boplab tushiradi! Men ham

bexato ketmayman». U haqiqatan har qanday holda ham o'zini himoya qilishiga ishonchingiz komil bo'ladi. Bu fikringizga uning keyingi e'tirofi halal bermaydi: «Men zARBaga turib berolmayman-da!» Bu so'zlar g'amgin ohangda emas, g'ururlanib aytildi, ya'ni yigitning omadi kelganini isbotlaydi. Shu bilan birga, biz «zARBaga turib berolmaslik» nimaligini tushunmasdik. Faqat anchadan keyin Arsenovga qanchalik qiyin bo'lganini anglab yetdim. Eng mahoratl-i bokschi ham agar zARBaga chidash bermasa, ringda qolishi qiyin. Bizning Arsenov haqida gapirmasa ham bo'ladi, hali jahon chempioni bo'lishiga ancha bor. U tez harakatlanish, masofa saqlash, ep-chil himoyalanish, jangni bir maromda olib borishni o'zlashtirishi lozim ekan. «Boshqalar bitta zarba berganda, men qatorlashtirib tashlayman», – derdi kamtarona faxr bilan Arsenov. Keyinchalik bunday bokschilarining ko'pini ko'rdim va ularga chin ko'nglimdan achindim. Dahshatli zARBalarni bir nafasda qatorlashtirib tashlaydi, tomoshabinlar hayratdan hayqirib yuboradi, raqib esa bu xavfsiz uyurmani xotirjam o'tkazib yuborgach, javoban faqat bitta, ammo qashqatqich zarba tushiradi. Petya Arsenov ham o'zining uyurma-li zARBalaridan so'ng, ko'pincha ring o'rtasiga qulab turardi. Lekin har safar o'ziga kelgach, yana yengilmas holatiga qaytadi, chun-ki yengilmaslik – bu g'alabaga qat'iy ishonch, boshqacha g'oliblik bo'lmaydi – ertami-kechmi, hammaning yelkasini boshqaning qo'li yerga tekizmasa, vaqtning qo'li tekkizadi.

O'n olti yoshlarga borganda Arsenovning bolalarniki singari odatdag'i yuzi vahimali niqobga aylandi. Pachoqlangan, suyaksiz bu-run atrofiga yoyildi, qulqoq chig'anoqlari o'z shaklini yo'qotib ikkita yalpoq patirday boshiga yopishdi, chandiqlar terini tortib, yuzidagi mushaklar harakatini cheklab qo'ydi. Arsenovning o'zi qiyofasidagi o'zgarishlarni ko'rib benihoya quvondi. «Darrov bilihadi, a: bokschi», – dedi u. Ammo quvonishlar to'lqini bilan cheklanmay, tashqi qiyofa o'zgarishining sirli foydasini aytib berdi. Ma'lum bo'lishicha, eng dahashtlisi, agar raqib mushti tog'ay suyagi ustiga tushsa, juda qattiq og'ritar, chidab bo'lmas ekan. Hozir unda bironta ham tog'ay suyagi qolmabdi, u xuddi lattaday burni va qulog'ini aylan-trib ko'rsatdi. Lekin Arsenov bu imkoniyatlarga erishganda ham, g'alabalari soni oshmadi. U avvalgidek zARBaga turib berolmasdi. U avvalgidek metallchilar to'garagidan oyog'ini sudrab, bemador, shal-

viragan qo'lida qo'lqoplarining ipidan tutib, ko'kargan ko'zini yashirish uchun kepkasini bostirib kiyib qaytardi.

Petya qanchalik orzu-umidlarga berilmasin, mag'lubiyatlarning oxiri ko'rinnmasdi, hech bo'limganda kelajak taqdirini o'ylab ko'rish lozim! Biroq avvalgidek, unga hamdardlik bildirib yoki e'tiborsiz, parishon holda: «Ishlar qalay?» deb ko'rishardik. Uning ezilgan labiga tabassum yugurib va ishonch, mehr va quvonch bilan o'zining ilohi – boksni maqtashga tushardi.

Arsenovni na ruhlantiruvchi ibrati, na qizg'in tashviqotlari bizning birortamizda ringga chiqish orzusini uyg'otolmagani qynardi. Biz Petya istasa, har birimizni chap qo'lida ham dabdala qilishi mumkinligiga ishonardik, ammo aftidan, mana shuning o'zi bizni boksda biron natijaga erisholmasligimizni isboti edi. Uning raqiblari qanday bahodirlar ekan-a, shunday Buyuk Arsenovni sportzaldan shalviratib chiqarib yuborayotgan bo'lsa!..

Qolaversa, munosabatlarni oydinlashtirib oladigan vaqt keldi. Avvaliga, Petyaning obro'siga hech kim raxna solmagan edi. Lekin vaqt o'z izmidan chiqmaydi va hech qachon shafqat qilmaydi. Har narsaga shubha bilan qarovchilar to'lqini Arsenovga urildi. Bir gal, pillapoyada, u ko'zi ostidagi qizil shishga qo'rgoshin malham qo'yib o'tirganda, bokschilar guruhining otaliq xo'jalikka borishganini hikoya qilib berdi. Ular qishloq bolalarini boksga jalb qilish maqsadida targ'ibot tadbiri o'tkazibdi. Unga qarshi xo'jalikdagi eng kuchli yigit – temirchi jangga chiqibdi. U qo'llarini yozib zarba beribdi, biroq Petya o'zini chetga olganda, temirchi muvozanatini saqlolmay yerga yiqilibdi. Temirchi alam qilgandan yig'lab yuborguncha shunday davom etibdi. «Axir, men unga barmog'imniyam tekkizganim yo'q, mana bu madaniyatli jang olib borish usuli deyiladi, – xulosa qildi Petya Arsenov. – To'g'ri, – qo'shimcha qildi u odatdagi to'g'riso'zligi bilan, – temirchi biroz hovliqmaroq ekan».

– Albatta! – gapga qo'shildi Vovka Kovboy. – Shuning uchun yiqilgan-da. Sen esa maqtagan usullaring bilan himoyalangansan. O'sha xonada o'zlarining qopni do'pposlab, arg'imchoqda sakrab ivrisib o'tirasiz, mard bo'lsang, shunchaki ko'chadagi mushtlashuvga chiqib ko'r-chi!

– Yo'g'-e, – kului Arsenov, – haqiqiy bokschi hech qachon ko'chadagi mushtlashuvga aralashmaydi. Bizga mumkinmas.

- Nega endi?
 - O'ldirib yoki mayib qilib qo'yishimiz mumkin, – xotirjam tushuntirdi Arsenov.
 - Vovka kulib qotib qoldi.
 - Sen o'ldirib qo'yasanmi? Qo'ysang-chi, biron marta oynaga qaraganmisan o'zi?
 - Men chivindekman, – achchiqlanmay tasdiqladi Petya Arsenov, – ammo aniq zarba bersa, chivinnikiyam xavflı.
- O'shanda xayolimda bir fikr yarq etdi: zarba kuchini bilmadim-u, lekin boks kishi xarakterini toblaydi, tarbiyalaydi.
- Kovboy o'zini o'zi o'tga urdi. U Petyani tahqirlash, haqorat qilishni istar, u esa o'zini chinakam erkakday tutardi. Balki, garchi bu borada kuch sinashib ko'rmagan bo'lsa-da, hovlida undan ham kuchli kimdir borligi joniga tekkandi. Shunda Kovboyning Ivan bilan to'qnashganda jiddiy shikast yeganini esladim. Yana ham yuksalish uchun Vovka chinakam bokschi ustidan g'alaba qozonishi kerak.
- Arsenov Kovboyning hiylasini payqashga ancha soddalik qildi, tarbiyalı o'smir. Atrofdagi hamma bolalar ko'nglida Kovboyning Arsenovni «jangga chaqirayotganini» sezib turishar, u esa soddadilik qilib, Vovkaga boksning foydalari va nojo'ya ish qilmaslik haqidá gap sotardi.
- Janjal! – tasdiqladi Kovboy. – Arzimagan oliftagarchilik.
 - Agar ikkimizga kechasi bezorilar hujum qilsa, o'shanda ahvoliningni bir ko'rardim...
 - Basharasiga tushirardim – do'pposlardim! – qo'pol ohangda dedi Kovboy. – Sen esa o'sha yerda qolib ketasan.
 - To'g'ri, urmasdim.
 - Yo'q, senga oq shippak keltirib berishardi.
- Bolalar kulib yuborishdi va nihoyat, Petya Arsenov gap nimadalligini, bolalar uning ustidan kulishayotganini anglab yetdi.
- Afsuski, sen qoidani bilmaysan-da, Kovboy, men senga boks qanaqaligini ko'rsatib qo'yardim, mendan bo'ying uzun va vazning og'ir bo'lsayam, – dedi Arsenov quvonib.
 - Sizning ahmoqona qoidalaringizni yaxshi bilaman, – dedi Kovboy. – Bog'da yuz marta boks ko'rganman. Pastga va ochiq qo'lqopda urmaslik. Bosh bilan suzmaslik. Buni qarang, turgan-bitgani ilm!

– Afsus, afsus, sen boshqa hech narsani bilmaysan! – Arsenov boshini sarak-sarak qildi. – Bo‘lmasa, seni biroz sinab ko‘rardim.

– Behuda safsata sotma, sen shunchaki qo‘rqyapsan!

Kovboy xuddi shu gapni aytmaslik kerak edi. Arsenovning pa-choqlangan yuzi oqarib ketdi va qovog‘ini qora niqob qopladi.

– Uch raundga chidab berasanmi? – so‘radi u. – Dabdala qilmayman, qo‘rqma. Lekin sen o‘zingni ahmoqligingni, boks nimaligini birinchi va so‘nggi marta bilib olasan.

Albatta, janjalni Kovboyning o‘zi boshladı: u har qanday raudlarga tupuradi, Arsenovni shundoq ham «esini kiritib» qo‘yishi mumkin, biroq Petya Arsenov o‘z gapida qat’iy turib oldi. Hammasi qoidalı bo‘ladi: hakam, kuzatuvchilar, uch daqiqadan uch raund – tanaffusi bilan, belgilab qo‘yilgandek. Jang bir tomonning mutlaq ustunligi sezilsa, muddatidan oldin tugatilishi mumkin, nojo‘ya zarba bersa – jangdan chetlatiladi.

Ring maydonini chizib chiqquncha, mayda bolalarni quvib solishdi. Arsenov uyidan qo‘lqop, sochiq va suv to‘la idish olib chiqdi. U kiyinib olibdi: tursi, mayka, sport kiyimi, yelkasiga eski paxmoq xalat tashlagan. Bokschilarning haqiqiy xalati barchamizda o‘zgacha taassurot uyg‘otdi.

Vovka shim va ko‘ylagini yechish bilan cheklandi, shuning o‘zi yetarli, ammo Arsenovning bokschi qiyofasi yaqqol ko‘rindi. Kovboyning qomati kelishgan, xuddi yosh ma‘budga o‘xshaydi – keng tekis ko‘krak, sal egilgan mustahkam yelkalar, oyoqlari yengil, mushaklari xuddi anatomiya darsligidagi suratga o‘xshaydi, badani bug‘doyrang. Arsenovni ham butunlay zaif deb bo‘lmaydi. U qandaydir mushaklarini chiqarolgan. U o‘tirib-turganda, mashq qilganda bo‘g‘imlari tarang tortiladi, mashq qilgani yaqqol seziladi. Lekin u juda oppoq, ozg‘in, buning ustiga, boshidan oyog‘igacha badaniga sarg‘ish sepkil toshgandi. Xullas, hozirgi sovuq xotiradan ko‘ra Arsenov uyg‘otgan bevosita tasavvur, albatta, yorqin. Biz Arsenovning yengilmasligiga ishondardik va shuning uchun arzimas sepkillariga emas, qo‘lining pishiq mushaklariga, ingichka suyaklariga emas, epchilligiga qaradik.

Hakam Seryoja Lepkovskiy – u Berrouzning «Boksch Billi» kitobini qo‘ldan qo‘ymaydi, shuning uchun ham boks bilag‘oni sanaladi – jangni boshlashga belgi berdi, Arsenov Kovboyga nisbatan

nafrat saqlamay, uning qiyofasida oliyjanob raqibni tasavvur qildi. U jang oldidan lozim bo'lgan urf-odatlarni bajardi va nihoyat, hovlida butun mahoratini namoyon etishga imkon tug'ilganidan quvondi, hozir mahoratini mardona ko'rsatadi, axir, buni egallash uchun hazilakam ter to'kdimi, qolaversa, shu qiyofasidan yorqin taassurot olgan yana bir qancha do'stlar orttiradi. Ishonchim komilki, u o'yinda ishtirok etishga va barcha qonun-qoidalarga amal qilishga rozi bo'lgan Vovkani boshqa raqiblari singari yaxshi ko'rdi – balki uning muvafiqiyat qozonishiga mana shu odati halal bergandir?..

Nihoyat, jang boshlandi. Petya Arsenov barcha usullarni biladi, gap bo'lishi mumkin emas, Kovboyni tentakdek o'ynatdi. Kichkina jussasi unga qo'l keldi. Kovboy bema'ni harakatlari bilan havoni mushtlar, Arsenov uning betartib zarbalariga hazilakamiga chap berardi. Ammo o'yladim: agar Arsenovga shunday kuchli zarba tushsa, tasodifan bo'lsa ham, holi ne kechadi?..

Uchinchi raundda bu savolga javob topildi. O'shangacha Arsenov Kovboy bilan sichqon-mushuk o'ynadi. Biz boksning chinakam go'zalligini ko'rdik. Bizni bir narsa tashvishlantirardi: Arsenov yoki xohlamadi, yoki Kovboyni risoladagiday do'pposlashni epolmadi. Balki biri ikkinchisiga bog'liqidir? U tanaga keskin, yengil zarbalar berar, har zamonda bir-ikkita boshga urib qo'yari edi, Kovboy esa xuddi chivin chaqqanday hovliqib, yana olg'a intilardi. Faqat bir marta Arsenovning qisqa, juda aniq, tez, ketma-ket bergen zarbalar tomoshatalablarda yorqin taassurot uyg'otdi. Kovboy yalangoyoq bo'lib, boshini g'alati titrata boshladidi, xuddi miyasini joyiga tushirishga harakat qilayotganga o'xshardi, ko'zlarini xira yelim bilan qoplanguandy ko'rindi.

Tanaffuslarda nafas rostlagan, yordamchi Slava Zubkovdan shabdalatishni, yuziga suv sepishni, xullas, chinakam bokschiday tanaffus qilishni o'rinlatgan Arsenovdan farqlanib, Vovka o'z burchagida qovog'ini solib, xo'mrayib kutib turdi va yordamchisi Ivanning xizmat ko'rsatish borasidagi takliflariga norozi bosh silab rad etdi.

Uchinchi raundda u maynavozchilikni tugatish niyatida maydonga otildi. Arsenov yana nozik jimjimalarini davom ettirdi, ammo endi bu natija bermadi: Vovka unga uyatsizlarcha, ko'r-ko'rona, axlat o'raning yonidagi olishuvdagidek musht tushira boshladidi, qo'l bola bo'lsa-da, ringdaligini unutib qo'ydi. Albatta, u atayin shunday qilga-

ni yo‘q, lekin ehtiyyotsizlik – tayoqning ikkita uchi bo‘ladi-da. Uning aylantirib urgan, umuman boksga aloqasi bo‘lmagan mushti Petya ning qanshariga kelib tushdi. Bu to‘qmoq bilan urganga o‘xshadi. Umuman, xunuk va beso‘naqay, bechora Arsenov yerga baqaday yopishib qoldi.

– Noto‘g‘ri, hakam, qayoqqa qarayapsan, tentak! – qichqirdi Sla-va Zubkov hakamga.

– O‘zim ko‘rib turibman, ahmoq! – g‘azablandi Seryoja Lepkovskiy, biroq u ayni paytda qanday xulosa qilish kerakligini bilmasdi.

Taqiqlangan zarba ochiqdan-ochiq va shunchalik qo‘pol edi-ki, jangni to‘xtatib, Kovboyni chetlatish kerak. Ammo Seryoja bu so‘nggi chorani qo‘llashga jur‘at qilolmadi. Arsenov o‘rnidan turdi.

– Bu tasodif! – dedi u Seryojaga. – Vovka yanglishdi. Sen shunday bo‘lishini xohlamaganding, to‘g‘rimi? – uning ovozida yolvorish ohangi sezildi.

– Shunday, xohlamagandim! Jinni qilma, yetar. Buni qarang-a, bolakay xafa bo‘lib qoldi!

– Boks! – dedi Seryoja Lepkovskiy.

O‘shandan beri «zarbani tutib qolmaslik» nimaligini yaxshi bilaman va Petya Arsenov qanday g‘aroyib mardlik ko‘rsatgani ham ma‘lum, agar boksnii tashlamagan bo‘lsa. Yiqilishgandan so‘ng ham avvalgi harakatlarini davom ettirdi, lekin hozir faqat usullar va hiylalar aniq ko‘rina boshladi. U endi Kovboyni urmadi, biroq Kovboyning zorbalarini nishonga tegardi. Ammo Petya o‘zini tutdi, raundni nihoyasigacha yetkazib qo‘yishni xohlardi. Hatto tabassum qilishga urindi. Buyuk, yengilmas boksci haqidagi afsonaga qo‘pol va shiddatli zarba berilganda, o‘zi nelarni his qildi ekan? Balki Petya avvalgiday o‘ziga ishonib, mag‘lubiyat haqida o‘ylamagandir? Hali portlashga kuchi bor edi. U Kovboyning qo‘li ostidan kirib, tanasi-ga ketma-ket bir necha zarba berdi. Kimdir qarsak chalib yubordi, kimdir qichqirdi: «Qoyil!» Kovboy yoqimsiz, qahrli jilmaydi. Keyin u urdi. Agar bu zarba mo‘ljalga tekkanda, hammasi tamom bo‘lardi. Biroq Petya egilib chap berdi va Kovboyning qo‘lqopni uning peshonasiga sal tegib o‘tdi. Petyaning boshi shunday chayqaldiki, xuddi orqasidan kimdir birdan sochidan tutib tortganday tuyuldi. Kovboy ortga chekindi, jilmayish yo‘qoldi, u yangi, so‘nggi zarba berishga shaylana boshladi. Shunda ringga sochiq tashlandi.

– Brek! – birdan qichqirdi olamni buzib Seryoja Lepkovskiy, lekin bokschilar bir-biriga yopishib qolmagandi. – Sen nima?.. – asabiylashib sochiq tashlagan Ivanga qayrilib qaradi.

– Kovboy gangirayapti, – dedi baland ovozda Ivan. – Nima, ko'rmayapsanmi? U suzib yuribdi-ku.

– Mengayam shunday ko'rindi... – g'udiradi ensasi qotib Seryoja.

Kovboy Ivanga tashlandi:

– Kim suzyapti?.. Sen, nima – aqldan ozdingmi?..

– G'olibni e'lon qil! – qichqirdi Ivan hakamga va Kovboya ni-madir deb shipshidi.

Kovboy ham ko'zi o'qrayib, rangi oqarib unga nimadir dedi. Ivan unga juda xotirjam javob berdi, biroq baribir bu gapni eshitmadik – shovqin-suron bo'lib ketdi.

– Arsenov g'olib! – qichqirdi Seryoja.

Ko'ngli tozaligi uchun ham g'oliblikni unga berish kerak, u o'z g'alabasini ajablanmay qabul qildi. Tomoshabinlar qarshisida ta'zim bajo etdi, hakamga minnatdorlik bildirdi, Vovka tomonga otildi va uning qo'lqopli qo'lini tutib chin qalbdan qutladi.

– Senga zarar yetkazmadimmi, Kovboy? – so'radi u hamdardlik bilan.

Unga Ivan javob berdi:

– Hammasi joyida, Arsen. Sen zarba berasan – dazmollamaysan-da!

– Men emas, – dedi kamtarona Arsenov, – bokschi ko'nikmasi.

Seryoja Lepkovskiy bexabar qolganlarga gangirab qolish holati nokautga tengligini tushuntirishga kirishdi. Garchi bokschi oyog'ida tursa ham, jangni davom ettirolmaydi, «suzilib» qoladi.

Biz uning tushuntirishini ma'lumot uchun qabul qildik. Ammo ko'z oldimizda bo'lib o'tgan tomosha hech kimni qoniqtirmadi. Uning shartli tomonlari juda ko'p edi. Gardanga tushirish negadir taqiqlandi, ko'zga esa xohlagancha uraver. Qo'li baland kelayotgan birdan mag'lubga chiqarildi, chunki u «suzilib» qolganmish, o'ziga aniqroq sezilibdi. Har holda «suzilib» qolgan Kovboy, agar Ivan sochiqni tashlamaganda, Arsenovni bemalol urib tashlardi. To'g'ri, Arsenov epchil, har xil usullarni biladi, biroq kimnidir yuzini bejab qo'ymoqchi bo'lgan Kovboya ular cho't emas. Petya Arsenov biz-

ning isyonkor fikrlarimizdan xabari yo'q, ko'ngli to'lib, o'zini baxtiyor his qilardi...

– Eshit, Kovboy, Ivanga tashlanganingda, u senga nimalar dedi? – shu voqeadan so'ng oradan o'ttiz besh yil o'tgach, so'radim.

– Axlato'ra.

– «Axlato'ra» – nima degani bu?

– U menga o'sha, ikkalamizning o'rtamizdagi mushtlashuvni eslatdi... axlato'radagi, – istar-istamas tushuntirdi Kovboy.

– Sen-chi?

– Men: aralashma, u meniki, urib tashlashimga qo'yib ber, dedim.

– U-chi?

– Agar sen uni ursang, men seni uraman, dedi. Hammaning oldida. Axlato'radagidan battar bo'ladi, dedi. Men, xo'p, dedim, – kului Kovboy, – keyin g'olibni qutladim.

Bu voqeja jim yuradigan Ivan Layma ismli qizchani mazax qilgani uchun Kovboyni urgan axlato'raning yonida bo'lib o'tgan. Dun-yoning mana shu burchagiga ham taraqqiyot yetib kelibdi. Chetidan chiqindilar toshib turadigan ulkan yog'och qutining – uning sassiq hidi hozirgi beshinchchi qavatlarga teng keladigan uchinchi qavatdagi derazamgacha chiqib borardi – yonida qopqoqli qo'shqulqoq tunuka idish turibdi. Bejirim, pokiza, hech qanday hid chiqarmaydi. Ammo zerikarli. Hozir bu yerlarga Mitya amaki – changakli kishi chiqindilar orasidan yaroqli buyumlarni ajratib olgani kelmaydi. Mitya amaki bolalarmi yaxshi ko'rardi, ularga o'sha kondan topgan qalay askar-chalar va hushtaklarni sovg'a qilardi.

Biz, uchta ellik yoshli kishilar – Layma, Vovka va men – axlato'ra yonidagi kichkinagina bog'chada o'tirardik. Bog'cha qachonlardir, inqilobgacha choy savdosi bilan shug'ullangan mashhur Visotskaya tegishli bo'lgan. YIS¹ davrida tarqalgan mashhur iborani o'sha ayol aytgan: «Oramizdan kimda ikki-uch million yo'q?» deb. Inqilob saroydan quvib solgan kampirsho Visotskaya bizning uyga, derazasi axlato'ra tomonga qaragan xonadonga ko'chib kelgan. Derazalar bir-biriga to'g'ri burchak holida joylashgan ishbilarmon kampirsho derazadan derazagacha to'siq tortgan, nafaqat axlato'rani to'sgan, balki o'ziga uchburchak hovlicha yasab, gullar va nihollar ekib, o'rindiq

¹ Yangi iqtisodiy siyosat (abbr.).

o'rnatib qo'ygan. Pechakgul va uzumlar derazalarga tirmashib yuqotriga o'sgan. Uning butun mulki Andersennen bekalari bog' yaratgan tokchadan kattaroq bo'lgani uchun katta uyda yashovchi xalq keksa nahangning ochko'zlarcha harakatlariga barmoq orasidan qarolmadi. Visotskaya bog'ini mana shu uydicha yashovchilarga olib qo'yishini talab qilishdi. Kampirsho rozi bo'ldi, ammo ommaviy sayr qilinadigan «Bog'chada velosipedda yurish qat'iy taqiqlanadi», deb e'lon ilib qo'ydi.

Biz aynan shu bog'da uchrashdik. Qiziq, yashil uchburchak uylarning qayta-qayta qurilishlarida ham omon qolibdi, hatto gullab-yashnabdi – albatta, devor bo'ylab yuqoriga ko'tarilgan, atrofga yoyilmagan. Yovvoyi uzumning qizg'ish yaproq yozgan novdalari uchinchi qavatgacha cho'zilgan. Har birimizning uyimiz, oilamiz bor, lekin bu bog' hozirga, kelajakka ham daxldor, biz bugungi olamda qadimdan qolgan burchagimiz bo'lishini xohlagandik. Layma dedi: «Visotskayaning Semiramida bog'lari» – bizga eng kerakli joy shu ekanini darrov tushundik. Xilvat, sokin, salqin, qolaversa, o'tmish nafasi ufurib turadi. Tarvaqaylab o'sgan uzum derazani yopib, bizga tinchgina go'sha yaratgandi. Biroq o'rindiq torlik qilyapti – axir, biz «ulg'ayib» qoldik, ayniqsa, Kovboy. Baland bo'yli, xushbichim o'smir katta, chiroqli, basavlat, ammo semiz – bu odamga yorug' dunyoda buncha ko'p joy kerak ekan-a! Layma ikkimiz ham cho'pday emasmiz, lekin ikkimiz ham bir bo'lib bunchalik katta joyni egallamaymiz-ku. Mening bo'yim pastroq, Layma esa o'zini saqlagan, tarang, qamishdek bo'lmasa ham, qayoqda! – xullas, hammasi me'yorida. Vovkaning hurmati, semirmadi, harakatchanligini yo'qotmadni. Umuman, uning tashqi ko'rinishi egallagan martabasiga mos. Uning martabasi hazil emasligidan ogohlantirgan Kovboy qo'l siqishganimizda dedi:

- Dangal ayt – mendan senga nima yordam kerak?
- Yoshligimni qaytarib ber.
- Xuddi mana shu qo'limdan kelmaydi-da.

Xato qildi, u bu ishni bajarib bo'ldi – shu yerda o'tirishi ham hali bolalik mamlakatini tashlab ketmaganidan dalolat berardi. Turli sabablar bois bolalik bizni tark etmagandi. Menda bu yozuvchilik faoliyatiga bog'liq, uning esa – semirib ketayotganini yashirishga urinadigan, ko'zini yoshlarday chaqnatib, so'lib borayotgan yuzla-

rini atir-upalarning sifatsizligidan deb hisoblovchi yoshi katta xotini bor.

Qandaydir chegaradan o'tdik, shekilli, hozir Layma uchrashuvdan uchrashuvgacha keksayib boryapti, biz esa tez-tez ko'rishib turamiz. Qiziq, Vovka uni qanday ko'rar ekan? Unga xotini yosh qizchaday ko'rinishini tasavvur qilolmayman. Safsata, hayotda bu-naqasi bo'lmaydi. Ehtimol, unga ta'sirli ravishda oqarib, keksayib borayotgan qiyofasi ko'proq qadrli va yoqimli bo'lsa kerak. U hamon xotinini sevadi, mana shu ulkan qorachadan kelgan odamning sochida bir dona oqi yo'q. Kimdir Mopassan haqida aytgan ekan: qayg'uli buqa, deb. Bu qiyofa Vovkaga biroz mos tushadi: uning do'ng-peshona boshi, katta-katta chiroyli ko'zlar, yo'g'on bo'yni, to'g'risi – gardani. Aytmoqchi, kim quvnoq buqani ko'rgan? Podada ham, yaylovdha ham, sahnada ham buqa har doim g'amgin. G'unajin yonida ham, yaylovdha ham, shoxiga baxtiqaro nimjon odamni yoki mitti, qo'rkoq, ayanchli odamni ildirib olganda ham, uni nima bo'lsa ham o'ldirmoqchi bo'ladi. Buqa g'amgin, chunki azaldan hayotdan hech bir yaxshilik ko'rmagan. Ammo bu o'zining mavjudligini yaq-qo'l ko'rsatib qo'yishga yana ko'proq halal beradi.

– Ivan menga o'sha mushtlashuvimizni eslatishi yaramaslik-day tuyuldi, – suhbatimizni davom ettirdi Vovka. – Men uni bundan yuqori tursa kerak, deb o'ylardim...

– Men ham! – qizarib xitob qildi Layma. – Ishonchim komilki, u hech qachon, hech qachon bunday qilmagan bo'lardi.

– «Hech qachon» – soxta so'z, – dedi Vovka. – Men uning ortida, kattami-kichikmi, yolg'on borligiga, aksariyat hollarda tasodifan amin bo'lganman. Agar ayol kishi eriga «hech qachon» xiyonat qilmaganman desa, angla: u o'z imkoniyati darajasidan kamroq xiyonat qilgan bo'lib chiqadi. Ular «hech qachon» ko'rishmagan... Yo'g'-e, ko'rishgan, tasodifan bir-ikki marta – ko'chada, vokzalda, qahvaxonada, umumiy tanishlarning uyida, yoki negadir Ferapontov ibodatxonasida, yoki Everestda. Umuman, barcha so'nggi isbotlar ehtiyyotkorona munosabatda bo'lishni talab etadi. Ivan bizning janjalni hech qachon eslamagan, faqat bir marta eslatdi va to'g'ri qildi. O'shanda men buning sababini tushunmagandim. U tushuntirib o'tirmadi, faqat shunday dedi: «Sen, nima, uni o'ldirishga qo'yib beradi deb o'yladingmi meni?...» Vanya aqlli edi. Arsenov to'garakda yengil-

gan – nimayam derdik, boshqalar zarbaga dosh bergen, nozik harakat qilishgan, bularning barchasi tog‘ning cho‘qqisida sodir bo‘lgan. Bu yerda esa – dahshat, maqsadlarni puchga chiqaradigan, orzular so‘nadigan oxirzamon!.. Meni tutib qolgani uchun Vanyadan keyinchalik xursand bo‘ldim. Ba’zan kechasi uxlolmay ag‘darilib chiqasan, o‘y qiyinaydi, o‘tgan kunlar xayolingda qaytarilaveradi. Keyin Petya Arsenovni eslaysan va ichingda nimadir qo‘yib yuboradi. Eslang, Muqaddas kitobda qanday yozilgan: «Tangri uzatgan qo‘lni farishta tutib qoldi».

– Petya Arsenovning taqdiri qanday kechdi? – so‘radim men.
– Halok bo‘ldi. Deyarli Ivan bilan bir vaqtida.
– Sal keyinroq, – tuzatdi Layma.
– To‘liq tafsiloti noma’lummi?
– U yerda qanaqa tafsilot bo‘lsin! Onasi qoraxat oldi: «Qahramonlarcha halok bo‘ldi...» Axir, daydi o‘q tegib o‘sayam, shunday yozishadi. To‘g‘ri qilishadi, har bir onaning o‘g‘li qahramonlarcha halok bo‘ladi... Lekin bilasizmi, ishonchim komilki, bu yerda qahramonlarcha halok bo‘lishni to‘g‘ri tushunish kerak. U juda tez, urushning boshida, yodingizda bo‘lsa, tanklarga qarshi ko‘krak kerib borishganda halok bo‘lgan... Bu aynan Arsenovga xos. U, axir, Buyuk jangchi edi, zarbaga dosh berolmasayam, uni hech kim yengolmagan. Agar vaqt kelib noma’lum askar Moskva bo‘sag‘asida fashist tankiga ko‘kragini ochib borgani aniqlansa, shubhalanmang – bu Petya Arsenov... Ammo, agar shunday... agar shunday qilgan bo‘lsa, bunga sabab, avval boshqa bola, Ivan bo‘ysunmas Arsenov qalbini asrab qolgan edi.



QOYALI BO'SAG'A

1

Sakkiz kun deganda dovondan oshib, qo'ychilik fermasining ko'chmanchi o'tovlari tikilgan vodiyya chiqdik.

Mening hamrohlarim geologlar – Borisenkov va Xvoshch. To'ladan kelgan, ovozi yo'g'on Borisenkov yo'l bo'yi goh «bunday go'zallik»dan hayratga tushib, goh keksa qog'ozbozni toqqa quvgan bu dunyoda nimaiki bo'lsa, hammasini bo'ralatib so'kib kelardi. Ozg'in, chayir Xvoshch do'stining hayratiga ham, zorlanishiga ham o'ychan kulib qo'ya qolardi. U ashaddiy izquvar, atrofdagi g'aroyib manzaralari-yu, mashaqqatli tog' so'qmoqlariga ko'nikib ketgan.

Vodiyyadagi sarg'ish bedazor va kulrang, jun singari pishiqliklar orasida, ikki yarim ming metr balandlikda birinchi marta Katya Sviridova nomini eshittdik.

Kechki ovqatdan so'ng hurmatli keksa ferma mudirining o'tovi oldidagi kigizda xotirjam yonboshlab, tamaki tutatgach, suhbatimiz qizidi.

– Bu, axir, yovvoyi bedami? – so'radi Borisenkov, botayotgan quyosh nurlariga g'arq bo'lgan yaylovga qarab.

– Yo'q, bu Katyaning bedasi, – javob berdi Karim degan yosh cho'pon. U kichkina bug'doyrang yuzi, qalamda chizilganday ingichka mo'ylabi va toshday qattiq, lekin nozik, shaftolirang yonoqlarini to'sib, tulki terisidan tikilgan telpagini qulog'igacha bostirib o'tirardi.

– Katyaning bedasi? – takrorladi Borisenkov. – G'alati nom!

– Nega endi g'alati? Katyusha – bu biostansiya!

– Jarangdor, ammo tushunarsiz! Nima, u yerda boshqa odam yo'qmi?

– To'xta, Karim, kel, yaxshisi, mehmonlarga o'zim tushuntirib bera qolay, – gapga aralashdi ferma mudiri, Borisenkovning sabrsizli-

gini payqab. Keyin u bir-ikki og'iz so'z bilan biolog Katya Sviridova kechmishini aytib berdi.

Ikki yilcha oldin baland tog'da, vodiyning ustida kichik bio-stansiya ochilibdi. Avvaliga, u yerga uchta ilmiy xodim ishga kelibdi: keksa er-xotin Rodionovlar va yigirma ikki yoshli, yaqinginada institutni tamomlagan Katya Sviridova. O'tgan qishda qor ko'chkisi stansiyani Katta yerda ajratib qo'yibdi. Bu ayriliqqa chidolmagan Rodionova og'ir kasalga chalinibdi. Bahor qorni eritganda Rodionov xasta xotinini olib stansiyadan shaharga ketibdi. Ularning o'miga ikki kishi – erkak va ayol kelibdi; ularning ismi hikoyachining xotirasidan ko'tarilibdi. Tog' ustidagi siyrak havoga ayol chidolmabdi, boshi aylanibdi va uni ham pastga chaqirib olishibdi. Erkak jismongan kuchli, biroq ruhan kuchsiz ekan. U shunchaki stansiyadan qochib, qayergadir yashirinibdi. Katya o'zi ekkan olma daraxtlari, tajriba uchastkasi, laboratoriyalari, afg'on shamoli va tungi ayozlari bilan yolg'iz qolibdi.

Biz yana uzoq gurung qilgach, uplashga tarqaldik. Men qo'y terisiga burkanib, ochiq havoda yotdim. Tezdagina ko'zim ilingan ekan, kimdir yelkamga turtib uyg'otdi.

– Do'stim, uxlamadingmi? – qulog'im ustida Karimning ovozi keldi. – Senga bir gapim bor. Kon tomonga ketyapsizlarmi?

– Taxminan, shunday...

– Unda Qoyali bo'sag'a orqali o'tasiz, boshqa yo'l yo'q.

– Xo'sh, nima bo'pti?

U mendan qandaydir javobni behuda kutardi. Karimning dami ichiga tushgancha uzoq turib qoldi, mening esa ko'zlarim yana yumi-la boshladи.

– Men Qoyali bo'sag'aga chiqqanman! – dedi qandaydir g'alati hayratlanib birdan Karim. – Birinchi chiqqanimda stansiya qurganmiz, yana bir marta – bahorda. Biznikilar kuzda yana o'sha yoqqa borishadi, men bormayman. Yo'q, aslo chiqmayman! – takrorladi u qarorining qat'iyligidan ajablanganday.

– Nega?

Karim javob bermadi. U zulmatga chekindi va yonimga qaytib kelganda qo'lida maktub bor edi.

– Katyaga berib qo'yasanmi, a? Buni men yozganim yo'q, past-dan chiqqan xat. Katya bu xatni intiq bo'lib kutyapti.

– Yetkazaman, xotirjam bo‘l.

Men xatga qo‘limni cho‘zdim, ammo Karim uni menga berishga shoshmadi.

– Yo‘l xavfli, do‘stim, xat esa bu tomonlarga kam keladi. Ehtiyyot bo‘l, qil ustidan o‘tasan.

Xatni iloji boricha asrab, Katyaga topshirishimga uni ishontirdim.

– Lekin men haqimda hech narsa dema, xo‘pmi?..

Karimning tiniq ko‘zlarining oqi ustimda yonib turar, xuddi ikki dona oq gulga o‘xshardi.

«Darding og‘ir, yigit», – deya o‘yladim men xatni kurtkamning ko‘krak cho‘ntagiga solgach.

2

Sarg‘ish-yashil vodiy tez orada ko‘zdan yashirindi. Tobora yuqoriga tik ko‘tarilib borayotgan yo‘l yo‘lakka aylandi, yo‘lak esa – uzuq-yuluq, arang topib olsa bo‘ladigan, tubsiz daralar ustidan, tik qoyalar ostidan o‘tadigan toshloq so‘qmoq bo‘ldi. Quyida, juda pastlikda daryo ayqirar, o‘zining oppoq ko‘pigidan o‘zi zavqlanar edi. Ba’zan ro‘paramizda, dara ustidan parcha-parcha, laxtak bulutlar suzib o‘tardi. Tog‘ning qirrali qoyalarga urilgan bulutlar yana parchalaniib, dara uzra yuksalgan pahlavon qoyalarga bosh qo‘ygach, so‘kilib, to‘kilib ketardi.

Ba’zi joylardan qoyaning bo‘rtib chiqqan toshiga tirmashib, g‘adir-budir yo‘sirlarni changallab, emaklab o‘tdik. Mayda toshlar tirsak va tizzalarimiz ostidan jarlikka uchar, shunda Borisenkov o‘ziga kelib g‘o‘ldirardi:

– Yo‘lovchi, yodingda tut, qabrgacha bir qadam.

U pomirlik cho‘ponlardan eshitgan bu qadimgi matalni takror-takror aytaverganidan o‘zi dilgir tortib, yo‘l azobidan g‘azablanmay qoldi. Rostini aystsam, Karimni ishonchini oqlolmaymanmi, xatni egasiga yetkazib borolmaymanmi, degan xayol bir necha marta boshimda aylandi. Faqat Xvoshchgina odatdagি sovuqqonligini yo‘qotmadi, yo‘l og‘ir bo‘ishiga qaramay, tog‘ jinslaridan namunalar ko‘chirib olardi. Bu qiziqish eski izquvarda bolaligida tug‘ilgan ekan.

Kun oxirlaganda shamoldan pana, ko‘zda tutilgan tog‘ yori-g‘idagi chuqr manzilga – to‘xtash joyiga yetib bordik. Xaltalar-

ni yerga tashlab, ko'zimizga parto'shakday ko'ringan tosh ustiga cho'zildik.

— Nima uchun do'stimiz Karim menga Katyaga deb «kichkina tuguncha»ni berganda, olganim uchun katta rahmat aytganini endi tushundim, — dedi Borisenkov.

— Demak, u sizgayam yuk ortibdi-da? — dedi parishon Xvoshch.

— Sizgayam berdimi? Eh, uni qara-ya! Shoshmay tur, dog'uli! Demak, — Borisenkov menga qaradi, — Karim sizni yosh deb, avaylab-di-da?

— Mutlaqo undaymas. U, ehtimol, Qoyali bo'sag'aga yetib borishga mening imkoniyatim ko'proqligini nazarda tutib, eng qimmatli narsani ishonib menga bergandir. — Ularga pushti xatjildning chetini ko'rsatdim.

— Buni qarang! — xitob qildi Borisenkov. — Biz to'y sovg'asini olib ketyapmizmi hali?

— Xat Karimdan emas.

— Kimdan, axir?

— Bilmayman, bu yerda yuboruvchining manzili yozilmagan. — Men chodir tiklashga unnadim.

3

Keyingi kun oqshom tushganda Qoyali bo'sag'aga yetib bor-dik. Qoya kutilmaganda paydo bo'ldi, ungacha biz xavotirga tu-shib, xaritaga qayta-qayta ko'z tashladik. So'qmoq ikki tepalik orasidan o'tib, ortga qayrildi va shundoq qarshimizda silliq va toza nishablik ochildi, pastlikka qarasang, keng kamar ko'rindi. Kamar o'rtasida tomi yassi toshdan qurilgan uy turibdi, bu odadagi Pomir kulgalaridan mo'risi bilan farq qilardi. Sal narida uydan boshlab aylantirib toshdan urilgan, baland emas, to'siq-devor bo'lib, uning ortida qandaydir o'simliklar ko'kargan, tog' yonbag'rida ham ekinlar bor, ammo olisdan qanchalik tikilma, ularning nimaligini bilib bo'lmaydi: o'tzormi, butazormi yoki past bo'lyi daraxtlarmi?

Stansiyaga yaqin qolganday tuyulgandi, lekin biz yana toshloq so'qmoqdan uzoq yurdik, avval Qoyali bo'sag'aga tushdik.

Maydoncha ustida jilg'a shildirashi eshitildi. Tajriba uchastkasi tarafda qiya kesilgan qoyada tog' tepasidan oqib tushayotgan jilg'a

o'ziga o'zan olibdi. Jilg'a toshdevor ustidan bir tekisda suv
omboriga o'xhash chuqurlikka oqib tushardi.

Soyada yumaloq bujur toshday toshbaqa yotibdi. Eshikdan ba-
sharasini yung bosgan, gavdasi silliq, ayanchli laycha chopib chiqdi.
U panjalarini oldinga cho'zib, mitti jussasini sezilmash darajada ortga
tashlagancha qulogni qomatga keltirib akillay boshladi.

Uning shovqin solishi stansiyaning boshqa jonzotlarining diqqatini
tortdi. Uyning burchagida kulgili, oyoqlari uzun tovuq vahimaga
tushib, turgan joyida aylanaverdi, uning ortidan yungi jingalak ko-
reys cho'chqachasi chiyillab chopdi. Atrofdagi qo'llovchilardan ruh-
langan laycha o'ziga yana ham erk berib, kuchliroq akilladi. Endi u
faqat oyog'ini tirab turmay, bo'zchining mokisiday naridan beriga
borib-kelardi.

– Hoy, uyda kim bor? – qichqirdi Borisenkov. – Itingiz qopmay-
dimi?

Hech qanday javob chiqmadi. Laycha akillashidan hozir
yorilib ketadigandek tuyldi. Tovuq shovqin soldi, uning quqlashi
jo'jaxo'roz «chaqirishi»ga o'xshardi. Cho'chqacha atrofimizda
aylanib, yo'g'on ohangda xurilladi. Uning basharasi cho'zinchoq,
tumshug'i turtib chiqqan, xuddi yovvoyi to'ng'izga o'xshaydi.

Uydan taraqlagan tovush chiqdi, xuddi stol ag'darilganday, ke-
yin tosh pol ustida tez-tez yurgan poshna tovushi eshitildi va nihoyat,
eshikning qorong'i qiyasida yoshgina ayol jussasi ko'rindi, qo'lida
qurob bor. U bizni ko'rib taqqa to'xtadi, ajablanib qaradi-da, kulib
yubordi:

– Begonalarmi, deb o'ylabman! – U qurolni devorga tirab
qo'ygach, qichqirdi: – Bas, Styopa, bas! Tata, Kuzya, jim bo'ling!

Hayvonlar tinchlanib, uning oyog'i ostida uymalanishdi.

– Kush kelibsiz, o'rtoqlar! Tanishib olaylik. Sviridova Yekaterina
Alekseyevna, yaxshisi – shunchaki Katya.

Biz navbatma-navbat Katyaning kichkina qo'lini siqib chiqdik.
Bu kuchli, dag'al va ajoyib, yengil alvon qirov qoplaganday tarang
tortilgan qo'l o'zgacha, tog'liklar hayoti haqida so'zlagan Katyaga-
gina xos edi.

Katya ozg'in, qaddi-qomati kelishgan, shaharlikka o'xshaydi.
Shaharcha kiyinibdi: moviy sviter, kalta jun yubka, ipak paypoq ki-
yib, baland poshnali tuflida yuribdi. Bu liboslar, shubhasiz, Katyaga

yarashgan bo'lsa-da, go'yo onasi yo'qligidan foydalani, uning ust-boshini kiyib olgan qizchaga o'xshardi.

— Tuf-e, bizga qarang, soch-soqol taroshlanmagan, qari ko'ri-namiz, — g'o'ldiradi Borisenkov, jirkanib dag'al tuk qoplagan iyagi-ni ishqalab. — Ha, ha, siz qaribsiz, yigitcha! — menga tashlandi u. — O'ttiz yoshingizda sochingiz oqarib, ko'zingiz osti solqib qolibdi!..

— Nega unday deysiz?.. — o'pkaladi Katya.

— Sizning yoningizda yo'nilmagan tayoqqa o'xshab turibmiz. Siz shunchalik ozoda, yasanib olibsizki, xuddi kimnidir kutayotganga o'xshaysiz...

— Kutyapman? — U andak jilmaydi. -- Yo'g'-e, shunchaki, bugun yakshanba bo'lgani uchun shu...

Yungi jingalak cho'chqacha Xvoshchning yoniga chopib borib, uning botinkasi yuziga panja bosdi.

— Ket! — qichqirdi Xvoshch, oyog'ini turnaday ko'tarib.

Cho'chqacha norozi xurillab, so'yloq tishini ko'rsatdi...

— Kuzyaning ko'ngli nozik. — Katya Xvoshchga tabassum qildi. — U yarimyovvoyi, onasi xonaki, otasi yovvoyi. Ha, aytmoqchi, do'stlarimni sizga tanishtirmadim-ku. Bu mana Tata, dunyodagi eng baland tog'da yashovchi tovuq, posbonimizning ismi Styopa, toshbaqa esa — Leda. Bu yerning ob-havosi Ledaga sovuqlik qiladi, shuning uchun uyasidan tashqariga chiqmaydi. Ana, Grafinya ham tashrif bu-yurdilar! — Katya bir tuki yo'q Himolay qumoyini ko'rsatdi, og'ir qanotlarini yozganda uch qulochga boradigan qush turtib chiqqan qoya ustiga qo'ndi. — Grafinya ham deyarli oilamiz a'zosi hisoblanadi, fagaqt u chetroqda turishni ma'qul ko'radi...

Men Katyaning so'zlarini goh xushlab, goh xushlamay, qandaydir aralash tuyg'ular og'ushida eshitdim. Hali vodiyya ekanimizda tasavvurimda tug'ilgan tog'dagi tanho qiz qiyofasi butunlay tarqalib ketdi. Men birdan Katyani chiroyli, yoqasi oppoq, jigarrang ko'ylak kiygan, qora etak taqqan va sochiga qora tasma qadalgan — jo'shqin, kulgili maktab o'quvchisi, hayotga o'ylamay qaraydigan yengil-yelpi qizchaday tasavvur qildim.

Ammo oradan biroz o'tgach, qizning fe'l-atvori haqida nojoiz xulosa chiqqarganimni tushundim.

Biz uyning ichiga kirib, yuklarni burchakka qo'ydik, shundan so'ng Borisenkov va Xvoshch cho'pon Karimning sovg'alarini —

turshak va echki moyini Katyaga topshirdi, Katya mammuniyat bilan, hech bir ajablanmay qabul qildi, biz sovg'asiz kelmasligimizga ishonchi komil ekan. Chunki bu singari tuhfalar Qoyali bo'sag'aga yo'l olgan barcha yo'lovchilardan Karim berib yuboradigan qandaydir bojga o'xshardi. Bu yerdagi barcha hayvonlarni, Kuzyadan boshqa, Karimning o'zi keltirib beribdi. Bilmadim, Katyaga maktubni berishimga qandaydir noma'lum tuyg'u to'sqinlik qilardi. Lekin men sheriklarim yuvinish uchun hovliga chiqqanda, xatni egasiga topshirdim.

— Xat? Karimdanmi? — dedi Katya va oftobda kuygan qoshi chimirildi.

Biroq ko'rinishidan keyingi lahzada manzil yozilgan notejis, katta-katta yozuvni tanidi. Yonog'i qizardi. Bu bilinar-bilinmas qizillik oqish tus oldi va bu oqarish peshonasi, chakkasi, qovoqlariga tarqalib, yuzini qopladi. U shu zahoti o'zini tutdi, xotirjam, xatni deyarli, beparvo qo'liga oldi, bir ko'z tashladi-da, yonidagi stol ustida turgan oqish-sariq mumga o'xhash gulning yoniga qo'ydi.

— Siz soqolingizni hozir tarashlaysizmi yoki oldin yuvinib olasizmi? — xotirjam va beparvo ohangda so'radi Katya.

Shunda men maktab o'quvchisiga o'xhash nozik bu qizchaning irodasi kuchli ekaniga tan berdim.

4

Yarim soatdan so'ng soqollar olingan, ozoda bo'lib, saqlangan go'shtni obdan qizartirib qovurilgan kartoshkaga qo'shib ishtaha bilan yeishga tushdik va birdaniga barcha mavzular da gap ochildi: Pomir va Simlyan suv inshooti, uyalab ekish va Tungus meteoriti, yangi kitoblar va kinokartinalar, hatto nimagadir qo'limizni qayirgan Aleksandr Makedonskiygacha aytilmagan gap qolmadidi.

Tez orada ma'lum bo'ldiki, Katya ham biz, uchalamiz singari moskvalik ekan, begona yerlarda yurgan moskvaliklarning suhbatini muqarrar yagona mavzuga ko'chadi – Moskvaga.

Biz, to'g'ri, Katyaga hech qanday yangilik aytolmadik, na universitet haqida, na Arbat metrosi haqida – biz deyarli Katya bilan bir vaqtida poytaxtdan chiqqan ekanmiz; ammo-lekin u Moskvadagi ko'chalarning nomini aysangiz ham quvonib ketardi. Birmun-

cha vaqt biz xuddi chiptachi singari, bir-birimizdan o'zib qichqirdik: Gorkiy ko'chasi!.. Oxotniy rastasi, Novinka xiyoboni!.. Tiniq ko'llar!..

Xvoshchning Kichik Basman ko'chasida yashashini eshitib Katyaning ko'ziga yosh keldi: u qo'shni – Ryazan ko'chasida tug'ilgan ekan; men o'zim tug'ilgan Sivsev Vrajekimni aytganimda Katya meni o'pib olsa kerak, deb o'ylagandim – u Eski Konyushen-dagi mактабни тугаллабди! Borisenkov ham hayratning o'ziga yara-shasini oldi – u Matrosskaya Tishinadagi torko'chalardan birida yasharkan: Katyaning xolasi o'sha tarafda yashar ekan.

– Qanday yaxshisizlar-a! – dedi to'lqinlanib Katya, eng chetdagi jinko'chalarni ham bir-bir aytib chiqqanimizdan keyin. – Axir, bu yerga qancha odamlar kelib-ketadi, qani endi ularning orasida mosk-valik bo'lsa!

– Sira xayolimga kelmabdi, Qoyali bo'sag'a – odamlar juda ko'p keladigan joy ekan-da! – dedi shubhalanib Borisenkov.

– To'g'ri, to'g'ri! O'tgan oyda burgut ovchisi keldi, undan avvalgi yili – geologlarning butun bir guruhi. Chegarachilar ham yo'qlab o'tishdi. Men ularni qovun so'yib mehmon qilganimni eslayman, o'sha yili faqat qovun ekkandim, xolos. Faqat, – xo'rsinib ta'kidladi Katya, – uni yeb bo'lmasdi. Ta'mi ivigan qog'ozday bemaza. Bu yerdarda nima ekishni bilmaysan. Lekin qiziqarli. Ba'zida shunday tuyuladiki, go'yo dunyoda yo'q mevalarni yetishtirganday bo'lamiz, – Katya kulib yubordi, so'ngra umidvor ohangda so'radi: – Stansiyani ko'rgingiz kelmayaptimi?

Biroq biz shayylanib uydan chiqqunimizcha oqshom tushdi, g'ira-shirada tog' tizmalari va qoyalar qoraga bo'yaldi, Qoyali bo'sag'a ko'kimdir tutun qoplaganday ko'rindi. Muqaddas tog' chodiri ustida oyning rangsiz chehrasi ochildi. Faqat osmongina kunduzgi moviy nazokati ila tovlardi.

Biz Katyaning izidan shoshib ergashdik, lekin tog'da tez yurishar ekan.

Zulmatda bir kishining gavdasi ko'zga tashlandi. Men beixtiyor cho'chib ketdim: negadir Katya Qoyali bo'sag'ada bir o'zi turadi, de-gan xayolga boribman.

Baland bo'yli, beli bukchaygan, qoqsuyak qariya xuddi uzun has-sasiga ilinib turganga o'xshardi.

– Arabsho! – xushmuomala dedi Katya. – Tanishing, o'rtoqlar: Arabsho Gulchiyev, bizning dalv, suv rahnamosi, ma'budi.

Qariya do'ppisini qo'liga olib, hurmat-e'tibor yuzasidan ta'zim qildi. Uning yuzida qora chiziqlar paydo bo'ldi: ko'z kosasining churqur kovagi, peshona va yuzidagi ajinlarning qora izlari; hatto siyrak soqoli ham chinakam soqolning soyasiga o'xshar, ammo fayzli, kumushday ko'rindi.

– Arabsho ajoyib kishi, – dedi Katya. – Uning bitta kamchiligi bor – mutlaqo uyg'a kirmaydi. Kirsa, yuragi siqiladi. Bir umr suv yoqasida yashaydi, hatto ayozda, suv muzlagandayam. Lekin bu bir-birimizni hurmat qilishimizga xalal bermaydi. Agar Arabshodan biron narsa so'ramoqchi bo'lsangiz, qattiqroq gapiring, qulog'i yaxshi eshitmaydi.

– Bobojon, ishlaringiz yaxshimi? – baqirdi Borisenkov, qo'lini karnay qilib.

Qariyaning yuzida, soqoli va mo'ylovi o'rtasida yana bir kichkina yarimoy shaklidagi soya paydo bo'ldi; sekin, xuddi qamish shitiriday notanish tilda ovoz eshitildi.

– Arabsho hayotidan mammunligini bildirdi. Sizga oq yo'l tiladi, – tarjima qildi Katya.

– Kechirasiz, – dedi ajablanib Xvoshch. – Men sal-pal bu tilni tushunaman... Menimcha, u Ishinda qo'y so'yishyapti, demadimi?

Katya qariyaga mehr bilan qaradi.

– U, to'g'risi, eshitmadni shekilli, qarib qolgan, Arabsho...

Qariya esa, gap o'zi haqida ketayotganini tushunmay, yana do'ppisini oldi va uzun soyasini qiynalib sudragancha boshqa tomon-ga yo'naldi...

Atrof qorong'i, tajriba uchastkasining atrofini o'rab turgan devor faqat bir parcha zulmatday to'sib turardi.

– Hov narida kartoshka uchun ajratilgan maydon, – dedi Katya hazin ovozda. – Bu tarafda esa bodringlar, negadir yaxshi unmadi. Narida, nariroqda... yo'q, baribir hech narsa ko'rindiyapti...

– Nega endi? – dedi tetiklanib Borisenkov. – Mana, olma, shekili... – U zulmatda oqarib turgan daraxtni ko'rsatdi.

– Ha, biroq olmalar muzlab qoldi. Ammo negadir yonbag'irlarda o'sgani ko'karib yotibdi, xuddi shu yerdan chiqqanday, moslashganday! – Katya jon kirganday, bizga ayrim daraxtlarning tekis yerda

unmasligi, nishablik va tik jarliklarda yaxshi o'sishini, bu esa, tekis yerlar kam, nishabliklar istagancha topiladigan tog'li Badaxshonda juda muhimligini so'zlab berdi.

Qorong'ida goh u tarafni, goh bu tarafni ko'rsatar ekan, Katya bizni na ayozdan, na ajal tarqatuvchi afg'on shamolidan cho'chimaydigan qorag'atning yoniga olib bordi; nima qilsa ham, bo'y cho'zishni istamayotgan nokni ko'rsatdi; odamni davolashga xizmat qilishi lozim, ammo-lekin yetib bo'lmas qoya va yonbag'irlarda o'sayotgan dorivor giyohlarni ko'z-ko'z qildi.

Biz Katyani qurshab turgan dorivor o'simliklar makoni Malham tog'imi, hosil bitmagan kartoshkami, qiyaliklarda ko'karib, tekistikda quriyotgan olmalarmi, sovuqqa bo'y bermas qorag'atmi, kelajagi porloq qarag'atzormi – nimani ko'rsak, barcha-barchasida uni, kelajak bekasini, zahmatkash Katya Sviridova qiyofasini ko'rgandek bo'ldik.

5

Biz bu oqshom uyquga yotishga shoshilmadik. Ratsiyani sozlab, qandaydir musiqa topgach, Katya bilan navbatma-navbat barchamiz raqsga tushib chiqdik. Keyin o'sha to'lqinni yo'qotib qo'ydik, ammo-lekin Katya istagan tovushga, hatto ob-havo ma'lumotiga ham raqs tushsa bo'ladi, deya bizni ishontirdi. Katya akkumulyator o'tirib qoladi, deb tashvishlanguncha shunday qildik. Keyin istakon va boshqa shunga o'xshash chinni idishlarni chertib, urib Xvoshch ijro etgan marsh sadolari ostida raqs tushdik. Nihoyat, Katya kechagi ma'lumotlarini bir tartibga solishi lozimligini bahona qilib, bizni xonamizga quvdi.

Borisenkov va Xvoshch avval Rodionovlar yashagan xonaga joylashdi, men bilan Katya laboratoriya yonidagi kichkina qaznoqqa kir-dik, bu yerda kurak, ketmon, cho'kich singari asboblar saqlansa-da, uyning boshqa xonalariday toza, batartib ekan.

Uyqudan oldin popiris chekishga chiqdim. Osmon to'la yulduzlar. Boshim uzra ko'zga ilashmas chiziq bo'ylab Uch sehrgar porlayshti. Qorli cho'qqilar g'ira-shira ko'zga tashlanadi, go'yo yulduzlar ularning ustidan shu'la sochib, ko'mib qo'ygandek. Oy allaqachon Afg'oniston tomonga o'tib ketibdi va yagona ko'zi bilan Qoyador bo'sag'aga begonasirab, sovuqqon nazar tashlardi.

Qo‘lyuvgichning yonida qandaydir kimyoviy modda aralash muzlagan qop-qora ko‘lmak muzi yaltiradi.

G‘ayritabiiy, xuddi yerning qa‘ridan ko‘tarilganday sovuq yurakning ostiga sanchiladi. Go‘yo tog‘lar ko‘p asrlar davomida o‘zining haddan tashqari ulkan og‘irligini ko‘tarib toliqib, qa‘ridan muzli xo‘rsiniq otilib chiqayotganday tuyuldi. Men birdan o‘zimni yolg‘iz, g‘am-g‘ussaga botganday his qildim va popirisimni tez o‘chirib, ichkariga chopdim.

Katya sham yorug‘ida ishlardi. U stolga boshi tekkudek bo‘lib, uzoqni ko‘rmaydigandek, qora kleyonka qoplangan daftarga nelarni dir yozardi.

Unga xayrli tun tiladim.

— Xayrli tun. — Katya ohista boshini siltab, sochini orqaga tashladi. Olovning keskir tili Katyoning qorachig‘ida ikkita tungi gulxan kabi lovulladi. Balki mana shu manzara uning nigohiga yangi, teran tashvish tusini bergandir.

Qaznoqqa ohista kirdim, namatga yonboshlab, uxlashga chog‘landim. Qayerdadir yonimda tovuq Tata va cho‘chqacha Kuzya suhbat qurardi. Boshida tinchgina va xushmuomala davom etayotgan suhbat janjalga aylanib ketdi, Kuzyaning g‘azabi qaynab Tataga xo‘rillab berdi. Tovuq birmuncha vaqt chetlab chogpach, panjasini taqillata boshladi; keyin hamma tovushlar tindi, uxbab qolibman.

Ammo keyingi vaqtarda ochiq havoda tunab o‘rganganimgami, uyqu aralash qaznoqning torligini his etdim. Alahsiradim, dam yopinchiqqa o‘raldim, dam ochib tashladim va nihoyat, uyg‘onib ketdim.

Xona anchagina notinch tuyuldi, avvaliga, bu tebranib turgan xira yorug‘lik qayerdan taralganini bilolmadim. Tirsagimga tayanib, boshimni ko‘targach, xonadagi stol ustida yonayotgan shamni va uning atrofiga terilgan kitoblar orasidagi sham qoldig‘i lipillab turganini ko‘rdim. Katya stolga boshini egib o‘tirardi. U boladay o‘kinib yig‘lardi: boshi, yelkalari, qo‘llari yig‘lardi. Uning xo‘rsinig‘idan sham boshini tebratar, bundan devor bo‘ylab qora sharpalar paydo bo‘lardi; xona Katya atrofida aylanayotgandek tuyuldi.

Yig‘layotgan Katyani ko‘rish men uchun kutilmagan va g‘ayritabiiy, ne deyishimni, ne qilishimni bilmay, gangib qoldim.

So'ngra uning yonida parcha-parcha yirtilgan tanish pushti xatjildni ko'rdim va tushundimki, mening qo'limdan hech narsa kelmaydi, tasallining foydasi yo'q.

«Endi uning haqiqiy yolg'izligi boshlanadi», – o'yladim men va yopinchiqni boshimga tortdim.

6

Ertalab tursak, dasturxon tuzalgan, lekin bekaning o'zi yo'q. U tajriba maydonchasiga ketgan bo'lsa kerak.

– Demak, biz Yekaterina Alekseyevnani ko'rolmaymiz. – samimiy xo'rsindi Xvoshch va nonushta qilishga kirishdi.

Borisenkov xafagarchilikdan o'zini tutib turolmadi.

– Bema'nilik! – g'o'ldiradi u nonga qo'l uzatib. – Nahotki, uyg'otib qo'yish shunchalik qiyin bo'lsa? – U nondan bir bo'lak sindirib, unga moy surtdi va qichqirdi: – Styopka, Styopa, bu yoqqa kel, yaramas!

Ammo laycha kelmadi. To'g'rirog'i, u bekasiga ergashib ketgandi. Borisenkov Kuzya va Tatani ham behuda chaqirdi. Uy egalaridan faqat har doim uyqudag'i Leda qolibdi, xolos.

Yo'lga chiqishga hozirlik ko'ryotgan paytimizda Katya kuzatishga ulgurib keldi. Uning qo'lida o'ntacha qiyshiq, g'adir-budur boding bor edi.

– Yo'lda yersizlar, – dedi Katya.

Uning egnida eski paxtalik kiyim, oyog'ida kirza etik, boshiga qalin ro'mol bog'lagan, biroq mana shu ish kiyimida ham chiroqli – tong ayozida Katyaning yonoqlari qizaribdi.

Baribir bugun u boshqacha, kechagiga o'xshamaydi. Bal-ki ko'zlarida aybi oshkordir: ichiga cho'kkan, qizargan, iztirobli ko'rindi.

– Sizga nima bo'ldi, Katyusha? – rahmi kelganday so'radi Borisenkov. – Sog'ligingiz yaxshimi?

– Hechqisi yo'q, qo'yavering!.. – Katyaning lablarida olis, jonsiz tabassum paydo bo'ldi va mana shu achinarli tabassumni kuchaytirib, qalbini o'shaning ortiga yashirmoqchi bo'layotganini sezdim. Katya deyarli bunga erishdi, tabassum kuchayib, chinakam shod-u xurramlikka aylanib ketdi, agar ko'zini aytmasa – ko'zlarni hech nima qilib bo'lmaydi.

Xayr-xo'sh boshlandi. Ayriliqning oddiy so'zlar qanchalar nochor!

«Nahotki, biz shunday ketaversak? Sheriklarim hech gapni bilmaydi, ammo-lekin menga ayon-ku! Balki men yordam berolmasman, unga hozir hech kim yordam berolmaydi. Ammo nima uchun bunday – kishining dardini bila turib, uning yonidan indamay o'tib ketavermanmi?..»

– Oq yo'l!..

– Yaxshi qoling!..

Borisenkov va Xvoshch o'zlarini mardona tutishga harakat qilib, stansiyadan dadil qadamlar tashlab uzoqlashdi.

Yuk xaltamning tasmasi qadalmay qiyndi, bu bebosha tasma ataylab meni Katyaning yonida tutib qolayotganday tuyuldi.

– Kechiring, Katya... Men bilishim lozim bo'limagan narsani bilaman... Sizni juda hurmat qilaman, agarda siz... agar siz shunday qilolsangiz...

– Nima haqida gapiryapsiz? – dedi u sovuqqon, sezdimki, u qarshi hujumga o'tish uchun o'zini jamlab, shay turibdi.

– Bugun kechasi uxlolmadim...

– Bu odatga bog'liq, – so'zimni bo'ldi u bir lahzalik, jiddiy tabassum bilan. – Men qotib qolibman.

– Kechirasiz, – ming'irladim men va yuk xaltamga qaradim. Menga bu holat og'ir keldi, negadir uyaldim.

– Yo'q, to'xtang, – kutilmaganda dedi Katya. – Agar hammasini bilarkansiz... Meni yig'loqi, tentak qiz ekan, deb o'ylamasligingizni istardim. Hammasi siz bilgandan ko'ra jiddiyroq, qayg'uliroq. – U yuzini silab, ko'zga ko'rinnas o'rgimchak to'rini olib tashlagandek bo'ldi. – Bu yigit, o'sha ketgan... stansiyadan qochib ketgan – u haqida eshitdingizmi?

– Eshitdim... ha, – javob berdim ajablanib.

– Institutda birga o'qiganmiz. Yengiltabiat, nozik, o'z qobiliyati, o'z kasbining qadriga yetmaydi. Men kurashib uni shu tomonga o'tkazdim. Bu yerlarda o'zgarsa kerak, deb o'ylagandim. Ammo u zerikdi. Odamlarsiz, shovqinsiz, shahardan uzoqlarda zerikib qoldi. Va ketdi. Yashirincha... U qayerda yurganini topdim. Unga xat yozdim, hammasini o'zim bosdi-bosdi qilaman, qaytib kel, dedim. U javob bermadi. Yana yozdim. Mana, nihoyat, xat keldi. U qayt-

maydi, u rad qildi... Hamma narsani, tushunyapsizmi, hammasini rad etdi!.. – Katya xo'rsindi, xuddi suv xo'plaganday havoni simirdi.

– Qo'ying, Katya, keragi yo'q! Arzimaydi! Chinakam inson bo'lsa edi... Odammas ekan!

Katya menga xorg'in termildi:

– Axir, men uni sevaman...

* * *

So'qmoq ayqash-uyqash qoyalar atrofidan aylanib o'tarkan, stan-siya maydoni goh ko'zdan yo'qolar, goh yana paydo bo'lardi, bir qarasang – olis, bir qarasang – qo'l uzatsang yetgudek ko'rindi, xudi so'qmoq ortga qaytganday va birdan uzoq pastlikda – mitttigina, kulrang toshlar orasida yashilligi bilan ajralib ko'zga tashlandi. Endi u butunlay ko'zdan yo'qoladi. Men to'xtab dala durbinini qo'lga oldim.

Katya uyning zinasida, yuzini qo'llari bilan berkitib o'tiribdi va atrofida parvona bo'layotgan laycha Styopaga, cho'chqa Kuzyaga, tovuq Tataga, toshbaqa Ledaga va bir chetda bukchayib o'tirgan Grafinyaga nimalardir deyapti. Balki bu soqov do'stlari bilan maslahatlashib, endi qanday yashash kerakligi borasida bir qarorga kela-yotgandir.



XAZAR NAQSHI

O'tgan yili katta qor tushdi, bunaqasi kamdan-kam bo'ladi, bahor ham har shunga qarab sersuv keldi. Spas-Klepikovdan o'tib Buyuk ko'lga kelganimizda har doim yurgan yo'llarimiz va tanish sohildagi kengliklarni tanimay qoldik. O'rmon cho'millardi, daraxtlar choy rangidagi sayoz ko'ldan ko'klab chiqqanday ko'rindi. Barcha jar-u churqliklar suvgaga to'libdi, kunduzi samo gumbazini, kechasi yulduzlar aks etadigan bo'libdi. Qurib yotgan ariqlar va chekka yerlar daryoga qo'shilibdi, har qanday tirqish, yoriqlar jilg'aday, chor-atrofga oqar, to'lqinlanar, pilchillar, tumanday bug'lanar, sovuq suyakka yetib, etni junjiktirar edi. Tepalikning shimoliy nishabligini hali-hamon kulrang, oynaday qoplab yotgan so'nggi qorlar erib, kichkina shar-sharaga aylanib, supalarga oqib tushardi.

Suv to'rt tarafning baland-pastini o'zgartirib yuboribdi. U burushgan joylarni to'g'rilab, o'nqir-cho'nqirlarni tekislab, turli yerlarga o'rmon yong'og'i, eman nihollarini o'tqazibdi; pastak o'simlig-u butalarni suv ko'mibdi, ammo qoraqarag'ay, qarag'ay va shoxlari pastga osilgan oq qayinlarga qurbi yetmabdi. Suv havo rangida tovlanar, bu tovlanishda uzoqdagi daraxtlarning tanalari ko'zga ko'rinas edi. Qoraqarag'ay chodiri, oqqayinlar gumbazi va yalang'och qarag'aylarning baland shoxlari xuddi samoda osilib turganga o'xshaydi.

Yangicha qiyofa kasb etgan ko'l ko'zgusida, shudgor qilingan yerlar, o'tloqlar, mayda daraxtlar ustidan tagi yassi va emandan emas, qarag'aydan yo'nilgan o'zimizning «to'ngak» qayiqlar sir-panib yurardi. Suv ostida qolgan daraxtlar va butoqlar boshini qayiqlarning tagiga urar, misli suv o'tlariday to'lqinda chayqalar edi; eshkakchilar ba'zida eshkakni cho'zib olxzorni qamishday chetga surardi.

Yolg'iz o'zim bo'lsam, allaqachon adashib qolardim, lekin menning sherigim, Leontiy Sergeyevich, ashaddiy ovchi va baliqchi, ov-

chilik va baliq tutishdan bo'sh vaqtlarida – san'atshunos, bahor tosh-qinlaridan esankiramay dadil olg'a intiladi. Biroq bu bizning sayohatimiz maqsadi tomon ildam borayotganimizni anglatmaydi. Oqshom tushib qolganiga qaramay, sanoqsiz aylanib o'tishlar oqibatida besh chaqirim ham yurolmadik. Zulmat osmondan yulduzlarni olib tushi-di. Ular tepamizda, pastimizda, chor atrofimizda porlardi. Yarim ke-chaga borganda pastdan yuqoriga, yuqoridan pastga oy nuri oqdi va yer-u osmon qayoqdaligini ajratib bo'lmay qoldi.

Biz tunash uchun quruqlikni uzoq qidirdik va nihoyat, gulkanga duch keldik. Gulxan atrofida bir necha ovchilar o'tirardi. Ular etik, paytavalarini quritib, hammasi bir yoqadan bosh chiqarib bahorni, toshqinni va shunday yog'ingarchilikda tinchgina uyida o'tirishga qo'yagan, ko'ngilni bezovta qilgan ovga ishqibozlikni bo'ralatib so'kishardi.

Bir narsa qilib, har lahzada o'chib qolay deb turgan va issiqlik-dan ko'ra ko'proq is-u tutun purkayotgan gulkanning chetiga joy-lashib, qoraqarayning kesilgan shox-shabbalari ustida amallab tunni o'tkazdik. Erta bilan oramizdan ikki kishi uyiga qaytib ketdi va qol-gan besh kishi yo'lda davom etdik.

Endi yo'ldoshlar bahorni emas, anavi ikkisini – qo'rqoqlarni so'ka boshladi, bu esa boshqalarni qandaydir tetiklantirdi. Baribir Buyuk orqali o'tadigan kechuvdag'i qarama-qarshi mayda to'lqinlar, kema turmshug'iga urilgan muz parchalari, sovuq suvning etni jizilla-tadigan sachrashlaridan so'ng, yana ikki kishi iziga qaytdi. O'rmon qorovulining uychasida bir narsa qilib qurinib olgach, yana shalabbo bo'lib, uch kishi yo'lga otlandik. Biz bilan bo'ydor, to'ladan kelgan, yuzi lo'ppi, ayollar chehrasiga o'xshash oppoq, yangi soqol qo'ygan yigit qoldi. U o'jarlik qilib, yo'lni farqlamay, aylanib o'tish uchun yo'l izlamay, qaytarmali yelim etigidagi suvni chayqab, oyog'idan bo-shigacha novdalardan sachragan suvga ivib borar, bu hisob-kitobsiz harakatlarda nima ustunroq – mardlikmi yoki umidsizlikmi, bilib bo'lmas edi. Hammasi oqshomga borib, yo'l chetidagi qishloqchada choy ustida o'tirganimizda oshkor bo'ldi.

Ovchi sharob ichgach, xotini mol do'xtiri bilan unga xiyonat qil-gani haqidagi so'zlay boshladi. Uning hikoyasi uzoq, asosli, ochiq-chasiga davom etdi va biz tushundikki, yo'ldoshimiz ham ortga che-kinish niyatida. Shunday bo'lib chiqdi.

Kechki taom haqini to'lagach, u o'midan turdi, erinib miltig'ini oldi va xayrashmay, xuddi bir daqiqaga chiqqan kishiday xonadan tashqariladi. Biz uni yarim soat kutdik; u qaytmadi.

— Yana yaxshi, — dedi Leontiy Sergeyevich, — hamma o'rdak o'zimizga qoldi.

— Yo'q, — dedi hisob-kitob qilib bo'lgach ozg'in, tili burro dastyor yigitcha, — sizdan oldin bir kishi o'tib ketdi...

— Qanday kishi?.. — ajablandi Leontiy Sergeyevich.

— U ham ovchi, — javob berdi yigitcha, — siz kirishingizdan oldin-roq, endigina chiqib ketgandi.

— Ko'rdingizmi! — qizishib ko'zlar chaqnadi Leontiy Sergeyevich. — Azamatni qarang! Bir o'zi, yarim tunda, qo'rwmaganini qarang!..

Rostini aystsam, barcha o'rdakni o'sha yolg'iz ovchi otib olsa ham mayli edi: men charchadim,sovqotdim, zax o'tib ketdi, suvning betinim to'lqlinlari qalbimda yonayotgan ov gashti yoqqan olovni o'chirib bo'ldi, lekin shuni aniq bilamanki, Leontiy Sergeyevichga na arz-dod, na bahona ta'sir qiladi, faqat xo'rsinib qo'ydim, xolos.

«Hechqisi yo'q, kun keladiki, bu safarimizni qachonlardir bo'lgan-da, deb eslayman», — o'sha sevimli taskinni xayoldan o'tkazdim va Leontiy Sergeyevichning izidan, issiq xonaning taftidan zaxlig-u zulmat mulkiga otildim.

Albatta, biz yo'ldan chalg'ib ketdik va buni anchadan keyin sezib qoldik, chunki bu joylarda yo'l ham, boshqasi ham bir xil: o'sha o'ydim-chuqur, o'sha ko'lmaq, oyog'ing ostida nima borligini bilmaysan. Bir payt men oyog'im ostidan yer surilib ketayotganini va qandaydir suyuq, yopishqoq, botqoq joyga qadam bosganimni sezib qoldim. Atrofda tutib qoladigan biron narsani behuda izladim, qadam qo'yganim sari jirkanch balchiqqa botib borardim.

Men to'xtadim. Har tomonga sochilgan parcha-parcha bulutlar orasiga yonboshlagan oy botqoqlikka sarg'ish nur dog'larini sochdi. Mana shu dog'larga qarab, maysalar sarg'ayib turgan bo'lsa, o'sha yer qattiqroq bo'lardi, qora taqirday ko'ringani torf, deb o'yladim. Yaqin turgan sariq tangachaday joyni mo'ljallab, bir sakrab balchiqdan chiqdim, sudralib ikki qadam bosdim, yana sarg'ish joyni bosgandim, belimgacha botib ketdim. Hech narsani tushunolmay, yonimda turgan sarg'ish nuqtaga qo'l cho'zdim va kaftim torf balchig'iga

botdi. Qo'limni arang tortib oldim-u, biroq botqoqqa battar botdim. Oy sotqinday nur-u soya yaratdiki, men qattiq yer va botqoqni almashtirib qo'yibman. Ammo-lekin ayb o'zimda: qanday chalg'idim ekan, oy torf yuzasidagi suv oynasida sarg'ayib ko'ringan, maysalar-da esa qora soya paydo qilgan.

Qiziq, men meshcheraliklar duch kelgan va aytgan xavfxatarlarga sira e'tibor bermagan ekanman. Shu yerlik aholi sevib hikoya qiladigan oddiygina o'limga olib boradigan holatlarga ishonmasdim. Meshchera Moskvaning shundoq burnining tagida bo'lsa, biz odatdag'i turmush tarzimizga ko'nikib qolganmiz-da, demak, shu yerlarda ham odam o'lib ketishi hech gapmas. Biroq hozir atrofimdan o'rab turgan ulkan va qalin tun meni butun dunyodan ajratib qo'ysi. O'zimni doimiy o'rgangan, odatdag'i, xavfsiz narsalardan uilib qolganday his qildim va birinchi marta qo'rqib ketdim. Ahvolim shu darajada ediki, vahimali «Qutqaring!» so'zi o'miga «Leontiy Sergeyevich!» deya qichqirdim.

– Qo'lingizni bering! – bu so'z deyarli qulog'im ostida yangradi, birdan uyalib ketdim. Men ishonchli yo'ldoshim yonimdaligini, qichqirmasam ham yetib kelishini bilishim kerak edi.

Men tavakkaliga qo'limni olg'a tashladim va uning barmoqlarini tutdim. Leontiy Sergeyevich kuchli harakat qilib meni suyuq qop-qondan sug'irib chiqardi.

- Izimdan yuring, – dedi u.
- Izlarni ko'rmayapman.
- Meni qoralab yuravering.

Bu shunchaki oson emas: har bir qoraygan dog' ko'zimga dahshatli girdobday ko'rindradi. Bossang – botasan. Ammo yurishga to'g'ri keladi...

Oldinda zulmat quyuqlashdi, bu qop-qora, tundan ham qora-roq narsa butazorga o'xshaydi, jonsiz, asta tebranib turibdi. O'sha qora soya tomonga biz yaqinlashib bormayapmiz, balki o'sha qora soya biz tomonga kelayotgandek tuyuldi. Unga yaqin qolganimizda oyog'im osti chayqalganday bo'lidi va Leontiy Sergeyevichning bo'yi birdan pasayib ketdi. Bir lahzadan so'ng bo'yimiz teng bo'lib qoldi – men ham ko'kragini gacha botqoqqa botdim.

– Hechqisi yo'q, hechqisi yo'q... – dadil so'zladi Leontiy Sergeyevich, – menga qo'lingizni uzating, hozir chiqib ketamiz.

Botqoqlik ustidan yoritqichning mitti nuri sirg‘alib o’tdi. O’t-o’lanlar zumradday tovlandi, nur botqoqning hovur chiqib turgan joyida to’xtadi va undan chiqib, biz tomonga yurdi va katta nur doirasining o’rtasida paydo bo’ldik.

– Tayoqni tuting, – nur yog‘ilgan o’sha tomondan ovoz eshitildi. – O’ng taraf qattiqroq...

Shu damda Leontiy Sergeyevich birdan botqoq ustiga o’sib chiqdi, uning barmoqlari qo’limni omburday qisdi, intildim va biz qattiq yer ustiga chiqib oldik, baland namchil buta yuzimni siladi.

– Yo’l yoningizda, butaning ortida, – dedi bizning ko’rinmas xaloskor.

– Siz shu yerlikmisiz? – qiziqib so’radi Leontiy Sergeyevich.

– Menda xarita bor, – javob berdi notanish kishi, chirog‘ini tu-shirib, bizga planshet qopqog‘iga kleyonka bilan o’ralgan xaritani ko’rsatdi.

So’ngra butazor oralab turnaqator bo‘lib yurib ketdik va tez orada keng, sanoqsiz ko’lmaklar tovlangan, oxiri ko’rinmas, zułmatga singib ketgan yer parchasiga chiqib bordik. Bu yo’ldan yurish botqoqlikka qaraganda osonroq edi. Aftidan, yo’lga bir zamonlar shag‘al to‘kilgan, biroq yurilaverib buzilib ketgan va chag‘ir toshlar ichi to‘la suv chuqurlarning chetlaridagina saqlanib qolgan.

Biz loy, chalkash izlardan, chuqurlarga tushib, etigimiz ichi suvga to‘lib, oyog‘imizni chag‘ir toshlarga urib juda uzoq yurdik va ni-hoyat, qandaydir qishloqchaga duch keldik.

Tunashga joy so’rab kirgan birinchi uydayoq yaxshi kutib olishdi. Uy-joyi tor va kam bo‘lsa ham, Meshcherada ovchilarni qabul qilmagan hollar bo‘lmagan ekan. Bundan-da torroq uyni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Xonaning o’rtasidagi belanchakni tebratayotgan yuzini teri sili g‘adir-budir qilib tashlagan kampir qandaydir bir ohangda alla aytardi, u go‘yo go‘dakni emas, o‘zini allalardi. Kampir bolaning burnini chimdib qo‘ygandi, qulqoni teshgudek qichqiriq boshladidi. Uning yig‘isiga polda dumalab yotgan odamlar parvo qilmadi. Pechning ustida ikki juft yalang oyoq osilib turardi. Lekin uyqusiragan xo‘jayin ishonch bilan va tusmollab qandaydir eshakni chetga surdi, qo‘y terisidan tikilgan po‘stin va g‘ilosiz chit yostiqni burchakka otdi, polga poxol to‘sadi, ustiga sochiq yopdi va uch kishi sig‘adigan joy tayyor bo‘ldi. Keyin hech so‘z demay, pech-

ning ustiga chiqdi va yalangoqlar soni ikki juft emas, uch juft bo'ldi.

Leontiy Sergeyevich ikkimiz ust-boshimizni tozalaguncha, yo'ldoshimiz qora chiroqning xira yorug'ida xaritasiga sinchiklab qaradi.

— Yo'q, bu to'g'ri, o'sha yo'l! — dedi u, biz kulbag'a qaytib kirganda. — Mana botqoqlik, butazor, mana Perxushkovo, biz manavi yerda turibmiz, bu esa tasma yo'l. Shartli belgilarga e'tibor bering — tosh yo'l!

— To'g'ri, — ma'qulladi Leontiy Sergeyevich, xaritaga ko'z tashlab. — Siz nega ajablanyapsiz?

— Jin chalsin, bu nima bo'lsayam, yo'lmas! — portlab ketdi notanish kishi. — Xaritaga kiritishgayam uyalishmaydi! Axir, butun tuman bo'yicha barchasi shunday, yo'l mish. Tuman bo'yichamas, butun viloyatdayam shu ahvol!..

Men Leontiy Sergeyevichning keskin gap-so'zlarga toqati yo'qligini bilardim. Hozir ham notanish kishini xavfli mavzudan chalg'itish uchun so'radi:

— Siz Moskvadanmisiz?

— Yo'q, shahardanman, — javob berdi u yuzakigina, bu mahalliy tilda tuman markazini bildiradi va o'sha qiziqqonligi bilan davom ettirdi: — Yo'l — davlatning yuzi. Bizda yo'l bormi? Rus kishisi la'nati yo'lsizlikdan behuda azob chekadi!..

— Sabr qiling, hammasi birdan bo'lib qolmaydi, — g'o'ldiradi Leontiy Sergeyevich. — Qancha-qanchasini qurib bitirdik!..

— Qo'ying! — asabiylashib gapni bo'ldi notanish kishi. — Qurdik!.. Hech kimga keraksiz qancha bo'limg'ur narsalar qurdik? Mana shuncha ustunlar, koshonalar, boloxonalar, jimjimalar, dabdabalar, saroylar — xuddi yer osti saroy! Nimasini aytasan! Eng bo'limg'ur gazakxonaga palma daraxti ekadi, iflos bog'chaga haykal tiklaydi. Yo'llar esa hayot tomiri — bu haqida o'ylaydigan odam yo'q, hozir ham o'ylamaymiz...

U qiziqqonlik va jahl bilan bu mavzuni chaynarkan, Leontiy Sergeyevichning jiddiy yuzi tundlashib, asabiylashib, davradan uzoqlashib borardi. Leontiy Sergeyevich bu suhbatdan o'zini tortgisi keldi va parvoysi falak bo'lib, birdan o'rnidan turib tashqariga chiqib ketsa ham, qo'rs kishiday ko'rinmadni.

– Men sizning o'rtog'ingizga noto'g'ri gap aytdimmi? – ajablanib so'radi notanish kishi. – U yo'lida uchragan sherikmasmi?

– Yo'q, – javob berdim men yelkamni qisib. Albatta, bu notanish ovchiga hamrohimning tabiatan o'ziga ishongan va umidli kishi ekanini, har doim cho'chinqirab yurishini aytib o'tirmadim. U fanning hayotdan juda uzoq sohasini tanlagan: u xazar naqshini o'rganyapti. Menga ba'zida uning o'zi ham qiziqqonlik bilan o'zining «cho'chinqiraganidan» azob chekishini, ammo o'zi ham hech narsa qilolmasligini aytardi.


Leontiy Sergeyevich qaytib kirganida notanish kishi qo'liga qalam olib, menga yo'lsizlik yetkazgan zarar yangi yo'l qurishga ketgan mablag'dan anchagini kattaligini tushuntirardi. Men qiziqqon odamlarni juda yaxshi ko'raman. Sovuqqon, piching qiluvchi pismiqlardan, quruq tanqidchilardan ko'ra qizishgan, hatto o'zining qiziquivchanligidan yaxshi, to'g'ri ma'noda jahli chiqadiganlar hayot uchun kerak. Ammo Leontiy Sergeyevich boshqacha fikrda. Biz uslashga yotganda u qulog'imga shipshidi:

– Keling, ertaroq turib chiqib ketamiz... Bizga uchinchi odam nega kerak?..

Lekin uchinching o'zi bizni kutib o'tirmadi. Qanchalik erta turgan bo'lsak ham, notanish kishi bizdan oldinroq uyg'onib yo'lga chiqibdi, joyi yig'ilgan, izi ham qolmabdi.

Baribir biz yana bir-birimizga duch keldik, kech emas, o'sha kuni erta bilan ko'rishdik.

Biz avvallari chirigan ko'prigidan ko'ra kechuvdan o'tishni afzal bilgan Stukolka kichik daryochasi ko'priki ko'mib, Volgaday yoyilib ketibdi. Solda suzib o'tadigan eng yaqin joygacha olti charim bor. Ko'ngilni keng qilib daryo yoqalab yo'lga tushdik va yo'l-yo'lakay qamishlar orasida tagi yassi qayiq va uning yonida zog'orabaliq tutgan cholni ko'rib qoldik. O'n so'm evaziga narigi qirg'oqqa o'tkazib qo'yishga rozi bo'ldi. Biz asta qiyalab, past, bi-roq keskin to'lqinlar ustidan suzib ketdik. Daryochaning chuqurligi shunchaki, qariya suvga botirgan uzun tayog'i to'lig'icha ko'mildi. To'lqin qayiqning tagiga qattiq urilardi; xuddi yovuz va qaysar bir kimsa pastdan turib bizga o't ochayotganga o'xshaydi. Qirg'oqqa yaqinlashganda suv ostida qolgan qora yo'lakchani ko'rdik, yonimizda esa ikkita do'nglik uchradi.



– Ag'darilib ketgani ko'riniib turibdi, – xotirjam dedi baliqchi chol. – To'ngakdayam suvga tushadimi?! – U boshini sarak-sarak qildi va ko'ngli ochiqlik va zavq bilan qo'shimcha qildi. – Taptortmaslar!..

Yaqinroq suzib borgach, ikki kishini ko'rdik, ular beligacha suvga botib o'zları tomonga qayiqchani tortardi.

– Hoy, qayiqdagilar! – tanish, biroz bo'g'iq ovoz eshitildi. – Biza ko'mak bering!

Bu tungi hamrohimizning ovozi edi. Men andak ajablanib bo'yı pastroq, ozg'in, chayir, ostobda qoraygan, sochlari sariq, o'rtalbo'yili kishi qayiqning burniga peshonasini tirab parvona bo'layotganini ko'rdim. Kechasi qora chiroqning yorug'ida ko'zimga yoshi kattaroq, salobatliroq, gavdasi yirikroq ko'ringandi.

– Eshkakni tushirib yubordik, – dedi yoniga yaqinroq suzib borganimizda noma'lum kishi. Qayiqchi semiz, lablari do'rdaygan yigit xijolat bo'lib ishora qildi. Biz yo'lovchilarni qayig'imizga oldik, ularning qayig'ini esa, zanjir bog'lab tortib ketdik. Qayiqning o'ttasiga o'tirgach, notanish kishi ro'molchasini oldi va suv ustiga egilib, obdan burnini qoqdi. Shundan so'ng aksa ura boshladi. Uzilishlar bilan ikki daqiqacha aksa urdi, boshidagi sochi kulgili silkindi.

– Volxov fronti, – dedi nihoyat tinchlangach u, so'ngra kinoya qildi: – Bir yarim yil botqoqda xizmat qilish sog'likni juda mustahkamlab qo'yarkan!

U cho'ntagidan qandaydir kukun oldi, uni og'ziga sepedi va bir hovuch suv olib dori ichdi.

– Siz ovda yurib sog'ligingizdan ajralgansiz, – dedi achinib Leontiy Sergeyevich.

– Ne ham qillardik, – yelkasini qisdi notanish kishi, – yangi tana sotib ololmaysan, bori bilan yashashga to'g'ri keladi...

Ko'l qorovulkxonasida, biz suzib kelib to'xtagan joyda notanish kishi darrov borib pechning biqiniga o'tirdi. Qorovuldan surishtirib, bu yerdan Podsvyatagyagacha ikkita yo'l borligini bildik: yaqini – suv orqali, uzog'i – quruqlikdan aylanib o'tilar ekan. Daryo yoqalab yuradigan eski so'qmog'imiz suv ostida qolibdi.

– Suvga botganiimiz yetar, – dedim va beixtiyor pechga qaramdim, u yerda bizning betob hamrohimiz yotardi. – Yaxshisi, aylanib o'tamiz...

– Siz aytgancha bo'la qolsin, – yelka qisdi Leontiy Sergeyevich.

U stol ustiga zaxira dori-darmonlarini yoydi, o'zi hech qachon xastalanmagan bo'lsa ham malhamsiz ovga chiqmaydi. Yon daf-tarchasidan yirtgan varoqqa katta, bosma harfda yozdi: «Bir kunda uch marta ikki donadan». Varoqchani stol tirqishiga qistirib tikkalab qo'ygach, yo'lga chiqib ketdik.

O'n chaqirim yurmasimizdan qorong'i tushdi, qandaydir qishloq chetiga yetgandik, keyin ma'lum bo'lishicha – Konkova ekan.

– Shu yerda tunaymiz, – qaror qildi Leontiy Sergeyevich, – erta-ga esa bir urinishda manzilga yetamiz.

Odatdagidek chetdagi bиринчи yog'och uyning eshigini qoqdik, xayriyatki, bu yerda chiroq yoniq, demak, egalari hali uxlagani yo'q.

Bizga basavlat, yelkador, sochi o'siq va biroz sarxush qariya eshikni ochdi.

– Kiring, marhamat, – dedi u odatdagagi meshcheracha tavoze bilan, qolaversa, sharobning kuchi ham bor. – Bu yerga sizga o'xshagan bir kishi keldi, – u pech tomonga ishora qildi; chit pardaning orqasidan u xlabelotgan kishining bir maromdagagi, xirilloq ovozi eshitilib turardi.

– Halal bermaymizmi? – so'radi Leontiy Sergeyevich qurol va yo'lxaltasini burchakka qo'yarkan.

Bobo savol odob yuzasidan berilganini yaxshi tushundi, ammo ko'nglidagi bor gapni aytgisi keldi.

– Kimga halal berarding? O'g'lim ko'lda, kelin shaharda, uyda nabiram ikkimiz, xolos. Uni esa, – u yana pech tomonga ishora qildi, – hushsiz deb sanay qol. Shu gap to'g'ri: ovning gashti bor! Keldi – og'zidan olov purkayapti, istimalab yotibdi. Men unga xo'jag'at qoqisidan choy damlab, pechning ustiga yotqizib, ustiga ikkita po'stin tashlab, o'rabi qo'ydim. Balki terlab tuzalar.

Biz Leontiy Sergeyevich bilan ko'z urishtirib oldik. Pech ustida xlabelotgan kishi – bizning o'sha hamrohimiz bo'lsa kerak.

Demak, Stukolkada cho'milgani kamlik qilgan ekan-da: suv orqali qisqa yo'ldan yana bizni quvib o'tibdi.

– Qarang, ovga nima ko'tarib kelibdi, – bobo sirli, istehzoli qiyofada bizga ishora qildi. – Ko'rdingizmi? U devordan birotar miltiqni oldi, bu qurollar ov mavsumi qiziganda do'konda ellik so'mdan sotiladi. – Bizning ovchilarimiz miltig'i ko'rimsiz, bunaqasini ko'nda ishlatmaymiz. O'qlari esa, qarang – o'n dona chiqmaydi. Unga:

nima olib kelding ovga? – dedim. U esa: o'sha yerdan o'q topsa bo'lmaydimi? – deydi. G'alati odam, sening o'qlaring o'n ikki klibrli, bizda esa o'n oltitalik urfga kirgan!

Bobo pech ustida uxlayotgan notanish kishining eshitib qolishidan cho'chimay baralla so'zlandi. Meni, tan olish kerakki, notanish tanishimiz yo'l yurishda kamdan-kam uchraydigan qat'iyligi va ovochi qurol-aslahalariga e'tiborsizligini qanday muvofiqlashtirgani ajablantirdi. Leontiy Sergeyevich ham, albatta, bu haqida o'yadi, lekin yelkasini qisib qo'ya qoldi: ovchilik odobi hamfikrlarni muhokama qilishga yo'l bermaydi.

Biz kechki taomlanishga o'tirdik va boboni dasturxonga taklif qildik. Meshcheraliklar ichkilik ichmaydi, to'g'rirog'i, kam va har zamonda bir ichadi. Axir, ular qo'l qattiqligi va ko'z ravshanligini saqlashi shart. Biroq ozgina tatib olishsa bormi, juda sarxush bo'lib ketishadi. Shunda, odatdag'i o'ychan, bosiq va kamgap meshcheralik sergap, xushmuornala bo'lib qoladi. Ular, odatda, dunyoda hech yerga o'xshamagan bitta-yu bitta Meshchera haqida gapiradi. Davradagilarni xafa qilmagan holda yoki hammaning jig'iga tegsa ham manmanlik qilib, Meshchera butun yer yuzi, shaharlar va barcha qishloqlardan ko'ra ko'kka chiqarib maqtaladi. Bizning bobo ham boshqalardan boshqacha emas, u sevgan mavzusi haqida gapirishga imkon topilishini poylab turgandi.

Bunga, to'g'risi, Leontiy Sergeyevich imkon berdi. Stol atrofida boboning nabirasi o'n-o'n bir yoshlardagi bolakay aynib qoldi.

– Qandni ol, – dedi Leontiy Sergeyevich mehribon ohangda va bolaning malla sochini siladi. – Nechanchi sinfda o'qiysan?

– U o'qishni tugatgan, – uning o'rniga bobosi javob berdi, bu damda nabira Leontiy Sergeyevichning cho'ntagidan chiqqan shirinlikdan bahramand bo'layotgandi. – O'n ikki yoshga kiradi.

– Negadir o'qishni erta tugatibdi! – hayron bo'ldi Leontiy Sergeyevich.

– Bizda uchinchi sinfdan keyin qizlar o'qishni davom ettiradi, – diqqat bilan tushuntirdi bobo.

– Qanaqasiga?

– Qanaqasiga? O'g'il bola o'n birga kirganda qo'liga qurol oлади. Shu bilan o'qish tamom. Bahordan kuzgacha – o'rdak, qishda – quyon.

– Axir, umumiylar majburiy ta’lim nima bo’ladi? – jiddiy to’ng‘il-ladi Leontiy Sergeyevich.

– Biz – boshqa kishilarmiz! – zavqlanib tushuntirdi bobo. – Meshchera!..

Bobo qirrali qadahdagisi sharobni oxirigacha sipqordi, paxmoq boshini chetga burdi va ko‘zlar quvonchdan chaqnab, sirli va gerda-yib shunday dedi:

– Meshcherani anglash kerak! – U katta barmog‘i bilan to’rt-burchak qora oynani taqillatdi. – Anavi daryo ortidagilar to’rdayam, qarmoqdayam, to’satdayam, nayzadayam baliq ovlaydi. Biz ularning ustida suzib yuramiz. Biz bir yilda bir marta baliq tutamiz, qadimgilar singari, lekin bordaniga besh-olti yuz kilo olamiz.

– Qanaqasiga? – so’radim men.

– Juda oson, – dedi avvalgidek Leontiy Sergeyevichga alohida e’tibor ko’rsatib bobo. – Irmoglarni ko’rdingmi? Ha, ko’llar orasidagi kanallarni?.. Qishda bizning Pra salkam tubigacha muzlaydi, u yerda baliqlarga havo yetmay qoladi. Shunda biz cho’michni olib, Pra tomonga toza suv haydaymiz. Baliqqa kenglik yaratamiz, muzni kattaroq teshib qo’yamiz. Ular ko’rinib-ko’rinmay yig’iladi, keyin suzib olaverasan.

– Sizga kim ruxsat beradi?

– «Ruxsat beradi» – degani nima? – yonimdagisi hamrohimga qarab mag’rur so’radi bobo. – Baliq yetishtirish idorasini bilan shartnoma tuzamiz.

– A-a! – Leontiy Sergeyevich yengil tortdi.

– Boshqacha bo’lishi mumkin emas! Baliqchi to’rt-besh yuz kilog’ shartnoma qiladi, o’ttiz kilo topshiradi, qolgani bozorga. Juda bermalol!

– Bu, axir, aldash-ku! – tishi og’riganday peshonasini tirishtirdi Leontiy Sergeyevich.

– Ma’lumki: aldamasang, sotolmaysan! Bizda ov yil bo’yi davom etadi. Boshqacha bo’lishi mumkin emas. Meshchera!..

– Nega Meshchera bu Meshchera-da, deysizlar? – chit pardaning orqasidan shamollagan odamning ovozi chiqdi.

Bu iborani eshitgan bobo xuddi harbiy ot burg‘u yangraganda seskanganday xushyor tortdi, biroq indamadi. U parda ortidagi kishi bilan so’zlashishni istamadi, uni nazarga ilmadi, xuddi men bi-

lan gapplashishni istamaganday: undan anchagina yosh edim-da. U qirqdan oshgan, salobatli, uy-ro'zg'or ko'rgan, hayotiy tajribasi katta Leontiy Sergeyevich bilan suhbat qurishni xohladi.

– Meshchera!.. Meshchera!.. – yo'tal ora g'o'ng'illadi pech ustidagi kishi. – Xuddi sizlar boshqa tuproqdan yaralgandaysiz.

Bobo Leontiy Sergeyevichga umid ko'zlarini tikdi. To'g'ri, u Leontiy Sergeyevichni ham bu bid'at fikrni qo'llashini istardi: shundagina u quvonib, maza qilib bahsga kirishardi. Biroq Leontiy Sergeyevichning yuzini menga ma'lum anglab bo'lmas parda qopladidi – uning ko'zlar olis bo'shliqqa – na biz panoh topgan yog'och uy, na xushmuomala, o'jar bobo, na pech ustidagi asabiy va mo'rt kishi, na yana u bilan tortishmoqchi bo'lgan shubhali suhbatdoshlar yo'q tomonlarga tikilib qoldi.

Uzoq davomli sukutdan keyin bobo xiyla yo'liga o'tdi.

– Sen nimalar deding? – so'radi u Leontiy Sergeyevichdan. – Men nimanidir tushunmadim.

– Hech narsa deganim yo'q, – qovog'idan qor yog'ib javob berdi Leontiy Sergeyevich.

– Menga tegishli nimadir deding...

– Hech narsa aytganim yo'q, – takrorladi Leontiy Sergeyevich, pech tomonga qarab nozik, asabiy ohangda xitob qildi: – Siz jim yoting, tushunarlimi?

Noqulay jimlik cho'kdi. Leontiy Sergeyevichning gapidan keyin tug'ilgan noqulay jimlikni buzish niyatida dedim:

– Aslida, siz, bobo, g'alati fikrlayapsiz. Poytaxtning biqinida yashaysiz-u, qarashingiz boshqacha... – Men boboning fikr-u xayolini aniq fahmlolmadim, faqat bosh chayqadim, xolos.

Leontiy Sergeyevichning lovullab ketganidan dami ichiga tushib qolgan bobo mening gapimdan ruhlaniib ketdi.

– Biz poytaxtning biqinidamiz, bu qaysi tomondan qarashga bog'liq! To'g'ri, biz Moskva va Ryazan tutashgan joyda yashaymiz, mana, siz ayting, xat yozsang, Moskvaga qanchada yetib boradi?

– Bilmadim, ertasi kun yetib borsa kerak...

– To'g'ri, shunday bo'lishi kerak. Agar Moskva pochtaidan Pranning bu tarafiga yuborsang shunday, agar bu yerdan pochta qutisiiga xat tashlasang, tavba, sakkiz yo to'qqiz kunda yetib boradi. Bizgayam shunday: o'n kun deb... Xullas, sizga qanday tushuntirsam

ekan, – dedi, endi avvalgi manmanliksiz, qandaydir o'ychan bo'lib qolgan bobo, – xuddi hayot bizni aylanib o'tib ketayotganga yoki kechikib kelayotgan xatga o'xshaydi.

– Rost gapni rost deyish kerak! – pech ustidan sado keldi. – Pochta masalasini hal etsa bo'ladi.

– Qanday hal qilasan? O'g'lim tuman gazetasiga arznama yozdi, bosib chiqarishdi, hatto olti so'm pul ham to'ladi. Shundan so'ng xat-xabar butunlay kelmay qoldi. O'shandan beri qishlog'imizga gazet-chilarni chaqirib kelamiz. Mana senga foydasi!

Bobo polga tupurib, oyog'i bilan artgach, so'zini davom ettirdi:

– Moskvaning biqinidamish. Biznikilardan kim Moskvaga boribdi, so'rang-chi? Xotinlar haqida gapirmasayam bo'ladi, erkaklardan, balki ikki-uch kishi chiqishi mumkin. Moskva u yoqda tursin, Ryazangayam ko'pchilik bormagan. Yetmishga kirdim, shaharlardan faqat Spas-Klepikini ko'rdim. Agar kim harbiy xizmatga borgan bo'lса, u dunyoni ko'rgan chiqar... Yo'q, bizning turmushni boshqa hech kimga taqqoslab bo'lmaydi. Bitta so'z – Meshchera! – yana qayta uyg'ongan g'urur bilan so'zini yakunladi bobo.

– Butun Meshcheraning nomidan gapirma! – pech ustidan ovoz keldi. Chit parda silkinib, bir chetga surildi. Biz endi avvalgidek g'isht rangidagi emas, ikki taraflama qizishdan yuzlari qizargan ham-rohimizni ko'rdik. Nimadandir qoraygan va jingalak bo'lib qolganday sochlari peshonasiga tushib turardi.

– Malham uchun rahmat, – dedi u Leontiy Sergeyevichga, – sizga juda katta rahmat!.. Bobo, eshitining, – u qariyaga murojaat qildi, – balki hamma balo sizni dunyodan ajralib qolganingizda bo'lса kerak. Meshcheradayam boshqalar singari hayot qurishga harakat qilsangiz bo'ladi. Atrofdagi kishilarning hammasi tentak bo'lmasa kerak.

– Sen nimaga ishora qilyapsan? – birinchi marta unga gapirdi bobo.

– Ov ov bilan, baliqchilik baliqchilik bilan, axir, qishloq odami uchun turmush asosi – kolxozi bor-ku!

– Nima? – boboning peshonasi tirishdi va Leontiy Sergeyevichga qaradi, undan tasdiq kutganday. – Kolxo-oz?..

– Albatta, – rasmiy ovozda tasdiqladi Leontiy Sergeyevich. – Kolxozi – poydevor...

– Hammasi tushunarli! – dedi tantanavor, xuddi gapning o'zani shu tomonga burilishini oldindan bilganday bobo. – Bizda kolxoz bor, uning raisi Dunka.

– Qanday o'sha Dunka? – so'radim men.

– Qanday bo'lardi: Dunka-da. Bizni qo'shib yuborishgandan keyin kolxoz tarqaldi hisob. Chunki ko'rinishidan kattardi, xolos. Yilning teng yarmida biz dunyodan ajralib yashaymiz, yozda havo yaxshi bo'lsa, Bolotnoygacha yetib borarsan. Qanaqa qo'shilish bo'lishi mumkin? Bu yerdagilar kombayn ko'rmagan, bizga kombayn olib kelishmaydi, keragi ham yo'q. Maydonlar kichkina, mayda-mayda, butun o'rmon botqoq. Qo'shildi-yu, hammasi tarqalib ketdi. Xalqni bir joyga yig'ishni tasavvur qilib bo'lmaydi!

– To'xta, bobo, sen Dunka haqida gapirmoqchi eding, shekilli? – dedi pech ustidagi kishi.

– Gapning o'zanini o'shangaga olib boryapman. Hozir kolxozimiz shunday: nima eksak, keyin yig'ib-terib ololmaymiz. Kolxozning marjumak ekilgan dalasini buzoqlar payhon qiladi, keyin odamlar: yaxshi bo'ldi, dehqonning ishi yengillashdi, kolxozgayam yaxshi – yig'ib-terib yurmaydi, deyishadi. Mana shunaqa gaplar. Bunaqa kolxozga rais bo'lish kimga zaril kepti! Eshitishimcha, tumandan aloqa idorasini boshqargan bir kishini raislikka tayinlashadi. U qarshi chiqadi – shunda, e'tirozga o'rinni yo'q, deyishadi. Bor, rais bo'lasan yoki partbiletingni stolga qo'y, deyishadi. U o'ylab turib, qaror qiladi: avval azob chekib, keyin pattasini topshirgandan ko'ra birdaniga topshirgan yaxshi, deydi. Pattani topshiradi... keyin boshqasiga osilishadi: u yaqinda Moskvadan tumanga kelgan ekan. Ungayam o'sha gap. U: men mana shu ishni deb Moskvadan ayrildim, toqatim bitdi, deydi. U ham partbileti stolga qo'yadi. Ha, shahardagilar shubha qila boshlaydi: bunaqada tumandagi butun partiya a'zolarini haydab yuborish mumkin. Shunda mana shu Dunka chiqadi. U harbiy sanatoriyada farrosh bo'lib ishlagan, umuman, shu yerlik, ruhoniylar oilasidan. Kim o'ylabdi buni: partiyaga nomzod ekan. «Mening to'rt yuz so'm maosh olishimga kafolat bersangiz, kolxozni qabul qilib olaman», deydi. Shahardagilar xursand bo'lib olib kelishgan...

– Qani, u qanday ekan?

– Kimga qanaqa: Dunka – Dunka-da. Maoshini olyapti.

– Nega uni sayladингиз?

– Kimni? – bobo tushunmadi. – Qanaqasiga saylamaymiz? U bo'lmasa, boshqasini olib kelib qo'yishadi.

– Qoyil sizga, biroq shaharda nimalar bo'layotganidan xabardorsiz! – qandaydir istehzo bilan gapirdi pech ustidagi odam.

– Biz-ku xabardormiz, ammo shaharning o'zi bizdan xabardormas-da. Hayotimiz zerikarli, qadrdonlar, juda zerikarli! – dedi bobo qat'iy va qayg'uli. – Hamma nimagadir harakat qiladi, faqat biz botqoqqa botib qolganmiz: na oldinga, na orqaga yurolmaysan. Pra daryochasi shunchalik kattami? Ochiq shabadada yarim soat yurib, daryo ortidagilarning turmushi va biznikini solishtirib ko'ring. Oramizda bir asrlik masofa bor. Ularda elektr, radio, kino, klub bor, ularning maktabi o'n yillik; aytishlaricha, Moskvaning o'zidan artistlar kelib turarkan. Bizda esa qorachiroq, uchta qishloqda birgina rohib Anatoliy Ivanovichda – balki eshitgandirsiz – radio bor. U ham so'nggi yangiliklardan boshqa hech narsani tinglamaydi, kuchi tugab qolarmish. Aytishadi-ku, ayrilganni ayiq yer!

– Nima uchun, sababi nimada?... – kutilmaganda o'zining cheksiz, olis o'ylaridan ortga qaytib so'radi Leontiy Sergeyevich. – Bunday bo'lmaydi-da, axir.

– Gap shundaki, azizim, bizning borligimizni boshliqlar unutib yuborgan!

– Boshliqlar o'z yo'liga, – baland ovozda gapirdi pech ustidagi kishi, – gap bundamas. Qoloq hayotga ko'nikib qolgansiz – mana, eng yomon tomoni!

Bobo bu so'zga hech qanday javob topolmadi, faqat bosh chayqadi, yo bu kishining fikrini ma'qulladi, yo xayolida boshqacha javob berdi.

– Nega, tumandan hech kim bu yerga kelmaydimi? – so'rading men.

– Nega endi, tuman rahbariyatidan yo'riqchilar keladi, ha juda ko'p kelishadi! Biri ov avjiga chiqqanda keladi, ikkinchisi baliq ovi mavsumida; xalq, albatta, tarqoq. Rais bilan ishni do'ndirib, qaytib ketaveradi.

– Birinchi kotib-chi?

– Bizda birinchi kotib kursisida qariyb olti yil ayol kishi o'tirdi. Qayda, uning bu ovloqqa kelishiga yo'l bo'lsin? Keyin, to'g'ri, erkak kishi qo'yildi, faqat uning bir odati bor ekan: shahardan bir qadam

ham nariga jilmas ekan. Undan keyin yana erkak qo'yildi, o'sha bir marta kelib-ketdi. To'g'ri biz tarafga keldi, ovloqning eng tubiga, juda noqulay vaqtida keldi – martda! – qariya juda uzoq kului, kula-verib ko'zlaridan yosh chiqib ketdi. Uning kulgisi tugamaydigandek tuyuldi, kotibning kelishi haqidagi xotirasi uni juda kulgisini qistadi.

– Qani, oxiri nima bo'ldi?

– U ham o'shalarday, natija bermadi, – dedi bobo kulgidan to'xtab. – O'sha yiliyam hozirgiday yog'ingarchilik edi. Kotib mard ekan, Buyuk orqali to'g'ri kelib tushdi. Ha, albatta, qiynalibdi, qirg'oqqa zo'rg'a chiqib oldi. Keldi va yog'och uyga kirdi-da, sharob berishimizni so'radi. Xalq, to'g'ri, xursand bo'lib ketdi: yarimtani urib ol-gach, chin yurakdan gaplashamiz, deb o'yladi. Yelkanni ko'tarib o'n ikki chaqirim naridagi Faleyevkaga uchishdi. Sal bo'lmasa, cho'kib ketay deb, sharob topib kelishdi. Kotib esa ichmadi, balki isqoti bilan boshidan tovonigacha artindi. Ot keltirishimizni so'radi va birdan hech gap-so'z yo'q uyiga qarab jo'navordi. Aytishlaricha, uni ish-dan olishibdi, gapning po'stkallasi... Mana, biz haqimizda rahbarlar xulosasi!..

– Nima bo'lganini Xudo biladi! – toshiqib ketdi Leontiy Sergeyevich. Qisqa, hayajonli asabiy iborada birinchi marta uning yetti muhr bosilgan yuragi ochildi. – Qadaydir Gogolona! Tirik odamlar hayotini shunaqa o'lik jonlarga ishonib topshirishadi!..

– Sabr qiling, asta-sekin, – kinoya qildi pech ustidagi kishi, Leontiy Sergeyevichga o'z iborasini takrorlab. – Biz, axir, ozmuncha bunyodkorliklar qilmadikmi!

Bu kishi shunchaki emas, biz o'ylagandan ko'ra sinchkovroq ekan. Leontiy Sergeyevich taajjubga tushib, qoshini uchirdi, keyin quyuq qizil rang asta yuzini qoplay boshladи.

– Sizning kinoyangizni tushunib turibman, – asta dedi u, – bu yo'lsizlikdan ko'ra dahshatli.

– Zanjirning bir halqasi! – keskin gap tashladi kishi. – Uylarda-gi hech narsani ko'tarmaydigan ustunlar, katta yo'l yonginasidagi yo'lsizlik, bobo bizga aytgan gap shu. Endi hammasi ravshan! Hozir nimaiki ahmoqlikdan, shafqatsizlikdan, boshboshoqlikdan chiqayotgan bo'lsa, hammasi ko'zbo'yamachilik, yaltir-yultir, yuzakilik, ichi puchlik va qashshoq turmushga olib boradi, nojo'ya ko'nikishlar esa odamlarga dushmanlik va bizga begona. Yana shunday kishilar

ham borki, – notanish kishi Leontiy Sergeyevichni nishonga olgандай diqqat bilan razm soldi, – ular falokatga shunchalik ko'nikib ketganki, xasta odamlar kasallikka shunday ko'nikadi. Ular uzoq yillar davomida, beixtiyor bo'lsa-da, barcha jonli, samimi, kuchli narsalarni o'zining dilida saqlaydi, endi esa ochiqqa chiqarolmaydi. Buni tushunish mumkin, ammo faqat alamli...

Leontiy Sergeyevich bu gapni og'ir oldi, xijolat chekdi, uning ko'zлari, kipriklari, yuzining har bir nuqtasi uchganday bo'ldi.

– Mana, bobo, ahvol shu, – dedi odatdagи ohangda notanish kishi Leontiy Sergeyevichdan nigohini olib. – Demak, endi bunday yashab bo'lmasligini o'zing tushunasan!

– Sen bu gapni qayerdan olding? – yana g'ururlana boshladi bobo. – Hech kim arz-dod qilgani yo'q-ku. Biz boshqacha odamlarmiz! Toki baliq ilinib, o'rdak ucharkan, hech kimga zor bo'lmaymiz.

– Ov qilish taqiqlab qo'yilsa-chi? – pech tomondan ovoz keldi.

– Qanaqasiga taqiqlaydi?

– Juda oddiy, shunchaki taqiqlaydi, tamom. Butun o'rta Rossiya bo'ylab.

– Balki, qaydadir taqiqlar, – ishonch bilan dedi bobo, – faqat bizning Meshcherada emas! – Ammo, aftidan, nimanidir sezib qoldimi, darrov xavotirlanib so'radi: – Nima, shunga o'xshash gap chiqdimi?

– Faqat gap emas, qaror chiqadi, – qat'iy javob berdi notanish kishi. – Keyingi bahordan boshlab – bu aniq. Balki bir yilga yoki bo'lmasa, ikki yilga. Janubga qish kelganda, qushlar qishlovda muzlab qoladi, ochlikdan qirilib ketadi. Chidamli oqqushlar ham o'lib ketadi...

– Falokat! – ko'ngli achidi boboning. – To'g'ri, taqiqlash kerak, qushlar ko'payib, kamchiligin qoplab olishiga qo'yib berish kerak. Faqat bu bizga tegishli emas, biz avval qanday otgan bo'lsak, shunday otaveramiz.

– Qonun siz uchun yozilmaganmi?

– Yozilmagan, qadrli o'rtoq, biz uchun ov – ermak emas, bizning hayot-mamotimiz bu.

– Janubdagи o'g'rincha ovlар oqibatida qishdagiga qaraganda ko'proq qushlar qirilib ketyapti...

– Sen bir ovloqqa qorovul bo'lib ko'rasanmi? – gumonsirab dedi bobo.

– Qisman bu ishni ham qilaman, – sezilarli kulimsirab qo'ydi notanish kishi.

– Aytib qo'yay, sen Meshcherani bilmaysan. Boshqalarda huvil-lasa, bizda gurillarydi. Meshchera azaldan qushlarga boy.

– Shunday deb o'ylaysanmi, bobo? – deyarli qayg'uga botib so'radi notanish kishi. – Meshchera suv qunduzi qani?

– Suv qunduzi, to'g'ri, tugatishdi, – istar-istamay taslim bo'ldi bobo.

– Sizda bug'ular qoldimi?

– Bug'ularga ham biroz daxl qilishdi.

– Qunduzlar qayerga ketdi?

– Qunduzlarni bittayam qoldirishmadi, – quvonib, xuddi nihoyat, o'z suhbatdoshini topganday avj oldi bobo. – Qunduz baliq yeydi; bizza bir qonun bor: daryoga borsang, qurolni ol va yaramasni ayamasdan otib tashla. Shunday qilib, qunduz masalasiga nuqta qo'yildi...

– Bobo, keyingi yillarda baliq kamayib ketganini payqadingmi? – avvalgidan ohista, ammo sehrlovchi bosim bilan so'radi kishi.

Balki shu bosimni his qildimmi, men birdan tushundimki, pech ustidagi bu odam shunchaki suhbat qurgani yo'q, shunchaki vaqt o'tkazish yoki boshqalardan shunchaki bilimdon ekanini ko'rsatish istagida ham emas. Yo'q, uning qandaydir uzoqni ko'zlagan maqsadi borga o'xshaydi, chunki suhbat oqimini bir mavzuda tutib kelyapti. Men Leontiy Sergeyevich ham suhbatga juda diqqat bilan quloq tutayotganini payqadim.

– Baliq yetarli! – beg'am dedi bobo, lekin keksa vijdonli kishi sifatida tuzatish kiritdi: – Albatta, o'tgan yildagidek emas, hechqisi yo'q, yashasa bo'ladi.

– Eh, bobo, bobo, – yozg'irib boshini sarak-sarak qildi kishi. – Qunduzni otib tugatganingiz uchun ham baliq kamayib ketdi. Qunduz faqat kasal, nimjon baliqni yeydi, u kuchli, sog'lom baliqlarga suzib yetolmaydi. Qunduz qirilib ketgach, baliqlar orasida kasallik tarqalgan...

– Balki, shundaydir, – asta tasdiqladi bobo. – Tabiatda, to'g'ri muvozanat bor. – U notanish kishining so'zlarini qandaydir diqqat bilan tinglay boshladи, biroq hali ham tan bergisi kelmasdi. – Meshchera qushlarga boy...

– Bobo, karqush qayoqqa yo'qoldi? Yakantovuq? Chonguldoq?

– Qarag‘ayzorda ov qilinmaydi bizda. Mana, yetmishga yetdim, tug‘ilganididan buyon bu yerlarda na karqushni, na chonguldoqni ko‘rganim yo‘q. Anavinisi esa, nimaydi, yakantovuqni sayraganini-yam eshitmaganman.

– Shunaqami? – dedi notanish kishi va gimnastyorkasining ko‘krak cho‘ntagiga qo‘l suqdi. Uzoq saqlanganidan bir-biriga yopishib ketgan bir taxlam qog‘oz oldi va undan yupqa bosma yozuvli varaqni ajratdi. – Mana, eshit, «Ovchilar jurnali»da bundan yetmish besh yil oldin nimalar deb yozibdi: «...Praning o‘rmonzor sohillari azaldan o‘zining karqush va chonguldoqlari bilan shuhrat qozongan. Afsuski, ov mavsumi va ov qoidalariga amal qilmaslik, qushlar ko‘payadigan davrda ovlash, makiyonlarning qirilib ketishi oqibatida bu qimmatbaho qushlar yo‘qolib boryapti...» Endi nima deysan, bobo? Yana ellik yildan keyin: «O‘rdak? Bizning Meshcherada azaldan o‘rdak bo‘lмаган», deyishadimi?

– Ozgina shoshmay tur, – bobo birdan eshakdan turdi va daxlizga chopib chiqdi; zax havo yopirilib kirgan eshikni asta yopdi.

Bobo bir o‘zi qaytmadi; uning yonida yana to‘rtta hamqishlog‘i ergashib keldi. Ular xuddi yig‘ilishga kech qolgan kishilar singari asta kirishdi: atrofga qaramay, ohista odimlab, hech kim bilan salom-alik qilmay, telpaklarini qo‘lga olib, eshikka yaqin turgan eshakka siqilishib o‘tirdi.

– Bizning mujiklar, – ma’lum qildi bobo, – Meshcheraga tegishli gaplarni ular ham eshitsin. Takrorlab yubormaysizmi?

– Nega takrorlamay, axir, – darrov rozi bo‘ldi notanish kishi va pastga sakrab tushdi. Yelkasini issiq pechga bosib, odamlar qarshisida eski harbiy shim kiygan va cho‘zilib ketgan jun paypoqda, issiq-dan qizargan yuzi va terlagan boshidan hovur ko‘tarilgancha, barvasta emas, lekin chayir, o‘z fikrini jamlab olgan va jizzaki qiyofada namoyon bo‘ldi. Bo‘g‘iq yo‘talib olgach, u suv qunduzi, bug‘u, qunduz va qarag‘ayzordagi qushlar haqida gapirdi va jurnalidan yirtib olingan parchani qayta o‘qib berdi. Kelganlardan biri, yuzi qora baquvvat amaki, anchadan beri soqoli qirtishlanmagan, kaftini tizzasiga urib, qattiq ovozda dedi:

– Xuddi shunday!

Aftidan, bu gaplar uning yuragidagi, ko‘ngliga tugib qo‘ygan gaplari va kuzatishlariga mos keldi va bu dalillardan so‘ng boboda

ham, boshqa meshcheraliklarda ham notanish kishi aytgan gaplar to‘g‘riligiga hech qanday shubha qolmadi.

– Balki, aslidayam shu, ovlanadigan hayvonlar bizning davrimizga yetadi, xolos, – avvalgi dadillik bilan dedi bobo, uzoq va og‘ir jimlikni buzib.

– Sening davringga, turgan gap, yetadi, sendan o‘zi tuproq isi keilib qoldi, – qahrlanib javob berdi qizargan ovchi. – Balki menga ham yetar, biroq bolalarimizga nima qoladi? Yo‘q, men bunga rozimasman!..

Qolgan uch ovchi ham ovoz chiqarib, xo‘rsinib, o‘midan qimirlab uning gaplarini ma’qullashdi.

Bobo bolalarcha, nochor ahvolda pech ustidan tushgan kishiga qaradi.

– Sen bu tarafga kelmaganining yaxshi edi! – dedi u yurakdan. – Faqat yurakni ezding!..

– Hamma to‘g‘ri so‘zdan qo‘rqadi, – yelkasini qisdi notanish kishi.

– Senga nima: kelding, gapirasan-gapirasan, ketasan. Biz bu yerda yana yashashimiz kerak... .

– Mana endi, keling, shu masalada gaplashaylik...

– Sen bilan nimaniyam gaplashardik! – Bobo g‘amgin jilmaydi. – Qarang, yangi kotib topila qoldi!..

– To‘g‘ri, bobo, men haqiqatan kotibman, – xotirjam javob yangradi. – Saylashganiga ikki hafta bo‘ldi.

Ov kishini topqirlik va dadillikka o‘rgatadi: boboning esankirashi bir daqiqa ham davom etmadi.

– Seni sezib qoldim, – dedi bobo, hammaga chaqnoq ko‘zlarini tikib. – Agarda birdaniga fahmlab qolmaganimda, meni safsata sotib o‘tiribdi, deb o‘ylarmideng? Qurolingdan bilib qoldim: kim shunaqa yo‘g‘on tayoqni ko‘tarib ovga boradi?.. Hay, mayli, kel endi tartib bilan tanishaylik, o‘rtoq birinchi kotib...

Men Leontiy Sergeyevichga qaradim. Uning qiyofasida qandaydir anglab bo‘lmas o‘zgarish yuz berdi: uning ko‘zlar yangicha chaqnadi. Nafaqat yangicha – bunday ko‘zlar, albatta, uning yoshligida, jo‘shtiqin qalbining butun kuchini xazar naqshiga berishni o‘ylagan vaqtlarida bo‘lgan...

UCHUVCHINING HALOKATI

Urushdan keyingi dastlabki yillarda omon qolgan yoki deyarli omon qolgan sinfdoshlar tez-tez yig'ilishib turardik. Ularning ko'pchiligi, avvalgidek, Tiniq ko'llar atrofida yashar va odatda eski maktab qarshisida, Lobkov tuyulishida, maktabdag'i o'rtoqchilikka mudom sadoqatli Nina Karamishevaning uyida uchrashardik.

Nina ko'hna boyonning dang'illama uyida yashaydi, uy devorining pastki qismi taxta bilan qoplangan, derazalari arksimon, baland, zali esa hayhotday kelardi. Bu koshonaning avvalgi egasi masonlar hay'atining a'zosi bo'lib, masonlar mana shu zalda yig'ilib, sirli masalalarini hal qilishgan ekan. Masonlar qadimda panoh tutgan bu joy biroz qorong'i va shinam bo'lmasa ham, anchagina odam sig'adi, axir, bir gal yigirma nafardan ko'p odam kelganda ham, anchagina joy bo'sh qolgandi: o'shanda erga tekkan «qizlarimiz» xo'jayinlarini, uylangan «bolalar» esa xotinlarini birga olib kelishgan.

Men yaxshi ko'radigan bu yig'inlarimiz elliginchi yillar o'rta-lariga kelib barham topdi. O'sha paytda ko'pchilik Cheremushka, Izmaylov va boshqa yangi tumanlardan uy olishdi va Tiniq ko'llardan ketishdi. Endi do'stlarni yig'ish oson emas, ularni qidirib topish uchun nafaqat qiziqish, balki sabr-toqat, qat'iyat va uzoq urinish kerak. Nima bo'lganda ham, Nina qadimiy koshonaning masonlar zolidagi eski joyimizda yana bir bor barchani jamlashning uddasidan chiqdi. Ammo avvalgidek xursandchilik bo'lmadidi. O'tgan yillar davomida yoshlikning so'nggi chaqasigachasovurib bo'libmiz; bir-birini tanimay qolganlar ham bo'ldi. Bu yig'in endi beixtiyor maktabdosh do'stlarning uchrashuvi emas, balki uzoq va juda ham zarur bo'lmagan tanish-bilishchilikni qayta tiklashday tuyuldi. 311-maktabni 1938-yilda bitirgan «A» sinf o'quvchilari deyarli tamom bo'libdi, shubhasiz, o'lim o'z domiga torta boshlabdi. Ularning ismlarini va ikkinchi darajali alomatlarini: kiprik qoqishini, tabassumi,

duduqlanishi, asabiyligi, birdan qizarib ketishi, yengil talaffuzlarini qandaydir boshqa, munkillab qolgan, horg'in, yoqimsiz qariyalari o'zlashtirib olganday tuyuldi. Aslida, bu hikoyam umuman maktabdoshlar uchrashuvi haqida emas, agar-chi unga biroz bog'liq bo'lsa ham...

U mana shunday uchrashuvlardan birida kechga tomon, hamma dasturxonidan turganda, xirillagan patefon tinimsiz xonishi jonga tegib bo'lganda va har kim ko'ngliga kelgan ishni qilib vaqt o'tkazayotgan paytda paydo bo'ldi. Oqsoqlanib, serbutoq, yo'g'on, sayqallangan, yumaloq kumush tutqali hassasiga suyanib, keng yelkasining bir tarafi past holicha, bo'yi cho'kkanday; boshida katta oqish yarg'og'i va yuzida jarohatdan qolgan chandiqlar bilan urushning yoqimsiz sharpasini bizning oqshomga olib kirganday bo'ldi. Tangadek, lekin katta ko'ringan chaqnoq ko'z qorachiqlari atrofi, qovoqlari kulrang-moviy, murdadek rangsiz, ajinsiz, manglayi ham bo'zargan, hissiz, xuddi o'ziniki emasdek tuyuldi, yuqori labida – u faqat pastki do'rdayib turgan labini chetga cho'zib kulardi – tikilgan ipning izi yaltiraydi: yuzidan tortib chakkasigacha – avvalgi, o'ziga xos joziba toza, kuchli, toblangan ko'z ostida, yonoqlaridagina qolgan. Kostyuming o'ng tomoniga «Yaradorligi uchun» deya yozilgan tasma tikilgan, bu tasma ko'z oldimizda namoyon bo'lgan falokat izlarini ifodalash uchun anchagini kichkinlik qiladi. Ha, urush unga shafqat qilmagan, biroq u ham osonlikcha jon bermaydiganlar xilidan ko'rindi. Ko'z qorachiqlarini kattaytirib davraga bir nazar tashlab, salom-alik qilib bo'lgach, zilday gavdasini epchillik bilan men tomoniga tashladi.

– Men uy bekasining amakivachchasi bo'laman, – dedi u, – Ninaning barcha maktabdosh do'stlarini taniyman, ammo-lekin negadir sizni ko'rмаган ekanman.

– Men ham Ninaning barcha qarindosh-urug'larini bilaman, biroq sizni eslolmayapman.

– Demak, avvalroq ko'rishish nasib qilmagan. – U pastki labini chetga surib jilmaydi. – Siz telegrafda ishlaysizmi?

U yo meni kimgadir o'xshatdi, yo shunchaki tusmollab gapirdi.

– Yo'q, men yozuvchiman...

– Nima? – Uning yuzi jiddiy tortdi, hatto tashvishli tus oldi. – Sharifingiz? – talabchan ohangda so'radi u. Men har bir boshlovchi

yozuvchilarga xos tortinchoqlik bilan o'zimning kuchsizligimni his qilgandek ismimni aytdim.

— So'nggi asaringiz?

— «Gvardiyachilar Dneprda», — ko'zimda umid chaqnab, ta'kid-ladim men.

— Ha, Xudoyim-ey, — uning yuzlari yorishdi. — «Gvardiyachilar Dneprda», juda mashhur asar!

Kitob bir necha yil oldin kam nusxada bosilib, jamoatchilik orasida sezilarli iz qoldirmadi — nima bo'lganda ham, bu cheksiz dunyoda uni o'qigan kishini hozirgacha uchratmagandim. Ichim qizib Nina-ning amakivachchasiga qiziqsinib boqdim. Ko'nglimda avval o'zim sezmagan ta'sirchan bir tuyg'u ko'tarildi va asta-sekin hammasi joyiga tushdi.

— Rostdan ham o'qidingizmi?

— Qo'ysangiz-chi, meni saviyasi past, madaniyatsiz kishi deb o'ylayapsizmi?.. Tanishaylik: Vladimir Shvorin, iste'fodagi leytenant, qiruvchi-uchuvchi, nishondor.

Biz qo'l olishdik.

— Ninka! — Shvorin yonimizdan o'tib ketayotgan singlisi ni to'xtatdi. — Ma'lum bo'lishicha, manavi kishi «Gvardiyachilar Dneprda»ni muallifi ekan!

— Nima bo'pti? — bee'tibor so'radi Nina.

— Ajoyib asar! Frontchilar bu kitobni o'qib chiqqan!

— Sen qayerdan bilasan? — dedi Nina va yo'lida davom etdi.

— Ko'rdingizmi? — Shvorin menga jilmayib qaradi. U tanishganimiz sharafiga bir qadahdan olishimizni taklif qilgach, tayog'i va gavdasining chap tomonini oldinga tashlab, katta qadam bosdi va qadahlarni to'latdi.

— Gvardiyachilar hayoti uchun! — dedi u hayajonlanib.

Biz qadah cho'qishtirdik, men tubigacha oldim, u labini tekkizib qo'ya qoldi.

U keyin ham deyarli ichmadi, biroq o'zini sarxush kishiday tutdi. U sharobdan emas, balki ichki zo'riqishdan, hayajondan sarxush ko'rindi. Bir vaqtning o'zida bir necha joylardan uning baland, o'ziga ishongan, boshqa shovqin-suronlarni bosib ketadi-gan ovozi eshitilardi. Barcha gurung va munozalaralarga aralashar, mantiqsiz fikrlar aytib, xulosalar chiqarar, turli mavzularda qonun

talashardi: uy-ro'zg'ordan tortib bolalarning musiqiy ma'lumot olishigacha.

Meni ham chetda qoldirmadi.

– Men haqimda yozishingiz kerak. – dedi u, keng, og'ir gavdasi boshimga yiqilguday egib. – Mening hayotim – ming bir kecha! «Gvardiyachilar Dneprda» – cho'pchak, buning oldida, lekin mening tarixim shunday kitob bo'ladiki, shon-shuhratga ko'milasiz. Faqat bir oqshom o'tirib, sizga hammasini so'zlab berishim kerak... Meni pul qiziqtirmaydi, faqat tajribani muhrlab qo'ying!

Rostini aystsam, unga avvalgi qiziqishim qolmadı. U «Gvardiyachilar Dneprda»ni o'qimagandek, hatto ismimni ham hozirgacha eshitmagandek ko'rina boshladi. Uning ko'ziga tashlanmaslik uchun narigi burchakka – eng kamgap, gapirsa ham sekin so'zlaydigan mehmon Sergey Sarichevichning yoniga o'tib ketdim. U bo'ydor, yuzi yumaloq va chiroyli, qo'yko'z, to'ladan kelgan yigit. Taqdir uni sinfdoshlar safida faxriy ishtirokchi bo'lishga yo'llagan, urushda halok bo'lgan aksi Mitya Sarichevning hurmati, uning ruhini shod qilish uchun davraga taklif qilindi. U Nina ga telefon qilib, halok bo'lgan akasining do'stlarini ko'rish niyati borligini aytibdi. Nina yaqin orada bo'ladigan yig'inimizga taklif etishga va'da beribdi, ammo Zoya Astanina qishlovdan qaytma-guncha shoshilmay turibdi; Mitya Zoyani «uch marta umidsiz muhabbatim» deb atardi. U qizni bolaligida, o'smirligida, yoshligida ham sevgan va barchasida ham qizning muhabbatga erisholmagan. Nina kamdan-kam namoyon bo'ladigan ziyrakligini qo'llabdi: uchrashuvga kelgan ukasi yuziga Mitya tirik bo'lganda hozir qanday qiyofada bo'lishini ko'rsatdi. Sergey keldi, o'zining katta gavdasi panaroqda, bir chetda yashirib, Zoyadan ko'z uzmay o'tirdi. Bo'ydor, pishiq, yuzlari qizil-sarg'ish, oq badan, mo'g'ullarnikiga o'xhash shishinquiragan, cho'ziqroq ko'zini suzgan Zoya bir vaqt-lar Mityaga e'tibor bermagan, endi yo'qligida boshqa halok bo'lgan do'stlarimizga qaraganda uni ko'proq xotirlayapti. U baxtli ayol, ona, fan nomzodi, ko'ngli nima xohlashini yaxshi biladi, to'g'ri, aniq yo'lidan ketdi, lekin uning hayotidagi nazmiyat Mitya bilan birga tuproqqa qorishdi. Nima bo'lganda ham, o'zi buni yaxshi bilar-di; biroq kechmishda qolgan nazmiyatni qayta his etishga layoqatli bo'lsa-da, buni istamadi. Sergey Sarichev uning jahlini chiqardi.

– Namuncha tikilib qoldingiz? – dedi u keskin. – Bu quruq nayrang-ku.

– Bilaman, – xotirjam javob berdi Sarichev.

– Mayli, hechqisi yo'q!..

– Hechqisi yo'q... – istehzoli takrorladi u va qo'yko'zlarida iztirob olovlandi.

Sergey Sarichevning nima ish qilishini, qayerda yashashini, oilasi bormi – oramizdan hech kim bilmaydi. U Mityadan kelgan elchiday, hech kimga hech qanday og'irligi tushgani yo'q, maqsadi yagona: Zoyani sevishni davom ettirishga kelibdi. Qolaversa, o'sha vaqtarda kamdan-kam odamlarga nasib etgan mashina unda borligidan xabar topdik.

– Men sizni uyingizga eltidib qo'yaman, – dedi u, odatiga ko'ra davrani birinchi bo'lib tark etgan Zoyaga.

– Keragi yo'q! – dedi Zoya qo'rs ohangda va xonadan chiqdi.

Men Sergeyning yonida o'tirgandim, u xotirjam jilmayib, labidan popirisni olib, cho'g'i o'chmagan holda kaftining chuquriga bosdi. Popiris tik holida kaftga yopishib, terini kuydirdi, yoqimsiz hid anqidi. U qo'lini siltab popirisni polga tashladi, kaftidagi qon va kulni artgach, yarador qo'lini cho'ntagiga yashirdi.

Tez orada ketishga chog'landim, Sergey meni uyimga tashlab o'tishini aytdi.

– Yo'limiz bir ekan, – dedi u.

– Qayerda yashashimni bilasizmi?

– Kropotkin darvozasida.

Dahlizda kiyinar ekan, ohangini keltirib xirgoysi boshladи:

*Sizga aytaman bir sir,
Sevganim bunda yo'qdir...*

Men qulqoq solganimni ko'rib, biroz jilmaydi, ammo kuylay-verdi.

*Kimdir yo'q, kimdir ma'yus,
Qalb qo'msar, kimdir olis..*

– Nima, siz lo'limisiz? – so'radi birdan Shvorin.

Sarichevning jilmayishi jiddiyashdi.

– Deylik, shundoq. Bu bilan nima demoqchisiz?

– Hech narsa!.. Men kim, Gitler kim?.. U lo'lilarni qirgan, men esa barcha millatlarni birday hurmat qilaman... Shoshmang, men ham ketaman!..

Sarichev qo'lqopini tortqilab, zinadan uchib tushdi. Katta, og'ir yuki bo'lsa ham, kamdan-kam uchraydigan epchillardan edi, ortidan arang yetib yurdim. Tayog'ini taqillatib, to'siqqa yonlamasiga osilgancha Shvorin zinadan deyarli yumalab tushib, pastda bizga yetib oldi. Sarichev mashina eshigini ochdi, bu och-moviy rangdagi «opel-olimpik» edi.

- Kimning moshinasi? – bo'zarib shang'illadi Shvorin.
- Meniki. E'tirozlar bormi? – sovuqqon so'radi Sarichev.
- Olmoniyadan olib keldingizmi? – uning gap ohangiga e'tibor bermay, ehtiros bilan qiziqib surishtirdi Shvorin.
- Yo'q, ZISning yettinchi saroyidan. – tirjaydi Sarichev.
- Yettinchi saroy degani nimasi?
- O'ljaga olingan moshinalar tashlanadigan joy...
- O'zim ham shunday bo'lsa kerak deb o'ylagandim, – biroz tassalli topdi Shvorin, – matohning ta'mirdan chiqqani sezilib turibdi.

Mashina yangiday ko'rinar, ammo, balki Sarichev to'g'ri aytgandir, Shvorinning texnikaga sinchkov ko'zлari sayqallangan masinaning yon tarafidagi malham surtilgan jarohatlarni payqaganadir? Men mashinaga chiqmoqchi bo'lib turgandimki, Shvorin keskin dedi:

- Meni Kursk tumaniga tashlab keting! – va «opelcha»ga hammadan avval o'tirib oldi.
- Yo'lim ustidamas-da, – norozi ohangda g'o'ldiradi Sarichev. – Ha, mayli, aniq manzilingiz qayerda?
- Chernetskiy tuyulishi, – o'rindiqqa yastanib olgach, javob berdi Shvorin, – yettinchi uy, ikkinchi xonodon, mening koshonam o'sha yerda...

Sarichev besabr qimirlab qo'ydi. Shvorin o'ziga yoqmaganini yaqqol sezdirdi. Uning niyati boshqa edi: mendan Zoya haqida gap olmoqchi, ayniqsa – Zoyaga yaqinroq, uni qizchalgidan buyon yaxshi biladigan, maktab va bolalik hayotidagi minglab mayda-chuydalar orqali bog'langan kishining yonida bo'lishni istagandi. Unga Zoyaning nafasi tekkan ko'zguday ko'rinaridim. Shvorin bo'lsa oramizga suqilib kirdi.

O'rindiqning yumshoq yotiqchasiga boyonlardek bemalol yastanib o'tirib, oyna ortidan bir-bir o'tayotgan chiroqlarga ko'z tashlab ketayotgan Shvorin ishratparast kishiday ko'rinardi.

– Mening ham moshina olish niyatim bor, – dedi u. – Har qanday uchuvchi kabi tezlikni yoqtiraman, qolaversa, qulaylikni qadrlayman, tarbiya shunday bo'lgan, o'zingdan qochib qaygayam borasan!..

Oldinda umidsiz xirgoyi eshitildi:

*Sizga aytaman bir sir,
Sevganim bunda yo'qdir...*

– Motor dirillayapti! – qichqirdi Shvorin.

Sarichev javob bermadi.

– Eski primus tarillaryapti, – mulohaza qildi Shvorin, bo'ynini arang burib, ko'z qorachiqlarini kattaytirib ko'cha chiroqlarining zarli dog'larini terganday. – Ammo mening moshinam so'nggi murvatigacha yaxshilab qotirilgan, shaylangan, xuddi lo'lining gitarasiday bo'ladi... Pardon!.. O'ngga, Lyalin tuyulishi orqali!..

– O'zim bilaman, – boshini ortga burmay javob berdi Sarichev.

– Ha, g'ildirak – menga yetishmagan yagona narsa shu! Yo'qsa-yashasa bo'ladi!.. Ko'krak to'la nishon, katta nafaqa, uyda xalq artisti intizor, farang konyagi, musiqa... Bir kirib o'tasizmi?

– Nega endi?.. Uchrashuvningizni rasvo qilishim mumkin.

– Bo'limgan gap!.. – dedi u ochiqko'ngillik bilan. – Umuman, siz xalq artistlariga qanday qaraysiz?

Men yelkamni qisdim.

– Yo'qsa, ikkita hisob yurg'izishim mumkin, mening dugonamga bir so'z aytsangiz bo'ldi, unda xalq va xizmat ko'rsatganga o'xshash nishonlar to'lib yotibdi. Shaxsan men xalq – Senka va telpakka qarab, u ulug'ver, mavqeiga ko'ra munosib va ko'ngilga ko'p narsa beradi, boyitadi, bir so'z bilan aytganda...

– Keyinroq kirib o'tarmiz... – g'o'ldiradim men.

Mashina to'xtadi.

– Nima gap? – norozi ohangda so'radi Shvorin.

– Chernetskiy, yetti, sizning koshonangiz, – dedi Sarichev.

– Yuravering!

Mashina joyidan jildi. Biz muzlama ustidan, shaharga xos bo'limgan toza, oppoq, yaraqlagan qor uyumlari yonidan juda se-

kin borardik. Tramvay izi, ikkita muzlagan temir iz muzlagan ikki jilg‘aday ko‘m-ko‘k tovlandi.

*Sizga aytaman bir sir,
Sevganim bunda yo‘qdir...*

Sarichev iztirob chekardi.

– Derazadan chiroqni o‘chirib qo‘ygani ko‘rinib turibdi, – buri-lib qaramoqchi bo‘lib chirandi Shvorin. – Atay qorong‘ida o‘tiradi, achinishimni, erkakashimni istaydi. Oh, ayollar!.. Hatto xalq artisti bo‘lsayam, ayolligicha qoladi... Men esa uchuvchi, fazoning erka o‘g‘loni, yo‘llarni, zanjirni, turmushni yomon ko‘raman. Qo‘sinqda kuylanadi-ku: «Biz tug‘ilgan uy samo...»

Mashina Kursk vokzali oldidagi maydonga kirdi.

– Eshiting, – dedi Sarichev, – xonimni kuttirib qo‘yish kerakmas.
– Nimalar deyapsiz? – tushunmad Shvorin.
– Uyingiz yonidan o‘tib ketganimizga ancha bo‘ldi.
– Meni quvib solmoqchimisiz?
– Yo‘q, o‘zingiz aytdingiz-ku, aktrisa va farang konyagi kutyapti, deb. Men shunchaki eslatdim, xolos.
– Nima qilishni o‘zim bilaman, – dedi kibrilanib Shvorin.
– Aftidan, yo‘q, shekilli, bo‘lmasa, allaqachon tushardingiz. Bini yo‘ldan qoldiryapsiz.
– Moshinani to‘xtating! – g‘alati ovozda qichqirdi Shvorin.

Sarichev keskin tormoz bosdi, mashina muz ustida biroz sirg‘anib bordi, so‘ng tramvay yo‘li va baland qor uyumi o‘rtasiga turib qoldi.
– Faqt tezroq, bu yerda to‘xtab turish mumkinmas.

Shvorin eshikni ochdi va o‘ng‘aysiz holda orqamachasiga rels ustiga tushdi. Eshikni qo‘lida tutgancha tayog‘i bilan shamol to‘sadigan oynani taqillatdi. Sarichev eshikni ochdi.

– Yana sizga nima kerak? – qichqirdi u.
– Shoshilmayapsizmi? – xavfli ohangda so‘radi Shvorin. – Buni qarang-a, qanchalik tezob!..
– Jonga tegdingiz!..
– Siz ham!..
– Yo‘qoling!..

Sarichev tezlikni qo‘shib, butun kuch bilan gazni bosdi. Mashina sapchib ketdi. Shvorin qo‘lini qo‘yib yuborib, muvozanatini yo‘qotdi

va og'ir, konki chopuvchi singari noqulay holda muzlagan shag'al ustiga yiqildi. Orqadagi oynadan uning yerda emaklab hassasi tarafa sudralib borayotganiga ko'zim tushdi.

– Noto'g'ri qildingiz, – dedim men, – har holda nogiron.

– Sabringizga tasanno, chidab o'tirganingizga qoyilman. Safsatsidan qulog'im qomatga keldi.

– Nega sabr?.. Balki yo'qdir? Keyin, bunday qilish mumkinmasha...

– Qo'ysangiz-chi! – dedi u keskin. – Men ham urushga borganman, yengil yaralanganman, lekin bu boshqalarning boshiga chiqib o'tirib olishga haqqim bor, degani emas. Baxtsiz va tantiq odamlarni jinim suymaydi.

Lekin menga Shvorinning tramvay yo'li ustida tayoqchasi to-monga emaklayotgani ko'rinish turardi va:

– To'xtating! – dedim.

Sarichev menga ko'z qiri bilan istehzoli qaradi, ammo-lekin il-timosimni bajardi. U bilan bahslashib o'tirmadim. To'g'ri, hammasidan ham Shvorinning pastkashligi oshib tushdi. Sergey esa Shvorinning umidsizligini, nochorligini, omadsizligini masxara qildi. Har holda, Sarichev ikki oyoqdä mahkam tura oladi, o'z mashinasining chambaragini aylantiryapti, sukul saqlashni, jilmayishni, tishining orasidan kuylashni biladi, u kuchli edi. Men orqaga, Shvorinni qoldirgan joyimizga qarab tez-tez yurib ketdim.

Chernetskiy tuyulishida uni quvib yetdim, qum sepilgan piyodalar yo'lagidan sudralib ketayotgan ekan. Buncha qiyinchilik bilan yurishini bilmagandim. Zalda bir-ikki qadam bosgani-yu, zinada to'siqqa osilib tushganini ko'rganman, xolos. Hozir esa uning oyog'i emas, butun tanasi surilib ketayotganday, xuddi bo'g'imoyoqlilarga o'xshab qadamma-qadam lapanglab, hassaga osilib, surilardi. Men uni tahqirlangan, asabiylashgan, g'azablangan holda ko'rsam kerak, deb o'ylagandim, ammo u haqoratni his etishdan, anglashdan ancha-gina yuksakda edi.

– Lo'li ketdimi? – Aftidan, u meni o'ziniki hisobladi va bundan ajablanmay dedi. – G'alati, «opelchasi» bor ekan, bildik, xuddi to-vuq tuxum qo'ygach, qaqog'laganday maqtandi. Mashina minishni bilmaydi, ahmoqona siltab haydadiki, yiqilishimga bir baxya qoldi. Hay, Xudo xayrini bersin, bir kun kelib o'rganib olar... Yaxshilab

so'rasa, o'zim o'rgatib qo'yaman. Aytishadi-ku, qalovini topsang, qor yonadi, deb... Yarim soatga kirmaysizmi?.. Uning qo'llaridan o'pib, bir qadah konyak ichardingiz.

Uning izidan katta, bahaybat, aks sado qaytaruvchi dang'illama uyga kirdim. Biz ulug'ver-ohista, liqillagan, keng-mo'l liftda uchinchi qavatga ko'tarildik. U o'shanday ulug'ver, ikki tabaqali, juda baland eshikka kalit solib, mis tutqichni buradi. Yarimqorong'i dahlizdan o'tib – burchakda orqa oyog'ida tik turgan ayiqning shisha ko'zları yaltiradi – keng, ko'cha chiroqlarida xira yorishib turgan xonaga kirdik.

Chiroqni yoqdi. Mo'jizani behuda kutgan ekanman. Xona, bizdan tashqari, kimsasiz edi. Menisov uq va shilimshiq, xuddi vahima ga o'xhash uyat hissi qamrab oldi. Ammo Shvorin xijolat bo'lmasdi, asabiylashmadi ham.

– Hammasi tushunarli, – dedi u shunchaki umidsiz ohangda. – Artistlar olamiga kirishdan dahshatli narsa yo'q, hamisha injqlik, hamisha nayrang – bundan battar bo'lmaydi... Axir, men go'l yigit emasman-ku, menga nayrang qilolmaysan...

Yuragining tub-tubidan chiqqan juda achiranli, yarador tabassum – buni o'zi his etgani yo'q – uning og'zini yopdi.

Devorda baxmal kotyumcha kiygan ingichka, sochlari malla, yuzi cho'zinchoq chiroyli bolakayning kattartirilgan surati osiq turardi.

– Portretimni ko'ryapsizmi? – dedi Shvorin. – Nima deysiz – kiboriy tarbiya!.. Farang qizlar, murabbiyalar, musiqa muallimi... Mening onam – taniqli modelchi, ma tant – olima xonim, tibbiyot yulduzi...

U yana kiborlar pufagini uzoq shishirdi, lekin suratdagi bolaning yuzlari ko'zimga issiq ko'rindi, faqat u besh-olti yosh kattaroq, baxmal kostyumda emas, uchuvchilar bilim yurtining korjomasi va furajkasini kiygan yigitcha edi.

Bu o'sha, cho'zilib ketgan qish, bahorsiz, birdaniga yozga o'tib ketgan 1938-yilning g'alati aprel kuni sodir bo'lgandi. Maktab binosining tomiga osilgan sumalaklar birdan erib, piyodalar yo'lagi ustiga yomg'irday yoqqan kunlar. Quyosh shaffof sumalaklarni chiroqday yoqib, uzib asfalt yo'lak ustiga qasir-qusur qilib otgandi. Suv quvurlaridan sharaqlab muz parchalari tushar, bahorning yashnoq bo'yifurur ediki, biz maktabdan chiqqach, biroz hushimizni yo'qtgancha

turib qolardik. Biz o'shanda bu qomati tik, navqiron uchuvchini malla sochiga furajkasini qiya qo'ndirgan qiyofada ko'rganmiz. Uning yuzida qandaydir qo'rslik, uyalish, odamni havasini keltiradigan kat-talarga xos mardlik, shu bilan birga, bolalarga xos shoshqaloqlik bor ediki, hatto biz, qo'liga bo'r-u siyoh chaplangan maktab o'quvchilari ham undan yoshi kattaday ko'rinardik. U mana shu hurkak, shovqin-li, shaffof, quyoshli bahorga o'xshardi. Nina quvonchdan uchib uni qarshi olar, biz esa pinhona oshiqi beqarorlar bosh egib, yelkamizni qisib qolardik...

Hozir unga urush yetkazgan dahshatli talofatni yaqqolroq ko'rdim. Uning tekis boshidan tuklar butunlay to'kilib ketmagan, bu yerga teri ko'chirib o'tkazilgan, aslida, begona bo'lgan soch-soqol, peshona va yuqori lab murdaniki singari hissiz: teri qoplangan. Uning kuyib ketgan terisi sidirilib tushgan, o'miga butunlay yangi teri yopishtirilgan, ulangan, tikilgan...

– Men endi qaytay...

U meni konyak ichishga undadi. Rad etdim.

– Keyingi safar kitobingizni olib kelishni unutmang!.. – ortimdan qichqirib qoldi Shvorin.

Men bu tanish-bilishchilikni kelgusida davom etishini istar-istamas o'ylab ketdim. Biroq adashibman: Shvorin bizning oqshomlarda qayta ko'rinmadni. Bir kuni, eng oxirgisi bo'lishi bitilgan yig'inga ot-lanar ekanman, Shvoringa sevimli «Gvardiyachilar Dneprda» kitobimni sovg'a qilishga va'da bergenim yodimga tushdi va kitobni olib ketdim.

– Unga yetkazib qo'yishim qiyinmas, – dedi Nina, – lekin arzir-mikin? U ehtimol, o'sha suhbatingizni unutib yuborgandir, yana bez-zvota qilish shartmikin?

Bu javob Shvorin haqida gap ochishga bahona bo'ldi. Urush qah-ramoni erishgan nishonlar, ayollar va dabdabali hayat haqidagi gap-larda, zarracha bo'lsa-da, haqiqat bormi, shuni bilgim keldi.

– Qanaqa nishon, qanday xotin?.. – dedi Nina xorg'in va g'amgin jilmayib. – Baxtiqaro, mayib-majruh odam bo'lsa, hammamiz uning ko'ngliga qaraymiz... O'zi ajoyib-da, Volodka...

– U, hech bo'Imaganda, uchuvchidir?

– Albatta, uchuvchi bo'lgan. Uchuvchilar bilim yurtida eng qibiliyatli yosh uchuvchi sanalgan, uni «bo'lajak Chkalov» deyishardi.

Ammo Chkalov yo'lini qanday tugatgan bo'lsa, u shunday boshla-di... Urushning birinchi kuniyoq abjag'ini chiqarishdi, tasavvur qil-yapsanmi?

– Havo jangidami?

– Qaniyi, shunday bo'lsa... Unga birinchi jangovar uchish buyu-rilgan. Ammo havoga ko'tarilishga ulgurmagan, maydoncha ustida olmonlarning qiruvchi uchog'i paydo bo'lib, kutilmaganda o'qqa tut-gan. O'yla: bir umr jasorat ko'rsatishni orzu qilgan, shaylangan – bi-roq biron ta jangga kirmay turib mayib-majruhga aylangan yigit! Bu voqeя una kuchli ruhiy zarba berdi, gospitaldan keyin ruhiy kasal-liklar shifoxonasida uzoq davolandi. U yerdan chiqqach, nafaqa ta-yinlashdi. Onasi tikuvchi, ammasi shifokor, yaxshi yashashadi, nima desa, hammasi muhayyo...

– Hamma gap uning xayolparastligidanmi?

– Bilasanmi, uydagilar orasida soppa-sog', to'g'ri gapiradi, juda bama'ni... Ammo begonalarga xayoliy hayotini to'qib gapiradi, go'yo xotirjam kun kechirayotgan faxriyning dabdabali hayotini ta-savvur qiladi. Aslida, u bezarar, mayli, o'zini ovutib yuraversin, bun-ga e'tibor bermaymiz...

Shvorin haqida keyingi xabarni eshitgunimcha oradan yillar o'tdi. «Tiniq ko'llar» nomli kitobim chiqqach, o'ylab topilmagan qahramonlarim una qanday munosabat bildirishiga qiziqdim. Juda qiyinchilik bilan Ninaning telefonini topdim – u ham boshqalarga er-gashib, Tiniq ko'llarni tark etibdi.

Nina kitobimni ko'rmabdi, hatto bu haqida eshitmabdi. Bolalar-dan hech birini uchratmabdi, uzoqda. Shchelkovskiy katta ko'chasi bo'yidan, alohida xonadon olibdi. Tiniq ko'llarda biznikilardan hech kim qolmabdi.

– Oilamizda baxtsizlik... Volodka Shvorin, amakivachcham, aba-diy qallig'im yodingdami?

– Yodimda, faqat aka sifatida.

– U ertami-kechmi, menga baribir uylanishini hammaga aytib chiqqach, bir haftacha bo'ldi, yo'l halokatiga uchradi.

– Demak, baribir, moshina olibdi-da?..

– Onasi bilan ammasi ko'maklashdi, bolakayga achinishadi-da!..

U «Moskvich» sotib olibdi, qo'lda boshqarishga mo'ljallab qayta sozlabdi, haydashni yaxshilab o'rganibdi va Qizil Paxradagi

qarindosh-urug'larini ko'rgani yo'l olibdi. O'sha yerda bir kun qolgach, ertasi ortiga qaytibdi, yo'l dagi daryocha ko'prigini ko'chirib olishgan ekan. U yo'l belgisini ko'rmay qolibdi, tezlik esa yuzdan yuqori... G'alati taqdir: avval birinchi uchish, hozir esa birinchi yelish...

Yaqinda yo'l muzlaganda Moskvaga mashinada bordim. Vatutinkadan keyin, katta yo'lning chetida, osmondan tushdimi, yerdan chiqdimi, bilmadim, bir militsioner yo'l chetida qo'l ko'tarib turibdi. Navbatdagi qurban ni poylaganday, ariq ichiga yashirinib olgan-u, menga o'chakishib, yo'lga otlib chiqqan bo'lsa kerak. Tezlikni pasaytirar ekanman, u qanday ayb toparkin, degan o'yga bordim. Tezlikni oshirishmi? Qanaqasiga, sirpanchiqda arang kelayotgan bo'lsam. Burilish chirog'ini yoqmadimmi? Yoqilgan. Mashina changmi? Toza, hozirgina ho'l latta bilan artib, yo'lga chiqdim. G'ildirak yeylanymi? Yo'q, hali qoplamasni yangidek turibdi... Baribir, aybim bor, shekilli, qachonlardir qilgan gunohim bo'lsa kerak-da. Asabiylashganidan tormozni odatdagidan kuchliroq bosib yubordim, qilgan xatom shu bo'ldi. Mashinaning tumshug'i boshi aylanganday chapga burilib, orqasi militsioner turgan joyga to'g'ri keldi, u yana ariqning nargi chetiga sakrab o'tishga majbur bo'ldi. «Ana xolos, – bosim ostida o'yladim men, rul chambaragini aylantirib, – militsioner xato qiliшимни oldindan ko'ra bilib, ariqdan bu tomonga sakrab o'tgan va men uni yana ariqdan ortiga qayta sakrashga majbur qildim, qandaydir sirli, ziyrak militsioner...»

Nihoyat, men mashinani to'g'rilab to'xtatdim, militsioner katta yo'lga chiqdi va qo'lini chakkasiga tirab, dedi:

– Kechirasiz, Konkovga tashlab o'tolmaysizmi?

– Teplo Stangacha – marhamat.

Eshikni ochdim, u o'tirdi, yosh, yuzi pushtirang, ixchamgina starshina. Yo'lga chiqdik. Tanishuvimizga bahona bo'lgan arzimas yo'l hodisasi mavzusi katta halqacha suhbatimizni qizitdi. Biz odamlar qurban bo'lgan falokatlar, yo'l harakatini qo'pol buzilishining ayanchli oqibatlarini eslab o'tdik.

– Men ko'rgan eng dahshatlari hodisa, – dedi starshina, – mana shu yo'lda, o'tgan yozda sodir bo'ldi. Kuppa-kunduzi «Moskvich» taqiqlangan belgidan o'tib, to'siqni yiqitib, ko'chirib olingen ko'priko'midan uchib daryoga g'arq bo'ldi.

– Haydovchi o'ldimi? – so'radim men, gap Shvorin haqida keta-yotganini fahmlab.

– Bo'lmasam-chi!.. Tergov qilindi, haydovchi mast emas, to'g'ri, nogiron bo'lsayam, moshinasi tartibli ekan. Moshina qo'lda boshqariladigan, yap-yangi, cheklagich muhri endigina buzilgan. Yo'ldagi ogohlantiruvchi belgi va «g'isht» risoladagiday o'z o'miga qo'yilgan, burilish ko'rsatkichi belgilangan joyida, xullas, baxtsiz voqeaga sabab bo'ladigan hech qanday kamchilik topilmadi, mana sizga!

– Balki haydovchi xayolga berilib, belgini ko'r may qolgandir?

– Bo'lishi mumkin, – dedi starshina. – Ammo u to'siqni urib o'tgandan keyin nega tormoz bosmadi? Bu ishni har qanday kishi be-ixtiyor bajaradi-ku! U hatto tormozga tegib qo'ymagan... Juda g'alati hodisa.

– Balki hushini yo'qotgandir? – starshina ikki marta ta'kidlab aytgan «g'alati» so'ziga qiziqib, oxirigacha surishtira boshladim.

– Yo'-o'q, – dedi cho'zib starshina. – Shlagbaum, ha, to'siqning atrofida yo'ldagi ishchilardan biri qo'lqopini yodidan chiqarib, qaytib kelib yurgan ekan. Haydovchi unga keskin, cho'ziq signal beribdi, moshina shunchalik tez kelganki, qayrilib qarashga arang ulguribdi. O'yayman: bu o'z joniga qasd qilish emasmikin?..

Jim bo'l, starshina! Endi men hikoya qilaman...

U o'zi yetgan orzu, baxtdan jazavaga tushib uchib kelgan, bu insonning bir parchasi, urushning jangovor parvoz qilmagan uchuvchisi, jasorat ko'rsatmagan qahramon, botir, jang uchun tug'ilgan, lekin achinarli xayolparastga aylanib qolgan, nihoyat, yana harakat-u tezlikka yetishgan omadli odam. U mashinaning qo'lda boshqarishni uchoq shturvalidek his qilgan va samo chizig'ini qiruvchi uchoq deb o'yagan. Shu yerga kelganda qochib qutulib bo'lmas, kechmish yillarning ayanchli dahshatiday g'ayritabiyy to'siq o'sib chiqqan. Kecha u yo'q edi, kecha yo'l ochiq edi. U, albatta, ko'cha harakati belgilarini, to'siqni ham, ko'chirib olingan ko'priki ham, aylanma yo'lni ham ko'rgan, mashinani xotirjam sekinlatib, asta dala yo'liga burib ketishi mumkin edi-ku. Biroq mashinani haydovchi emas, urushdagi uchuvchi, qiruvchi-uchuvchi boshqarib kelayotgandi. Uchuvchining samoviy yo'lini yana yovuz kuchlar to'sib chiqdi, yana uning qanotlarini qirqmoqchi bo'lishdi, harakatdan, tezlikdan, parvozdan to'xtatmoqchi, sudraluvchi max-

luqqa aylantirmoqchi bo'lishdi. Ko'rsatuvchi qizil g'isht emas – salib, dunyoviy yovuzlik belgisi uning yo'liga o'rgimchak to'rini yoygan. Shunda u uchog'ini dushman istehkomiga to'g'rileydi. U ongli ravishda taqdir va o'zi orasida turgan qandaydir odamni ko'radi. Uni qutqaradi, keskin signal berib yo'lidan qochiradi. O'zi qancha yillar bir necha bor o'lib-tirilgan turmush ikir-chikirlariga so'nggi ishora beradi-da, so'nggi marta halok bo'ladi. U o'rgimchak to'rini buzib o'tadi, u yovuzlikni yengadi, aerodromning uchish maydonchasiда o'qqa tutilgan yigitcha uchun, fashistlarning salibi halok etgan barcha yigitchalar uchun qasos oladi.

U barcha to'siqlarni yengib o'tib, daryo ustidan uchib, nishab tosh qirg'oqqa yetguncha o'zining buyuk g'alabasini his etishga ulgurdi. Mana shu lahzada uning yuragida oltin nishon yarq etdi va unga qalbi muhabbatga to'la xalq artistkalari qo'llarini uzatib qoldilar.







Tiniq ko'llar... Ba'zilarga bu shunchaki ko'cha, xiyobon, hovuz, men uchun esa – nafosat maskani, bu go'shada bolaligimning eng baxtli, eng qayg'uli damlari o'tgan, axir, bolalikning g'am-tashvishlari ham go'zal-da.

Men har bir o'rindiq, har bir daraxt, eski qayiqlarbekati chetida o'sgan qichitqio'tlarning har bir shoxini, piyodalar o'tish yo'lagi boshiga o'rnatilgan «Tramvaydan saqlaning!» qizil yonib-o'chuvchi yozuvni besh qo'ldek bilgan davrim. Telegraf torko'chasida «Tramvaydan» so'zining oxirgi uchta harfi yonmay qolgandi, chiroyli va sirli ko'rinaridi: «Tramvay saqlaning». Qancha-qancha ahd-u paymonlarga guvoh bu sohil! Biz, men va tengdoshlarim tramvaydan ehtiyyot bo'lmasdik, saqlanmasdik, keyinchalik hayot yo'lida ham shunday beparvo yashadik. Biz tramvay bekti panjarasiga yaqin joydan temir izni ko'ndalang kesib o'tardik-da, yurib ketayotgan tramvayga sakrab chiqardik va xiyobonning temir to'sig'iga oyog'imizni tegizib, Tiniq ko'llarga qo'l siltardik yoki tramvay orqasidagi yelim ichakka osilgancha oyog'imizni temir iz ustidan sudrab ketardik. Venka Amerikalik – katak-katak kepka kiyardi – oyog'i tramvay tagida qoldi. U kasalxonaga olib ketayotganda ko'p qon yo'qotib, yo'lda jon berdi, ammo o'zini yo'qotmadi. «Oyimga aytmanglar» – bu oxirgi so'zi. Venkaning o'limi bizga saboq bo'lmasdi, aksincha, bu mardlikdan zavqlandik va ortga chekinmaslikni shon-sharaf deb bildik. Olis ovloqdagi taygalik bolalarga bo'ri va ayiq, dashtlik bolalarga yovvoyi otlar qanday bo'lsa, biz, shaharlik bolalarga tramvaylar shunday tuyulardi. Yuzma-yuz jang borardi: kim kimdan zo'r? O'ylaymanki, bu jangda biz yengilmagan bo'lsak kerak...

Tiniq ko'llar – bu umringda ilk bor konkida uchish mo'jizasi, tig'i qalin qorni to'g'ri, tekis kesib, yonlab yiqilgudek parvoz qilganingda «qorqizlar» nafasini ichiga yutib qarab turishadi, sen esa qanotingni keng yozgandek bo'lsan. Tiniq ko'llar – bu sen chang'ida zabit etgan birinchi cho'qqi, hayotda mana shu ilk cho'qqi singari muhim-u mashaqqatli balandlik bo'lmasa kerak. Tiniq ko'llar – bu o'zing yasagan



birinchi qorbobo, sen qumdan tiklagan birinchi uy, mayli, sen hay-kaltarosh yoki quruvchi bo'lmagandirsan, ammo o'shanda o'zingni yaratuvchi, buniyodkor his etgansan, qo'llaring nafaqat yulish, ezish, yirtish, buzishni emas, balki yo'q narsani bor qilishiga, yaratishiga ishonching komil bo'lgan...

Tiniq ko'llar – kutilmagan hodisalar cheksiz dunyosi. Bolalikning bebafo, oddiy mo'jizalari! Daraxtga bog'langan keng, katta mato yo-zilib tushadi, matoda oq marmar panjara, qichitqio'tlar, dengiz, den-gizdagi yelkanli kema suvrati bor, bularning barchasi ustida samoda-gi kumush tuxum – kajavali havo shari tovlanadi. Matoning qarshisi-da goh ko'zi yopiq, yumaloq qora qopqali, goh shisha ko'zlar yonib, uch oyoqning ustida jigarrang yog'och quti senga tikilib turadi, ista-sang, o'n daqiqa ichida dengiz, savrlar, boshingdagi havo shari par-vozi bilan suratingni sovg'a qilishi mumkin. Bu uchun qishda charm kamzul, yassi qalpoq, kigiz etik kiygan; yozda esa oliftalarcha yengi kalta ko'ylik, do'ppi, yelkansimon shim-u, yengil shippak kiygan o'zi pakana, qorachadan kelgan kishi seni suratdagi savrlar ostiga o'tqazadi-da, fotoapparatini sozlab, boshiga qora lattani yopib, bir-dan qichqiradi: «Jim bo'ling, olyapman!» – shundan so'ng apparat-ning turtib chiqqan ko'zidan qalpoqchani olib, havoda bir aylantiradi-da, yana ko'zni ohista yopib qo'yadi. Ha, sal bo'lmasa, unutay deb-man: bu kishi, qalpoqchani olishdan avval: «Bu yoqqa qarang, hozir qushcha uchib chiqadi», deydi. U bu so'zni men otamning tizzasida o'tirganimda, to'rt yashar bolaligimda, apparatning ko'ziga qarab va qushcha uchib chiqmagani uchun chinqirib yig'lagan paytimda ayt-gan; u bu so'zni men maktab yoshiga yetay deganimda, oyog'imga chang'i kiyib savrlar ostida turganimda va haligacha qushcha uchib chiqishidan umidvor bo'lganimda ham aytgan, yelkamga charm hal-ta osib, maktab o'quvchisi bo'lganimda, hech qanaqa qushcha uchib chiqmasligini kutmagan vaqtimda ham aytgan; u bu so'zni maktabni tugallash arafasida, ayriliq ostonasida, Nina Varakina ikkimiz birga suratga tushganimizda va nihoyat, qushcha endi uchib chiqsa kerak, deb ko'nglimda bir damgina umid tug'ilganda ham aytgan...

Tiniq ko'llar sohilidagi xiyobonning qum yo'lagida xitoy qizlar bolalar kabi jajji, lekin chuqur qadam izi qoldirib yurishardi. Shu izlar ortidan borib ularni tezdagini topib olardik: xitoy qizlar sham-ga tutsang, tez yonib ketadigan qog'oz chiroqchalar sotardi; uzun

yelim tayoqchali moviy, qizil, sariq, pushti pufaklar, uzun cho 'zinchoq ipli, ichi qipiqlik to'la to'pchalar juda g'aroyib sakrab, kaftingga qaytib kelardi, biroq ajablanarli tarzda tezdagina kukuni sochilib, titilib, tamom bo'lardi; surg'uch uchli gugurt cho'pida shaqildoq; rangli quruq yupqa qog'oz qatlangan o'yinchoq; ikkita tayoqchani olib ularni turli shaklga solish mumkin, shardan tortib chig'anoqqacha, ammo-lekin uning ham umri qisqa, kapalakka o'xshaydi.

Xitoy qizlar bilan pufak sotadiganlar raqobatga kirishadi; pufak dami chiqsa yoki yorilib ketsa, uning ikkinchi, yana ham qiziqarli hayoti boshlanadi: biz yorilgan shar parchasini shishirib, mitti pufakcha qillardik-da, bir-birimizning manglay yoki ensamizga yaqinlashtirib paqqillatardik; muzqaymog'-u qatma-qat suqori, shirinlig-u xo'rozqand sotuvchilar – Tiniq ko'l bozoridagi eng ishonchli kishilar; bunday xo'rozqandni ertadan kechgacha yalab yursang ham kichraymaydi, faqat lab va tiling qizilga bo'yaladi, xolos. Bir gal qulog'i dikraygan, ko'zlarini g'amgin eshak paydo bo'ldi. Uni bir haf-tacha mindik, keyin o'lib qoldi...

Tiniq ko'lllar – bolaligimizning katta ko'chasi. Tiniq ko'l bo'yab enagalarimiz yetaklab o'tgan, Tiniq ko'l bo'yab mifik tabga va Moskva Bosh pochtamtiga borganmiz: u maktabimizni otaliqqa olgan tashkilot. Biz u yerga saharda, bino atrofidagi va ichidagi xatjiddalar, muhrlangan qizil surg'uchli qog'oz qoplar, kitobcha va gazeta bog'lamlarini barcha qavatlarga tarqatadigan g'altaklarda aylan-gan tasmalar shovqini kelib turgan jimjit xonalar bo'yab chiqindi qog'ozlarni yig'ishga borardik. Chiqindini hovlidagi tarozibonga topshirardik, u qopchalarni katta tarozida tortgach, bu haqida patta berardi. Kechqurun bu yerga duradgorlik ustaxonasida ish o'rganishga kelardik; pochtamt ishchilarining ixtirochilik taklifi uchun qutichalar yasardik, yupqa fanerni arralab, ishga kelmaydiganlar, g'iybatchilar, janjalkashlarning kulgili qiyofalarini chizib, sharmandasini chiqarardik. Tiniq ko'l sohilidan o'tib, Moskvadagi eng yomon va arzon «Mayak» kinoteatriga borardik. Bu yerda oqlangan devor ekran vazifasini bajaradi, bolaligimizda mushukday chaqqon Duglas Ferbenks ham, mitti Lilian Gish ham, ko'zoynakli Garri Lloyd ham, kulgili va negadir xastahol ko'rindigan bechora Pat va Patashon ham, jizzaki ayol Donna Juanna va «Qizil shaytonchalar»ning barcha qahramonlari mana shu devorni bir-bir bosib o'tgan. Tiniq ko'llarda kutubxo-

namiz, tir, o'quvchilar muammolari muhokama qilinadigan devorsiz klubimiz, bizni qirq birinchi yilda urushga kuzatgan tuman harbiy komissiariati ham joylashgan...

Tiniq ko'llar biz uchun tabiat alifbosi edi. Ko'lning ko'm-ko'k hoshiyasida ilk momaqaymoq tovlanishi qanchalar quvonchli! Par-day yengil, tegsang, sochilgudek to'pgullar nazokat va sergaklikka, ikki rangda tovlangan – g'unchasi sariq, yaproqlari binafsharang gullar vafo-sadoqatdan bizga saboq bergen. Bu ko'lda baliq tutardik, qarmoqqa oddiy zuluk emas, haqiqiy qizilko'z kumush baliq ilinadi, deb o'ylagan kunlarimiz ham bo'lgan. Shaharning qoq markazida baliq tutib olsang bormi – ajoyib-da, bu mo'jiza-ku! Eski, qurib yorilgan, tagi yassi qayiqda suzish, mayningsovuuq suviga qoziqyoqdan sakrash, yalang oyog'ing ostida bahorning iliq tuprog'ini his qilish, suzong'ich qo'ng'iz, ninachi, qisqichbaqalarning suvdagi yashirincha hayotini ko'rish – barcha-barchasi shaharlik bolalarning bebaboh, behisob boyligidir: ko'pchik yozni ham Moskvada o'tkazadi-da.

Tiniq ko'llar kuzi ancha saxiy. Xiyobon jo'ka, zarang, tog'terak, oq qayinlardan to'kilgan sariq, qizil, marmarsimon yaproqlarga ko'miladi. Biz to'kilgan xazonlardan bir quchoq barglarni yig'ib, uyga chiroqli, ma'yus gulasta olib ketar va ularning achqimtir hididan bahramand bo'lar edik...

Tiniq ko'llar bizning mardlik maktabimiz edi. Xiyobonda yashaydigan bolalar bizni, yaqin oradagi torko'chalardagi uylarda yashaydigan bolalarni «tiniqko'lllik» degan sharaflı nomga munosib ko'rmasdi. Ular ko'lga egalik huquqimizni cheklab, cheksiz quvonchlardan bebahra qilib, bizni tan olmasdi. Faqat ulargina baliq tutishi, qayiqda suzishi, qishda muzda sirg'anishi va yozda qum qasrlar qurishi mumkin. Begonalarga taqiqlangan tavakkal qilib qirg'oqqa borgan dovyuraklar shafqatsiz jazolanadi. Tiniqko'lliklar o'z hududi atrofida masofa saqlashini istaydi. Biz nasaqat ko'lga yaqinlasholmasdik, balki maktabga ketishda xiyobonni to'g'ri kesib o'tish ham mojaroli vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin edi. Pachoqlangan burun, ko'z ostining ko'karishi, boshdag'i yirtiq qalpoq – betartiblikning odatdag'i to'lovi bo'lardi. Shunda ham hech kim odatdag'i yo'llini o'zgartirmaydi, tiniqko'llik zo'ravonlarning hukmiga hech kim bo'ysunmaydi. Bu qat'iy iroda va erkinlikka intilishni talab qiladi: axir, ta'qibdan holi bo'lish uchun aylanma

yo'ldan ketishning o'zi yetarli-ku. Biroq oramizdag'i eng nimjonlar ham ortga chekinmaydi.

Biz tiniqko'lliklarga qarshi yagona frontda qarshilik ko'rsatdik. Telegraf, Lobkov, Milnikov ko'chasidagi bolalar Potapovskiy, Sverchkov, Spasoglinishchevskiy, Kosmodemyanovskaya, Zlatoustinskiy torko'chasidagi qo'shnilarining qo'llab-quvvatlashi bilan «Kolizey» kinoteatri maydonida tiniqko'llik bolalarni bitta-bitta do'pposlashdi. Shundan so'ng ko'l va xiyobon shu atrofda yashaydigan barcha bolalarga teng bo'ldi, oradagi kelishmovchiliklar esa vaqtlar o'tib, unutildi. Sening derazang ko'lgami yoki sokin torko'chaga qarganmi, baribir, endi tiniqko'lliksan, bu yerda qanday huquq va erkinliklar bo'lsa, barchasidan foydalanishing mumkin...

Tiniqko'l xiyoboni – o'quvchilik paytimdagi yagona muhabbatim guvohi va visol go'shasi, bu muhabbat bolaligim, o'smirligim, yoshligimning yo'ldoshi. Nina Varakina Tiniq ko'llar yaqinidagi Telegraf torko'chasida yashaydi, ya'nini men yashaydigan o'sha torko'chada. Ikkimizning maktabga boradigan umumiy yo'limiz Tiniq ko'l sohilidan o'tadi. Boshlang'ich sinflarda biz shunday ketardik: Nina Varakina oldinda, men hurmat-u masofa saqlab orqada yoki qo'shni yo'lakdan yurardim. Nina men shunchaki o'z yo'limdan ketmayotganimni, balki uni kuzatib borayotganimni yaxshigina sezib turardi. Axir, tanaffuslarda turtib yuborish, chalish, sochidan tortish yoki yelkasiga turtib qo'yish uchun uning yonidan juda ko'p marta chopib o'tganman. Uning ortidan «tushganimni» sezmasligi mumkinmi? Beshinchi, oltinchi sinflarda yonma-yon, suhbatlashib, keyinchalik qo'l ushslashib, nihoyat, yuqori sinflarda tirsakdan tutib yuradigan bo'ldik. Lekin bularning barchasi meni unga sira ham yaqinlashtirmadi. Maktabdan qaytishda u bilan suvalmagan g'ishtin uy, Menshikov minorasi g'o'ddayib turgan joyda xayrlashardik.

– Ko'rishguncha! – derdi birinchi bo'lib Nina.

– Xayr! – derdim yuragim yonib.

U darvoza ortidagi qorong'ilikda ko'zdan g'oyib bo'ladi, men yo'lning narigi chetiga o'taman va birdaniga dimog'imga og'ir, achqimtir hid uriladi: temir panjara ortidagi yerto'lada kartoshka saqlaydigan ombor bor. Jin urgur, bu yerdan nimalarning hidi chiqmaydi! Ammo bu sassiq hiddan qochish oson, shunchaki yo'lning boshqa chetga o'tmaslik kerak, xolos. Lekin men o'taman. Ninadan

ajralgandan keyin bu dunyoda hamma narsa rasvo bo'ladı: havo ay-niydi, xush ovozlar o'chadi, odam bo'g'ilib ketadi. O'shandan bu-yon ayriliq hidini yaxshi bilaman: chirish va sharobning achqimtir ta'mi.

Bu qizni deb boshimdan nelar o'tmadi! Kamdan-kam kunlarda kaltak yemasdim. Tiniqko'llik yigitcha Kalabuxov na meni, na uni ko'chadan tinch o'tishga qo'ymaydi. Men Kalabuxovdan kuchli-roqman, shuning uchun bir o'zim yursam, yakkama-yakka jangga chiqmaydi. Meni maktab yo'lida, Telegraf torko'chasi boshida, mu-yulishda do'pposlashadi. To'g'ri, Nina bilan birga bo'lsak, yopirilib kelishadi, o'zim bo'lsam, hech bir xavf tug'ilmaydi. Ninaning qancha-qancha ro'molchalarini qonga botirdim, kissamda qolgan bor tangamni unga berardim: axir, bekordan-bekorga ro'molcha sovg'a qilish yaxshilik alomati emas. Ninaga og'ir edi, o'zi tufayli doim mushkul vaziyatga tushib qolishimni ko'ra-bila turib, alohida ketishimizni hech qachon taklif qilmagan.

Yoshimiz ulg'aygach, olishuvlar barham topdi. Biz Tiniq ko'l sohilidagi o'rindiqda xotirjam suhbat qurib, ming martalab bir-birimizga dil izhori qilardik, nega men unga yoqmasligimni, yo'q, yoqaman, to'g'risi, qandaydir ko'ngildagidek emas. Bizning sobiq yetakchimiz Shepelevdek, yoki uchuvchi Gromov, yoki Konrad Veydt, yoki Boris Babochkin singari sevilmayman – xayolimda Nina ko'ngil bergenlarning orasidan eng yaxshisini saralayman. Raqiblarimning buyukligi va o'ziga xosligi meni rashk balosidan xalos qilsada, firoqlarda ozor chekardim. Baxtimga, boshqalar ham bor. Nina yuqori sinfdagi devoriy gazeta muharriri, chiroyli, olifta Lazutin bilan o'pishganini bilaman; charm kurtkali, qora ko'zoynakli yigit ham mototsiklda uni tez-tez maktabga eltilib qo'yadi; qandaydir studiya o'quvchisi Badiiy teatrga olib boradi...

Ba'zan yonimizdan Kalabuxov o'tib qoladi; u hozir maxsus maktabda o'qiydi, egnida harbiy libos. U Ninaga qo'lini furajkasiga tekkizib, harbiycha salom beradi, menga esa qovog'ini solib, xayrixohday nazar tashlaydi. Uning qilig'i va qarashi bir-biriga mos, u mening ahvolim hamisha qayg'uli ekanini ta'kidlayotganday tuyuladi.

Biz o'ninchi sinfga ko'chganimizda og'ir damlar keldi. Ninani butun maktab «kashf etdi». Haqiqatan, Nina turganda bolalar bosh-

qa qizlarga qarab maydalashib yurganidan ajablanardim. Mana, ni-hoyat, ko'p yillar davomida menga ma'lum narsa birdan barcha bolalarga ayon bo'ldi: 311-maktabda bir mo'jiza bor va bu mo'jiza – Nina Varakina. Ehtimol, o'smir qiz go'zalligi botinidagi bezovtalik qalbida, nelar yashiringanin barchaga ma'lum qilish vaqtı yetgandır. Uning qovushmagan, qo'pol odimlagan, kulgili qizcha paytidan oshiq bo'lqanim uchun bu masala haqida biron so'z aytolmayman.

Umumiy ta'zimlar har qanday shaxsga sig'inish singari tez orada yagona me'yorga kelishi joiz edi. Bu urf she'riyat bo'lib chiqdi. Maktabni shoirona telbalik zabit etdi. Navbatdagi shoir Ninani Tiniq ko'l sohiliga taklif etib, yuragidan quyilib kelgan she'rini o'qib ber-magan kun yo'q. Bo'lmag'ur she'rlar, ulardagi qochirimlar bir xil, deyarli barchasida gul-u ko'l tilga olinadi, o'qi: xiyobon va ko'l. Ikkimiz o'tirib, bu she'rlarni o'qib, ustidan kular dik. Ninaga she'r bo'limasa ham, alohida e'tiborlar ta'sir qilayotganidan ozor chekar-dim. Birdan g'alati tuyuldi, nega men, eng birinchi va vafodor oshiqi beqaror og'zimga suv solgandek jim turibman?..

Keyin kechasi daftar varog'ini biri ortidan boshqasini yirtib ux-lamay she'r yozib chiqdim. Ilk satrlar yengil yozildi: «Mayli, hamma senga she'r bitsin, o'ynab», «Butun umr shunday yaqin va olis», «Nahotki, sen tushunmasang», «Ko'nglim qolarmikin, bilmayman», «Qanday azob, qanchalar nafis». Ba'zida bir satr ikkinchisiga mos tushar, biroq shu bilan hammasi tugardi. Men sevimli shoirlarim Pushkin, Lermontov, Tyutchevlarning she'rlarini eslay boshladim. Yana satrlar quyilib keldi: «Seni yoshlik faslingda sevdim», «Nigoh-laring menga chopar», «Unda, ko'lning sohilida». Keyin o'midan siljimaydi. Tongotarga borganda toza varoqni oldim-da, shartta yoz-dim: «Sen eng chiroyli qizsan, seni juda yaxshi ko'raman...»

Bu qisqacha maktubni o'qigan Ninaning yuzida achinish va haf-salasi pir bo'lqani yaqqol ko'rindi. Keyin yana bir marta uzoq o'qidi va o'ylanib turib: «Nasrda yoz, – dedi u, – uddasidan chiqasan...»

Yillar ortidan yillar quvib o'tdi, bundan yaxshiroq fikrni o'ylab topolmadim. Mana, hozir, yoshim ulg'ayganda, ayni vaqtdagi mu-habbatimni ham o'sha damdagiday izhor qilaman: «Sen eng chiroyli qizsan, seni juda yaxshi ko'raman...»

Beg'ubor ko'l manzarasida men uchun o'smirligimning kuchli tasavvuri muhrlanib qolgan. Bu Ispaniyada beayov janglar ketayot-

gan paytlar edi. Yakshanba kunlari Moskvaning bog‘-u xiyobonlarida yoshlarning bayram sayrlari bo‘lib o‘tardi. Balki, shuning uchundir, qayoqqa qarsang, Dolores Ibarrurining jangovar qiyofasiga ko‘zing tushar, ko‘pgina yoshlар respublikachilarinng qizil hoshiyali, popukli yashil pilotkasini kiyib yurishar, ko‘chalarda o‘sha kunlarning eng ommabop qo‘shig‘i «Bandera roxa» yangrar, o‘zaro suhbatlarda har lahzada «Gvadalaxara», «Ovedo», «Ueska», «Asturiya», «Madrid» singari chiroyli va chuchmal so‘zlar aytilar, osmon bayram gulxanlarining alvon shu’lasidan yorishar, vaqtı-vaqtı bilan Moskva daryosi uzra ko‘zlarni qamashtirib mushaklar otilar, oqshomni jo‘shqin va xushbo‘y bo‘lishi uchun musiqa yangrar edi – biz uchun go‘yo butun dunyo Ispaniyaday, uning ohanglari va xushbo‘ylari, uning kurashi va murosasiz g‘azabi bilan nafas olardi.

Biz madaniyat va istirohat bog‘iga bormoqchi bo‘ldik, ammolokin kutilmaganda, metroga yetay deganda, fikrimizdan qaytdik va Tiniq ko‘l tarafga burildik. Ispaniya havolarga ham taralgandi. Ispaniya bizning yuragimizda edi. Bu oqshomning g‘aroyib, muhim ekanini his etdik, taqdir sharpasi jangchi pilotkasi shaklida boshimizga tegib o‘tgandi. Biz shunday namoyon bo‘ldik va yaqin kelayotgan kunlarni boricha, zimmamizga nimaiki ortsa, barchasini qabul qildik.

Shuning uchun ham bizni Tiniq ko‘llar o‘ziga chorladi, garchi bu yerda na karnaychilar, na rangli gulxanlar, na mushaklar bo‘lmasa ham – bu go‘sha kishini yoshlik bulog‘iga, ibtidolar ibtidosiga tortgandek bo‘ldi. Beixtiyor bir qatorda uch nafardan bo‘lib, saflanib bordik. Yo‘limizda sinfdoshimiz, quvnoq yigitcha Yurka Petrov duch keldi. Bizning harbiy safga, pilotkalar va tinchlik saqlashimizga qarab, hazillashib bo‘ysungandek, qichqirdi:

– Antifashist jangchilarga alangali salom!

Biz bir ovozdan, jiddiy javob qaytardik:

– No pasaran!

Oradan besh yil ham o‘tmay, o‘sha paytda ruscha aytilgan so‘zları uchun ko‘pchilik do‘sṭlarimiz o‘z qoni bilan tovon to‘ladi. Hozircha ular yonimizda, barchasi kuchga to‘lgan, navqiron, orzu-umidlari, niyatlar osmon qadar, shoirona so‘zlarga boy, tenglarga teng bo‘lib, omon qolish taqdiriga bitilganlar safida, gavjum xiyobon bo‘ylab, qorong‘i va sokin ko‘l sari borishmoqda...

Biz ko'lning pastak panjarasi yonida, havoda rangin mushak tovlanganda suvgaga tikilib turgandik. Uni qandaydir bir bola, o'z xiyoboni poytaxtning zavqiyob to'la bog'laridan ortda qolishini istamagan mitti tiniqko'lllik vatanparvar otgandi. Avvaliga, moviy yulduzcha osmonga osilganday turib qoldi, ko'zni qamashtirib oq rangga kirdi, oq rangdan alvon ranglar tug'ildi va uzun chiziq tortib pastga cho'zildi. To'q qizil yorishgan suv yuzasida qarshimdan kelayotgan do'stlarimning chiroyli, mardona chehralari aks etdi va bir umr xotiramda muhrlanib qoldi...

Biz Tiniq ko'lda baliq ovlaganda, ko'pincha atrofimizni bekorchilar qurshab olardi. Qarmoqqa baliq kam keladi, soatlab po'kak qimirlamay turaveradi, shunda zerikib ketgan bekorchilar nima qilishi bilmay bizni va Tiniq ko'lni masxaralab boshlaydi.

- Ovingiz baroridan kelmadidi, bu ko'lda baliq bo'larmidi?
- Bunday sassiq suvda baliqmas – qurbaqayam bo'g'ilib o'ladi!
- Ov qilishga joyini topibsiz – oqova suvda!

Biz tortishib o'tirmaymiz, ovimizni davom ettiramiz, hovuchlab sovuq, tishni zirqiratadigan suv ichib olamiz, ayrimlar bo'lsa qirg'oqqa tupuradi va biz kasalga chalinishimiz mumkinligini bilmaydi. Biroq ishonchimiz komilki, suv havzamiz toza, unda baliqlar to'q va erkin suzadi, ularga balki xo'rak yoqmagan bo'lishi mumkin: yomg'ir chuvalchangi va ezib yumaloqlangan non.

Oramizdan kimnidir qarmog'iga tovonbaliq yoki tangabaliq ilinsa bormi, qanchalar g'ururlanadi – tantana boshlanadi! Lekin bunaqasi kamdan-kam bo'lib, ko'limizning shon-shuhratini oshirilmaydi.

Bir kuz kuni ko'l suvini quritishdi, yanada chuqurroq qazib, tozalamoqchi bo'lishdi. O'shanda qirg'oqda baliqqa liq to'la katta savatlar paydo bo'ldi. Sadafday oyquloqlaridan og'ir nafas olib, dumini qayirgan semiz zog'orabaliqlar xuddi tovaga tushganday sakrab savatdan uchib chiqardi, kumush tovonbaliqlar, tilla baliqlar shaffof tovlandi... Bizning hovuzimiz qanchalar toza va saxiy ekan, agarda mana shu sanoqsiz baliqlar unda yashab, nafas olgan bo'lsa! Ha, u toza va saxiy edi, bizning bolalik singari, uning tiniq suvini qonib ichdik, ko'hna Moskva hovuzi, olis yoshlikning ertakdag'i ko'li!

Bolaligim har xil chiqindilarni terish bilan o'tgan: temir-tersak, bo'sh shisha va ayniqla, alohida g'ayrat qilib qog'oz yiqqanman. Mamlakatda qog'oz taqchilligi hukm surardi va buni biz, maktab o'quvchilari yaxshigina his etardik. Daftarning har varog'idan samarali foydalanishga harakat qilish kerak. Nazorat ishi yozganda o'qituvchilarimiz harflarni katta-katta va orasini ochib yozganlarga bahoni pasaytirib qo'yardi. Yangi daftarni yoki yelim hidi anqib turgan rasm daftarni ochish qanchalar quvonchbaxsh! Kamdan-kam daftarlar varog'i qalin, moviy chiziqchali, oppoq, yaltiroq bo'lardi, aksariyati – yupqa – gazet qog'ozi, sarg'ish, dag'al, hatto varoqqa yopishgan yassi yog'och parchalar ham chiqib qolardi. Men halokatga yo'liqqan daraxt qoldiqlarini ko'chirib tashlashni yaxshi ko'rardim. Daftarimning varoqlari g'alvirni eslatardi.

Bizning yangi yetakchimiz Lina Kuzmina «qog'oz haybarakal-lachiligi»ni e'lon qilganda, quvonib ketdik.

– Pochtamtga borib yig'amizmi? – so'radi ishning ko'zini biladi-gandek Karneyev.

– Pochtamtda o'z-o'zidan bo'ladi, – javob berdi Lina. – Ammo har bir o'quvchi o'z uyini sinchiklab qarab chiqsin, eski gazeta, gulqog'oz, nima bo'lsayam topshirsin, buvim aytganday, yirtiq-sirtiqlar!

O'z vaqtida aytilgan gap qanchalar muhim! Shepelevdan keyin bizda to'rtta yetakchi almashdi, lekin hech biri avvalgidek o'quvchilar ruhini ko'tarolmadi, bolalar ko'nglini topolmadi. Har bir yangi yetakchi Shepelevning sharmandali quvilganini eslatib, bizning sobiq yo'lboshchimizdan boshqa toifa ekanini ko'rsatib, beixtiyor birinchi qadamidan boshlab boshqacha ishslashga urinardi. Shepelev qiziqqon, so'zga chechan, izzattalab, shoshqaloq, kelishgan, qolaversa, hammaga teng, barobar edi. Undan keyin kelganlarning hammasi qandaydir dimog'i baland va gapirmaslikka qasam ichganmi, deysan. Ular Shepelevning shoshqaloqligiga – o'zini tuta bilishni, so'zamolligiga – soqovlikni, oshna-og'aynigarchiligi-ga – yoniga yo'latmaslikni qarshi qo'yishdi. Ehtimol, mana shu yetakchilardan birortasi bizdan uzoqroq joyda turganda, balki muz ko'chib, ishlar yurishib ketarmidi. Biroq Majur ombori raisi mak-

tabdag'i guruqlar faoliyatidan qoniqmay, oy oxiriga bormay yetak-chilar almashaverdi.

Shuning uchun Lina Kuzminaning o'ylamay aytgan hazil gapi barchada quvonch, do'stona kulgi uyg'otdi. Uning qandaydir sodda, ko'ngli ochiq, mehrli ekanı sezildi, Linani o'zimiznikidek sevib qoldik. Lina esa, haqiqatan, har tomonlama yetuk: baquvvat, kuchli, ko'z qarashlari qat'iy, agar sepkil bosgan yuzining kakkunikidek olachiporligini aytmasa, juda chiroylil: burni sezilar-sezilmas bo'rtib chiqqan, nozik va aniq cho'zilgan, yuqori labining ustida bilinar-bilinmas tuklari bor.

Men avvalgidek, g'olibona qat'iyatda qichqirdim:

– Ikkinci bo'lim, mening ortimdan!

Biz Tiniq ko'lga keldik. Bu yil noyabrdagi bayramlardan keyinoq sovuq kuchayib ketdi. Hali ko'p daraxtlar so'nggi yaproqlarini to'kib bo'limgandi; shamoldan cho'chib, bir-birlariga achinib tikildi. Qor yoqqanicha yo'q, faqat qum yo'laklarga mahkamlangan tarmovchalarda, taram-taram bo'lib qolgan maysazor ustida quruq qirov oqarib ko'rindi. Biz ko'lma suvlar ustini qoplagan yupqa muzga tovonomizni urib qasirlatib yurardik. Muzlagan ko'l toza oynak singari barchaga keng, yorqin ko'rindi. Qirg'oq bo'ylab qiyishiq etigida oq-saganday, xuddi nimanidir shatakkka olganday qorovul qo'lida kurak, o'nqir-cho'nqir yerlarni tekislاب kelardi.

– Yaqinda yaxmalak ochiladi! – dedi xayolparast Nina Varakina.

Bu yil maktabimizda sinflar qo'shib, qayta bo'lindi, biz Nina ik-kimiz bitta sinf, bitta guruhga tushdik. Karneyevning guruhdagi bir necha bolalar bizning guruhga o'tkazildi. Ammo ular yuraginining tub-tubida avvalgi guruhidan ketganicha yo'q. Bu ochiq-oydin seziladi, gap-gapga arang qovushadi.

– Nima qilsak ham, Karneyevdan o'zib ketishimiz shart! – dedim men.

– Xomtama bo'lma! – chaynaldi mittivoy Kostya Chernov.

– Albatta, o'zamiz! – ishonch bilan dedi Lida Vakkari.

– Biz har doim sizdan o'zib kelganmiz, hozir ham o'zamiz! – dedi Chernov quyonnikiday ko'zlarini olaytirib.

– To'xta-chi, Kostya, – uning gapini bo'ldim men. – Sen, menimcha, kimning guruhida ekaningni unutib qo'yding, shekilli.

– Qanaqasiga kimnikida?.. A, shunaqa... – Chernov xijolat bo‘lmadi-ku, ammo g‘amgin tortdi.

Men ham g‘amga botdim. G‘alaba qilishga ishonish qiyin, agar Karneyevning guruhidan bizga o‘tgan bolalarning hammasi Chernovga o‘xshab o‘ylasa, yengilishimiz aniq. Men Nina Varakina-ga qaradim.

– Senga baribirmasmi, Chernov, qayerda ishlashing? – dedi erinib Nina.

– Qaniyi hamma teng bo‘lsa, o‘pqonga tushishmasdi... – dedi «yo‘lbars terisini yopingan qiz» Tyurina – u otasi Amurda otgan yo‘lbarsning terisidan tikilgan po‘stinni kiyib yurardi.

Yonimizdan muzlagan yerni daranglatib, bo‘sagan konserva idishini tepib, xuddi tankday Kalabuxov, tiniqko‘lliklarning burundor sardori Lyalik va uning adyutanti Gulka o‘tib ketishdi. Kalabuxov menga o‘qrayib qaradi – men o‘rindiqda Nina bilan birga edim, lekin dushmanlik harakatidan o‘zini tiydi.

Qorong‘i tusha boshladi, harakatlar rejasini tuzib bo‘lgach, barcha uyiga tarqaldi. Kech kuzda, bulutsiz Moskvada bo‘ladigan binafsharang havoda, daraxtlarni qoplagan qirov asta eriy boshlaydi va erta yoqilgan fonarlar yorug‘ida kumushday tovlandi. Biz Nina ikkimiz asosiy xiyobon bo‘ylab Telegraf torko‘chasi tarafga yo‘l oldik.

– Baribir Chernovdan va safarbarlikdan xavotirdaman, – dedim men. – Biz, albatta, g‘olib chiqishimiz kerak, yo‘qsa, hammasi tamom bo‘ladi. Bolalarning joniga tegdi: biz qandaydir ikkinchi darajali...

– Odamni begona qo‘l qayta yaratishi mumkinmi? – kutilmagan savol berdi Nina.

– Qanaqa qo‘l!

– Mana, esingdami, Konrad Veydt...

– Ha, «Orlaxning qo‘llari!» Bari safsata!

– Uning ko‘zlari! – dedi Nina. – Men hech kimda bunday ko‘zlarni ko‘rmaganman. Kirtayib qolgan, katta-katta...

– Gapimni eshit, – so‘zini bo‘ldim men, – balki biz Chernov, Tyurin va Sergiyenkonii bitta brigadaga qo‘shganimiz noto‘g‘ridir?

– Oh! – dedi Nina. – Ajoyib zamonlar keldi. Sen endi chiqindidan boshqa narsani so‘ramaysan!

Bu haqiqat: men biron ishga kirishsam, egar-jabduq urilgan otga aylanaman, atrofimda nimalar bo'layotganini ko'rmayman. Shunda birdan tushundim, nima uchun jamoatchilik ishini bunchalik yaxshi ko'rishimni, ayniqsa, haybarakallachilikni. Bunaqa paytlarda doi-miy, mashaqqatli ishlardan oz bo'lsa-da, dam olaman, masalan, Nina masalasida. Axir, men payqamay qolibman, Vitka Shevelev o'rniga yangi raqibim – Konrad Veydt paydo bo'libdi-ku! Hamma qizlar ki-noaktyorlarni yaxshi ko'rishadi, lekin olisdagi bu muhabbat ularning sinfdoshlari bilan bo'ladigan ishqiy sarguzashtlariga sira halal bermaydi. Nina esa ularga qalbini butunicha tortiq qilgan, go'yo qahramoni ekrandan tushib kelib, uning qo'lidan tutadigandek.

Biz jimib qoldik. Chiroqlar yoritgan yerda qaddi-qomati kelishgan Ninaning ko'ndalang soyasi men tomonga tushib turardi. Mana shu soyaga qarab biz do'stlashib yurgan shu yillar ichida uning qanchalar o'zgarib ketganini payqadim. Avvallari uning kaltagina, yumaloq soyasi bo'g'irsoqday sakrab yurardi, keyinchalik bo'y-basti cho'zildi, mana, endi esa, egasiga qaraganda yoshi kattaroqday, kichkina ayol soyasiga o'xshab qolibdi.

Men ayni paytda o'zimni qog'oz girdobiga otish imkonim yo'qligidan afsuslandim...

Biz tramvay izidan o'tib oldik. Telegraf torko'chasi tuyulishida tanish gavdalar ivirsirdi: Kalabuxov, Lyalik, Gulka. Ular bizni kutyapti, aniqrog'i, meni. Hozir do'pposlashishning payti emas. Topgan vaqtini qara! Ertaga pochtamtga pachoq yuz bilan bormayman-ku.

– Yoningda tanga bormi? – so'radim Ninadan.

– Hozir mushtlashishing mumkin emas, – shoshib dedi u, – Xoroklar uyiga kirib ket.

Telegraf torko'chasi va Tiniq ko'l kesishgan joyda yarim yerto'la uyda bema'ni Xorok sharifi aka-uka yashardi. ularning kattasi Misha, bizning sinfda o'qiydi.

– U yerda nima qilaman? – so'radim qat'iyatsiz.

– Ularning onasi teatrda ishlaydi, Misha eski afishalarini olib kelsin.

– Qanday ajoyib fikr! – jilmaydim men. – Olijanob ish, basharamni pachoqlagandan ko'ra shu ishni qilganim yaxshi. Ertagacha! – Men Kalabuxovga qo'l siltab ishora berdim-da, tik zinalardan pastga tushib ketdim.

Onasidan, lo'li qo'shiqchi ayoldan aka-uka Xoroklar janubga xos bug'doyerang yuzlarni, zaytun mevasiga monand namchil ko'zlarni, ko'kimir-qora jingalak sochlarni meros qilib olgan. Kattasi, Misha, to'ladan kelgan o'smir, asta shoshilmay qimirlaydi, lanj, og'zini ochib yuradi, dangasa va har doim xafa ko'rindi. O'ylaymanki, qandaydir ma'noda uning xafahol yurishi nima uchun Xorek emas, Xorok ekanini yuz martalab turli odamlarga qayta-qayta, bir xil va odamni charchatadigan tushuntirish zaruratidan paydo bo'lgandir, axir, bunday sharifni ko'tarib yurish har kimga ham og'ir-da.

Kichkinasi, Tolya, xuddi shunday bug'doyerang, jingalaksoch, qorako'z, boshqa taraflari akasiga o'xshamaydi: ozg'in, serg'ayrat, yuzlari tortilgan, har doim qo'li band, ishda, atrofdagilarga bitmas-tuganmas qiziqish bilan qaraydi. Kattasi hayotda istar-istamas yalqov tanasini sudrab yursa, kichkinasi ichki kuchi o'ziga sig'maydi, ammo bolalikdan falajlik dardiga mubtalo bo'lib, choyshabga mixlanib qolgandi.

Men kirib borganimda, Tolya, baland yostiqqa suyangancha, qat-tiq qog'ozdan nimadir yasayotgan ekan.

– Salom, Rakitin! – qichqirdi u quvnoq.

Misha katta divanda cho'zilib yotardi; u arang ko'zini ochib, xo'rsindi.

– Yangi yetakchi haqida fikring qanday? – ishtiyoy bilan so'radi Tolya.

– Omon bo'lsak – ko'ramiz, – javob berdim ajablanib, garchi Tolyaga bizning mактабдаги ishlаримиз yaxshигina ma'lum ekaniga ko'nikib qolgan bo'lsam ham. – Murzikni qo'lga o'rgatish ishlari qanday ketyapti?

– Yaxshimas. Menimcha, Murzik meni yaramas hayvon o'rgatuvchi deb o'ylayapti, shekilli. – Tolya birdan ko'zlarini katta-katta ochib, barmog'ini lablariga bosdi.

Divan tomondan uyqusiraganday, alahlash eshitildi:

*G'amgin-ol shafaq boqdi yuzimga...
G'amgin-ol shafaq boqdi yuzimga...*

Angrayib qoldim: katta Xorok she'r to'qidi! Sira xayolimga kel-mabdi, u lirik jasorat ko'rsatishga qodir!

– G‘amgin-ol shafaq... – xorg‘in g‘o‘ldiradi Misha va jimib qoldi, og‘zini baliqday ochdi-yu, qoldi.

– Ishlaring rasvo, Rakitin, – dedi Tolya. – Bilasanmi, she‘r kimga bag‘ishlangan?

– Ovozingni o‘chir! – lanj ovoz keldi divan tomondan.

– Buni qarang! – fahmladim men. – Bechora Konrad Veydt.

– A, nima? – qiziqsinib so‘radi Tolya. – Ninaning yangi yigit bormi?

– Ha-da... «Mayak»da «Kulayotgan kishi» va «Orlaxning qo‘llari»... ketma-ket namoyish etildi-ku! Og‘aynilar, gapning danganli. Onangiz teatrda ishlaydi, u yerda eski afisha va har xil yirtiq-sirtiq qog‘ozlar tigilib yotibdi, – beixtiyor Linaning iborasini takrorladim.

– Yana chiqindimi? – g‘amgin, iztirobli ohangda dedi Misha.

– Ha, yana! To‘xtab tur, sen nega yig‘ilishga bormading?

Misha javob bermadi.

– Yuragida tish og‘rig‘i, – kuldji Tolya. – G‘amgin-ol shafaq boq-di yuzimiga.

– Hech bo‘lmasa, bir qop, – dedim men Mishaga xushomad qil-gandek.

– Qop? – takrorladi Misha, tirsagiga suyanib, qaddini ko‘tardi. – Qop ko‘tarib kelamanmi men?

– Bir qop nima bo‘ladi? – dedi shiddat bilan Tolya, uning ko‘zları chaqnab ketdi. – U ikki qop ko‘tarib keladi!

– Ahmoq! – g‘o‘ldiradi Misha.

– Mening shartim: ikki qop evaziga – she‘r!

– She‘r? – ishonqiramay, qiziqsinib takrorladi Misha. – Qanaqa she‘r?

– Seniki, o‘zingniki, oxiriga yetkazib beraman. Kelishdikmi?

– Bo‘ladi!

– Yoz! – Tolya bir lahma o‘ylanib qoldi, kichkina bug‘doyrang peshonasini tirishtirdi-da, keyin o‘qidi:

G‘amgin-ol shafaq boqardi, shu choq

Oyna oldida yer edim tuxum.

Birda u keldi, uning yuzi yo‘q.

Unga achindim, yemadim tuxum...

Men xoxolab kulib yubordim, ammo katta-Xorok hatto jilmay-madi ham. U qalamni olib, she‘rni yozishga tutindi. Men mammuni-

yat bilan Tolyaning quruq, qaynoq qo‘lini siqib qo‘ydim. Bay boylandi...

Keyingi kun tongda, dars boshlanguncha, biz uchovlon – Nina Varakina, Pavlik Arshanskiy va men – pochtamtga yo‘l oldik. Erталаб соат yettida, hovli hali qorong‘i, chiroqlar horg‘in miltiraydi; oshiq-moshiqlari muzlab qolgan eshiklar tinimsiz g‘iyqillab ishga shoshayotgan odamlar oqimi paydo bo‘ldi. Bizning sokin Telegraf torko‘chasi hatto bayramlarda ham bunchalik odamlarga to‘lmaydi. Bir-birini quvib o‘tib – muhrlovchilar, harf teruvchilar, kitobchilar, offsetchilar, muqovalovchilar, bizning katta uy aholisi yig‘ila boshladi. Biz kelgan ko‘chadagi qo‘shni uydan chiqqan tonggi navbatda ishlovchi telegrafchilar, pochtachilar, gazeta-jurnal sotuvchilar ko‘rinishdi. Qarshidagi uydan temirchi-ustalar chiqdi, MODESdan¹ «A» qutqarish doirasi tomonga, «Qizil oktyabr» fabrikasi, «O‘roq va bolg‘a» zavodi ishchilari chopib, metroquruvchilar og‘ir-bosiq qadamlar bilan ishga ketishardi...

– Esladingmi? – dedi Pavlik.

Albatta, esimda. Xuddi shunday kuz tongida, to‘rt yil oldin, bizni qizil bo‘yinbog‘dan ajratib turgan oxirgi to‘sinqi olib tashlash uchun pochtamtga yurish qilganmiz. Qanchalar kichkintoy, tortinchoq edik, pochtamtning muqaddas xazinasiga bizni kiritmaydi, deb cho‘chigandik. Endi esa faxriylarmiz, bizni yangi marralar kutmoqda – hatto ishonging kelmaydi, shunchalik katta bo‘lib qoldikmi...

Biz ruxsatxonaning kichkina tuynugiga o‘quvchilik guvohnomamizni uzatdik. O‘t o‘chiruvchi kiyimidagi, boshiga qo‘mondon furajkasi kiygan barvasta kishi ruxsatnomalarni sinchiklab nazoratdan o‘tkazdi.

- Biz avval ham kelganmiz, – dedi Pavlik.
 - Negadir eslolmayapman, – gumonsirab bizga tikildi qorovul.
 - Nega bilmaysiz, to‘rt yil oldin!
 - Qayoqda qoldinglar? – kului qorovul va ruxsatnomani qaytarib berdi.
 - Bizdan avval bolalar kelishmadimi? – so‘radim men.
 - Ko‘rganim yo‘q...
- Ajoyib! Bu safar Karneyev yo‘limizni kesib o‘tishga ulgurmadi.

¹ MODES – Moskva davlat elektr stansiyasi.

Tik zinapoyadan yuqoriga ko'tarildik. Maydonni aylanib o'tib, xudi yer osti yo'lidan chiqqanday katta, yorug' kenglikda paydo bo'ldik. Chapda, to'siq ortida, shifti baland, keng zal, tong paytida bo'm-bo'sh, barcha pochta aloqlari shu yerda amalga oshadi, tepamizdag'i oyna gumbaz xuddi vokzaldagiga o'xshaydi; o'ng tarafda bir-biriga o'xhash yorug' inshootlarda barcha jo'natmalar, obuna bo'yicha yuboriladigan gazeta-jurnallar, matbuot va kitob do'konlariga chiqariladigan kitob va kitobchalar ajratiladi, tayyorlanadi, taqsimlanadi.

Ulkan dastgohnning tez aylanuvchi g'ildiraklarida charm tasmlar tinimsiz shovqin soladi, ularda turfa rangdagi qalin xatjildlar, surg'uchlangan, tamg'alangan, muhrlangan qog'ozxaltalar, gazeta bog'lamlari, yupqa taxta qutilardagi jo'natmalar, ba'zisi shundoq, ba'zisi arqonda bog'langan qoplar aylanaveradi. Tasmalar yuklarni bir-biriga uzatadi va taqsimxonaning qorong'i halqumiga tashlaydi, ular yuklarni avaylab quyi qavatdag'i dastgohlarga o'tkazadi.

Shovqinsiz, elektrda yuradigan yuk mashinachalari gazeta taxamlarini tashiydi, g'altakaravalarning oldingi g'ildiragi chiyillab aylanadi.

Kengliklar, masofalar, yo'llarning hayajoni borlig'imni chulg'adi. Bunday tuyg'uni vokzalda his qilganman. Pochtamt ham vokzalga o'xshaydi, nafaqat oynavand gumbazi borligi va haybati yoki tinimsiz harakati uchun, balki pochtamt ham vokzal singari visol va ariqlilar, uchrashuv va xayrashuvlar maskani, keng olamga insoniy baxt, umid, g'am-tashvishlar ularshadi; vokzal kabi unda ham sirli manzillar, olis yo'llar ruhi sezilib turadi.

Nina oqayotgan tasmada suzib borayotgan xatjildga sehrlangan-day tikilib qolganini sezdim. Tasma ostida aylanayotgan g'ildirakcha ustiga kelganda xatjild biroz ko'tariladi, do'mlikdan o'tib olgach, yana tekis davom etadi; go'yo mustaqil harakat qilib, iloji boricha tezroq, bus-butun holda o'zi saqlagan xabarni egasiga yetkazishga intiladi.

- Birinchi marta kelishingmi? – so'radim Ninadan.
- Ha. Menga yoqdi! Har kuni kelib shu yerda qog'oz yig'sam maylimi?
- Salomat bo'ling!
- Nega menga xat yozmaysan? Ular ham mana shu tasmalar bo'ylab suzarmidi, unda nimalar yozilganini hech kim bilmasdi.

- Nima deb ham yozardim, o'zing hammasini bilasan-ku.
- Balki xatda qiziqarliroq bo'larmidi?
- Harakat qilaman...
- Topshirishga ketyapman, – Pavlikning ovozi eshitildi.

Biz gap sotib turganda u vaqtini zoye o'tkazmasdan qopini qog'ozga to'ldiribdi. Biz ham ishga kirishib ketdik. Pochtamt ol-tin koni edi. Arqon qiyib, yaroqsiz holga kelgan gazeta bog'lamlari to'lib yotibdi, aftidan, bu yupqa kitobchalar, karton bo'laklari, yirtiq xatjildlar aynan biz uchun chiqitga chiqarilganday, har turli yirtiq-sir-tiqlarni aytmasa ham bo'ladi.

Biz yugurib-yelib qog'oz chiqindiga liq to'la qoplarni biri ortidan birini olib, pochtamt hovlisidan o'tib, ko'chaning burchagida, ochiq shiypon ostidagi qabul punktiga keltirib qo'yidik. Qabul qiluvchi qariya qoplarni tarozi pallasiga qo'yib, zo'r berib ishlagach, inqillab g'adir-budur qo'lida patta yozib berdi. Binoning ichi juda iliq, hatto issiq, hovlida esa mashinalar tiqilinch, bu yerdan chiqib ketolmay-digandek tuyuladi, juda sovuq. Bu nafasni ochadigan, quruq ayoz sovug'i ajab yoqimli tuyuldi, tezroq qopni to'ldirib, ko'chadagi toza havoga chiqishga urindik. Afsuski, qog'oz juda yengil, biz bir dunyo qog'oz tashidik, ularning umumiy og'irligi esa o'ttiz kilogrammga ham yetmadni.

Lekin mакtabda boshqa bolalar qancha qog'oz yig'ganidan xabar topgach, bekorga zahmat chekmaganimizni anglab, yengil nafas oldik. Karneyevning butun bo'limi bir pud ham yig'mabdi!

Muvaffaqiyatli sakrash bir muddat bizni qahramonlar darajasiga ko'tardi, Linaning po'lat ko'zлari faqat bizga boqardi. Qolganlar tash-vishga tushib, torpedo kateri voqeasini yodga solardi. Karmeyev gu-ruhi asta-sekin, muntazam ravishda bizni quvib o'ta boshladni. Hech narsani tushunmay qoldim. Bizning guruhdagilar vijdonan pochtamtga borishadi, o'z uyidagi xonadonlarni aylanib, qog'oz yig'ishadi, Xorok ikki qop eski afishalar va qandaydir rangli qog'oz qiyqimlarni keltirib tashladi, biroq oradagi farq tobora qisqarib borardi. Guruhimiz yig'inida otashin nutq so'zladim, bolalarni jasoratga chorladim, yalinib-yolvordim, ruhlantirdim, agar yana ortda qolsak, oldinda bizni dahshatli sharmandalik kutayotganini ko'z oldlariga keltirib qo'ydim. Bizning bolalar pochtamt binosini astoydil tozalab chiqishi-di, u yerdan bir kunlik «o'lja» besh-olti kilogrammdan oshmaydigan

ahvolga keldi. Bolalar o'zlarini yashaydigan uylarini ham tepadan pastgacha tozalashdi, endi ular arzimas qog'oz olib kelishardi. Karneyev va uning do'stlariga osmondan qog'oz tushayotganga o'xshardi.

Odatdagidek, kuchsizlar yangi yo'l topadi, men o'z shaxsiy zaxiramga murojaat qildim. Bir necha kun oqshomlari Pavlik ik-kimiz marhum bobomning kutubxonasi dagi kitoblarni saralab chiqdik. Men qimmatbaho kitoblarni, tibbiy albomlarni, tibbiy jurnallar to'plamini, sariq muqovali farang romanlarini, Britaniya ensiklopediyasining yirtiq jildlarini, qadimgi faylasuflar yozgan kitoblarni, inqilobgacha chiqarilgan suratli nashrlarni ham shafqatsizlarcha chiqitga chiqardim. Ha, ayamay va sira achinmay. Meni kichikligimdan kitobni sevishga va avaylashga o'rgatishgan. Kartoshkadan bo'shagan katta qopga ajoyib muqovalangan, yupqa qog'oziga yorqin suratlar solingan, varoqlari silliq, qadimgi rus qo'rg'onlari, bog'lari, favvoralari fotosuratlari bor qalin kitoblarni solganda yuragim chidab bo'lmas darajada changallardi. Ammo qarshimda Karneyevning irshaygan basharasi paydo bo'lganda, bu azob bosillardı. Pavlik ham mendan ko'ra ko'proq qiyndi. Har bir kitobni olganda ishonch bilan deydi:

— Bunisini, biz, albatta, qoldiramiz...

Men uning qo'lidan yumshoq muqovali kitobni olaman — ba'zan bu bolalar kasalliklari bo'yicha ma'lumotnoma, ba'zan Pol de Kolning farang tilidagi romani, ba'zan anatomiya atlasi, yoki Sitseron ma'rnzalari to'plami, yoki muallif haykali suratidan — yalangbosh, sersoqol, peshona ostidagi ko'zlarini ma'nisiz boqishidan qadimgi yunon faylasufi ekani ma'lum bo'ladi.

Men soxta-beparvo ohangda «puch gaplar» yoki «eskirgan» deyman-da, kitobni qopga tiqaman.

Biz ikkita katta, kitobga liq to'la qopni qabul punktiga qiynalib olib keldik. Keyin guruh yig'inida kvitansiyani silkitib bunday dedim:

— Nima uchun biz — Pavlik ikkimiz bir kunda o'ttiz kilogramm topshiramiz-u, boshqalar topshirolmaydi? Hozir hammamiz birgalikda bosishimiz kerak, g'alaba bizniki!

— «Bosamiz», «bosamiz», faqat shu gap! — negadir qizishib dedi Chernov. — Qog'oz bo'lmasa, nimani bosamiz, axir? Yo'q — tamomvassalom!

– Sen shunchaki, ishlash niyating yo‘q! – keskin e’tiroz bildirdim men. – Albatta, Karneyev tomonda bo‘lsang, bunday qilmasding.

– Dalil bor, qog‘oz yo‘q! – Chernov kishining g‘ashiga tegadigan quyon basharasini tirishtirdi. – Karneyev bizni hech qachon zo‘rlab ishlatmagan, shoshilmagan. Biz shunchaki yig‘ilib, nima qilsak, yaxshiroq, qiziqarliroq bo‘ladi, deb maslahatlashib olardik...

– O‘ychi o‘yiga yetguncha, tavakkalchi ishini bitirgan ekan! Saf-sata sotmay, ishslash kerak. Biz Karneyevni quvib o‘tdik, endi yo‘l bermaymiz!

Baribir musobaqaning tugashidan bir kun oldin karneyevchilar yana ilgarilab ketdi. Buning uchun Karneyev bobosining kutubxonasini huvillatib qo‘ymagandir, bunisi aniq, uning bolalari biznikilarga o‘xshab har bir hovli va uy atrofidagi qog‘oz parchalarini terib chiqmagandir, buni ham bilaman, pochtamtga ham bizga qaraganda kamroq borishdi, qog‘oz yig‘amiz, deb bizga o‘xshab boshqa ishlarni tashlab qo‘ygani yo‘q. Nima bo‘lganda ham, ular oldinda, oz bo‘lsa-da, ilgari ketishyapti. Ularga ko‘chadagi yosh bolalar yordam berishdi – bu Yurka Petrovning kashfiyoti! Tiniq ko‘Ining har bir ko‘chasida kichkintoy-bog‘cha bolalaridan guruuhlar tuzishdi, ular o‘z uyidagi mayda-mayda qog‘oz parchalarini yig‘ib kelib topshirishdi. Buning evaziga karneyevchilar mittivoylarni hayvonot bog‘iga yoki «Mayak» kinoteatridagi bolalar ertaliklariga olib bordi, bundan tashqari, Yurka Petrov ular uchun figurali uchish maktabi ochishga va’da beribdi.

Guruhi kengashida men bolalar mehnatidan noqonuniy foy-dalanishgani ustidan shikoyat qildim, lekin Lina Kuzmina bu ajoyib ish bo‘lganini aytdi: bolakaylar jamoat hayotiga jalg etilibdi, Karneyev va Petrov, kim bilsin, qanday ajoyib, azamatlar ekan!

So‘nggi kun uchovlon yana pochtamtga yo‘l oldik. Agar menda g‘alaba zafariga ishonch qolgan bo‘lsa, o‘sha ham sexga kirib borganimizda tutunday tarqalib ketdi. Ehtimol, oltin izlovchi oltinga boy kon tugab bitganda shunday tuyg‘uni his qilsa kerak. Oltin zarralari kamayib ketganda hammasi ravshan bo‘ladi: endi bu yerda qiladigan ish yo‘q. Biz charchab, bir ahvolda qavatdan qavatga o‘tdik, qog‘oz parchalarini yig‘dik, hatto axlatchelakka ham ko‘z tashladik, ammo qopimiz to‘lmadi, ustiga ustak, yengil. Bizni Karneyevdan ortda qol-

dirgan o'sha o'n ikki kiloni yig'ib-terish haqida o'ylashni o'zi kulgili tuyula boshladi.

«Yutqazdik! – miyamga urdi. – Yana yutqazdik!..» Karneyevning tantanasini, mag'lubiyat ortidan keladigan bolalar mulzamligini, umidsiz kunlarni ko'z oldimga keltirib, dilim og'ridi. Keyinchalik guruhimizni ilg'or o'ringa olib chiqish oson kechmaydi, mag'lubiyatdni mag'lubiyatga ulaydigan yetakchining hurmati qayga ham borardi. Oh, bu g'alaba qanchalar kerak! Nafaqat menga, guruhga kerak, bolalarning menga ishonchini yo'qtadigan Chernovga o'xshaganlarning ovozini o'chirib qo'yish uchun ham juda zarur!

Atrofimda qog'oz tog'lari yuksaldi: charm tasmalarda qog'ozlar suzar, shovqinsiz elektr mashina va g'idirak aravalarda qog'ozlar tashtilar, bino qavatlarini bog'lab turuvchi yo'llarda qog'oz sharsharaday oqib tushar edi: qog'oz to'lib-toshar, shitirlar, oqar edi... Ishchi ayolarning gazeta bog'lamlarini bir joydan boshqa joyga qo'pol, notejis otayotganiga qaradim. Agar qog'oz oyna bo'lganda bormi, shunday uloqtirsa, parchalanib ketardi. Mana, kitobchalarni butun bir bog'lami sochilib ketdi, xuddi uy qulaganday bo'ldi. Shuni chiqitga chiqarishmaydim! Yupqa, havodan yengil bu varoqchalar qanchalar mahkam-a!

Men sexning yarimqorong'i burchagida, kitobcha taxlamlari yonida turardim. Parishonxotir bo'lib kitobchaning sarlavhasiga ko'z tashladim – «Shampinyonlar qanday ko'paytiriladi». Atrofimdag'i barcha taxlamlar shampinyonlarni ko'paytirish borasida maslahat berardi. Qog'ozni nimalarga isrof qilishadi-ya! Chiqindiga topshirish uchun bizga juda zarur qog'ozni-ya! Arifmetikadan katak, ona tilidan yo'l-yo'l chiziq daftar bo'lishi mumkin bo'lgan qog'ozlarni nimalarga ishlatishadi-ya! Men bitta taxlamni oldim, jismoniy tarbiyadan chiniqqan qo'lim uning og'irligini chamarlab ko'rди, chorak pud keladi. Qarshimda ajoyib qog'ozlarning bir tonnadan kam bo'limgan tog'i uyulib yotibdi. Axir, kim ham shampinyonni ko'paytirardi? Mana, o'n to'rt yoshga kiribmanki, hali birorta shampinyon ko'paytirgan kishini uchratganim yo'q. Shampinyonni Saratovda ko'rghanman, shundoq ko'prik tagida, chag'irtoshlar orasida, uyimizing ro'parasida o'sib yotardi. Ularni hech kim ko'paytirmagan, o'zi ko'klab chiqarkan, quruq yerda, yumaloq, chang bosgan, kartoshka butasiga o'xshaydi. Ularni qancha-qanchasi arava g'ildiragi, ot va xo'kiz tuyog'i ostida ezilib, bo'tqaga o'xshab qolardi.

Ortiq ikkilanib turmadim. To'rtta taxlam, biri ortidan biri qopimga uchib tushdi. Ularni tepasiga har xil qog'oz chiqindilarni soldim va qabul punktiga qarab chopdim.

Men qilgan ishim fosh bo'lib qolishidan ham, vijdon azobidan ham qo'rqedim, faqat ertakdagiday maqsadga yetib, g'alaba quvonchini his etdim. Ko'chaga chopib chiqqanimdan so'ng quvonchim yanada oshib-toshdi. Biz pochtamtda qog'oz qidirib yurgamizda – bir soatning ichida olamni qor qoplabdi, yangi qishning birinchi qori. Oppoq, nozik, paxmoq, top-toza qor ko'chalarni, tomlarni, yuk mashinalarining kapotlarini, hovli o'rtasida yolg'izlanib, qurib qolgan jo'kaning qora-qo'ng'ir shoxlarini, qabul punktining shiyponini oqartirib qo'yibdi. Qor o'zi bilan o'sha shaffof sokinlikni olib keldi, bu sukunatni faqat birinchi qor yoqqanda, barcha tovushlar, qadamlar, g'ildiraklar shovqini pasayganda his etasan. Quvonchimdan jilmayib, ayvonning tagiga kelib, og'ir qopni tarozi pallasiga tashladim.

– Shamollab qolmagin, mehnatkash! – ko'ngli ochiqlik bilan dedi qabul qiluvchi taroziga yassi yumaloq toshlarni terarkan.

– Ha, hechqisi yo'q!.. – beparvo javob berdim men.

Uning katta qopni yog'och yashiqqa bo'shatishiga va qopdan kitobcha bog'lamlari qanday vazmin tushgani va qog'oz chiqindilariga aralashib ketganiga ham beparvo, faqat quvonib qarab turdim. Qabul qiluvchi sezib qoladi, deb ham o'ylaganim yo'q. Qariya payqamadi. U ip bog'langan ko'zoynagini to'g'rilib olgach, patta yoza boshladi.

O'n sakkiz kilogramm qog'oz topshirganimni tasdiqllovchi pattani asrab-avaylab, ko'krak cho'ntagimga joylagach, shiypon tagidan tashqariga chiqdim. Yo'lning narigi chetida, qarshimdan yengil qoplarini sudrab, Nina va Pavlik kelardi.

– Topshirib bo'ldingmi? – ajablandi Pavlik.

– Ha-da! – beparvo qo'l siltadim men.

Aftidan, ularning qopi shunchalar yengil ediki, tarozi pallasiga tashlaganda chiqadigan odatdagi jiringlash ham eshitilmadi.

– Bizning pattamiz bitta, – xijolat bo'lib dedi Pavlik, Nina ikkisi ayvon tagidan chiqisharkan, – besh kilo.

– Demak, hammasi bo'lib, yigirma uch...

Har doim bosiq-vazmin yuradigan, his-tuyg'ularini oshkor etavermaydigan Pavlik boshidan qulochchinli telpagini oldi-da, qorga

urdi, tepalab, keyin qoqib-silkib tashlab, boshiga bostirib kiydi-da, ikki qo'llab qo'limni siqdi.

– Sen buyuk insonsan! – dedi Nina. – Ertaga sen bilan birga yaxmalakka boramiz.

Bu katta e'tibor. Nina, odatda, yaxmalakka yuqori sinf o'quvchilari bilan birga borardi.

Kirish yo'lagida Karneyev va uning guruhidagi ikkita bolaga duch keldik.

– Bolalar, foydasi yo'q. U tarafda hech narsa qolmadi.

– Nahotki, bizga hech narsa qoldirmagan bo'lsangiz? – jilmaydi Karneyev.

Har doim uning jilmayishi meni asabiylashtiradi, bizga qandaydir yengil, tasodifiy va xuddi mensimaganday qaraydi.

«Birdan men qilgan ishni fahmlab qolsa-chi?» – qo'rqinchli fikr yalt etib o'tdi xayolimdan. Va shu yerning o'zida angladimki, musobaqada yuz marta mag'lubiyatga uchrasa ham, bunday qilish Karneyevning xayoliga kelmaydi. So'ngra bo'g'ilib ketayotganday bo'ldim, xuddi kissamda turgan pattaning yuki ko'kragimni ezayotganday tuyuldi...

– Shampinyonlar qayerda ko'paytiriladi? – so'radim men Pavlik-dan, uyga yaqinlashib qolganda.

– Umuman, bilmayman, – ajablanib javob berdi Pavlik. – Qo'ziqorinni ko'paytirib bo'lmasa kerak, deb o'yayman.

– Shampinyondan boshqasini, – dedi birdan Nina. – Ularni Fransiyada ko'paytirishadi, o'qiganman.

– Bizda-chi, ko'paytirishadimi?

– Ehtimol... Juda xushta'm bo'ladi!

– Ha, nahotki, xushta'm! – dedim azoblanib. – Nima, men shampinyonlarni ko'rmabmanmi?

– Ko'rishga ko'rgansan, lekin yemagansan-ku! – g'o'ldiradi Pavlik.

Nina jilmaydi.

– Dunyodagi eng mazali qo'ziqorin. Buvim qaymoqqa qovurib bersa – barmog'ingni yalab o'tirasan!

– Mayli, jin chalsin! – dedim men.

Lina Kuzmina uzoq gapirdi. Maktab katta ombor bo'yicha birinchi o'ringa chiqibdi va Lina, eng yosh yetakchi, ich-ichidan shodlan-

di. O'zining quvnoq tuyg'ularini yashirib, yolg'onidakam xotirjamlik va keraksiz tafsilotlarni so'zlab, musobaqa natijalarini sarhisob qildi. Ayniqsa, kichkintoylarni qog'oz yig'ishga jalb etgan «birinchi guruhning ajoyib tashabbusi»ga alohida e'tibor qaratdi. Petrov va Karnevni – ikkisi yangi qit'a ochgan, desa ham bo'laverardi. U hatto bu hodisa musobaqaning eng muvaffaqiyatli natijasi ekanini ta'kidlab o'tdi. Bu gapdan keyin biz emas, birinchi guruh g'olib chiqdi, degan xayolga bordik. G'alati: bu gap menga ta'sir qilmadi. Faqt bir narsani – hammasi tezroq tugashini xohlardim.

Menga bu g'alaba tatinadi. Hayotimdag'i eng baxtli kun bo'ladi, deb o'ylagandim, aksincha, azobli va puchday tuyuldi. Men devor ga tirab qo'yilgan bayroqqa, zarrang karnaychaga qaradim. Odatda ularni ko'rsam, kayfiyatim ko'tarilardi, hozir esa bayroq ham, karnay ham begona, sovuq tuyuldi.

Mana, qandaydir bezovta ohangda Lina:

– Baribir musobaqada ikkinchi guruh g'alaba qildi, – dedi.

Bolalarning ahil gulduros qarsagi yangradi, alvon bayroq yuzasi ga yengil shabada tegib o'tganday bo'ldi.

– Men ilg'orlar nomini tilga olib o'tishni istardim, – davom etdi Lina, – ammo Rakitinning aytishicha, butun guruh zo'r ekan!

– Noto'g'ri! – sapchib turdi Chernov. – Biz yomon ishladik. Deyarli hamma qog'ozni Rakitinning o'zi yig'di!

– Chernov, oshirib yubording, – g'o'ldiradim men, kamtarlik qilib. Biroq u aytgan zaharli fikr yuragimga sanchildi. – Noto'g'ri! – nafasni rostlamay, ammo boshqacha ohangda qichqirdim men. – Hamma yig'di, sen ham yig'ding!

– Biz qancha yig'ibmiz?! – qo'l siltadi Chernov va joyiga o'tirdi.

Bizning guruh ajablanib g'ala-g'ovur ko'tardi. Chernov haq mi yoki yo'q, hozir bu hech kimni tashvishlantirmaydi, bizning g'alabaga dog' tushirgani uchun undan achchig'lanishdi.

– Jim bo'ling, o'rtoqlar! – Lina kaftini stolga urdi. – Agar guruh boshlig'i ishda namuna bo'lsa, buning sira yomon joyi yo'q...

Eshik ochildi va yo'lakdag'i navbatchi enaganing ro'molcha bog'lagan boshi ko'rindi:

– Kuzmina, seni direktor xonasiga chaqiryapti!

– Hozir men yig'in o'tkazyapman! – Linaning po'lat ko'zlarini chaqnadi.

– Shunday deb aytgandim, u, tez kelsin, dedi...
– Bolalar, shoshmay turing, – dedi Lina va xonadan chiqdi.
Lina qaytib kelganda ko'zlar po'lat emas, qo'rg'oshin tusiga kirdandi.

U o'z joyiga o'tirdi, uzun barmoqlari bilan chakkasini bosdi, keyin boshini siltab, asta:

– Bolalar, jiddiy ko'ngilsizlik. Pochtamtdan shikoyat tushibdi: oramizdan kimdir kitobchalar taxlamini olib chiqib, chiqindiga topshirib yuboribdi, – dedi.

Bir lahma kulgi ko'tarildi va darrov bo'g'ilganday jimlik cho'mdi.

– Nega? – ajablanib so'radi kimdir.
– Albatta, og'ir chiqishi uchun-da, – tushuntirdi Ladeynikov.
– Bo'lman gap! – dedi baland ovozda jirkanib Karneyev. – Biznikilardan hech kim bunday qilmaydi!

– Jim bo'l, Karneyev! Direktor bu yerga kirmoqchiydi, masalani o'zimiz hal qilamiz, dedim. Bugun pochtamtga kimlar borgandi?

– Men, Siganov va Vasilyeva, ikkinchi guruhdan Rakitin, Varakina va Arshanskiy, – xitob qildi Karneyev.

«Nega u tumshug'ini suqadi? – parishonxotir o'yladim men. – O'zilarining aybi yo'qligini ko'rsatmoqchimi? Shundoq ham uni hech kim ayblagani yo'q-ku...»

– Qani, – dedi Lina, – men nomlari aytilgan o'rtoqlarga murojaat qilyapman: orangizdan kim qildi bu ishni?

– Men! – ortimdan juda tanish, sevimli ovoz yangradi, uni minglab ovozlar orasidan bir zumda ajratib olardim.

– Sen, Varakina? – ishonqiramay so'radi Lina. – Nega?
– Chiqindi tashish jonga tegdi, – xotirjam javob berdi Nina. – Raskutinga esa jahon rekordi kerak. Xullas, o'sha kitobchalarni qopga tiqdim. Buni qarang: «Quruq yerda qo'ziqorinni qanday ko'paytirish kerak!»

– Varakina, o'ylab ko'rmadingmi, keyin qanday javob berishni? – negadir g'azablanmay, xotirjam dedi Lina.

Qisqa sukunat, keyin esa:

– Ha!

Men Nina tashlagan najot arqoniga yopishib olganimdan sukul saqlaganim yo'q. Men qandaydir baxtga yetganimdan sarosima-ga tushib qoldim, qalbimda ulkan, totli tuyg'ular to'lib-toshdiki,

tilim so'zga qovushmay qoldi. Nina men uchun uyatli va achinarli aybni o'z bo'yniga oldi, sharmanda bo'lishdan ham, jazodan ham qo'rqmadi!

– Bu yerda Varakinaning aybi yo'q, – dedim men o'midan turib. – Bu ishni men qildim.

– Uning aybini yashirma! – qichqirdi Ladeynikov.

– Ahmoq bo'lma! – dedi keskin Karneyev.

Lekin Linanining ko'zlarini temirday yaraqlab ketgandan so'ng mening so'zimga ishonganini tushundim.

– Qanday isbotlaysan?

– Kitobchaning nomi «Shampinyonlar qanday ko'paytiriladi», to'rt taxlam...

Xonaga suv quyganday sukunat cho'kdi, faqat ortidagi sevimli ovoz shivirladi:

– Tentak!

– Balki tushuntirishga qiynalarsan, nima uchun bunday qilding? – nafratini bosib dedi Lina.

Men Linanining savoliga hech qanday javob bermadim, kitobchalarni qopga tiqishga nima majbur qilganini hozir tushuntirib bo'lmasdi. Men o'sha damda: bu voqeja haqida olis o'tmishday be-parvo eslaydigan kunlar kelarmikin, deb o'yadim.

– Negaligi tushunarli. – Yurka Petrovning istehzoli ovozi eshitildi. – Musobaqa g'olib chiqish uchun!

– Chindan – kuchi yetmagach, aldovga o'tgan! – qichqirdi Chernov.

– Bu qabihlik! – jirkanib qichqirdi Karneyev.

Yuragimga faqat uning so'zlarini qadaldi.

Qanchalik g'azabnok va shafqatsizlarcha muhokama qilganlari sari menda, hammasi xayrli yakun topadi, degan ishonch ortib borardi. Biz ko'p yillardan buyon do'stmiz, nahotki, bolalar tushunmasa, shunchaki shon-shuhrat yoki manmanlik uchun bunday ahmoqliq qilganim yo'q-ku. Guruh kotibasi, maktabimizga yangi kelgan Jenya Rumyanseva bo'yinbog' taqib yurishga munosib emasligimni, meni guruhdan haydash lozimligini aytganda, kulgim qistadi va bu qandaydir g'ayritabiiy tuyuldi.

– Rumyansevaning taklifiga qo'shilaman, – o'midan qo'zg'alib dedi Lina.

Shunda men ham o'mimdan turdim va hech kimga qaramay, eshikka yo'l oldim.

– Rakitin, sen qayoqqa? – qichqirdi Lina.

Men javob bermadim va yig'ilish xonasining eshigi ortimdan qattiq yopildi.

– Nima, tugadimi? – so'radi mendan uyqusiragan farrosh kampir, paltomni uzatar ekan.

– Yo'q, hali.

– Nega sen vaqtidan oldin qochib chiqding? – g'o'ldiradi kam-pirsho.

Men indamay yeng ichidan qalpog'imni chiqarib, boshimga il-dim va paltomning yengini topolmay, kiyim saqlanadigan xonadan otilib chiqdim.

Maktab eshigining cho'yan panjaralarini yangi yoqqan paxmoq qor qoplabdi. Bir siqimini olib, og'zimga soldim. Qor shu lahma erib, sovuq, temir ta'mli suvga aylandi. Men zo'riqib bu tomchini yutdim. Keyin Lyalin torko'chasi burchagiga qarab chopdim va do'kondordan ikki dona «Lyuks» popirisi sotib oldim. Oyim meni chekishga qarshi dahshatli ruhda tarbiyalagan. Chekishim bilan til tortmay o'lsam kerak, deb o'ylagandim. Lekin birdaniga ikki dona yo'g'on, achchiq popiris cheksam ham hech narsani his qilmadim, ehtimol, ichimga tortmaganim sababli shunday bo'lgandir.

Nahotki, bitta xatosi deb insonning butun umrini chippakka chiqarish mumkin? Birinchi sinfdaligimdayoq kashshof bo'yinbog'i taqishni orzu qilardim. Bizning maktabda oktyabryatlarning yulduzchasi yo'q edi, men ming mashaqqat chekib, XXOK¹ uyiga kirgandim. U yerda yig'inlar oqshomda bo'lib o'tar va Armanlar torko'chasidan Nogin maydonigacha sayohat qilish katta mardlikni talab qilar edi. Men onamdan tramvayga yo'lkira so'rolmasdim, chunki bunchalik uzoq yo'lga o'zimni yolg'iz qo'yib yubormasdi, qolaversa, kechqu-run. Lekin bir gal kissamda o'n tiyin paydo bo'lib qoldi va yig'indan so'ng, kechasi soat o'n birda 21-tramvayga chiqib oldim. G'ildiraklar ostida noma'lum ko'prik ovoz berganda, ustini moy bosgan daryo tov-lanib, qoraygan osmonda zavod minoralari ko'zga tashlandi, shunda butunlay boshqa tomonga qarab ketganimni sezib qoldim. Gangiga-

¹ Xalq xo'jaligi oliy kengashi (*abbr.*).

nimdan yurib ketayotgan tramvaydan shag‘al ustiga sakradim, keyin butun gavdamni undan ajratib olishimga to‘g‘ri keldi. So‘ngra meni estafeta singari kam uchraydigan tungi yo‘lovchilar bir-biriga uzatib, mahobatli shaharning zulmatdagi g‘azabidan abjag‘im chiqib, qonga bo‘yalib, bu yo‘ldan umrbod zada bo‘limguncha Armanlar torko‘chasi muyulishigacha yetib kelolmadim. Nogin maydoniga deyarli bir yil qatnadim, u yerda randada, iskanada, qaychida ishlashni, yelimlashni o‘rgandim, bir yildan so‘ng ota-onamga XXOK hech qanday aloqador bo‘limgani uchun meni haydab solishdi.

Qo‘schnim va eski do‘stim Kolka Polyakov meni o‘zi o‘qiydigan maktabidagi yulduzcha to‘garagiga yozdirib qo‘ydi. Ular qasamyod qiladigan tantanali kun uchun bolalar burchagini chiroli bezatdik, biroq meni tantanali marosimga kiritishmadi, boshqa mактабда o‘qir ekanman... Qizil bo‘yinbog‘ uchun ko‘p jonbozlik ko‘rsatganman, uni hech kimga bermayman. Maktab atrofida daydib, popiris chekib bo‘lgunimcha mening o‘quvchilik hayotim tarixi ko‘z oldimdan bir-bir o‘tdi. Qancha o‘ylaganim sari, o‘zimning yaxshi odamligimga ishonchim ortib borardi. Axir, men bolalarda o‘ziga ishonch uyg‘otish, o‘z guruhlari bilan faxrlanishini xohlagandim. Ustiga ustak, Chernov har doim boshimda tayoq sindiradi, Tyurina ham... Balki ularga Karneyev yo‘l ko‘rsatgandir? Bugun u qanday qichqirdi-ya: «Qabihlik!» O‘rgilib qo‘ydim, oqbilak! Bolalarni menga qarshi gij-gijlagan o‘sha, yana baqiradi!..

Avj olgan his-tuyg‘ularim yagona, katta, hayot-mamot singari bir narsaga – Karneyevga nisbatan nafratga aylandi. Endi men nima qilishni yaxshi bilardim. Bu meni qutqarolmaydi ham, tasalli ham berolmaydi, ammo yashash uchun shu ishni qilishim shart.

Men shoshib maktabga qaytdim va hovlining soyali tarafida poylab turdim. Ko‘p kuttirishmadi. Mana, eshik ochildi va yo‘lbars po‘stiniga burkanib Tyurina pillapoyadan chopib tushdi. Men unga qarab mana shu terini ichidagini qo‘sib yana bir marta shilib olishimni his qildim.

Ladeynikov, Grizlov, Pankov, Sergiyenko bir gala bo‘lib chiqishdi va darrov shag‘al yo‘lda konserva bankasini tepib ketishdi.

Nina Varakina va Pavlik paydo bo‘ldi. Ular atrofsga alanglab, kimnidir qidirgandek, nimalar haqidadir so‘zlashdi. Men o‘zimni panaga olib yashirindim. Lekin mana, Nina Tiniq ko‘l tarafga deyarli chopib

ketdi, Pavlik ham bir daqiqacha atrofga alanglab turgach, asta o'sha yoqqa yo'l oldi. Keyin bolalarning katta olomoni yopirilib chiqdi va torko'chalar bo'ylab yoyildi. Nihoyat, kalta kurtkali, boshida tugmali kepka kiygan Karneyev ko'rindi. Omadim keldi: u yolg'iz. Xayolga cho'mib, hushtak chalgancha qiyshiq cho'ntagiga qo'lini solib, pillapoyada biroz o'ylanib turdi, yoqasini tikladi va zinadan tez-tez yurib tushdi.

Men uni baland qadimiy chiroq ostida quvib yetdim:

– Qani, to'xta-chi!

Karneyev to'xtadi, ingichka qoshini odatdagiday qayirdi.

– Senga ko'pdan buyon bir narsani aytmoqchi edim... Sen... sen pastkashsan, senga ko'rsatib qo'yaman!

Menga qandaydir g'alati qarash qildi. Uning uzoq qarashidan na sarosimalik, na ajablanish sezilmadi, faqat qandaydir muammoni hal etmoqchiday qiziqsinib boqardi.

– Aqldan ozibsan! – dedi u nihoyat.

– Gapni chalg'itma! Abjag'ingni chiqaraman!.. Arz qilgani chopasanmi, erkatoy?

Karneyevning lablari titradi, jilmaymoqchi edi, lablari qovushmadi.

– Alamingni olmoqchimisan? Tushunmadim, nega endi meni tanlading?

– Safsata sotishni bas qil, tushunmadim emish! Kim bolalarni menga qarshi qayradi? Pastkash!

– Bas qil! – dedi kuchayib Karneyev. – Aqldan ozibsan yoki shunchaki tentaksan, jonimga tegding. Gapir, qayoqqa borish kerak?

Biz tez-tez yurib, Tiniq ko'l tarafga ketdik. O'sha tomonda, chap burchakda, Pokrovskiy darvozasi tarafda, hojatxona orqasida bizning jang maydonimiz bo'lardi. Qachonlardir topganmiz, bu yerda hech kim bizga halal bermaydi – dunyoda buzilgan hojatxonadan ko'ra o'ziga tormaydigan joy bo'lmasa kerak.

Karneyev har doim mendan o'zib ketgan. Uni mushtlashuvga toqati yo'q deb o'ylardim. Tez orada u shunchaki hayajonlana boshladti. Kim bo'lsa bo'lsin, ammo Karneyev mushtumzo'r emas. Bo'yи mendan sal balandroq, lekin nimjon, ozg'in, u mакtabning yozilmagan ro'yxatida kuchlilar orasida oxirgi o'rinlardan birini egallabdi; unda kuchsizroq Chernov bor, yana Misha Xorok bo'lsa kerak. Men ol-

tinchi sinfgacha faqat volgalik Agafonovdan keyin turardim, biroq u sakkizinch sinfdagilarni ham tiz cho'ktirardi. Karneyev hech qachon mushtlashmagan, unga hech kim tegmasdi. Karneyevga tegish – birinchi guruhga daf qilish bilan barobar, u yerda esa jiddiy bolalar bor.

Xiyobonning yonida Pavlikni ko'rib qolib, chaqirdim. Juda vaqtida duch keldi-da: guvohlarsiz mushtlashuv qoidaga to'g'ri kelmaydi.

– Arshanskiyga qarshi e'tirozing yo'qmi?

– Albatta, yo'q! – jilmaydi Karneyev.

Unga nima desang ham, o'zini yaxshi tutardi. Uning mardligi va nozikligi, qotmagina gavdasi bilan o'zini shunday his qilishi mening shashtimni qaytardi, birdan u bilan mushtlashgim kelmay qoldi. Endi uning bolalarni menga qarshi gjigjilaganiga ishonmasdim, bu ayanchli oqshomda birinchi marta o'zimga o'zim ham jirkanch tuyilib ketdim.

Pavlik o'ziga xos og'ir-vazminligi bois hech narsani so'ramadi. U biz qayoqqa ketayotganimizni ko'rib, indamay ortimizdan ergashди. Bizning ritsarlik marosimlarimizga ko'nikmagan Karneyev Pavlikka hazilomuz nimadir desa, gapga qo'shilib, hammasini bas qilarmiz, deb o'ylagandim. Biroq Karneyev hazillashishni xayoliga ham keltirmadi. Uning olishuvda ishtirot etishga majbur qilgan narsa, bunday ishlar uning tabiatiga to'g'ri kelmasligi, qolaversa, ishni olivjanob-larcha oxiriga yetkazib qo'yishni xohlardi. Menda chinakam jur'at bo'lganda, undan kechirim so'rardim, lekin bunga qurbim yetmadı.

Biz hojatxonaning katta temir qutisi yoniga keldik. Undan yerga qalin qora soya tushar, soyadagi yer yupqa muzlab oynaday yarqirar edi.

– Qo'lqop yechiladimi? – so'radi Karneyev.

– O'zingiz bilasiz, – dedi Pavlik.

– Yechmasa ham bo'ladi, – dedim men.

– Qani, boshla.

– Yo'q, sen boshla.

– Sen meni chaqirding, endi o'zing boshla.

Men uning yelkasiga bir musht tushirdim, Karneyev esa menga tashlandi.

Agar u shunchalik tentaklarcha jasurlik ko'rsatmaganda, hammasi tinchgina hal bo'lardi, do'pposlash niyatim yo'q edi. Lekin olishuvning o'z qonunlari bor. Kuchsiz mushtlar yomg'iridan himoya-

lanarkanman, atayin emas, kutilmaganda qo'lim uning burniga tegib ketdi. Karneyev yiqlidi, ammo o'rnidan sapchib turdi, uning yuzidan qon oqardi.

Pavlik unga ro'molchasini uzatdi.

– Hechqisi yo'q, hechqisi yo'q! – Karneyev jilmayishga urindi.

– Burningni qoqib tashla, – dedi Pavlik, – yo'qsa, nafas ololmay qolasan.

Karneyev burnini qoqib tashlab, ro'molchan niegasiga qaytarib berdi. So'ngra u jag'imga boplab tushirdi. Men chekinidim, u olg'a sakrab boshimga ura boshladi. Shunda u yaxshigina do'pposlashadigandek tuyuldi, keyin men chinakamiga bir urdim, keyin yana bitta. U yana yiqlidi, turdi, qon tupurdi va yana men tomonga bostirib kela boshladi. Uning yonog'iga musht tushirdim, yana yiqlidi.

– Bas qil! – dedi Pavlik, unga qo'lini uzatib.

Karneyev o'rnidan turdi, ko'z osti ko'karib chiqdi, iyagidan qora qon oqdi.

– Hech narsani bas qilmaymiz! – dedi u soxta, achinarli iljayib.

Men uning ozg'in, pachoqlangan yuziga qarolmasdim. Tomog'imga nimadir tiqildi, his qildimki – yana bir daqiqa o'tsa, portlab ketaman. Men yalingandek Pavlikka qaradim.

– Yetarli! – takrorladi Pavlik.

– Bu g'irromlik! – ajablandi Karneyev.

– Mayli, davom eting.

Endi Karneyevga nisbatan g'azabim oshdi, meni jangga chorlayotganidan jahlim chiqdi, o'zini urishga majbur qilyapti, achinishga, azob chekishga majbur qilyapti. Bu janjalning tezroq tugatish uchun o'zimni erkin qo'ydim. Uning boshidagi kepka uchib ketdi, keyin qo'lqopi ham yo'qolib qolmasligi uchun yechib qo'ydi, navbatdagi yiqlishida qo'lini muzlagan yer shilib ketdi. Aftidan, qattiq azob chekdi shekilli, bir necha daqiqa kaftini tizzasiga bosib yerda o'tirdi, so'ngra o'rnidan turganda yuzida rang qolmagandi.

– Men safdan chiqqanga o'xshayman, – bor kuchini yig'ib, bazo'r dedi u.

– Ko'ngling to'ldimi? – so'radim g'azablanib undan emas, o'zimdan.

Pavlik bir siqim qor olib, Karneyevga uzatdi. Karneyev qorda yuzini yuvdi, iyagidan qonga to'yingan qor parchalarini sidirib tashladi, toza ro'molchasini olib artindi.

– Bo'ldimi, – dedi u, – men hech qachon do'pposlasmaganman.

– Zo'r ekansan, – dedi Pavlik.

– Hech narsa qilmaydi. Salomat bo'l, Arshanskiy! – Karneyev qo'lini ko'tarib, do'stona ishora qilgach, nozik gavdasi daraxtlar soyasida ko'zdan g'oyib bo'ldi.

– U bilan o'pishib xayrlashishingga sal qoldi, – Pavlikka gina qildim.

Do'stim javob bermadi.

– Men esa basharasini bejab qo'yganimdan xursandman! – dedim men. – Ba'zida buyam foydali.

Pavlik jimib qoldi. Uning yo'rig'i shunday: agar biron masalada fikrimga qo'shilmasa yoki aybim bo'lsa, soqovga aylanadi, bir og'iz gap olib bo'lmaydi.

– Gapimni eshit, Buyuk soqov, faqat sengina aytib berishing mumkin: yig'ilish nima bilan tugadi?

– Lina seni haydash masalasini ovozga qo'ymoqchi bo'ldi, – sovuqqina javob berdi Pavlik, – Karneyev bu masala avval guruh kengashida muhokama qilinishi kerak, dedi.

– Nega buni oldinroq aytmading?

– Sen so'radingmi?

– Endi u meni o'ldiradi!

– Kim?

– Karneyev, kim bo'lardi yana!

Shunda Pavlik yana jim bo'lib qoldi, undan boshqa bironta ham so'z sug'urib ololmadim.

Menshikov minorasi yonida Nina Varakinaga duch keldik. Men uning yonida qoldim, Pavlik esa to'xtamay, yo'lida davom etdi.

– Qayerga yo'qolib qolding? – so'radi Nina.

– Shunchaki... ketdim... Eshit, o'shanda aybni o'z bo'yningga olish qanday xayolingga keldi?

Nina kuldii:

– Bu sening ishing ekanini darrov sezdim... Menga nima – ha, haydar yuborishardi, keyin qayta qabul qilishadi, senga esa – hayot-mamot, hammasi ado bo'ladi.

– Mayli, rahmat.

– Arzimaydi! Bilasanmi nima, rostini aytSAM, kitobchani olib chiqqaningga qoyil qoldim! Xudo haqqi! Har kimning qo'lidan kelmaydi. Men tavakkalchilarni yaxshi ko'raman. Yo hayot, yo mamot! – u yana jilmaydi.

Bilmadim, u chin qalbdan aytdimi yoki menga dalda bermoqchimi, ammo uning so'zidan quvonganim yo'q. Menga xos bo'lmanagan fazilatlardan hayratga tushishini istamasdim, bu oramizni yaqinlash-tirmaydi, balki yanada uzoqlashtiradi.

– Faqat ikkiyuzlamachilik qilma, – fikrimni o'qiganday dedi Nina. – Yaxmalakka boramizmi?

Bugun ochilish marosimi ekanini unutibman.

– Albatta, boramiz! – dedim men, biroz sekinlab.

Kiyinish xonasida o'zimizning bolalarga duch kelmaslik uchun konkini uyda kiyib oldim va yo'lakning muzlagan joylarini bosib Tiniq ko'lga yo'l oldim. Muz maydoni uzra chiroqlar marjoni ko'zga tashlanganda xirqiragan karnaydan taralayotgan musiqa sadolari eshitildi, barcha og'ir hislar qalbimni tark etdi, xuddi parvoz arafasida uyg'ongan tuyg'ular singari tanamga harorat, quvonchli kuch qaytganday bo'ldi.

Men pastak to'siqdan, tik qor uyumidan oshib o'tib, ko'm-ko'k muzga konkimning tig'i tegishi bilan sirg'anib ketib, chalqanchasiga yiqilishimga oz qoldi.

Xokkeyga moslab konkimning uchida biroz yurgach, keskin harakat bilan elliq qadamlarcha sirpanib bordim, keyin aniq aylana hosil qilib, eski ko'nikmalarimni unutmaganimga ishonch hosil bo'lgach, ko'nglim to'ldi. Men epchillik qilib bitta oyog'imda to'xtadim va qaddimni rostlashga ulgurmasimdan, osmondan tushganday kimdir yelkamdan quchib oldi.

– Endi kelmasang kerak, deb o'ylagandim! – dedi Nina. – Bir so'mni tejab qolmoqchi bo'libsan-da?

– Yo'g'-e... O'zimiznikilarga ko'ringim yo'q. Qani, uchamizmi?

– Uchishni unutib qo'ymadningmi?

– Ko'rasan.

Biz ikki qo'limizni tutgan holda issiq uycha tarafga qarab uchdik. Konkilarimiz kelishib olgandek muzni chizib uchardi. Sirg'anish yengil va yoqimli, qat'iy marom birlik tuyg'ularini uyg'otar, bir-

birimizni so'zsiz tushunardik. Hozircha bu mashq, kuch yig'ish, birdaniga katta tezlikka o'tib bo'lmaydi. Doira hosil qilishdan oldin Nina baland musiqa sadolari jo'rлиgida qichqirdi:

– Oldinga o't!

Mana endi haqiqiy uchish boshlanadi. Sal egilib, chap qo'limni yelka ortiga tashlab, qisqa, kuchli, keskin odim otib ucha boshladim. Nina ortimdan qadamma-qadam kelyapti, qo'limni mahkam tutib olgan. Agar orqangdan kelayotgan sendan kuchsizroq bo'lsa, zavq-shavq yo'qoladi – uni tortib uchishingga to'g'ri keladi. Nina mendan qolishmaydi, men havo qarshilagini yengsam bo'ldi, u tezligini osongina oshirardi. U qanchalik tezlashsa, ortimdan shunchalik tutib borar, uning qo'llari meni mahkam tutib borayotganini his qilishim yanada tezroq va tezroq uchishimga ruhlantirardi. Alovida uchganimizda bunchalik katta tezlikka chiqolmaymiz.

Yaxmalakning katta doirasi bo'y lab bir necha marta aylan-dik, boshqa konki uchuvchilar bizni hurmat qilib, yo'l bo'shatib turishdi. Yaxmalak bir tekisda yoritilmagan: issiq uycha nurga ko'milgan, qarama-qarshi tomoni esa zulmatga cho'mgan, xira chiroq nurida arang ko'rindi. Biz kun va tun oralab uchganday nurdan zulmatga sho'ng'irdik. Issiq uychaning yorug' maydon-chasida biznikilar yig'ilishdi: Yurka Petrov ko'zboylog'ichlik qilyapti. Tyurina ko'zga tashlandi, hatto yaxmalakka ham yo'l bars terisini yopinib kelibdi. Ladeynikov Lida Vakkarning qo'lidan tutib olibdi, mitti Chernov uzun «norvegcha»sini kiyibdi. Keyin ko'zida qora bog'ichli Karneyevni payqab qoldim – jarohatlarini ko'z-ko'z qilgani kelibdi-da! Qiziq, u kim ko'zini ko'kartirganini bolalarga aytdimikin?

Biz yaxmalakning qorong'i tomoniga o'tganimizda ortimdan Ninaning siqib turgan qo'llarini his qilmay qoldim va keskin to'xtadim.

– Charchadim! – dedi Nina qo'lqopi bilan qizarib ketgan yuzini artganday. – Yur, o'zimiznikilar yoniga boramiz.

– Bormayman.

– Yursang-chi, Yurka qo'lini «to'pponcha» qilib o'qtalyapti.

– Mayli, boraver... Qara, Karneyevni kim bo'yab-bejab qo'yibdi?

– Bilmadim. Xohlasang, so'raymi?

Javobni kutib o'tirmay, Nina issiq uycha tomonga uchdi.

Hammasi to'g'ri. Ninadan xafa bo'lish o'rinsiz. Oxir-oqibatda, men na Shepelev, na Konrad Veydt bo'lmasam. Yurka Petrov qo'lini «to'pponcha» qilib o'qtalibdi, bu esa har kimga ko'rsatilmaydi... Men qizil sviter va qizil qalpoqcha kiygan Ninaning muz ustida qanchalar yengil uchib borayotganiga tikilib turganimda to'satdan orqa tarafda xavf sezganday bo'ldim. O'girilib, yaqinlashib kelayotgan Kalabuxov, Lyalik va Gulkaga ko'zim tushdi. Har uchalasi konkisiz, ko'chada yurganday kelishardi, issiq uycha tarafga madad olishga chopsam ham bo'ladi. Ammo bunday qilo'masligimni tushundim. O'rtoqlarim yonimda turibdi, lekin ularga «Yordam bering!» deya qichqirmayman-ku!

Kalabuxovning g'alati qoidasi bor: agar Nina yonimda bo'lmasa, hech qachon jang boshlamaydi. Hozir ham shunday bo'ldi, u menga o'qrayib qaradi-da:

– Bu yerdan tuyog'ingni shiqillatib qol-chi! – dedi.

Qo'lida ingichka temir tayoqcha bor ekan, shu tayoqcha bilan oyog'imga bir tushirdi. Kalabuxovning qilig'iga e'tibor bermay, yaxmalakdan sekin chiqib ketsam ham bo'lardi. O'zim janjal qo'zidim, to'g'rirog'i, do'pposlashlarini istadim. Bu qandaydir g'alati, o'zimdan o'zim qasos olishday edi. Kalabuxovning qo'lidan tayoq-chani tortib olib, qor uyumidan nariga otib yubordim. Ular birdaniga menga tashlanishdi. Konki hech qanday yordam bermadi, aksincha: faqat Lyalikning oyog'iga konki bilan tepishga ulgurdim, shunda ikkinchi oyog'im sirg'alib yiqildim. Men endi qarshilik qilolmasdim, faqat yuzim va qornimni to'sardim, xolos.

Konkida uyg'a qaytish juda qiyin bo'ldi. Oyoqlarim paxtaga o'xshab qolgan, qoqinib-suqinib borarkanman, bir marta tirsagimni tirab yiqildim, yomon og'ridi. Konkini yechib olib, paypoqchan ketishga ham rozi edim, ammo muzlab qolgan ipini yechishga qo'lim qovushmadni. Shishib ketgan dahshatli burnimni keyin ko'rdim, pushti tepalikday yuzimni to'sib, terimni tortib turardi.

– Senga nima bo'ldi? – dahshatga tushib xitob qildi oyim, men konkini bilan eshikni taqillatib, uyg'a kirganimda.

– Yuzimni bosib yiqildim.

– Negadir yuzing bilan ko'p yiqilyapsan. Qo'rg'oshin malham qo'y.

Men deraza yonida turardim, burnimga qo'rg'oshin malham qo'ydim va yana o'yladim: hozirgi mushkul ahvolimni go'yo qadim-

qadimda bo'lib o'tgan arzimas voqeadek o'ylaydigan kun kelarmi-kin?

Qor bosgan tomlar uzra oyning ko'kimdir nuri taraldi, samoda Ivan Grozniy davrida qurilgan ko'hna cherkovning gumbazlari qorayib ko'rindi, uylarning derazalarida shinam chiroqlar porladi. Ertaga ham qor shunday oy nurida ko'kimdir tovlandi, gumbazlar qorayadi, chiroqlar ollanadi, sariqlanadi va atrof olamdag'i hech narsa o'zgarmaydi, faqat mengina hayotimni boshidan boshlashim kerak.

Qaydadir o'qigan edim: er kishi yengilishni bilishi kerak, erkanning kuchi mag'lubiyatda sinaladi. Men aybdorman va o'z aybimni yaxshi bilaman, boshqalardan marhamat kutmayman. Har qanday jazoni mardlarcha ta'zim bajo etib qarshi olaman...

Ertasi kuni maktabga bordim. Guruh kengashiga kirolmasligimni his qildim. Kechagi roiyishligimdan iz ham qolmagandi. Butun borlig'im o'sha shafqatsiz hukmga, ya'ni – bunga sira shubham yo'q – menga beriladigan jazoga qarshi kurashga shaylangandi.

Maktabga borishning o'rniga «A» aylana yo'lidan dunyo bo'yab sayohatga jo'nadim. Bu kichik sayohatning noqonuniyligi kechin-malarimga alohida keskin va g'ayritabiyy tus berdi. Shahar hayotida qandaydir ikkinchi, sirli fikrlar yashiringanday tuyuldi. Chananing baland o'rindig'ida tik turgan qalin po'stinli izvoshchilar otlarini bekorga qamchilamaydi: ular qor bosgan olis ko'chalarda yo'lovchilar uchun quvonchli, sirli nimadir borligini biladilar. Mashinalar bekorga signal chalib, ko'chadagi tiquilinchni shiddatli yorib o'tib, bir-birini quvib, noma'lum sovrin sari intilmaydilar. Tramvay bekatlari va avtobus eshiklariga odamlar bekorga guvillab yopirilmaydi – ular ham qandaydir bayramga oshiqmoqda. Men shaharning baxtli odamlarga, baxtli mashinalarga, baxtli tulporlarga to'lib-toshganini his qildim. Keyin esa ertaga ish kuni emasligi va atrofdagi barcha odamlar dam olishga shoshilayotgani yodimga tushdi...

Avtobusning muzlagan oynasini eritib kichkina toza tuynukcha ochib olgandim, darrov xira naqsh qoplabdi, uni yana og'zimning hovurida eritib, odamlarni, mashinalarni, ot tuyoqlarini tomosha qilib bordim, lekin ko'chalar notanish, birdan «Markaziy» kinoteatri afishasini ko'rgach, ajablandim. Keyin Gogol xiyoboniga kelib qolganimizni angladim, birdan shundoq oynanining yaqinida Moskva-daryo sohilidagi tosh panjarani ko'rdim va qor bosgan oppoq daryoga

tikildim, keyin Yauz darvozasini tanimay, non do'konlari eshiklari ustidagi zarhal kulcha surati tushirilgan ikki qavatli uylarni ko'rgach, qandaydir boshqa, notanish chet bir shaharga kelib qoldimmi, deb o'yladim. Nihoyat, Tiniq ko'lga yetib keldik. Men to'liq aylanib keldim, endi tushish kerak: chiptachi ayol anchadan buyon menga qarab qo'yyapti.

Keyin ko'chada ancha daydib yurdim va tushundimki, maktabga bormaganlar – dunyodagi eng baxtsiz bolalardir. Ihsiz, bekorchi, zerikarli, nima qilishingni bilmay yurish azobning o'zi, vaqt to'xtab qolganga o'xshaydi.

Hovliga tagi yerga tekkuday, musallas to'la bo'chkalar yuklangan ulkan chanalar kirib keldi. Yuqorisi qo'y terisidan tikilgan sassiq brezent yopinchiq kiygan, yuzlari ko'kimir yuk tashuvchilar charchoq nima bilmay dunyodagi hamma narsani bo'ralab so'kishardi: sovuqni, aravaga qo'shilgan, yolini qirov bosgan qizil ko'zli otlarini, bir-birini, hatto o'zi ham chetda qolmasdi. Bo'chkalarini aravachaga yuklab, yerto'laning qorong'i qa'rige olib tushib ketishdi, yuk tashuvchilar esa so'kinishib arava shotisini g'iyqillatib, chang'isini chiyillab chanani ortiga qaytardi; otlar hovur chiqib turgan yangi tegagini bosib, ortiga yelib ketdi. Hovlidan so'nggi chana chiqqandan keyin yerto'laning tunuka qoplangan darvozasining tavaqalari taraqlab yopildi, shundagina uyga qaytish kerakligini o'yladim: soat uchga borib qolibdi.

Uyga kirkach, eng azobli damlar boshlandi. Har o'n-o'n besh daqiqada Pavlikka qo'ng'iroq qilaman va onasi Pavlik hali maktabdan kelmagani haqida quruqqina javob beradi. Guruh kengashi darrov tugamasligini, Pavlik maktabdan chiqib, mening yonimga yetib kelishini ham yaxshi bilaman, shunday bo'lsa-da, qo'ng'iroq qilaveraman. Qorong'i tushdi, biroq chiroqni yoqish xayolimga kelmabdi. Xona qorong'i bo'lsa, deraza ortidagi qor shunchalik yorug' ko'rinarkan.

– Nega qorong'ida o'tiribsan? – dedi Pavlik, eshikdan kirib, chiroqni yoqarkan.

Yorug'likdan ko'zlarim qamashdi, esnab, ko'zlarimni ishqalab, shunday dedim:

– Nima gaplar, nima qildingiz u yodqa?

– Qayoqda? – dedi esnab (u gapni aylantirishni yoqtirmasdi) Pavlik ham.

- Guruh kengashida, telba!
- Bu boshqa gap! Hammasi yaxshi, bo'yinbog'ing joyida qoldi.
- Bekor aytibsan! – qichqirdim men va qo'limda beixtiyor bo'yinbog'im uchini siqib.
- Qani, o'zingni bos.
- Kechir, iltimos... E'tibor berma. Nimalar bo'lganini aytib ber.
- Boshida rasvo bo'ldi. Lina haydashni talab qildi. Rumyanseva uni qo'lladi. Majura qora bulutdan battar o'tirgandi, hamma u ham seni haydash tarafdoi ekaniga ishonch hosil qilgandi... Lekin keyin Karneyev nutq so'zлади...
- U nima dedi?
- Hammasini aytishga arzimaydi – manmanlikka berilasan. Umuman, u sen bilan razvedkaga borishi mumkin ekan. Shunda Majura kului: «Qoyil, do'stingni yaxshi himoya qilding!» – «U umuman do'stim emas, o'rtoq – xolos, biz do'st emasmiz». – «Nega?» Karneyev qizardi: «Aytaman! Rakitin o'zi, guruhdagilar orasidan eng ko'p ishlashi mumkin, ammo guruh ishini tashkil qilishni bilmaydi. Shunisi afsuslanarli...»
- Quloq sol! – qichqirdim men. – U mutlaqo haq, men guruh sardorligini eplolmayman!
- Nihoyat, tushunding...

Endi hammasi ayon. Nafaqat buni tushundim, boshqa ko'p narsalarni, hammasidan ham kechirish, avf etishning cheksiz qudratini his etdim. Butun qalbim yorqin va bir tekisda yog'ilgan shu'ladan yorishdi, manmanlik, o'zimga achinish, maydakashlik hislari berkingan biron ta ham tuynuk qolmadi.

Derazaning yoniga keldim, qor, tormlar, gumbaz, chiroqlarga ko'z tashladim va ularga kecha qanday qaraganimni esladim. Hammasi o'ylaganimdan boshqacharoq bo'lib chiqdi. Falokat kutilmagan tezlikda aridi, lekin nimadir arimadi, bu esa alam yoki qayg'u emas, bu o'zligimning yangi parchasi, u toabad qoladi.

JENYA RUMYANSEVA

Mana, maktabdag'i hayotimizning so'nggi kunidagi so'nggi dars ham yakuniga yetdi. Oldinda uzoq va og'ir sinovlar turibdi, ammo endi hech qachon dars bo'lmaydi. Seminarlar, ma'ruzalar, suhbat-

lar bo'lishi mumkin – hammasi kattalar aytadigan so'zlar! – oliv o'quv yurtining auditoriyalari va laboratoriyalari kiramiz, lekin endi biz uchun sinf xonasi va partalar yo'q. O'quvchilikning o'n yili qo'ng'iroqning xirqiroq jarangi ohangida tugadi, o'qituvchilar xonasida paydo bo'lgan bu sado ovozlar qo'shilib, o'ninchisi sinflar joylashgan bizning oltinchi qavatga biroz kechikib ko'tariladi.

Biz barchamiz hayajonlanib, to'lqinlanib, quvonib va nimagadir qonmaganday, arz qilmoqchiday, bir lahzada oddiy o'quvchidan katta odamga aylanib qolganimizdan, endi uylanish ham mumkinligidan sarosimaga tushganday va ajablanganday, sinf xonalarida va yo'laklarda egilib, go'yo maktab devorlaridan oshib, chek-chegarasiz tuyulgan dunyoga chiqishdan cho'chigandek yurardik. Shunday tuyug'u ham bor ediki, o'tgan o'n yil davomida nimadir o'mniga tushmagandek, nimadir nihoyasiga yetmagandek, biroq to'satdan ushbu kun kelib qolgandek tuyulardi.

Ochiq derazalardan samoviy moviylik oqib kirdi, tokchalarda kabutarlar g'udurladi, shoxlari tarvaqaylagan daraxtlar va yangi bosilgan asfalt hidi dimoqqa urdi.

Sinf xonasining eshigi ochilib Jenya Rumyanseva alanglab qaradi:
– Seryoja, bir daqiqaga chiqolasanmi?

Men yo'lakka chiqdim. Bu odatdagiday bo'limgan kunda Jenya menga butunlay odatdan tashqari ko'rindi. U har doimgiday noqulay kiyimda: yubkasi kalta, tizzasidan yuqori, o'tgan yili ham shu kiyimda edi, ko'ksi to'g'ri kelmaydigan jun kofta, uning ostidan esa yuvilaverib rangi o'ngib ketgan oq-ko'kimtir ko'ylak, oyog'ida poshnasiz bolalar tuflisi, uchi to'mtayib turibdi. Jenya singlisining ust-boshini kiyib olganga o'xshardi. Uning qandaydir to'g'nog'ich, qisqichlar bilan turmaklangan katta, kulrang sochi kichkina yuzini ochiq qoldirib, peshonasi va yuzining chetlarini to'sib turar, bir tutam sochi esa puchuq burniga tushib qolaverar, o'zi asabiylashib sochini chetga suraverardi. Undagi yangilik – yuziga chiroy bergen yupqa qizillik, katta, kulrang ko'zlarning jo'shqinligi, dam jiddiy-harakatchan, dam hayajonli – hech narsani ko'rmay porlashi edi.

– Seryoja, senga bir gap aytishni istayman: kel, o'n yildan so'ng ko'rishaylik.

Jenya hech qachon hazillashmasdi, men ham jiddiy so'radim:
– Nega?

– Sen kim bo‘lishing men uchun qiziq. – Jenya sur sochini chetga surdi. – Shu yillar davomida hamisha menga yoqqansan.

Jenya Rumyansevaga bu so‘zlar, bu tuyg‘ular begona bo‘lsa kerak, deb o‘ylardim. Uning butun hayoti ikki sohaga bo‘lingan: jamoat ishlarida faollik – u bizning sinf kotibi bo‘lgan – va yulduzlar olamini orzu qilish. Men Jenyaning ishdan bo‘sh vaqtida yulduzlar, sayyoralar, koinot, samoviy hodisalar, fazoga parvozlardan boshqa mavzuda gap ochganini hech qachon eshitmaganman. Oramizda ko‘pchilik kelajakda kim bo‘lishini aniq bilardi, Jenya oltinchi sinfdan buyon, astronom bo‘laman, derdi.

U bilan oramizda hech qanday do‘stona munosabatlар tug‘ilmagan, biz boshqa-boshqa sinfda o‘qirdik va faqat jamoat ishlarida uchrashib turardik. Bir necha yil avval bir nojo‘ya ishim uchun guruhdan haydashlariga sal qolgan. Bolalar mening tarafimda suyanch tog‘i bo‘lib turishdi va bo‘yinbog‘imni saqlab qoldim. Faqat Jenya, maktabimizga yangi kelgan payti edi, oxirigacha menga qarshi turdi. Bu esa o‘zaro munosabatlarimizga murosasizlik muhrini bosib bo‘lgandi. Keyinchalik bilishimcha, Jenya o‘ziga ham, boshqalarga ham shafqatsizlarcha talabchan, biroq yuragi toza ekan. U yuragining tub-tubigacha toza, sodiq va chidamli, atrofidagilardan ham shunday bo‘lishni talab qildi. «Mard va gina qilmaydigan jo‘mardto‘ra» emasdym, uning hozirgi kutilmagan e’tirofi meni ajablantirdi va xijolat qilib qo‘ydi. Gapning tagiga yetish uchun o‘tgan kunlarni o‘yladim, ammo-lekin Tiniq ko‘ldagi bir uchrashuvdan boshqa hech bir aytarli voqeani eslolmadim...

Bir gal yakshanba kuni qayiqda sayr qilish uchun Ximki suv omboriga borishni rejalashtirdik. Tiniq ko‘ldagi katta shiyponda yig‘iladigan bo‘ldik. Biroq ertalabdan yomg‘ir quyib berdi, yig‘ilish joyiga men, Pavlik, Nina Varakina va Jenya Rumyanseva kelibmiz, xolos. Nina yakshanba kuni uyida o‘tirolmagani uchun kelgan, men Ninaning ortidan, Pavlik esa mening ortimdan kelgandi, Jenyaning nega kelganini tushunmadik.

Jenya bizning kamtarona ziyofatlarimizda ko‘rinmas, bizga qo‘silib kinoga, Madaniyat bog‘iga, «Ermitaj»ga ham bormasdi. Hech kim Jenyani ikkiyuzlamachilikda ayblolmasdi, shunchaki uning vaqtı yetishmaydi: u MDU qoshidagi astronomiya to‘garagiga qatnaydi va planetariyda ham nimadir qiladi. Jenyaning tirishqoqligi uchun hurmat qilar va unga halal bermaslikka urinar edik.

Mana, biz katta ochiq shiypon, haybatli taxta soyabon ostida, xi-yobonning o'rtasida o'tiribmiz. Yomg'ir dam katta-katta qamchilari bilan yerni savalar, dam ko'zga ilashmas darajada nozik ipga aylanar, biroq bir lahma tinmasdi. Kulrang bulut to'dalari zarra nur o'tkazmay tomning ortiga surilardi. Ximkiga borish haqida gapirmasa ham bo'ladi. Lekin Jenya qat'iy turib bizni borishga undadi. U har do-imgi qat'iy tartibini birlinchi marta buzib keldi, endi nimadir qilish kerak-da! Baxmal kamzulining tugma qadaladigan teshigiga kulcha o'ralgan tuguncha osilgan. Bu tugunchada yana qiziq nimadir borday tuyuldi. Aftidan, qahvaxona, restoran yoki biron joyda nonushta qilib olish mumkinligi uning xayoliga kelmagan, odatda, biz safarga chiq-qanimizda shunday qilamiz. Tugunchaga qiziqib qolib, taklif etdim:

— Kelinglar, ko'lda suzamiz, — dedim issiq uycha yonida burnidan tortib qo'yilgan yassi qayiqqa ishora qilib, — va o'zimizni Ximkidagi-dek tasavvur qilamiz.

— Yoki O'rtayer dengizida, — qo'shimcha qildi Pavlik.

— Yoki Hind ummonida, — zavlanib ketdi Jenya, — yoki Grenlandiya sohillarida!

— Cho'kib ketmaymizmi? — so'radi Nina. — Achinarli bo'lardi: axir, men MXATda¹ bo'ladigan taqdimotga taklif etilganman.

Ko'ngil ochilmadi. Biz qirg'oqdan ikkita taxtachani oldik, qayiq tubidagi suvni chiqarib tashlab, olamga sayohatimizni boshladik. Bu sayohat Jenyadan tashqari hech birimizga yoqmadni. Pavlik ikkimiz sumalanib taxtachani eshkak qilib esharkanmiz, Jenya sayohatimiz yo'nalishini o'ylab topardi. Mana, biz Bosfordamiz, Suesk kana-li orqali Qizil dengizga o'tamiz, u yerdan Arabistonga, Katta Zond orollari bo'ylab suzamiz, keyin Filippin va Tinch ummoniga chiqib olamiz.

Jenyaning kechikkan bolaligi ta'sirchan va yoqimli, ammo unda yana achinarli nimadir bor edi.

— Qarang! — dedi Jenya daraxtlarning yomg'irda yaltiragan yap-roqlari ortidagi «Kolizey» kinoteatrining namiqib qoraygan ustunlari tomonga ishora qilib. — Ana palmalar, chirmoviqlar, fillar, biz Hind sohiliga yaqinlashdik!

Biz o'sha tomonga qaradik. O'n yetti yoshda bo'lganidek, biz hali mo'rt, arzimas ta'sirdan ozor chekadigan, istehzolardan, arzimas

¹ MXAT — Moskva badiiy akademika teatri (abbr.)

hayosizliklardan tortinadigan ichki dunyomizni himoya qilardik va o'zini bunchalik soddalarcha ochiq tutishni tushunolmasdik.

– Biz dahshatli Sulaymon orollariga yaqinlashdik! – qo'rqinchli ohangda e'lon qildi Jenya.

– To'g'ri! – tasdiqladi Pavlik, oramizdag'i eng marhamatli inson. – Ana, mahalliy odamxo'rlar, – u tiniqko'llilik bolalar galasi tomonga ishora qildi, ular hovuzning chetida yig'ilib, popiris chekishardi.

– Zambaraklarni o'qlang! – buyruq berdi Jenya. – To'plarni keltiring!

– Jenya, ko'zingni och, bu. axir, mustamlakachilik-ku, – dedim men.

– To'g'ri! – jilmaydi Jenya, o'ylab topgan gapiga qo'shilganimizdan quvonib, soddako'ngilligi uchun istehzo qilganimizni pay-qamay. – Biz ularning yoniga oliyanob do'star singari bormog'imiz lozim. Ularga mehnat qurollari, asbob-uskunalar, dori-darmonlar yet-kazib beramiz...

– Bibliyaning o'miga – Abramovich va Golovenchenko darsliklarini, – to'ldirdi Pavlik.

Yomg'ir ostidagi zerikarli sayohatimiz davom etardi. Jenya to'xtovsiz buyruq berardi: «Chapga buring!», «O'ngga buring!», «Yelkanlar ko'tarilsin!», «Yelkanlar tushirilsin!» – yulduzlarga qarab yo'lni aniqlardi: kompasimiz bo'ron turganda yaroqsiz holga kelgan ekan. Bu esa unga bizni astronomiya sabog'i bilan mehmon qilish imkonini berdi, lekin yodimda qolgani – ekvator ortida yulduzli osmon teskari ag'darilganday ko'rinarakan. Keyin biz halokatga uchradik, Jenya bizga «so'nggi qotgan non»ni – namiqqan kulchasini bo'lib berdi. Biz xomush chaynaldik, Jenya esa Robinzonday hayot kechirishni yaxshi ko'rishi haqida so'zladи.

Mening ust-boshim jiqla ho'l bo'ldi, o'zim charchadim, qo'limga zirapcha kirdi – bularning barchasi meni taportmasga aylantirdi va «Robinzon Kruzo»dan ko'ra oddiyoq kitob yo'q, dedim.

– Butun kitob mayda-chuyda tashvishlar, oziq-ovqat, kiyim-kechak singari ashqol-dashqollardan iborat. Oxiri yo'q yemish-u lash-lushlar... Turmush tantanasi madhi!..

– Men esa sen aytgan ashqol-dashqollardan ortiqroq hayajonli narsalarni bilmayman! – dedi Jenya ko'zlarida yosh bilan. – Kitobda qancha kenglik, tabiat hodisalari, orzular...

Bizning tortishuvni Nina Varikina to'xtatdi, u birdan qichqirdi:

– Ura! Qig'oq ko'rindi!

– Qani? Qani? – sarosimaga tushdi Jenya.

– Mana u, issiq uycha yonida, – odatdag'i ohangda dedi Nina. – Bo'ldi, yetib keldik! Bolalar, men sovqotdim, bir qultum konyaksiz isimayman.

– Pokrovkaga ketdik, yozgi qahvaxonaga, – taklif qildim men.

Jenya bizga qarab dovdirab qoldi, uning yonoqlari qizardi.

– Nima? – mardona dedi u. – Ishrat bo'lsa, ishrat-da!

Biz qoziq tarafga qarab suzdik, qirg'oqqa chiqdik va kutilmagan-da eski dushmanim Lyalikka duch keldik. Keyingi yillarda bezorilik qilib, axloq tuzatish koloniyasida yotib kelgandi. Ancha pishibdi, yelkalari kengayib, yer ostidan qaraydigan, o'zini haqiqiy bezoridek tutadigan bo'libdi. Bizga tenglashib kelib, bir yelkasi bilan meni, boshqasi bilan Pavlikni turtib, aynib so'kindi. Hozir jinoiy shonshuhrat og'ushida o'zini bemalol tutardi. Bizga uning o'zi emas, qamalib kelgani qo'rqinchli tuyuladi. U taqdirining jirkanch ustuvorligi bilan balanddan kelar, biz uning oldida arzimas oqbilak, onasining erkatoyiday tuyulardik, bu ashaddiy bezoriga teng kelolmasdik.

– Tilingni tiy, bezori! – qichqirdi Jenya, u Lyalikning kimligini bilmasdi.

Lyalik indamay burilib, biz tomonga kela boshladi. Ammo Jenya uni yarim yo'lda oldini to'sib chiqdi. U bezorining somon ayvonli eski kepkasini burnigacha tushirib, ko'kragidan qattiq itarib yubordi. Lyalik maysazor chetidan tortilgan sim ustidan oshib yiqildi, keyin o'mbaloq oshib, butazor ichiga kirib ketdi.

Ma'lum bo'ldiki, Lyalik ham bizga, Pavlik va menga o'xshagan bolakay, dahshatli ko'rinishi esa bir chaqa ekan.

– Nega turtasan? – g'o'ldiradi u shikoyatomuz, ko'zini to'sib qolgan kepkasini to'g'rilashga urinib.

Keyin biz yozgi qahvaxonada, namiqqan yo'l-yo'l chodir ostida o'tirdik, qahvaga konyak qo'shib ichib, ostidan muzqaymoq yedik. Jenya aftini burishtirib bir qadahcha ichdi, uning ulkan qalin sochidagi to'g'nog'ichlar bir harakatdan to'kilib tushdi, u qizarib o'zini «mayxo'r» va «o'nglanmas yurak» deya qattiq-qattiq tergay boshladi. Biroz xijolat bo'ldik, bizga boshqa konyak berishmasa-chi, deya tashvishga tushib qoldik, chunki Jenya o'zining katta yozilgan soch-

lari, yumaloq ochiq oyoqlari, kalta ko'ylagi bilan bu yerda hech qachon ko'zga tashlanmagan-da. Buning ustiga, Jenya birinchi fazoga ko'tarilishda halok bo'lishini, chunki koinotni qurbanlarsiz egallab bo'lmasligini, boshqalar emas, o'zi munosib qurban ekani haqida so'zlardi. Biz uning samimiyo so'zlayotgani, o'zining qalban ustunligiga shubha qilmasligini bilardik va bu bizni kamsitardi. Biz konyak ta'sirida ham bunchalikka bormasdik, omon qolish uchun qandaydir imkon topardik...

Shu o'tirishdan so'ng Jenya bizga qayta qo'shilmadi. Uni bir necha marta davramizga taklif qildik, lekin fursati yo'qligini aytib, rad etdi. Balki haqiqatan ham vaqt yo'qdir, ko'p ishga ulgurishi kerakdir. O'shanda bir marta men uchun, boshqa barcha ishlarini tashlab, mag'rur va rostgo'ylik qilib kelgandir: biroq natija chiqmagan...

– Nima uchun avval aytmadning, Jenya? – so'radim men.

– Nega endi aytishim kerak ekan? Senga Nina juda yoqadi!

Qandaydir ranj va qayg'uli yo'qotishni his etib, shunday dedim:

– Qayerda va qachon uchrashamiz?

– O'n yildan so'ng, yigirma to'qqizinch may, oqshom soat sak-kizda, Bolshoy teatr ustunlarining o'rtasida.

– Ustunlar soni toq bo'lsa-chi?

– U yerda sakkizta ustun bor, Seryoja... O'sha vaqtida men taniqli astronom bo'laman, – qo'shimcha qildi u jiddiy, xayolchan va ishonch bilan. – Agar juda o'zgarib ketsam, portretimdan tanib olasan.

– Mayli, o'shanda men ham mashhur bo'laman... – dedim va jimib qoldim. Men o'zimni kim bo'lishimni, qaysi sohada shon-shuhrat qozonishimni, hatto qaysi institutga kirish uchun ariza berishimni ham o'ylab ko'rmagandim. – Har ehtimolga qarshi, moshinnamni haydab kelaman...

Bu ahmoqona gap, ammo boshqa so'z topolmadim-da.

– Mana bu yaxshi, – kului Jenya, – meni shahar bo'ylab aylantirasan.

Yillar o'tdi. Jenya Leningradda o'qidi, u haqida boshqa biron gap eshitmadim. 1941-yilning qishida do'stlarim haqidagi xabarlarg'a intiq bo'lib, Jenyaning urushning birinchi kuniyoq o'qishni tashlab, uchuvchilar mакtabiga borganidan ogoh bo'ldim. 1944-yil yozda gospitalda yotganimda aviatsiya mayori Rumyansevaga qahramonlik unvoni berilganini radiodan eshitdim. Urushdan qaytib kelganimda, qahramonlik Jenyaga vafotidan so'ng berilganini aytishdi.

Hayot yana davom etdi, har zamonda oradagi va'damiz yodimga tushib qolardi, belgilangan vaqtga bir necha kun qolganda qalbimda shunchalik o'tkir, chidab bo'lmas bezovtalikni his qildimki, go'yo o'tgan yillarni faqat shu uchrashuvni kutganday bo'ldim.

Men Jenyaga va'da bergenimday mashhur bo'lmadim, lekin bir narsada uni aldamadim: o'ljaga olingen mashinalar uyumidan sotib olgan eski «opel»im bor edi. Yangi kostyumimni kiydim, yoqilg'i-ga yuradigan ko'nkamni shaylab, Bolshoy teatrga jo'nadim. Agar u yerda Jenyani uchratganimda, har maqomga yo'rg'alaganimdan keyin va nihoyat, o'z yo'limni topganimni aytmoqchi edim: hikoyalar to'plamim nashr qilindi, hozir yangi asar yozyapman. Bular men yozishni xohlagan o'sha kitoblar emas, ammo-lekin yangi-yangilarini yozishimga ishonaman.

Men mashinamni bog' chetiga to'xtatib, gul do'konidan marvaridgul sotib oldim va Bolshoy teatr ustunlarining o'rtasiga keldim. Haqiqatan, sakkizta ustun bor ekan. U yerda birpas turdim, keyin gullarni yengil shippak kiygan ku'lrang ko'zli ozg'in qizga berdim va uyga qaytdim...

Bir lahza bo'lsa-da, vaqtini to'xtatgim, o'zimga, o'tgan yillarga qaragim keldi, kalta ko'ylik va tor kofta kiygan qizni eslagim, og'ir, ortga qayrilmaydigan qayiqni, yomg'irni, hovuz ustini qoplagan sarg'ish tikanli novdalarni, hayajonli: «Biz Hind sohiliga kelib qoldik!» degan qichqiriqni, taqdir bo'lishi mumkin bo'lgan voqealar yonidan o'tgan so'qir bolaligimni, o'smir qalbimni eslagim keldi.

YIGIRMA YILDAN SO'NG

Bir kuni, kuzning boshida, telefon jiringladi – meni Moskvadagi maktablardan biriga adabiy uchrashuvga taklif qilishdi.

- Qayerga borishim kerak? – so'radim men.
- O'zingiz o'qigan maktabning shundoq yonginasida.
- Qayerdan telefon qilyapsiz, men o'qigan maktab qayerda joylashgan?
 - Bir daqiqa...

Qandaydir shitirlash eshitildi, go'shakni boshqa kishiga beryapti, deb o'yladim, ma'lum bo'lishicha, vaqt mashinasini ishlab ketibdi: bir lahzada yigirma yil ortga chekindim, tanish ovoz eshitildi.

- Salom, Seryoja. Seni hozir ham shunday atash mumkinmi?
- Salom, Nina.
- Biz tomonga kelasanmi?
- Siz tomonga?
- Men bu yerda jismoniy tarbiyadan dars beraman.
- Albatta, boraman.
- Eski Mashkov torko'chasida, Tiniq ko'lida.
- Bilaman.
- Mayli, seni kutamiz. Rozi bo'lganining uchun rahmat.
- Arzimaydi...
- Salomat bo'l.
- Xayr.

U tomondagilar telefon go'shagini qo'yib bo'lgandi, shoshilib, cho'chigandek ovozda so'radim:

- O'zing yaxshimisan?

Biz Nina bilan mакtabni tugatgan kunga, ko'rishmaganimizga yigirma yil bo'ldi. O'shangacha qo'shnichilik ham tugagandi: otamga Kengashlar Saroyi yaqinidan xonodon ajratishdi. Tibbiyat institutiga kirish imtihonlariga tayyorlanar ekanman, Nina sinfdoshimiz Lemeshev emas, Babochkin emas, Konrad Veydt emas, shunchaki – su-yagi mo'rt, poyabzalining bog'ichi uzun, doim velosiped poygasida, chang'i cho'qqisida yoki Tiniq ko'l yaxmalagida oyog'ini sindirib yuradigan Yurka Petrovga turmushga chiqqanini eshitdim. Bu menga mudhish tahqirlashdek tuyuldi, qolaversa, Nina unga umuman e'tibor bermagandi.

Urushdan keyin sinfdoshlarim bilan aloqalarim butunlay uzildi. Eng yaqin do'stlarim – Pavlik Arshanskiy, Boris Ladeynikov singarilar urushda halok bo'ldi, Jenya Rumyanseva ham frontdan qaytmadi; Karneyev Moskvadan butunlay ketdi – Irkutsk universitetida kafedra mudiri ekan; qolganlar ham shahar va qishloqlarga sochilib ketdi. Maktabimiz binosi saqlanib qoldi, u qandaydir kengash markazi bo'ldi, ammo keyin to'lig'icha Pedagogika fanlari akademiyasiga berildi.

Bir gal ko'chada oq-sariqdan kelgan Chernovni ko'rib qoldim, hayratlanarlisi, u hayvon – dengiz sherlari – o'rgatuvchi bo'libdi. Chernov bir marta sinfdoshlarni yig'ishga harakat qilganini aytdi, lekin kutilmagan g'ovga duch kelibdi: sinfdosh qizlarimiz erining familiyasiga o'tib, qidirib topib bo'lmas holga kelibdi.

Nina bilan telefondagи qisqa suhbatimiz meni g'ayritabiyy hajajonga soldi. O'tgan yigirma yilda shunchalik keskin, mashaqqatli hayot yo'lidan o'tibmanki, maktabdagи yagona va birinchi muhabbatimning izi ham o'chib ketibdi, aslida, xotiram emas, balki men uchun birinchi, butunlay ro'yobga chiqmagan sevgi chuqur, o'chirib bo'lmas alam edi. Biroq hayajonim tez orada bosildi – yigirma yil, nima desang ham, xotirasi kuchli yurak uchun ancha katta vaqt.

Men uchrashuvga biroz kechikib bordim. Nina maktab ostona-sida kutib turgan ekan. Uni uzoqdan tanidim – deyarli o'zgarmabdi.

– Mana, sevgining so'ngani shu-da, – dedi Nina, qo'limni kichkina qo'li bilan qattiq siqib. – Avval hech qachon kechikmasding. Tez-roq yur, bolalar kutib qoldi.

Men ikki hidni e'tiborsiz qoldirolmayman: bo'r aralashmasi bilan maktabni dezinfeksiya qilgandagi va askar etigini moylagandagi hidrlarni, unisi ham, bunisi ham ko'plab xotiralar uyg'otadi. Maktablarda va harbiy qismlarda so'z berishsa, dastlabki soniyalarda hu-shimni yig'olmayman. Bu safar mening hayajonim yanada kuchayib ketganiga sabab o'ng tomonimda, biroz devorga suyanganicha, boshini quyi solintirib Nina Varakina turardi. U qanchalar yosh ko'rindi, qaddi-qomati kelishgan, sarvqomat! Unga qarab jismoniy tarbiya zalining toza havosini, sport anjomlari, kurash maydonchalarini, o'zgarmas tetiklikni his etasan, bularning barchasi o'tirib ishlaydigan kishiga begona. Ha, u umuman o'zgarmagan va baribir, butunlay boshqachaday tuyuldi. Avvalgi qizlikdagi noaniqlik, mavhumliklardan asar ham qolmabdi – to'la, chinakam yetuklik. U mutlaqo xotirjam, o'yladimki, o'tmisht haqida xotirjam suhbat qursak kerak.

Shunday o'ylarga g'arq bo'lib, adabiyot muallimi ishorasi bilan biri ortidan biri chiqayotgan o'quvchilar xijolat bo'lib, so'zlarni yamlab, mening qaysi bir hikoyamni aytib berishdi. Keyin bolalar ning juda sezgir bo'lishini eslab, Nina tomonga qaramay o'tirdim. Bu mitti kuzatuvchilarga mutlaqo so'z berib bo'lmaydi. Men boshimni siltab ma'qullab, jilmayib o'tirdim – bir so'z bilan aytganda. bolalarning chiqishlariga qiziqishimni sezdirib qo'ydim.

Bolalar jamlangan bu xonada g'alati, xavotirli qandaydir kuchi ni his qildim, bugun menga nimadir bo'ldi. Uchinchi qatorning eng chetida baqaloq, sochi qo'ng'iroq bolakay o'tirar va og'zini xorg'in ochib, janub go'zallariga xos yondiruvchi, mastona ko'z tikar edi.

Maktabdosh do'stim Misha Xorokning quyib qo'yganday o'zi! Uning chap tomonida bo'yi shiftga tekkuday, nozik, bo'yni ingichka, burni turtib chiqqan qiz Lidka Vakkar – bizning eng yaxshi gimnasti-kachi qizimiz – bukologik yozuvchimizga o'xshaydi. Xuddi vasvasa-ga tushganday, qarshimda Borka Ladeynikov, Pavlik, Tyurinni va bu-tun sinfimizni tasavvur qildim. Keyin oxirgi qatorda kattagina bola, deyarli o'smir, xuddi menga o'xshaydi: tushunib bo'lmasligi ham, nozikligi ham – tomog'imga nimadir tigilganday bo'ldi. Qiziq, bu kelishgan o'smir nimasi bilandir juda tanish tuyuldi: bu ko'zlardagi ma'no, uzun, namchil kipriklar, yuzining qat'iyligi, silliqligi, chiroyli aniq chizilgan lablar va nozik yuzidagi kulgichlar. Ammo unda so-biq do'stlarimdan hech birining yuz ifodasini sezmadim. Karneyev, Pankov, Grizlov, Vorochilin bir-bir ko'z oldimdan o'tdi, birortasini bu bolaga o'xshatmadim. Uning kulganini hayajonlanib kuzatdim, to'lqinli sochlarini qo'li bilan tarab qo'ydi, og'zini kafti bilan to'sib yonidagi bolaga nimadir dedi va qiyiq ko'zları menga tikildi.

Lekin uchrashuv tugagach, mana, hamma taraddudga tushdi, er-kin ovozlar yangradi va o'sha o'smir qichqirdi:

- Oyi, uyga ketaman, kalitni berasizmi?
- Tutib ol! – xitob qildi Nina va unga bir shoda kalitni uloqtirdi, u esa, basketbolchi singari, epchil ilib oldi.
- Sening o'g'lingmi? – dedim Ninaga ko'chaga chiqqanimizda.
- Ha, kichkinam, Borka. Qiziq, uni tanimadingmi, hamma uni menga o'xshaydi deydi.
- Sochining rangi Yurkaning sochiga o'xshar ekan, mana shuni sezdim. Buncha barvasta, boshqa bolalardan bir bosh yuqori.
- Sinfda qoldi. O'tgan yili og'ir kasal bo'lib yotdi. O'n yilga qa-ridim.
- Ammo ko'rining ajoyib!
- Jismoniy tarbiya o'qituvchisi yosh ko'rinishi shart.
- Qarshimizda Tiniq ko'lning sariq daraxtlari ko'zga tashlandi, yangi to'kilgan barglarning kuchli hidi dimoqqa urdi.
- Buratinoga o'xshagan qiz Lidaning qizimasmi? – so'radim men.
- Ha-da, Mashenka Vakkar.
- Qorako'z, miqti bola Misha Xoroklardanmi?..
- Ha, uning ismi Misha Xorok.

- Mishaning o‘g‘limi?
 - Yo‘q, Tolyaning o‘g‘li. Xabaring yo‘qmi, Misha frontdan qaytmadi.
 - Nahotki, uni harbiyga olishgan bo‘lsa? Juda serniz, kuchsiz, har doim uxbab o‘tirardi-ku.
 - Kerak bo‘lganda, uyg‘ondi. Misha Berlin ostonasida halok bo‘ldi, eng oxirida... Tolya hassaga tayanib yurib ketdi, institutda o‘qidi, uylandi, o‘g‘illi bo‘ldi va akasining xotirasini ulug‘lab, Misha deb ism qo‘ydi.
 - Misha Xorok! Mo‘min-qobil mavjudot! Pavlik yodingdami?
 - Arshanskiymi? Albatta, yodimda!
 - Dunyodagi eng pokiza, ajoyib inson! U bilan Jenya Rumyanseva men bilgan toza insonlar.
 - Nima, oramizda yo‘qlar tiriklardan yaxshi, demoqchimisan?
 - Orqasiga qaramay olg‘a ketish – havas qilgulik fazilat, lekin men Ninaning ko‘proq o‘tmishga e‘tibor qaratishini istardim.
 - Sen shunday deb hisoblamaysanmi? – so‘radim men.
 - Kimlar yo‘q bo‘lsa yaxshi, chunki ular yo‘q. Biz shuning uchun yaxshimizki, biz bormiz. Nahotki, biz ham o‘lmagan bo‘lsak, bir necha marta o‘lib-tirilmadikmi?
 - Ha, bu boshqa!
 - Albatta, bir marta o‘lish oson.
- Oyoqlarimiz ostida to‘kilgan xazonlar shitirladi: sariq, jigarrang, zar-ko‘ng‘irrang, qoramtilr, qizil tomirli yashil... Zarang daraxtingin yaprog‘i astagina uzilib, tishli g‘ildiragi bilan aylanib qarshimizdan uchib o‘tdi. Maysazor hali yam-yashil va yorqin, biroq jonsiz, muzlab yopishqoq bo‘lib qolibdi. Yigirma yil avval bizning xiyobonda ham barglar mana shunday shitirlardi va zumrad o‘tlar muzlab qolardi, kuz o‘zining qayg‘uli hidini shunday sochadi, bundan hech qayqqa qochib qutulib bo‘lmaydi! Biz venger nastarini ostidagi pastak o‘rindiqni tanladik, uning ertalabki ayoza to‘kilgan barglari binafsharang va paxmoqqina edi. Chuqur o‘rindiqqa o‘tirib, ortga egilgan suyanchig‘iga suyangach, yumshoq oromkursiga cho‘kib ketganday bo‘ldim. O‘tmish qarshisida batamom taslim bo‘lish uchun butun jismingni bo‘sashtirib yuboradigan mana shunday holat yetmay turgandi. Men o‘tgan uzoq yigirma yilni, o‘zim samimiyl va qiynalib sevgan barcha ayollarning qadrini tushirmoqchi emasman. Ammo men o‘zimni hech narsa qilolmasdim.

- Bu qanday bo'ldi, Petrov senga yoqmasdi-ku?
 - Yo'q, – dedi Nina xotirjam va shay turgandek, mendan bu savloni kutgandi.
 - Sen unga yoqasanmi?
 - Ma'lum bo'lishicha, ha... Mana bunday bo'ldi. Sen, ehtimol, eslarsan, Yurka Petrov qip-qizil yetim edi, uni buvisi tarbiyalagan. Biz endigina mакtabni tugatganda, buvim olamdan o'tdi. Bir o'zim yolg'iz qoldim. O'ttiz yettinchi yilda otamni qamashdi, oradan sak-kiz oy o'tgach, oyimni olib ketishdi... Ko'z yosh qilmasang ham bo'ladi, hammasi o'tib ketdi. Otamni vafotidan keyin oqlashdi, onam qaytdi, nafaqa puli oladi, Politexnika muzevida ma'ruza o'qyidi. O'shanda bir o'zim qoldim. Sizlar har tomona tarqalib ketdingiz va birdan Yurka Petrov paydo bo'ldi... Biz birga yashashga qaror qildik, har holda yengilroq...
 - Sen uni sevasanmi?
- Nina kului:
- Bu haqida yigirma yildan keyin so'raydimi? Bizning ikkita o'g'limiz bor, bittasini o'zing ko'rding, boshqasi pahlavon, Yurkadan bir bosh baland, yelkalari manavday! Energetikada to'rtinchi bos-qichga o'tdi, bilishimcha, meni buviga aylantirmoqchi bo'lib yuribdi.
 - Yurka ancha o'zgardimi?
 - Nima desam ekan? U kal bo'lib qoldi...
 - Sportni tashladimi?
 - Unga sportni taqiqlashdi, suyagida fosfor yetishmovchiligi bor ekan, esingdami, har doim biron joyi sinib qolardi. Hozir boshqa er-mak topdi: tilla baliqchali akvariumi bor. Yaqinda suvdagi kislorodni to'liq almashtirish yo'lini o'ylab topdi, shunaqa quvondiki! – Nina ehtiyotkorona menga qarab qo'ydi. – U zo'r muhandis, ikkita orden bilan taqdirlandi.
 - Ha, qoyil, ishonging kelmaydi: Yurka Petrov, sportchi, ixtirochi va birdan kal, tilla baliqchali akvarium...
 - Ha, ixtiolar, masalan, qoladi. Faqat u nimaiki o'ylab topgan bo'lsa, qat'iy sir tutiladi. U, to'g'ri, ajoyib muhandis, balki o'z so-hasida yagonadir... Nima uchun oldingda o'zimni oqlayveraman? Xudoyim-ey, Seryoja, nahotki, yana senga yoqib qolgan bo'lsam?
- Nina xuddi birinchi marta ko'rganday menga diqqat bilan uzoq tikildi.

– Men sendan bo'sa olishim mumkin, – xayolga cho'mib dedi u, – ammo bu qabihlik bo'ladi.

– Yurka Petrovga nisbatanmi?

– Yurkaga nima aloqasi bor? – u ajablanib qoshini chimirdi. – Senga nisbatan qabihlik bo'ladi. Kampir bilan o'pishib bo'larkanmi! Bu kechmisning go'zal xotirasini o'chirib tashlaydi.

O'tmish xotirasi! Men uchun hech narsa o'tmishga aylanganicha yo'q. Ninaga ham yangicha qarayotganim yo'q. U bilan bolalikda sayt qilgan Tiniq ko'l xiyoboni yigirma yil ortda qolmagan, u o'zim sezmgagan holda butun hayotim davomida hamroh bo'ldi. Yigirma yil – qisqa vaqt, bir nafaslik yo'l. Men bu haqida emas, boshqa narsani aytmoqchi edim:

– Sen o'tmish haqida gapiryapsan, xuddi ikkimizning o'tmishimiz borday...

– Biz tuyulishda o'pishmadik va kirish yo'lagida quchoqlashmaganmiz, bu kichik sirlarni senga boshqa birov o'rgatgan. Lekin men senga og'ir vaziyatga tushganingda yomon do'st bo'ldimmi?

– Og'ir paytlarda ajoyib do'st eding.

– Umuman, men og'ir paytlarda ajoyib do'st bo'lganman. Qolgan vaqtida – yomon qizcha. Men hammaga yoqishni istardim, har xil odamlar orasiga aralashib yurishni yoqtirardim, shunchaki, qandaydir dangasalarni harakatga keltirsam, derdim. Menga ba'zan faol hayotim qisqadek tuyular, shunda dadil intilardim. Sening o'ta mehribonchiligindan qo'rqardim. Sen bilan birga bo'lish – har doim namunali bo'lishni talab qiladi, bu esa mening qo'limdan kelmasligini bilardim, seni aldashni istamasdim.

– Shunisigayam rahmat.

– Yo'q, jiddiy aytypman, – dedi Nina. – Sen judayam to'g'ri, menga ochiq munosabatda bo'lning. To'g'ri, sen bir marta kitobcha o'g'irlading – bu ajoyib voqeа edi. Sen yanayam ko'proq bebosh bo'lganingda bormi!

– Bir-birimizga qaraganda so'qir ekanmiz! Ochiq, to'g'ri odam uchta institutda o'qidi, birontasiniyam tugatmadni va shiddat bilan bir ishga kirishdi, bu haqida o'ylamagandiyam.

– Bekorga o'ylamagan, – ta'kidladi Nina. – Esingdami, men qachonlardir aytgandim: nasrda yoz, deb.

– Ha, chunki senga bag'ishlab she'r yozolmadim... Jenya Rumyanseva meni yaxshi tushunardi, oradan o'n yil o'tib, menga qo'l cho'zdi.

- Bu nima deganing?
- U mening iztiroblarimni, kelajak oldidagi hayajonimni sezdi va o'n yildan so'ng uchrashamiz, deb kelishdik. Menga yordam kerak bo'larmikin, deb o'ylagan.
- Ha, Jenyaning yonida hamma chippakka chiqardi. U ibratli qiz edi!
- U inson edi! – dedim jah! bilan. – Oramizdag'i eng yaxshi inson!
- Undan kam bo'limgan odamlar ham bor, – dedi xotirjam Nina. – Hech bo'limganda, Yurka Petrov... Bilasanmi, u men uchun nimalar qilmadi? Institutda o'qiganimizda suyagini stadionda emas, Qozon vokzalida, qop tashib sindirdi. Keyin bir necha yil mutaxassisligi bo'yicha ish topolmay yurdi, xotini sabab ishga olishmadi. Nimalar qilmadi-ya! Hatto cherkovlardagi elektr tarmoqlarini ta'mirladi... Bilasanmi, soching oqargani yarashibdi!

Ninaning jozibali sirini anglab yetganday bo'ldim: u tabiiy edi, xuddi tuproq singari. Xiyobonda oqish plashch kiygan kishi o'yga cho'mib, biz tomonga yurib kelardi. Uning katta, qorachadan kelgan, hali yosh ko'ringan yuzini chuqur ajinlar qoplagan, jiddiy, qayg'uli va o'yga ko'milgandi. Qarshimizga kelganda katta boshini silkitib ajinlarini asta tabassumga aylantirdi. Uning salomiga alik oldim.

- Kim u? – qiziqib shivirladi Nina.
- Nahotki, tanimaysanmi?
- Xudoyim, mening sevimli artistim-ku!

Bu ta'sirchan ohangni, bu baxmal ko'zlar sir-sinoatini qanchalar yaxshi bilaman! Shunday qilib, do'stligimizning turli yillarda Nina butun qalbi bilan Konrad Veydt, Babochkin, Lemeshev larga intildi va hech qachon mening ismimni tilga olmadi.

Men tanishimni chaqirib, unga Ninani tanishtirib qo'ydim. Uchalamiz xiyobon chetidan ko'l tomonga qarab ketdik, tez orada ular nima haqidadir qizg'in suhabatga kirishib yonma-yon, oldinga o'tib ketishdi, men yarim qadamcha ortda qoldim.

Keyin yana biroz ortda qola boshladim. Nina ortiga qaramadi, men butunlay g'oyib bo'lsam ham, u payqamasdi. Xotiralarga ko'milgan kunda o'tmisht qaytishini bu qadar yorqin his etmagandim. Rahmat senga, do'stim, sira shubhalanmay, yoshligimning eng kuchi, alamli va quvonchli qiyofasini ko'rishga sabab bo'lding...

MUNDARIJA

BIRINCHI DO'STIM, BEBAHO DO'STIM (Hikoyalari)	3
Komarov	4
Aks sado	12
Qishki eman	29
Birinchi do'stim, bebaho do'stim	40
Yengilmas Arsenov	60
Qoyali bo'sag'a	74
Xazar naqshi.....	88
Uchuvchining halokai	108
TINIQ KO'LLAR (Qissa)	123

Rus adabiyoti durdonalari

Adabiy-badiiy nashr

YURIY MARKOVICH NAGIBIN

TINIQ KO'LLAR

Qissa va hikoyalari

Rus tilidan *Humoyun AKBAROV* tarjimalari

Nashr uchun mas'ul

Azimboy Boboniyozov

To'plab, nashrga tayyorlovchi

Saidjalol Saidmurodov

Muharrir *Saidjalol Saidmurodov* Badiiy muharrir *Behzod Zufarov*

Texnik muharirlar: *Lina Xijova, Yekaterina Stepanova*

Kichik muharrir *Matluba Salimova* Musahhih *Gulnora Pattaxova*

Kompyuterda tayyorlovchi *Gulmira Qulnazarovva*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158, 14.08.2009. Bosishga 2021-yil 28-oktabrda ruxsat etildi. Bichimi 60×90^{1/16}. Ofset qog'ozi. «New Roman» garniturasida

offset usulda bosildi. Sharqli bosma tabog'i 11,0.

Nashr tabog'i 10,89. Adadi 10000 nusxa. Buyurtma № 21-439.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20 Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.

e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz www.iptd-uzbekistan.uz

12109, 40 sōm



Y.M. Nagibin

«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-7605-9-2

9 789943 760592